


**ABDUG'OPIR QOSIMOV,  
SIDIQ XO‘JAEV**

# **CHET EL ADABIYOTI TARIXI**

**(o‘quv qo‘llanma)**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDUG'OPIR QOSIMOV,  
SIDIQ XO'JAEV**

## **CHEYT EL ADABIYOTI TARIXI**

**(o'quv qo'llanma)**

5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan

Oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishlari (o‘zbek va xorijiy tillar) talabalari uchun mo‘ljallangan mazkur qo‘llanma antik davrdan XVII asrgacha bo‘lgan adabiyot tarixini o‘z ichiga oladi. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida undagi materiallar quyidagi tartibda bayon etilgan:

- 1) Tarixiy – adabiy davr haqidagi ma’lumotlar;
- 2) yozuvchilarning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar;
- 3) badiiy asarlar yoki ulardan parchalar;
- 4) test savolliklari;
- 5) yozuvchilar va badiiy asarlarning alfavitli ro‘yxati.

Данное пособие включает сведения об истории литературы с античных времен по XVII века и предназначено для студентов филологических направлений вузов. Для удобства читателей материалы излагаются в следующем порядке:

- 1) Сведения об историко-литературном периоде;
- 2) сведения о жизни и творчестве писателей;
- 3) художественные произведения или отрывки из них;
- 4) тестовые вопросы;
- 5) алфавитный список писателей и художественных произведений.

This reader-manual includes information about the anthology of literary history from ancient times to the XVII century. It is intended for university students of philological directions. For the convenience of readers materials are presented in the following order:

1. Information about the literary- historic period;
2. Information about the life and work of writers;
3. Extracts from works;
4. Tests on the history of World literature
5. Alphabetical list of authors and works.

Taqrizchilar: **Dilmurod Quronov** – Andijon davlat universiteti

professori, filologiya fanlari doktori

**Akbarali Sabirdinov** – filologiya fanlari doktori, FarDU o‘zbek tili  
va adabiyoti kafedrasи dotsenti

*FarDU Ilmiy Kengashining 2016 yil 26 fevraldagи № 7-yig’ilishi qarori bilan  
nashirga tavsiya etilgan.*

# MUNDARIJA

KIRISH.....	10
Antik davr adabiyoti.....	12
Qadimgi yunon adabiyoti.....	17
Ma’budlar va qahramonlar haqidagi mif (asotir)lar.....	26
Homer.....	34
“Iliada” dostonidan parchalar.....	37
Hesiod.....	58
“Qahramonlar”.....	60
Ezop.....	65
Ezop masalalaridan namunalar.....	66
Alkey.....	69
Alkey ijodidan namunalar .....	71
Sapfo.....	75
Sapfo ijodidan namunalar.....	77
Esxil.....	82
“Zanjirband Prometey” tragediyasidan parcha.....	84
Sofokl.....	91
“Shoh edip” tragediyasidan parcha .....	93
Evripid.....	105
“Mediya” tragediyasidan parcha .....	107
Rim adabiyoti.....	126
Plavt.....	129
“Xumcha” komediyasidan sahnalar.....	131
Gorasiy.....	144
Gorasiy ijodidan namunalar .....	146
Vergiliy.....	150
“Eneida” dostonidan parchalar .....	153
Ovidiy.....	158
“Metamorfozalar (evrilishlar)” dostonidan parchalar.....	160
Yevro’pa o’rta asirlar adabiyoti.....	167
“Beovulf” dostonidan parcha.....	176
“Roland jangnomasi” dostonidan parchalar.....	179
Volfram fon Eshenbax.....	187
Gyunter de Broyn “Tristan va Izolda”.....	189
Shahar adabiyoti namunalari.....	199
Xalq balladalari.....	207
G’arbiy yevropa uyg’onish adabiyoti .....	210
Dante Aligeri. “Illohiy komediya” dostonidan parchalar .....	216
Petrarka.....	240
Petrarka sonetlaridan namunalar.....	241
Bokkachcho.....	247
“Dekameron” novellalar toplamidan parchalar.....	249

Fransua Rable.....	261
“Gargantuya va Pantagryuel” romanidan parchalar .....	264
Servantes.....	275
“Don Kixot” romanidan boblar.....	276
Uilyam Shekspir.....	286
“Hamlet” tragediyasidan sahnalar.....	288
Sonetlar.....	322
Jahon adabiyoti tarixi (G’arbiy Yevropa) bo'yicha test savollari.....	325
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	333
Yozuvchilar va badiiy asarlarning alfavitli ro'yxati.....	335

# СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	10
ЛИТЕРАТУРА АНТИЧНОГО ПЕРИОДА.....	12
Древнегреческая литература.....	17
Древнегреческие мифы.....	26
Гомер.....	34
Отрывок из поэмы Гомера “Илиада” .....	37
Гесиод .....	58
“Герои” .....	60
Эзоп.....	65
Басни Эзопа.....	66
Алкей.....	69
Стихотворения Алкея.....	71
Сапфо.....	75
Стихотворения Сапфо.....	77
Эсхил.....	82
Отрывок из трагедии “Прометей прикованный” .....	84
Софокл.....	91
Отрывок из трагедии “Царь Эдип” .....	93
Еврипид.....	105
Отрывок из трагедии “Медея”.....	107
РИМСКАЯ ЛИТЕРАТУРА.....	126
Плавт.....	129
Сцены из комедии “Горшок” .....	131
Гораций.....	144
Стихотворения Горация.....	146
Вергилий.....	150
Отрывки из поэмы “Энеида” .....	153
Овидий.....	158
Отрывки из поэмы “Метаморфозы” .....	160
Отрывки из поэмы “Скорбные стихотверения”.....	164
ЛИТЕРАТУРА ЕВРОПЫ СРЕДНИХ ВЕКОВ.....	167
Отрывок из поэмы “Беовульф” .....	176
Отрывки из поэмы “Песень о Роланде”.....	179
Вольфрам фон Эшенбах.....	187
Гюнтер де Брайн. “Тристан и Изольда”.....	189
Образцы городской литературы.....	199
Народные баллады.....	207
ЛИТЕРАТУРА ЗАПАДНОЕВРОПЕЙСКОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ.....	210
Данте Алигьери. Отрывки из поэмы “Божественная комедия”.....	216
Петrarка.....	240
Сонеты Петrarки.....	241
Боккаччо.....	247

Отрывки из “Декамерона” .....	249
Франсуа Рабле.....	261
Отрывки из романа “Гаргантюа и Пантагрюэль”.....	264
Сервантес.....	275
Главы из романа “Дон Кихот”.....	276
Вильям Шекспир.....	286
Сцены из трагедии “Гамлет”.....	288
Сонеты Шекспира.....	322
Тестовые вопросы по истории мировой литературы.....	325
Список литературы.....	333
Алфавитный список писателей и художественных произведен.....	335

# CONTENTS

Introduction.....	10
Ancient literature.....	12
Ancient Greek literature.....	17
Ancient Greek Myths.....	26
Homer.....	34
Extracts from Homer's poems "Iliad".....	37
Hesiod.....	58
"Heros".....	60
Aesop.....	65
Extracts from Aesop's fables.....	66
Alcaeus.....	69
Alcaeus poems.....	71
Sappho.....	75
Sappho's poems.....	77
Aeschylus.....	82
Extracts from "Prometheus Bound".....	84
Sophocles.....	91
Extracts from "Oedipis the King".....	93
Euripides.....	105
Extracts from "Medea".....	107
ROME LITERATURE.....	126
Plautus.....	129
Cistellaria.....	131
Horace.....	144
Horace's poems.....	146
Virgil.....	150
Extracts from "Aeneid".....	153
Ovid.....	158
Extracts from "Methamorphoses".....	160
Extracts from "Elegiac couplets".....	164
MEDIEVAL EUROPEAN LITERATURE.....	167
Extracts from "Beowulf".....	176
Extracts from The song of Roland.....	179
Wolfram von Eschenbach.....	187
Tristan and Isolde Gunter de Bruyn.....	189
Urban legends.....	199
Folk ballads.....	207
European Renaissance literature.....	210
Dante Alighieri Divine comedy.....	216
Petrarch.....	240
Petrarch sonnets.....	241
Boccaccio.....	247

Decameron.....	249
Francois Rabelais.....	261
Extracts from Gargantua and Pantagruel.....	264
Cervantes.....	275
Extracts from Don Quixote.....	276
William Shakespeare.....	286
Scenes from tragedy “Hamlet” .....	288
Sonnets.....	322
Tests on the history of World literature (Western Europe) .....	325
Alphabetical list of Authors and works .....	335

## KIRISH

Adabiyotning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni beqiyos ekanligi hech qanday isbot talab etmaydigan haqiqat. Shu bois yosh avlodga adabiyot tarixini o‘rgatish barbarida ularning ma’naviy dunyosini boyitish, yuksak umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik va mutoalaa madaniyatini oshirish talab etiladi. Hozirgi globallashuv sharoitida, axborot texnologiyalarining tez suratda taraqqiy etishi, xususan internet tizimining har bir xonadonga kirib kelishi ostonasida bo‘y ko‘rsatayotgan turli ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda ham so‘z san’atining o‘rni beqiyos. Shundan kelib chiqib, adabiyot bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarni zamonaviy talablar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish, o‘qitishning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish zarurati paydo bo‘lgan.

Oliy ta’lim tizimida asosan filologik yo‘nalishlar dasturiga kiritilgan “Chet el adabiyoti”, “Jahon adabiyoti”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti” singari fanlar bo‘yicha o‘zbek tilida darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish masalasi ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Mazkur fanlar bo‘yicha mukammal dasturiy qo‘llanmaning yo‘qligi bois o‘quv jarayonida turli noqulayliklar yuzaga kelmoqda. Hususan, ma’lum bir adabiy davr, yozuvchilar ijodi yoki badiiy matn bilan ishlashda talaba oldida bir qator muammolar paydo bo‘lmoqda.

Qo‘lingizdagи qo‘llanma – xrestomatiya yuqoridagi singari muammolarga barham berish maqsadida mazkur soha bo‘yicha ko‘p yillardan buyon talabalarga saboq berib kelayotgan mutaxassislarning tajribalaridan kelib chiqib yaratildi.

Chet el adabiyoti bo‘yicha mashg‘ulot olib boruvchi professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qulaylik yaratish maqsadida qo‘llanmadagi materiallarga quyidagicha tartib berildi:

1. Tarixiy-adabiy davr haqidagi ma’lumotlar (masalan, Yevropa Uyg‘onish davri adabiyoti);
2. Yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar (masalan, Sofokl ijodi)
3. Chet el adabiyoti bo‘yicha ijodkorlarning o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlari yoki ulardan parchalar

4. Mavzular bo'yicha nazorat savollari
5. Jaxon adabiyoti tarixi (G'arbiy Yevropa) bo'yicha test savollari
6. Adabiyotlar ro'yhati

Demak, talabalarning chet el adabiyoti bo'yicha o'nlab manbaalarga murojaat qilishiga o'rin qolmaydi. Lekin talabalarimiz faqat mazkur qo'llanma – xrestomatiya doirasidan chetga chiqmasinlar deyish ham noto'g'ri bo'lardi. Chunki qo'lingizdagi kitobda chet el adabiyoti bo'yicha talaba bilishi lozim bo'lgan minimal ma'lumotlar hamda ma'lum bir davrdagi adabiy jarayon haqida tasavvur bera oladigan asarlar yoki asarlardan parchalar jamlangan.

Qo'llanmadan nazariy, amaliy va seminar mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkin. Kitobning yaratilishida davlat ta'lim standartlari, chet el adabiyoti bo'yicha namunaviy o'quv dasturlari asos qilib olindi.

Talabalarda xorijiy mamlakatlar adabiy jarayoni haqidagi tasavvurni shakllantirish murakkab va mas'uliyatli vazifa sanaladi. Xorij adabiyotini yaxshi bilish, tahlil qila olish ko'nikmasi qiyoslash orqali o'zbek adabiyotini yanada teran his qilishga yordam beradi.

Qo'lingizdagi kitob ana shu mas'liyatli vazifani ado etish maqsadida yaratildi. Qo'llanmadagi yozuvchi-shoirlar haqidagi ijodiy-biografik ma'lumotlarga tartib berishda N.Tronskiy, A.Jirmunskiy, A.Alimuhammedov, O.Qayumov singari mualliflarning darslik va qo'llanmalariga murojaat qilindi.

Qo'llanma-xrestomatiya butunlay benuqson degan fikrdan yiroqmiz. Vaholanki, qo'lingizdagi kitob chet el adabiyoti bo'yicha rejalashtirilgan qo'llanmaning 1- qismi bo'lib, u haqida bildirilgan barcha fikr, mulohaza, takliflar mualliflar tomonidan keyingi qismda inobatga olinishi mumkin.

Chet el adabiyoti olamiga qiladigan sayohatingiz barchangiz uchun hayrli, mazmunli va samarali bo'lsin.

## **ANTIK DAVR ADABIYOTI**

“Antik adabiyot” atamasi Yevropadagi ikki quldorlik jamiyati – Yunon va Rimda yaratilgan badiiy ijod namunalariga nisbatan tatbiq etiladi. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Yunonistonda paydo bo‘lib, keyinchalik yuksak kamolot bosqichiga ko‘tarilgan bu adabiyot milloddan avvalgi III asrda Rim madaniyatining tarkib topishida katta rol o‘ynagan. Aslida Yunon va Rim adabiyotidan avval madaniyat beshigi bo‘lgan Sharq mamlakatlari, xususan, Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil kabi qadimgi davlatlarda badiiy ijod taraqqiy etgan. Fikrimiz isboti sifatida qadimgi Misr ehromlariga bitilgan falsafiy she’rdan parchani keltirish mumkin:

“Bugun ko‘zlarimda o‘lim:

Xuddi og‘ir xastalikdan tuzalayotgan,

Kasal odamday.

Bugun ko‘zlarimda o‘lim:

Xuddi mirra daraxti xididay,

Xuddi shamolli kunda qayiq yelkani ostida o‘ltirganday.

Bugun ko‘zlarimda o‘lim:

Xuddi erkaklar urushdan qaytayotganda,

Yuraverib ochilgan so‘qmoqday.

Bugun ko‘zlarimda o‘lim:

Xuddi ko‘kdan choyshabni olganday,

Unda inson ilgari tasavvurida ham bo‘lmagan narsaga erishadi.

Bugun ko‘zlarimda o‘lim:

Xuddi uzoq yillik asirlikdan so‘ng,

O‘z uyini ko‘rmoqchi bo‘lgan odamning istagiday.”

Biroq, Yevropa xalqlari madaniy taraqqiyot yo‘lida asosan Yunon-Rim madaniyati bilan aloqador bo‘lganliklari bois, shu xalqlar bunyod etgan madaniy merosni eng qadimiy deb hisoblaganlar. Shu bois “antik” atamasi (lotin tilida

“antiquus” – “qadimgi”) Yevropaning eng qadimgi madaniy yodgorliklari, jumladan adabiyotiga tatbiqan qo‘llanib kelinadi.

Demak, antik adabiyotning tarixiy chegarasi miloddan avvalgi VIII-VII asrdan milodiy V asrgacha bo‘lgan 1200 yillik davrni o‘z ichiga oladi.

Yunon adabiyoti Yevropa xalqlarining qadimiy adabiyotidir. Bu bilan qadimgi Sharq adabiyoti unsurlari Yunonlarga hech qanday ta’sir o‘tkazmagan degan fikrdan yiroqmiz. Yunon folkleri qo‘snilari folkleri ta’sirida boyigan. Mana shu folklar zamirida paydo bo‘lgan Yunon adabiyoti mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Hozir bizga ma’lum bo‘lgan badiiy shakllarning ko‘pchiligi, uslub vositalarining bir qanchasi Yunonlarning kashfiyoti sanaladi.

Rim adabiyoti Yunon adabiyotidan keyin rivojlandi. U Yunon adabiyoti tajribalariga tayangan holda taraqqiy etdi. Shu bilan birga, antik jamiyatning keyingi bosqichlarida paydo bo‘lgan yangi muammolarni xal etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Yevropa adabiyotining yuzlab, minglab namunalari unutilib, faqat mutaxassislarining mulkiga aylanib qolgani holda Homer dostonlari, Yunon dramasi namunalari, buyuk Rim shoirlarining asarlari hamon badiiy qimmati va estetik ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur asarlarning jozibasi ulardagi yuksak mahoratdagina emas, balki shu adabiyotni yaratgan xalqlarning his-tuyg‘ulari va orzu-umidlarining ifoda etilganligida hamdir. Qadimgi Yunon-rim adabiyotida insoniyatning asriy muammolari qalamga olingan. “Ular botirlik jasoratini, kurash ishtiyoyini, vatan mehrini, insonning qudratini kuylaganlar, ulug‘laganlar, pastkashlik, qo‘rqaqlik, sotqinlik va shu kabi chirkin illatlarga nafrat ko‘zi bilan qaraganlar”<sup>1</sup>. Shu bois uzoq o‘tmishda yaratilgan bo‘lishiga qaramay, Yunon-rim adabiyoti namunalari turli tarixiy davrlarda ham jozibasini yo‘qotmay hammaga manzur va ma’qul bo‘lib kelmoqda.

Yevropa xalqlari o‘z taraqqiyotlari davomida bir necha bor Yunon-rim san’ati va adabiyotiga murojaat etib, ular asosida o‘zlarini bezovta qilgan tuyg‘u va

---

<sup>1</sup> Антик адабиёт тарихи – Т.:Ўқитувчи, 1969, -Б.6.

g‘oyalarni hal etishga uringanlar. Ma’jusiylik kuchli ta’qib ostida bo‘lgan o‘rtalarda ham antik mavzular Yevropa adabiyotidan chiqib ketgan emas.

XIV asrda Italiyada tug‘ilib, keyin Yevropaning boshqa mamlakatlariga yoyilgan Uyg‘onish davrining ulug‘ allomalari antik dunyo ilm-u fani, san’at va adabiyoti, falsafiy ta’limotlari ko‘magida bashariyatni jaholat uyqusidan uyg‘otishni maqsad qilganlar. Gumanistlar antik zamon yodgorliklarini to‘plash va nashr etishga katta e’tibor qaratdilar. “Uyg‘onish” so‘zining dastlabki ma’nosi ham “Qadimgi ma’daniyatni tiklash” demakdir.

XVII asrdagi Yevropa klassitsizm adabiy oqimi esa antik dunyo badiiy ijodiga taqlidan paydo bo‘ldi va rivojlandi. Xususan, Yevropa sahnasida 100-150 yil davomida antik davr tragediyalari mavzusi asosiy o‘rin egalladi. Mazkur davr ijodkorlari antik adabiyoti namunalari va adabiyot nazariyasidan (ayniqsa Arastuning “Poetika” asariga katta e’tibor qaratilgan) o‘z adabiy konsepsiyanini yaratishda ijodiy yondashib unumli foydalanganlar. Klassitsizm dramasida keng tatbiq etilgan “uch birlik” (zamon, makon, harakat birligi) qonuni aynan shunday yondashuvning natijasidir.

XVIII asrning 2-yarmidan boshlab, antik adabiyotga bo‘lgan munosabat bir munkcha o‘zgardi. Mutloq hokimiyatga qarshi bosh ko‘targan burjua rahnamolari antik davr adabiy, tarixiy va falsafiy yodgorliklaridan o‘zlarini qizqtirgan ozodlik va erkinlik g‘oyalarini topdilar. Yunon polislari va Rim respublikasining buyuk yoki afsonaviy namoyandalari siymosida respublika tuzumining ideal obrazlarini ko‘rganlar, xususan, Plutarx va Tit Liviy, respublika tuzumi uchun kurashchilar Demosfen va Sitseron, imperatorlar istibdodini fosh qilgan Tatsit va Lukan hamda Rim satiriklari shular jumlasidandir.

Fransuz inqilobi davridagi (1789-1794) adabiyot, teatr xatto xalq amaliy san’ati ham antik libosga burkangan edi. Fikrimizni inqilob adabiyotini yorqin vakili Andre Sheneni quyidagi so‘zlari tasdiqlaydi: “Qadimgilarning bo‘yoqlardan foydalaniib, mash’alalarimizni ularning siyosiy gulxanlaridan alangalatamiz va yangi ruh bilan yo‘g‘rilgan antik she’rlarni yaratamiz”.

Xullas, yangi Yevropa sivilizatsiyasiga qadimgi Yunon va Rim madaniyati zamin tayyorlagan. Ko‘plab buyuk so‘z san’atkorlari, xususan, Dante, Petrarka, Mikelanjelo, Shekspir, Milton, Bayron, Rable, Kornel, Rasin, Moler, Volter, Lessing, Gyote va Shillerlar antik davrning g‘oyalari, badiiy obrazlarini o‘z asarlarida qo‘llaganlar, yangicha talqin berganlar.

Buyuk rus adib va tanqidchilari Pushkin, Gogol, Belinskiy, Turgenev va Tolstoy ham antik dunyo adabiyotini yuksak baxolaganlar, xususan Belinskiy do‘stlaridan biriga yozgan maktubida qadimgi Yunon va Rim shoirlariga yuksak baho berib, quyidagicha fikr bildiradi: “Iliada”...men uchun shunday bir xuzur manbaiki, uning kuchidan ba’zan allaqanday totli qijnoqda behol bo‘lib qolaman... Tushunmagan ko‘p narsalarimni Plutarx tufayli tushunib oldim. Yunon va Rim zaminida eng yangi bashariyat ulg‘aygan ekan.

Markaziy Osiyo antik dunyo bilan ko‘p asrlar davomida madaniy-adabiy aloqada bo‘lganligi tarixiy, ilmiy manbalardan ma’lum. O‘z vaqtida ellinizm madaniyati yurtimiz madaniyatining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan bir qatorda Yunon-Baktriya hukmronlari davrida Sharq xalqlarining faol ishtiroki bilan Sharqiy ellinizm madaniyati vujudga keldi. “Biz hozirgi zamonda yurtimizning ming-ming yillik tarixini, tamomila yo‘qolib ketgan ba’zi bir adabiy asarlarimiz (“To‘maris”, “Shiroq”, “Zarina va Strangiya”, “Zariadr va Odatida” dostonlari) izlarini antik zamonda o‘tgan Yunon-Rim tarixchilari(Gerodot, Polien, Diodor, Xares) asarlarida topib olamiz”<sup>2</sup>, - deb yozadi o‘zbek adabiyotshunos olimi N.M.Mallaev.

X-XI asrlarda boshlangan madaniy rivojlanish natijasida ilm-fanda katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda jahon madaniyatini rivojlanishiga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shgan buyuk allomalar Al-Xorazmiy, Abunasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Aburayxon Beruniy faoliyat ko‘rsatdilar. “Ikkinchi Aristotel” yoki “Al muallim as-soniy” (“ikkinchi muallim”) nomini olgan Forobiy, “Uchinchi Aristotel”, “fan sardori”, “falsaфа sultonи” nomlarini olgan Ibn Sino Yunon

---

<sup>2</sup> Н.М.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент, 1963, 41-бет

olimlari, faylasuflarining ilmiy, falsafiy asarlariga tavsirlar yozib, ularni sharhlab berganlar.

Sharq va G‘arbni birlashtirmoqchi bo‘lgan Aleksandr Makedonskiy haqida ko‘plab tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar yaratilib, uning shaxsiyati, insoniyat tarixidagi o‘rni haqida turlicha talqinlar berilgan. Hazrat Navoiy qalamiga mansub “Saddi Iskandariy” dostonida shoh Aleksandr timsoli o‘ziga xos, takrorlanmas, yangicha talqil qilinadi. Daho shoir Iskandar obrazi orqali zamondoshlarini qiynayotgan, hayajonga solayotgan ma’naviy-ahloqiy muammolarga e’tiborni qaratadi.

XX asrning 30-40 yillaridan boshlab O‘zbekistonda antik adabiyotni o‘rganish, mazkur davrda yashab ijod etgan ijodkorlarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlari jonlandi. Xususan, Oybek, A.Alimuhamedov, H.Sulaymonovlar tomonidan qadimgi Yunon adabiyoti tadqiq etila boshlandi. SHundan so‘ng, antik davr adabiyotidan o‘zbek tiliga qilingan dastlabki tarjimalar paydo bo‘la boshladi. Bu borada Oybek, Asqad Muxtor, Erkin Vohidovlar samarali faoliyat ko‘rsatdilar. Mohir tarjimon Q.Mirmuhammedovning ko‘p yillik mehnati natijasida Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari o‘zbek tiliga o‘girildi.

Qadimgi Yunon va Rim davri ijodkorlari, faylasuflarining asarlaridan qilinayotgan tarjimalar salmog‘ining oshib borayotganligi antik davr madaniyatiga bo‘lgan qiziqishning xali hamon yuqori ekanligidan dalolat beradi. Umuminsoniy badiiy merosning ajralmas qismi bo‘lgan antik adabiyotda tilga olingan ko‘plab mavzu va muammolar hozir ham dolzarb bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

## **Qadimgi Yunon adabiyoti**

Adabiyot xalq hayotining ko‘zgusidir. Shuning uchun antik adabiyotni o‘rganishni ham uni yaratgan xalqlar hayotini o‘rganishdan boshlash lozim bo‘ladi. Bu xalqlar qadimgi Yunonlar va rimliklardir.

Miloddan oldingi II mingyillikda Yunoniston hududi va Egey dengizidagi orollarda ikki yirik markazlar nomi bilan Krit-Mikena deb atalgan, qadimgi madaniyat paydo bo‘lgan. Qadigi Yunonlarning tasavvuri bo‘yicha “muqaddas” Olimp tog‘iga makon qurban ma’bud va ma’budalar haqidagi miflar ham aynan shu davrda yaratilgan. Krit-Mikena adabiyotining birinchi davri xalq og‘zaki ijodining uzoq asrlarini qamrab olgan bo‘lib, m.o. IX asrda yakunlanadi. Ushbu davr ijodi namunalari bizgacha etib kelmagan va u haqidagi ba’zi ma’lumotlarni keyingi davr adabiyotidan, Qadimgi Misr va Xett hujjatlaridan (Kichik Osiyoga hujum qilgan qabilalarning nomlari “*axayvasha*” va “*danauna*” tarzida berilgan bo‘lib, Homerning eposlarida ular Yunonlarning “*axey*” va “*danay*” qabilalari deb ataladi) topish mumkin. Arxaik davrda bir necha asrlar davomida shakllangan va m.o.VI asrda yozib olingan Homerning “*Illiada*” va “*Odisseya*” dostonlari to‘laligacha etib kelgan yagona namunalar hisoblanadi. 10 yil davom etgan Troya urushi va undan keyingi o’n yillik voqealari aks etgan bu dostonlar epik qo‘shiqlar va rivoyatlar asosida maydonga kelgan. Agar *epos* – insonni o‘rab turgan olam va undagi voqealar haqida hikoya qilsa, *lirika* shaxsning ichki dunyosini hamda shoir va lirik qahramonning kechinmalarini ochib beradi. “Lirika” atamasi torli cholg‘u asbobi lira nomidan kelib chiqqan bo‘lib, “musiqa jo‘rligida ijro etilgan she’r” degan ma’noni anglatadi. Lekin, bu atama ancha keyin – m.av. III-II asrlarda Aleksandriya olimlari tomonidan iste’molga kiritilgan. Unga qadar “*Melika*” (*melos-qo‘shiq*) atamasi torli cholg‘u, birinchi navbatda 7 torli lira jo‘rligida ijro etiladigan qo‘shiqlarni ifoda etgan. Qadimgi Yunon she’riyatida lirikaning ikki asosiy turi shakllangan bo‘lib, bular yakka xonanda tomonidan ijro etiluvchi – *monodik lirika* va ko‘pchilik tomonidan kuylanuvchi *xor lirkasi*. Shoir Pindarning asarlari *xor lirkasining* ilk namunalari bo‘lsa, *monodik lirkani* Sapfo

va Anakreont she'rlarida kuzatish mumkin. Yunonlar lirik she'riyatni qo'shiq, musiqa va hatto raqs bilan bog'liq ravishda tasavvur qilganlar. Asta-sekin lirikaning *yamb* va *elegiya* deb atalgan turlari faqat o'qishga moslashtirilgan janrga aylanib bordi.

Qadimgi Yunon she'riyatida qofiya bo'lмаган. Lirik asarlar ohangdorligini ta'minlovchi yagona vosita vazn bo'lган. Shu bois poeziyada vazn turlari takomillashib borgan. Alkey va Sapfo singari shoirlar nomi bilan ataluvchi vazn turlari jahon she'riyatidan abadiy o'rinnegallagan.

Miloddan oldingi VII-VI asrlar she'riyatida shaxsning fikr va o'ylarini diniy-axloqiy yondashuv asosida talqin etish kuchli edi. M.o. VI asrda Ioniyada bayoniy uslubdag'i proza dunyoga keldi. Tarixiy va oddiy kishilar obrazlari aks etgan novellalar va Ezop nomi bilan bog'liq masallar yaratildi. Afina madaniyatining rivojlangan davri m.o. V-IV asrlarga to'g'ri kelib, dramatik janrlar, ayniqsa, tragediya rivojlandi. Afina demokratiyasining qaror topishi davrining yirik shoiri Esxil o'z tragediyalarida ijtimoiy va axloqiy masalalarni qalamga olgan bo'lsa, Sofokl erkin inson timsolini yaratdi. Komediya an'anaviy shakllarni saqlagani holda, yangi ijtimoiy-satirik mazmun bilan boyidi, taraqqiy etdi. Bu davrda Aristofan asarlari Yunon siyosiy va madaniy hayotida o'tkir satira sifatida maydonga chiqdi. Individuallashgan personajlar bilan bir qatorda umumlashma hajviy obrazlar paydo bo'ldi. Miloddan oldingi II asrda Rim istilosi natijasida Yunoniston madaniy hayoti tushkunlikka yuz tutib, faqatgina milodning birinchi asriga kelib, jonlanish paydo bo'ldi va IV asrda qadimgi Yunon adabiyoti inqirozga uchradi.

Qadimgi Yunon adabiyoti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Krit-Mikena yoki Egey madaniyati(miloddan oldingi 2 ming yillikdan miloddan oldingi XII asrgacha).
2. Homer davri adabiyoti(m.o. IX-VIII asrlar).
3. Yunon adabiyotining arxaik davri(m.o. V asr boshlari gacha).
4. Antik davr – m.o. V-IV asrlar. Ellin polislarining gullab-yashnash davri.

5. Ellinizm davri(ellin jamiyati adabiyoti) – m.o. VI-I asrlar.
6. Rim imperiyasi davridagi Yunon adabiyoti – m.o. I asr oxiridan.

Qadimgi Sharq va Yangi davr Yevropa adabiyotini bir-biri bilan bog‘lab turuvchi antik davr, Yunon adabiyoti o‘z ahamiyati jihatidan jahon adabiyotining bir bo‘lagi hisoblanadi.

**Qadimgi Yunon miflari.** Barcha xalqlarning adabiyoti singari Yunon adabiyoti ham og‘zaki xalq ijodi zaminida paydo bo‘lgan. Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo‘lsa ham, shularga asosan qadimda Yunon xalqining anchagina boy og‘zaki adabiyoti bo‘lganligini aniqlash mumkin. Ibtidoiy jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi afsona va asotirlar yig‘indisi qadimgi Yunon mifologiyasi tashkil etadi.

Antik davr madaniyatining, jumladan, Yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri beqiyosdir. Yunon xalqining miflari umumbashariy madaniyatning asoslaridan biri bo‘lib, u hozirgi zamon kishisining tasavvuri va tafakkuri tarziga chuqur kirib borgan. Mif(Yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq xalq og‘zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo‘lgan, voqelik(olam)haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlardir. Mifologiya ko‘plab miflardan tashkil topadi. Miflar olam va odam haqidagi hikoyalar bo‘lsa-da, ularni tom ma’noda so‘z san’ati hodisasi deb bo‘lmaydi. Ular qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli bo‘lib, miflar vositasida olam sir-sinoatlari (olamning yoki insonning yaratilishi, quyosh chiqishi va botishi, shimol esishi va momaguldirak sababi va h.)ni bilishga intilganlar. Deylik, Yunonlar chaqmoq chaqishini Zevsning, dengizdagi dahshatli dovullarni Poseydonning g‘azablangani bilan izohlaganlar, inson taqdiridagi turfa evrilishlarda ilohlarning aralashuvini ko‘rganlar.

Qadimgi Yunon mifologiyasi erda hayotning paydo bo‘lishini, tabiatdagি hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga bo‘lgan urinishi sifatida, inson o‘z atrof-muhitidagi o‘rnini aniqlashga ojiz bo‘lgan davrda paydo bo‘lgan edi. Miflar yaratilishining o‘zi insonning ijodga va o‘z-o‘zini bilib olishga qo‘ygan ilk qadami edi. Tadrijiy suratda Yunon zaminining turfa viloyatlarida vujudga kelgan

ayrim asotirlardan qahramonlar va ularga homiylik qilgan ma’budlarning taqdirlari haqida butun boshli turkumlar tarkib topgan. Yurt kezib yurgan aed – qo’shiqchilar tomonidan ijro etilgan barcha afsonalar, madhiyalar va qo’shiqlar zamonlar o’tishi bilan Homer, Hesiod va boshqa ko’plab shoirlar tomonidan dostonlarga aylantirilgan. Eramizgacha V asrda yashagan qadimgi buyuk Yunon shoirdramaturglari – Esxil, Sofokl, Evripidlar o‘z tragediyalarini xudolar va qahramonlar haqidagi qadimgi asotirlar mazmuniga asoslanib yaratgan edilar.

Zamonlar o’tishi bilan olam haqidagi mifologik tasavvurning o‘rnini ilmiy bilimlarga va tabiat hodisalarini o’rganish natijalariga asoslangan qarashlar egalladi. Ilgari sirli tuyulgan ko’plab hodisalar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Biroq shunga qaramay, miflar yo‘qolib ketmadi, ular o‘z hayotini adabiyotda davom ettirdi. Zevs, Prometey, Gerakl va boshqa qadimgi miflarning qahramonlari, turli davr yozuvchilarining asarlarida umrlarini davom ettirdilar.

**Qadimgi Yunon dramasi.** Miloddan oldingi VII-VI asrda shakllangan Yunon quldorlik jamiyati V asrda o‘zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. V-IV asrlar adabiyoti Afina shahri joylashgan viloyat nomi bilan “Yunon adabiyotining attika davri” deb ataladi. Afina davlatini boshqargan Perikl(500-429) poytaxtga butun Yunonistondan faylasuf, olim, shoir, xaykaltaroshlarni to‘pladi.

Taraqqiyot bosqichi mobaynida barcha xalqlar qo’shiq aytib, raqs tushib bajaradigan turli rasm-rusumlar bo‘lgan. Drama adabiyotning alohida turi sifatida antik davrda shakllandi. Dramada asosiysi hikoya yoki bayon qilish eias, harakat bo‘lgan (Yunoncha drama so‘zi “harakat” ma’nosini bildiradi). Dramada ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro suhbatlar – dialoglar, munosabatlar, ularning xatti-harakatlari, qarama-qarshiliklar va ularning echimi tasvirlanadi.

Yunon dramaturgiyasining barcha turlari – tragediya, komediya, satirlar dramasi dehqonlarning homiylari bo‘lgan ma’budalar Demetra va Kora sharafiga kuylagan qo’shiqlar hamda may, shodlik va hosildorlik ma’budi, taka qiyofasidagi Dionisga bag‘ishlangan marosimlar asosida maydonga kelgan. Afsonalarda hikoya qilinishicha, Dionis Zevs bilan Semela degan qizdan tug‘ilgan. Dionis o‘zining odamsifat, ammo dumdor, echki tuyoq hamrohlari – satirlar bilan birga dunyonni

kezib yurgan paytlarida, insonning og‘ir va g‘amgin hayotini ko‘radi-da, odam bolasini baxtiyor va xushnud qilish niyatida, ma’budlar taomi amvroziyani keltirib bermoqchi bo‘ladi. Ma’budlar buni sezib qolgach, Dionis amvroziyani erga ko‘mib qochadi. Birmuncha vaqtidan so‘ng bu yerda tok navdalari unib chiqadi, uning mevalari odamlarga baxt va shodlik keltiradi. Bundan qahrlangan Zevs, o‘g‘lini Olimp tog‘idan badarg‘a qiladi. Erda Dionis og‘ir musibatlar chekib, vafot etadi. O‘g‘lining o‘limidan so‘ng Zevs uning gunohlaridan kechib, Dionisni ma’budlar qatoriga qabul qiladi. Dionis odamlarga har yili ikki marta o‘z sharafiga bayram o‘tkazishni vasiyat qiladi. Shundan e’tiboran Dionis hosildorlik, may, shodlik va sarxushlik rahnamosi bo‘lib qoladi. Ularga bag‘ishlangan maqtov qo‘shiqlar – difiramblarni kuylovchi xorga shoir Fespis birinchi akterni qo‘shgandan so‘ng u dramatik janrga aylandi. Tragediya prolog (ekspozitsiya)dan boshlangan va orxestrga xor chiqib, tomoshabinlarga voqeanning mohiyatini aytib bergen. Shundan keyin dialogik qismlar – akterning korifey (xorning rahbari) bilan yoki ikki-uch akterning suhbatlari bilan davom etgan va “eksod” (xotima) bilan yakunlangan. Aristotelning yozishicha, tragediya “trago” va “oide” so‘zlaridan kelib chiqib, “taka qo‘shig‘i” ma’nosini anglatadi. Yunon shoir-dramaturglari, jumladan – Esxil, Sofokl, Evripidlar ham o‘z tragediyalarini xudolar va qahramonlar haqidagi qadimgi asotirlar mazmuniga asoslanib yaratgan edilar.

Bayramlardagi hushchaqchaq hazillardan “comos” va “oide” (komediya), ya’ni masxarabozlar qo‘shig‘i paydo bo‘lgan. Keyinroq tragediya va komediya o‘rtasida “satirlar dramasi” shakllandi. Bu janrning ijodkori m.o. V asrda yashagan shoir Pratim xisoblanadi.

Dramaning barcha turlari diniy marosimlardan paydo bo‘lganligi sababli, qadimgi Yunonlar bularning barchasiga yuksak e’tiqod bilan qaraganlar. Teatr tomoshalari davlat tasarrufidagi muhim siyosiy hamda tarbiyaviy tadbirlardan biri sanalgan. Ikkinchidan, Dionisiy marosimlari bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ushbu tomoshalar yiliga uch marotaba o‘tkazilgan va bir necha kun davom etgan. Yunonlar bu marosimlarga shunchaki bir ermak deb emas, balki muhim diniy bayram deb qaraganlar. Qadimgi Yunonistonda barcha o‘yinlar singari, teatr

tomoshalari ham musobaqa shaklida o'tkazilgan. Tragediyanavis shoirlar mazmunan bir-biri bilan bog'liq 3 ta tragediya va 1 ta satirlar dramasini xakamlar hay'atiga taqdim etganlar. Komediyanavis shoirdan faqat bitta asar talab etilgan.

Yunon adabiyotining barcha janrlari kabi, tragediyaning mavzulari ham asosan mifologik afsonalardan olingan. Agarda dastlabki davrlardan bu mavzular Dionis haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq bo'lган bo'lsa, keyinchalik shoirlar boshqa ma'budlar va qahramonlar haqidagi afsonalarga murojaat qila boshlaganlar. Biroq, shu bilan birga, tragediya mualliflari mavzu tanlaganlarida ham, faqat zamona talablariga hamohang miflarni olib, ularni birmuncha o'zgartirib, moslashtirib, shular misolida o'z davrlarining muhim masalalarini hal etishga intilganlar, mifologik qahramonlarning kurash va to'qnashuvlari, ularning xatti-harakatlari o'sha davr tomoshabinlari uchun axloq va odobning namunasi, ijtimoiy xulqning andazasi sifatida talqin etilgan; ana shu afsonaviy qahramonlarning qilmishlari timsolida tragediyanavis shoirlar o'z zamondoshlarini yuksak ma'naviylik, vatanga sadoqat, insoniy burch g'oyalarida tarbiyalashni ko'zlaganlar.

**Yunon tragediyalarining tuzilishiga doir.** Yunon tragediyasiga xos maxsus atamalar jahoning hamma tillarida o'z holicha qoldirilib kelinmoqda. Bu ularning ilmiy aniqligini saqlaydi. O'zbek tilida ham ular tarjima qilinmay, asosan o'z holicha olindi.

*Parod* va *stasim* – asardagi asosiy qismlarning chegaralari hisoblanib, biri – xorning harakat maydoniga – sahnaga kiraverishidagi, biri – unga kirgandan keyingi ashulasidir.

*Epsodiy* – personajlarning dialoglari, ya'ni voqealar qismi, unda xor ham bir personaj sifatida ishtirok etadi.

*Prolog* – paroddan oldin keladigan ibtido. Bu atama, ma'lumki, hozirgi adabiyotda ham o'z ma'nosida qabul qilingan.

*Eksod* – hozir qo'llaniladigan epilogga yaqin, xotima ma'nosida. Antik eksoddan keyin xor ashula aytmaydi.

Xorning ashulalari odatda *strofa* va *antistrofaga* bo‘linadi, bularning shakliy ayirmasi yo‘q, faqat ashula qismlarini bildiradi. Ashulaning so‘nggi qismi *epod* deb ataladi.

**Qadimgi Attika komediyasi. Aristofan (m.o. 445/446-385 y.).** Miloddan oldingi V – IV asrlar butun Yunoniston, xususan, Afina davlati uchun kuchli ijtimoiy va madaniy taraqqiyot davri bo‘lgan. Ammo, shu bilan birga, demokratiya tuzumining ziddiyatlari, ayrim ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar keskinlashib bordi. Dastlabki komediyanavis shoirlar o‘zlarining asarlarida ana shu nuqsonlarni fosh etishga, kulgi va satira yordamida ularni bartaraf etishga intilganlar. Shunday qilib, “Qadimgi Attika komediyasi” deb atalmish maxsus adabiy oqim maydonga keldi. O‘tkir siyosiy jo‘shqinlik, demokratiya dushmanlariga qarshi murosasizlik – qadimgi attika komediyasining asosiy xususiyatidir. Mazkur janrda ijod qilgan ko‘pdan-ko‘p shoirlar orasida faqat uch kishining nomi bizga ma’lum. Bular – Kratin, Evpolid va Aristofandir.

Qadimgi Yunon komediyanavis shoirlari orasida bir necha asarlari bizga qadar etib kelgan yagona shoir Aristofandir. Uning ijodida komediyaning mazmun ko‘لامи benihoya kengaydi, shakliy jihatdan yuksaklikka ko‘tarildi. Aristofanning hayoti haqida bizgacha juda kam ma’lumot etib kelgan. Shoir taxminan miloddan avvalgi 445/446 yili Attika viloyati yaqinidagi Egina orolida tug‘ilgan. U o‘zining adabiy faoliyatini juda erta boshlagan va 20 yoshga yetar-yetmas komediyanivislar musobaqasida qatnashib ikkinchi o‘rinni egallagan. Qirq yilcha davom etgan ijodiy faoliyati davrida qirqdan ortiq asar yozgan. Aristofanning komediyalaridan 11 tasigina u yoki bu darajada saqlanib qoltingan bo‘lib, ular ijtimoiy-tarixiy davr bilan bog‘liq ravishda uch davrga bo‘linadi:

a) Birinchi davrda (427-421y, Peloponness urushining birinchi bosqichi) – urushlardan charchab, ruhiy umidsizlikka tushgan oddiy dehqon, o‘zi bilan o‘zi sulh tuzib, tinch hayot nashidasini surishi haqidagi “Axarnliklar”(425); davrning taniqli siyosatchilaridan biri Kleon satira qilingan “Chavandozlar” (424); qarz botqog‘idan qutilish uchun sofistlardan ta’lim olgan qahramon haqidagi “Bulutlar”

(423); sudlashishni yaxshi ko‘rvuchi qariya haqidagi “Arilar” (422); qo‘ng‘izda Olimp tog‘iga chiqib, kuch bilan tinchlik ma’budasini erga olib tushgan musallas paz to‘g‘risidagi “Tinchlik” komediyalari yozilgan.

b) Ikkinchi davr (414-405 yy.) 421-yildan 414-yilgacha fanga hech qanday ma’lumot ma’lum emas. Bu yillarda asosan ijtimoiy-satirik mavzularda komediyalar yozilgan bo‘lsa kerak, deb taxmin kilish mumkin. Ikkinchi davrda osmon va yer o‘rtasida qushlar bilan hamkorlikda shahar qurgan ikki afinalik haqidagi “Qushlar” (414), ayollarning urushga qarshi isyoni haqidagi “Lisistrata” (411), Evripid kulgu ostiga olingan “Ayollar Fesmoriy bayramida” (411) va yana Evripid tanqid qilingan “Qurbaqalar” (405) komediyalari yozilgan.

v) Uchinchi davr (392-388 y)da asosan maishiy, utopik ideallar ulug‘langan komediyalar yozilgan, ularda dialoglar xordan ustunlik qiladi. “Ayollar xalq yig‘inida” (392), “Boylik”, “Plutos” (388) komediyalari shunday asarlar sirasiga kiradi.

Aristofanning ijodi asosan uzoq davom etgan urushlar davriga, buning natijasida Afina demokratik davlatining to‘xtovsiz emirilib, inqrozga uchray boshlagan paytiga to‘g‘ri kelgan. Bu paytdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyotlar, ma’naviy, aholoqiy, falsafiy muammolarning keskinlashuvi shoir ijodida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Uning asarlaridagi ajoyib dramatik holatlar, qahramonlar qiyofasini tavsiflash mahorati, komediyalariga sochib yuborilgan hazil-mutoyibalar, favqulotda pichinglar, oxori to‘kilmagan qochiriqlar, beqiyos so‘z o‘yinlari, shuningdek barcha asarlariga xos sodda, tiniq, o‘ynoqi va muxtasar til, rohatbaxsh lirik parchalar – Aristofanning yuksak mahoratidan darak beradi. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning ta’kidlashicha, Aristofan – eng oljanob, g‘oyat musaffo va qadimgi Yunonistonning eng so‘nggi ulug‘ shoiri bo‘lgan.

1954- yili Jahon Tinchlik Kengashining qaroriga binoan Aristofanning 2400 yilligi nishonlandi.

## **Qadimgi yunon adabiyoti bo'yicha nazorat savollari:**

1. Antik adabiyot deganda qanday adabiyot tushuniladi?
2. Yunon adabiyoti qanday davrlarga bo'linadi?
3. Mifologiya yunon adabiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
4. Qadimgi Yunon yozma adabiyotining ilk vakili va uning asarlari haqida nimalar bilasiz?
5. Drama janrining paydo bo'lishida Dionis marosimlari qanday ro'l o'ynagan?
6. Qadimgi Yunonistonda o'tkazilgan dramatik shoirlar musobaqalari haqida nimalarni bilasiz ?
7. Esxil va Sofoklning yunon dramasidagi o'rni qanday bo'lган?
8. Antik davr adabiyotning adabiyot tarixidagi o'rni haqidagi fikringizni bayon eting?
9. Antik adabiyot va qadimgi sharq adabiyoti aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
10. Buyuk ajdodlarimizdan kimlar antik davr olimlarining asarlariga tavsirlar yozgan?
11. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) obrazining o'zbek adabiyotidagi talqini haqida ma'lumot bering?
12. Qadimgi yunon adiblari asarlarini o'zbek tiliga o'girgan tarjimonlardan kimlarni bilasiz?

# **MA’BUDLAR VA QAHRAMONLAR HAQIDAGI MIF**

## **(ASOTIR)LAR**

### *DUNYO VA XUDOLARNING PAYDO BO‘LISHI*

*Xudolar va ularning gigantlar hamda titanlar bilan kurashi haqidagi afsonalar asosan Hesiodning «Teogoniya» («Xudolarning kelib chiqishi») dostonida bayon etilgan. Ayrim rivoyatlar esa Homerning «Iliada» va «Odisseya» hamda rimlik shoir Ovidiyning «Metamorfozalar» («Evrilishlar») nomli dostonlaridan olingan.*

### *SIZIF*

*Homerning «Iliada» va Ovidiyning «Qahramon ayollar»  
dostonlari asosida bayon etilgan*

Sizif barcha shamollar hukmdori Eolning o‘g‘li bo‘lib, u qadim zamonlarda Efira deb atalgan Korinf shahrining asoschisidir. Yunonistonda hech kim dog‘ulilik, makkorlik va zukkolikda Sizif bilan tenglasholmasdi. Sizif o‘zining makkorligi tufayli Korinfda behisob boylik to‘plagan edi. Uning xazinalarining dovrug‘i uzoq-uzoqlarga yoyilgan edi.

O‘lim xudosi qo‘rinchli Tanat uni qorong‘i Aid saltanatiga tushirmoqchi bo‘lib, uning huzuriga kelganda o‘lim xudosi kelayotganini oldindan sezgan Sizif xudo Tanatni makr bilan aldab, kishanlab tashlaydi. O‘sanda yer yuzida odamlarga o‘lim yo‘lamaydi. Yer osti sultanati xudosiga qurbanlar keltirish ham rasm bo‘lmay qoldi. Dabdabali dafn etishlarga chek qo‘yilgan edi. Xullas, yer yuzida Zevs o‘rnatgan tartib-intizom izdan chiqadi. O‘sanda yashinchaqnatar Zevs Sizif huzuriga urush xodosi Aresni yubordi. U Tanatni kishanlardan ozod qildi, Tanat esa Sizifning arvohini o‘liklar ko‘lankasi saltanatiga boshlab ketdi.

Lekin uchiga chiqqan hiylagar va makkor Sizif o‘sanda ham o‘ziga madad izlab topdi. U xotiniga o‘z jasadini ko‘mdirmaslikni tayin etdi va yer osti xudolariga qurbanlik keltirmaslikni qat’iy uqdirdi, Sizifning xotini erining maslahatini bajo keltirdi. Aid va Persefona dafn qurbanlarini uzoq vaqt kutishdi.

Ulardan hamon darak yo‘q edi. Nihoyat, Sizif Aidning taxtiga yaqinlashib, o‘liklar saltanatining hukmdoriga shunday dedi:

– O, o‘lik jonlar hukmdori, buyuk Aid, qudratlilikda Zevsga teng hukmdor, meni qo‘yib yubor, yorug‘ dunyoga chiqay. Xotinimga senga katta qurbanlar keltirishni amr etib, tag‘in ko‘lankalar saltanatiga qaytib kelaman.

Sizif hukmdor Aidni shunday yo‘l bilan aldadi, u unga yerga chiqishga ruxsat berdi. Tabiiyki, Sizif Aid saltanatiga qaytib kelmadi. U o‘zining muhtasham qasrida qolib, qorong‘i ko‘lankalar saltanatidan qaytib kelishga muvaffaq bo‘lgan yagona foniyzot ekanligidan og‘zi qulog‘iga etib, shod-xurramlik bilan bazm qurardi.

Aidning qahri kelib, Tanatni tag‘in Sizifning arvohini olib kelish uchun yubordi. Tanat foniyzotlar ichida eng makkorining qasriga qadam ranjida qildi va uni bazmi jamshid chog‘ida uchratdi. Xudolar va odamlar uchun manfur zot bo‘lib qolgan Sizifning arvohini sug‘urib oldi, arvohi esa endi mangulikka ko‘lankalar saltanatiga uchib ketdi.

Sizif narigi dunyoda yer yuzidagi barcha makru hiyla, barcha kazzobliklari uchun og‘ir jazoga mahkum etiladi. U ulkan bir toshni baland va tik ko‘tarilgan tog‘ cho‘qqisiga yumalatib olib chiqishga mahkum etilgan edi. Sizif bor kuchini ishga solib mehnat qiladi. Mehnatining og‘irligidan tanidan ter do‘lday quyilardi. Hademay cho‘qqiga chiqadi. Yana bir bor zo‘r bersa, bas, Sizifning mashaqqatiga chek qo‘yilardi. Afsuski, tosh uning qo‘lidan sirg‘alib, chang-to‘zon ko‘targancha pastga yumalaydi. Sizif tag‘in ishga kirishadi.

Shunday qilib, Sizif mangu mashaqqatga mahkum etilgan bo‘lib, toqqa olib chiqish uchun tosh yumalatadi, biroq hech qachon maqsadi – tog‘ cho‘qqisiga etolmaydi.

#### *HERAKL EVRISFEY XIZMATIDA*

Herakl Tirinfda o‘rnashib qoldi va ojiz, qo‘rroq Evrisfeyga xizmat qila boshladi. Evrisfey qudratlil qahramondan hayiqardi, shu bois uni Mikenaga qo‘ymasdi. O‘ziniig barcha buyruqlarini Zevsning o‘g‘li (Herakl)ga o‘zining xabarchisi Koprey orqali etkazardi.

## *NEMEY ARSLONI*

### *(birinchi jasorat)*

Herakl podsho Evrisfeyning birinchi topshirig‘ini uzoq vaqt kutgani yo‘q. U Heraklga Nemey arslonini o‘ldirishni topshirdi. Tifon va Exidnadan tug‘ilgan ushbu arslon benihoya bahaybat edi. U Nemey shahriga yaqin joyda yashardi, uning dastidan butun atrof bo‘shab qolgan, xarobazorga aylangandi. Herakl bunday xatarli jasoratga qo‘rmasdan otlandi. U Nemey shahriga qadam qo‘ygan ondayoq arslonning uyasini izlab tog‘larga chiqib ketdi. Qahramon yigit tog‘ yonbag‘irlariga tush paytida yetib keldi. Tevarak-atrofda tirik jondan asar ham yo‘q edi. Na cho‘ponlar, na dehqonlar ko‘rinardi. Qattol arslondan qo‘rqan barcha jonzot bu yerlardan tumtaraqay bo‘lib ketgandi. Herakl arslonning uyasini o‘rmonzor tog‘ yonbag‘irlaridan va o‘tib bo‘lmaydigan daralarda uzoq vaqt izladi, nihoyat, quyosh ufq sari oqqanda arslonning inini qorong‘i bir daradan topdi. U ikki tomonidan chiqiladigan kattakon g‘orda joylashgan edi. Herakl g‘orga kiriladigan teshiklardan birining og‘zini ulkan qoyalar bilan bekitib, arslonning kelishini kutib, toshlar orqasiga yashirinib oldi. Oqshom qo‘nib, tun shafag‘i bostirib kelayotgan chog‘da uzun yollari paxmaygan, lapanglab kelayotgan haybathi arslon ko‘zga tashlandi. Herakl yoyining kamalak ipini tarang tortib, arslonga birin-ketin uchta o‘q uzdi, lekin o‘qlar uning po‘latday qattiq terisiga urilib qaytdi. Arslon vahimali o‘kirdi, uning momoqaldiroq yanglig‘ o‘kirishi tog‘u toshni larzaga keltirdi. Darada turgan arslon atrofga alanglarkan, uning g‘azab o‘tidan yonib turgan ko‘zları bilan o‘ziga o‘q uzishga jur’at etgan zotni qidirardi. Ana, u Heraklni ko‘rib qoldi va beqiyos baland sakrab, navqiron bahodirga tomon otildi. Heraklning gurzisi yashinday chaqnab ketdi va momoqaldiroq zalvoriday zarb bilan arslonning boshiga urildi. Dahshatli zarbadan gangigan arslon yerga quladi. Shunda Herakl arslonga tashlanib, uni o‘zining qudratli qo‘llari bilan bo‘g‘ib tashladi. Herakl o‘ldirilgan arslonni o‘zining baquvvat yelkasiga tashlab, Nemeyga qaytdi, darhol Zevsga qurbanlik berdi va o‘zining birinchi jasorati sharafiga Nemey o‘yin(musobaqa)larini ta’sis etdi. Herakl o‘zi o‘ldirgan arslonni Mikenaga keltirganida Evrisfey bahaybat arslonga nazar tashlarkan, qo‘rqanidan

rangi quv uchdi. Mikena podshosi Heraklning qanday g‘ayribashariy kuchga ega ekanligini angladi. Unga hatto Mikena darvozasiga yaqinlashishni ham man etdi. Herakl o‘z jasoratini isbotlovchi dalillar keltirgach, Evrisfey ularga qo‘rqa-pisa Mikena devorlari osha qarab qo‘yardi, xolos.

## *LERNEY AJDARI*

### *(ikkinchи jasorat)*

Birinchi jasoratdan so‘ng Evrisfey Heraklni Lerney ajdarini o‘ldirish uchun yubordi. U ilon gavdali va to‘qqiz boshli ajdaho kabi bir mahluq edi. Nemey arsloni singari ajdar ham Tifon va Exidnadan tug‘ilgandi. Ajdar Lerna shahriga yaqin joydagi botqoqlikda yashardi. U inidan sudralib chiqar va butun boshli podalarni mahv etar, tevarak-atrofni xarobazorga aylantirardi. To‘qqiz boshli ajdar bilan kurashish xavfli, chunki uning boshlaridan biri o‘lmas edi. Herakl ukasi Ifiklning o‘g‘li Iolay bilan Lerna sari yo‘l oldi. Lerna shahri yaqinidagi botqoqlikka yetib kelganlarida Herakl Iolayni mahodasida, yaqin o‘rtadagi o‘rmonda qoldirib, o‘zi ajdarni izlab ketdi. U uni botqoqlik bilan o‘ralgan g‘ordan topdi. Herakl o‘qlarini obdon qizdirib, ularni birin-ketin ajdarga qaratib uza boshladi. Heraklning o‘qlari ajdarning qahrini keltirdi. Tanasi yaltiroq tangachalar bilan qoplangan ajdar qop-qorong‘i g‘ordan bilanglab sudralib chiqqa boshladi, u vahimali tarzda beo‘xshov kattakon dumi ustida tik turib oldi, keyin bahodir yigitga tashlanmoqchi edi, biroq Herakl uning tanasini oyog‘i ostiga olib, erga bosdi. Ajdar Heraklning oyoqlariga o‘ralmoqchi bo‘lib, bilanglar, uni yiqitmoqchi bo‘lardi. Navqiron bahodir mustahkam qoyaday turar, zilday og‘ir gurzisi bilan ajdarning boshiga tinimsiz tushirardi. Gurzi havoda xuddi quyunday uvullardi. Ajdarning boshlari birin-ketin uchib ketardi, lekin u hamon tirik edi. Bahodir Herakl qarasa, ajdarning bitta uzilgan boshi o‘rnida ikkita yangisi o‘sib chiqmoqda. Ajdarga ham yordamga kelişdi. Botqoqlikdan bahaybat qisqichbaqa sudralib chiqdi va Heraklning oyog‘iga o‘ralib oldi. SHunda Herakl do‘sti Iolayni yordamga chorladi. Iolay bahaybat va dahshatli qisqichbaqani o‘ldirdi, o‘rmonning bir qismiga o‘t quyib, daraxtlarning yonib turgan tanalari bilan ajdarning bo‘ynini kuydira boshladi. Ajdarning yangi boshlari o‘sishdan to‘xtadi. Borgan sayin u

Zevsning o‘g‘liga qarshilik ko‘rsatishga ojizlik qila boshladi. Nihoyat ajdarning o‘lmas boshi ham dumalab ketdi. Bahaybat maxluq engilgandi, u erga bejon quladi. G‘olib Herakl uning o‘lmas boshini chuqur qilib qazilgan erga ikkinchi bor dunyoga kelmaydigan qilib ko‘mib tashladi. SHundan keyin buyuk qahramon Herakl ajdarning tanasini ikkiga bo‘lib, uning zaharli o‘tiga o‘qlarni botirib oldi. O‘sha ondan buyon Herakl o‘qidan jarohatlangan jonzot tanasi davolanmaydigan bo‘lib qoldi. Navqiron bahodir shaharga katta tantana bilan qaytdi. Bu u erda uni Evrisfeyning yangi topshirig‘i kutardi.

## *DEDAL VA IKAR*

### *Ovidiyning «Evrilishlar» dostoni asosida bayon etilgan*

Erixtey avlodidan bo‘lgan Dedal Afinaning eng buyuk rassomi, haykaltaroshi va me’mori edi. Rivoyat qilishlaricha, u qorday oppoq marmardan shunday g‘aroyib haykallar yasar ekanki, ularni ko‘rganlar tirik odam deb o‘ylasharkan. Dedal yasagan haykallar tirik kishilarday nigoh tashlayotgan va harakat qilayotganga o‘xsharmish. Dedal o‘z ishi uchun zarur asboblarning aksariyatini o‘zi ixtiro etgan. Bolta va dastparma ham uning aqli mahsuli ekan. Ha, Dedalning dovrug‘i uzoq ellarga yoyilgandi.

O‘sha buyuk rassomning Tal nomli jiyani bo‘lib, u singlisi Perlikaning o‘g‘li edi. Tal o‘z tog‘asiga shogird tushdi. U hali yoshligidayoq o‘zining iste’dodi va ixtirochiligi bilan hammani hayratga solgandi. Uning o‘z ustozidan ancha o‘zib ketishini oldindan sezsa bo‘ldi. Jiyaniga hasad qilgan Dedal uni o‘ldirishga qaror qildi. Kunlardan bir kun Dedal jiyani bilan Afinaning baland Akropoli (qal’asi) yonida, shundaygina qoyaning chekkasida turardi. Atrofda hech kim yo‘q. Ikkalasidan boshqa biror kishi yo‘qligini ko‘rgan Dedal jiyanini qoyadan itarib yubordi. Rassom o‘z jinoyatining jazosiz qolishiga ishonardi. Qoyadan yiqilgan Tal til tortmay o‘ldi. Akropoldan shoshilinch pastga tushgan Dedal Talning jasadini ko‘tarib oldi va uni imi-jimida ko‘mmoqchi bo‘ldi, ammo u go‘r qaziyotganda afinaliklar ko‘rib qolishdi. Dedalning yovuzligi fosh etildi. Areopag (Afinadagi tepalik bo‘lib, u yerda jinoyatchilarni sud qilishgan) hukmi uni o‘limga mahkum qilindi.

Dedal ayyorlik bilan o‘limdan xalos bo‘lib, Attikada sarson-sargardonlikdan keyin Kritga, Zevs va Yevropaning qudratli o‘g‘li podsho Minos huzuriga qochib ketdi. Minos Yunonistonning mashhur rassomini bajonidil o‘z himoyasiga qabul qildi. Dedal Krit podshosi uchun bir talay g‘aroyib san’at asarlarini vujudga keltirdi. U uning uchun chalkash-chulkash yo‘lakli labirint qo‘rib berdi, unga bir bor kirgan kishi qaytib chiqish yo‘lini topolmasdi. O‘sha qasrga Minos xotini Pasifayaning o‘g‘li – tanasi odam, boshi ho‘kiz bo‘lgan bahaybat maxluq Minotavrni qamagan edi.

Dedal Minos huzurida uzoq yillar yashadi. Podsho unga Kritdan ketishga ijozat bermasdi. Buyuk san’atkorning iste’dodidan faqat o‘zi uchun foydalanishni istardi. Minos Dedalni Kritda xuddi asirni tutqunlikda saqlagandek hech qayerga chiqarmasdi. Dedal u yerdan qanday qochib qutulish yo‘lini uzoq o‘yladi, nihoyat, Krit tutqunligidan xalos bo‘lish yo‘lini topdi.

– Minos hukmidan, – deya xitob etardi Dedal o‘zicha, – quruqlik va dengiz bilan xalos bo‘lolmasam, qochish uchun osmon ochiq-ku, axir! Mening yo‘lim – shu! Hamma narsa Minos ixtiyorida bo‘lsa-da, osmon uning tasarrufotiga kirmaydi!

Dedal ishga kirishdi. U patlarni yig‘ib, ularni kanop iplar va mum bilan biriktirib, ulardan to‘rtta katta qanot tayyorlay boshladi. Dedal, ishlayotganda o‘g‘li Ikar uning yonida o‘ynab yurardi: u shamol uchirgan par-patlarni tutib olar yoki qo‘lidagi mumni ezg‘ilab o‘tirardi. Bola parvoi falak, sho‘xlik qilar, otasining ishlari uni zavqlantirardi. Nihoyat, Dedal o‘z ishini tugatdi. Qanotlar tayyor turardi, Dedal ularni orqasiga bog‘ladi, qanotlarga birkitilgan sirtmoqlardan qo‘llarini o‘tkazib oldi, qanot qoqib, ohistagina havoga ko‘tarildi. Ikar havoda ulkan qush kabi parvoz qilayotgan otasini hayrat bilan kuzatardi. Dedal erga qo‘narkan, o‘g‘liga shunday dedi:

– Quloq sol, Ikar, hozir bizlar Kritdan uchib ketamiz. Uchish paytida ehtiyoj bo‘l. To‘lqinlarning sho‘r tomchilari qanotlaringni namiqtirmasligi uchun dengizga tomon o‘ta pastlashma. Quyoshga tomon ham ko‘p balandlab ketma, uning yolqini

mumni eritib yuboradi, patlar bir-biridan ajralib, har yoqqa sochilib ketadi. Orqamdan uchib kelaver, mendan ortda qolib ketma.

Ota va o‘g‘il qanotlarini qo‘llariga o‘tkazib olishdi va yengilgina parvoz eta boshlashdi. Ularning yerdan balandda uchayotganini ko‘rganlar lojuvard osmonda ikki nafar ma’bud kelmoqda deb xayol qilardilar. Dedal o‘g‘li qanday uchayotgan ekan deya o‘qtin-o‘qtin orqasiga burilib qarab qo‘yardi. Ular Delos, Paros orollarini ortda qoldirib, uchishda davom etardilar.

Tez uchish Ikarga yoqib qoldi, u sira qo‘rmasdan qanot qoqadi. Ikar otasining o‘gitlarini allaqachon unutib yuborgandi. U otasining ortidan uchmasdan, qanotlarini shiddat bilan silkitib, osmoni falakka, nurafshon quyoshga yaqinlashib boradi. Uning hamma narsani jizg‘anak qilib yuboradigan nurlari qanotlarni birlashtirgan mumni eritib yubordi, patlar tushib ketdi, ularni shamol turli tomonlarga uchirib yuborgandi. Ikar qo‘llarini siltaydi, ammo qanotlar allaqachon sochilib ketgandi. U bag‘oyat katta balandlikdan yelday tez uchib, dengizga urildi va uning po‘rtanalarida halok bo‘ldi.

Dedal orqasiga burilib, tevarak-atrofga qaraydi, biroq Ikardan darak yo‘q. U o‘g‘lini baland ovoz bilai chaqira boshlaydi:

– Ikar! Ikar! Qayerdasan? Javob ber!

Hech qanday javob bo‘lmadi. Dedal dengiz to‘lqinlarida Ikarning qanotlaridan ajralgan patlarni ko‘rgach, nima yuz bergenini fahmlaydi. Dedal o‘z san’atidan va alalxusus Kritdan osmon orqali ozod bo‘lish yo‘lini o‘ylab qo‘ygan kundan shunday nafratlandiki!

Ikarning jasadi xiyla vaqtgacha keyinchalik o‘zining nomi bilan atalgan Ikariy dengizi to‘lqinlari ichra suzib yurdi. Nihoyat, dolg‘alar uni orol qirg‘og‘iga chiqarib tashlagan edi. Uni u yerda Herakl topib, dafn etgandi.

Dedal esa o‘z parvozini davom ettirib, Sitsiliyaga uchib keladi. U podsho Kokal saroyida yashaydigan bo‘ldi. Minos san’atkorning qayerda panoh topganini bilib olgach, katta qo‘shin bilan Sitsiliyaga otlanadi. Minos Kokaldan Dedalni qaytarib berishni talab qiladi. Lekin Kokalning qizlari Dedaldek rassomdan mahrum bo‘lishni istashmaydi. Ular shunday hiyla o‘ylab topishdi. Otalarini


Minosning talabini qondirishga rozilik berishga va uni saroyda mehmon sifatida qabul qilishga ko‘ndirishdi. Minos hammomda yuvinayotganda Kokalning qizlari uning boshiga bir qozon qaynab turgan suvni ag‘daradilar. Minos dahshatli azob-uqubatga bardosh berolmay o‘ladi.

Dedal Sitsiliyada uzoq yillar yashadi. Juda ko‘p narsalar ixtiro etdi. Hayotining so‘nggi yillarini vatani – Afinada o‘tkazdi. Dedal u yerda dunyoga dong‘i ketgan Afina rassomlari urug‘i – Dedalzodalarning bobokaloni bo‘lib qoldi.

*(Rus tilidan Poshali Usmon va Fazliddin Shukur tarjimasi)*

## HOMER

Ma'lumki, tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar to'g'risidagi qahramonlik dostonlari hamma xalqlarda, jumladan, o'zbek xalqida ham bor. Qadim Yunon eposlarining ijrochilari o'n minglab satrlarni yoddan biladigan quvvai hofizasi noyob odamlar bo'lgan, ular turkum-turkum dostonlarni avlodlardan avlodlarga olib o'tib, unga o'z davrlarining ta'sirini, yuqi va unsurlarini singdirib boyitib, asarlar bilan birga o'z san'atlarini ham, usul va an'analarini ham meros qilib qoldirib kelganlar.



Homer ana shunday ijrochilarning eng so'ngilaridan, to'g'rirog'i dostonchilikning yangi davrini boshlab bergan xalq dahosi edi. U katta epik merosni saqlabgina qolmay, uni butun antik dunyoning ma'naviy sarchashmasi sifatida poetik tizimga solib, ikki o'lmas eposni ijod etdi. "Iliada" va "Odisseya" dostonlari Yunon adabiyotining eng qadimgi yozma yodgorliklari hisoblanadi. Mazkur dostonlarning yaratilish vaqtি, paydo bo'lishiga sabab bo'lgan sharoit haqida hech qanday ma'lumotlar yetib kelmagan. Har ikki doston bilan boo'liq ana shunday muammolar majmui "Xomer masalasi" deb ataladi.

Homer o'zi afsonaviy shaxs. Uning tarjimai holidagi deyarli barcha faktlar bahsli. Bu nom qadim Yunon tilida "ko'zi ojiz", "so'qir" degan ma'noni beradi. Demak, kuychi homerlar ko'p bo'lgan. Ammo ulardan biri, haqiqiy Homer butun antik dunyoda mashhur bo'lib, Homer vatani degan sharaflı nom uchun talashgan shaharlar o'nlab hisoblanadi. Bir qarashda, bu – umumlashgan bir nom. Ammo voqealari, davri, uslubi, obrazlar dunyosi jihatidan bir-birlarining davomi bo'lgan ikki dostonning har biri 24 qo'shiqdan iborat, bir vazndagi buyuk eposlarningbu nomga qiyos qilinishi hamma jihatdan shu qadar tabiiy ediki, Homerning real shaxsligiga hech kim dalil bilan e'tiroz bildirolmadi.

"Homer masalasi" hali ham tamom hal qilingan emas. Chunki bu eposlarning yaratilishida yagona muallifning mavqeini kamsituvchilar hali ham bor. Tahrir qilgan, tartibga solgan, goho esa hech qanday Homer bo'lмаган, bu

dostonlar xalq qo'shiqlari sifatida, badiha tariqasida vujudga kelgan, degan fikrlar ham ilgari surilgan.

Homerni ikki dostonning yagona muallifi sifatida tan olishda fanga eposlarning o'zidagi yaxlit badiiy butunlik, noyob iqtidorga xos ijodiy individuallik, yuksak badiiy vositalarning betakrorligi yordam berdi.

Har ikki doston syujetni Troya urushi, ya'ni Yunonlarning Troya (yoki Ilion) shahriga yurishi haqidagi afsonalardan olimngan. Ularga ko'ra Troya shahzodasi Paris Sparta shohi Menelay saroyida mehmon bo'ladi. Lekin u Menelayning bir talay boyliklarini va malika YYelenani o'g'irlab ketadi. Bundan g'azablangan Menelay va ukasi, Miken podshosi Agamemnon barcha Yunon viloyatlaridan katta qo'shin to'playdi va Troyaga yurish qiladi. Biroq o'n yil davomida Agamemnon qo'shini Troya shahri darvozasi oldida samarasiz jang olib boradi. Faqat ayyorlik yo'li bilan – yog'och ot ichida yashiringan xolda shaharga kirib uni kulini ko'kka sovuradilar. Yelena Menelayga qaytariladi. Lekin Yunon jangchilarining ortga qaytishi oson kechmaydi. Ularning ko'pi yo'lda yoki qaytganidan so'ng halok bo'ladilar, ba'zilari uyga qaytguncha dengizlarda sarson-sargardon kezadi. Ana shu voqealar asos bo'lgan afsonalar Yunon mifologiyasining Troya turkumiga asos bo'lgan. Biroq, bu turkumga kirgan afsonalar to'liq emas, balki ikkita kichik voqeasigina hikoya qilinadi. Agar "Iliada"da troya urushining o'ninch yilidagi bir hodisa tasvirlangan bo'lsa, "Odisseya" dostonida ham shu holatni ko'ramiz. Asarda Odisseyning urushdan qaytishi, o'zga yurtlarda sarson-sargardon bo'lishi va nihoyat o'ninch yili vataniga qaytib kelishi haqida hikoya qilinadi.

Homer dostonlarini, ayniqsa "Iliada"ni o'qiganda, shunday katta miqyosli ma'lumotlarning ajoyib mahorat bilan puxta kompozitsiya qilinganligini ko'ramiz. Ko'p qavatli syujet chiziqlari, barcha mavzu va motivlar, barcha personajlarning taqdirlari bosh g'oyaga xizmat qilib, ma'nodor yakun topadi. Dostonning tuguni, fojianing badiiy echimi, barcha badiiy vositalar bosh mavzu va bosh qahramon obrazi atrofida birlashgan jips tizimni tashkil etadi.

Yunon xalqining yashash tarzi, xislat va fazilatlarini ifoda etgan "Iliada" va "Odisseya" dostonlari qadim zamonlardanoq mo'tabar kitoblarga aylangan:

baxshilar ularni turli bayramlarda ijro etganlar, o‘quvchilar ularni o‘qib savod chiqarganlar. Homer dostonlarining adabiy usullari Yunon shoirlari uchun o‘zgarmas namuna sifatida xizmat qilgan. Ko‘plab jahon tillariga tarjima qilingan “Iliada” va “Odisseya” dostonlari olimlar, adiblar va muhlislar diqqatini hamon o‘zlariga jalb etib, ularni ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishga, go‘zallik namunalaridan ibrat olishga undaydi. Jumladan, XX asrning buyuk irland yozuvchisi Jeyms Joys “Uliss” (Odisseyning ikkinchi nomi) romanini yozishda “Odisseya” dostoni tizimidan foydalangan.

## **“ILIADA” DOSTONIDAN PARCHALAR**

*Yigirma ikkinchi qo ‘shiq*

### **Hektorning o‘ldirilishi**

Hurkkan kiyik galasidek shahar kirgan troyaliklar  
Dag‘-dag‘ titrab suyangancha azim devor kungurasiga  
Terlarini qotirar va chanqoqlarin qondirardilar;  
Lek axeylar tik bostirib kelardilar devor poyiga.

5. Yolg‘iz Hektor bu payt Askey minorasi ro‘baro‘sida,  
Keng dalada mash’um qismat domida dong qotib turardi.  
Shu choq dedi sohib quvva Axillesga tangri Appolon:  
“O, Peleyzod, fony banda, nechun meni – boqiy tangrini  
Quvmoqdasan, yoxud chaqqon poylaringdan umidvormisan?

10.Yo hali ham sezmadingmi ma’budligim – g‘azablanursan?  
Parvo qilmay qo‘yding hatto Troyaning lashkariga ham  
U shaharga kirib oldi; lek sen bunda izg‘ib yuribsan.  
Chekin; halok etolmaysan, men – boqiyman – o‘lmayman aslo”.  
Axilles ham g‘azablanib Febga bunday javob ayladi:

15.“Laqillatding meni sen, ey fosiqlikda beqiyos tangri!”  
Meni chetga chalg‘itding sen! Yo‘qsa yovning yana ko‘pini  
Er tishlatgan bo‘lardim to darvozadan kirib ulgurmay!  
Mahrum etding meni shondan; Troyaning o‘g‘lonlarini  
Osongina xalos etding, qo‘rqmay aslo intiqomdan sen...

20.Bo‘lgandaydi ilojim, men olar edim intiqom sendan?”  
Poygalarda doim yutib sovrin olgan, jangarobaga  
Qo‘shilgan el kabi uchqur otning tegmas yerga tuyog‘i, -  
Axillesning oyoqlari ham shunday tez yugurar edi.

Uni avval ko‘rib qoldi minorada turgan Priam;

25.U quyundek kelar edisovutlari yulduzday chaqnab;  
Bunday yulduz kuz faslida cho‘g‘dek porlab chiqar samoga

Va charaqlar siyo tunda misli oydek yulduzlar ichra,  
Ammo uni shum alomat darakchisi deb hisoblarlar  
(Orionning iti deya nom qo‘ygandir unga odamlar);

30. Baxtiqaro bandalarga yovuz bezgak ufuradi u, -  
Axillesning mis sovuti ham porlardi shu yulduzmisol.

Priam esa nola chekib musht urardi oppoq boshiga,  
Qo‘llarini ko‘kka cho‘zib, achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘karkan,  
Yolborardi o‘g‘loniga; vale Hektor qopqa oldida

35. Jim turardi Axilles-la jang qilmoqlik ishtiyoyqida.

Nuroniy chol mungli sas-la cho‘zib ilkin dedi o‘g‘liga:  
“Suyuk o‘g‘lim Hektor, tingla! Jangda yolg‘iz ro‘baro‘ kelma  
Bu odamga, zero, Peley o‘g‘li seni mahv aylagay bot:  
Qudratliroq erur sendan bu azamat maydoni harbda!

40.U mal’unni tangrilar ham men singari sevishgandaydi,  
Allaqachon itlar toroj qilur edi uning jasadini!  
Ana unda og‘ir darddan tamom forig‘ bo‘lardi qalbim!  
Judo qildi meni u ko‘p yosh va jasur o‘g‘lonlarimdan –  
Yo mahv etib, yoxid orollarga qul qilib sotib!

45. Bugun ham u judo qildi Likaon va Polidorimdan;  
Zavjalarim malikasi Laofoya tuqqan bu ikki  
O‘g‘lonimni ko‘rmayapman shahar qochib kirgan el ichra.  
O! Gar tirik bo‘lsa ular – asirdalar, - argosliklardan  
Albat sotib olurmiz mis va oltinga; bizda ko‘p ular;

50. Nuroniy Alt o‘z qizi-chun ko‘p xazina bergandi menga.

Agar nobud bo‘lib, Aid maskaniga ko‘chgan bo‘lsalar,

Ul mardlarni qora kunda tuqqan sho‘rlik onaizorning

Hamda mening sho‘rim qurur g‘oyat og‘ir bu judolikdan!

Lek Troya xalqi uchun bu unchalik og‘ir dard emas;

55. Axillesning zarbasidan, o‘g‘lim, omon qolsang bas menga,

Aziz Hektor, biz bilan bo‘l! Ilionga kir, shundagina

Shahrimizning jami ahlin qurqargaysan mahv bo‘lishdan.

Axillga ham bermagaysan imkon zafar qozonmog‘iga

Va o‘zing ham sog‘ qolursan judo bo‘lmay shirin joningdan!”

60. O! Rahm qil bahtiqa ro padaringga – jon chiqar chog‘da

Zebs azobga solur meni ko‘z oldimda namoyon qilib

Dunyodagi jami mudhish ofatlarni – toki tirikman;

O‘g‘illarim halok bo‘lur, cho‘ri qilib olib keturlar.

65. Yana ma’sum go‘daklarni erga toptab o‘ldirurlar ham,

Shum danaylor sudraganlar asirlikka kelinchaklarni!..

Shular barin ko‘rsatur Zebs menga hali... Ko‘rgilik ekan!

Yuragimni teshib, jonim vujudimdan sug‘urib olgay;

70. Men mudom o‘z dasturxonim ne’mati-la boqqan itlarim

Shunda mening qonim ichib, ostonaga mahzun dil ila

Bosh qo‘yurlar tilka-pora bo‘lgan jismim tevaragida!

“O! Janggohda halok bo‘lgan har yosh yigit qanday alfovza

Yotsa hamki, ayb emasdир biron yeri ochilib qolsa!

75. Vale halok bo‘lgan biron mo‘ysafidning, qonxo‘r ko‘ppaklar

Iyagini, boshini u uyatini kemirsa magar, -  
Bundan ortiq achchiq qismat bo‘lma gay hech bandalar uchun!”  
Oh urdi chol va tutamlab yula ketdi oppoq sochini,  
Lekin o‘g‘li Hektorni hech o‘z ahididan qaytarolmadi.

80. Shunda uning onasi ham bir tomonda yig‘ladi nolon;  
U yoqasin chok qildi-yu, qo‘li bilan oppoq siynasin  
Ko‘rsatgancha, shunday dedi o‘z o‘g‘liga ko‘z yosh aralash:  
“Rahm qilgin, o‘g‘lim, sho‘rlik onangga, shu siynam harmati!  
Murg‘ak go‘dak chog‘laringda oq sut berib allalaganim

85. Rost bo‘lsa gar, aziz o‘g‘lim, shuni eslab tingla kalomim:  
Qattol arning qarshisida turma yolg‘iz, tez qo‘rg‘onga kir!  
Ul g‘azabnok gar mahv etsa seni, o‘g‘lim, nuridiydamni,  
Nasib etgay na menga va na xotining Andromaxaga  
Boshing uzra aza tutib ko‘z yosh qilmoq; zero, jismingni

90. Qonxo‘r itlar g‘ajigaylar mirmidonlar qarorgohida!”  
Ota bilan ona shunday o‘ksib yig‘lab yolborardilar,  
Lek ularga aziz o‘g‘lon bu safar ham osmadi quloq;  
Jim kutardi u tik bosib kelayotgan mard Peleyzodani.  
Zaqqum giyoh yeb, vujudini g‘azab ila to‘lgan ajdaho

95. Tog‘dagi bir bor og‘zida gajak bo‘lib to‘lg‘anar ekan,  
Ko‘zidan o‘t sochib har yon alanglaydi, ov axtaradi, -  
Hektor ham do‘ng qalqonini tirab qo‘yib devor poyiga  
Xuddi shunday mardonavor turar edi raqibin kutib,  
Nihoyat u shunday dedi o‘z-o‘ziga, ma’yus xo‘rsinib:

100. “Jangdan qochib men shaharga kirsam agar, isnodga qolgum!

Eldan burun Polidamas ta'na toshin otur boshimga;  
Ki u kecha tunda taklif qilgan edi burun lashkarni  
Ilionga qaytarmoqni, - jangda ko'rgach Axillni yana.  
Unga qulqoq osmagandim, qulqoq ossam yaxshi bo'larkan!

105. Shu bemulohazaligim nobud qildi butun xalqimni.  
Troyalik erkaklar va ayollardan uyatga qoldim!  
Ilionlik eng olchoq kas bir kun shunday deyishi mumkin:  
-Hektor xalqin nobud qildi o'z kuchiga ishonib ortiq! –  
Demakki, ming karra afzal Peley o'g'lin mahv etib jangda,

110. G'olib qaytmoq, yo muqaddas Troyaning bo'sag'asida  
Halok bo'lmoq ul dilovar ila bugun jang qilsam keskin!  
Yo ehtimol... bu nurafshon qalqonimni va dubulg'amni  
Yechib qo'yib, mis nayzamni esa tirab devorga hozir,  
O'zim peshvoz borsammikin Peleyzoda istiqboliga?

115. Agar unga Yelenani, unga qo'shib Paris kemada  
Ilionga olib kelgan – bu ixtilof ibtidosini –  
Boyliklarni qaytarishga so'z bersam-chi bitta qoldirmay?  
Ayni paytda, bu muqaddas Troyada mavjud jamiki  
Xazinani yig'ishtirib danaylarga bo'lib bersam-chi?

120. Va nihoyat, ont ichirsam troyalik oqsoqollarga:  
Hech nimani yashirmasdan, shahardagi jami boylikni  
Yig'ib kelib yovga bermoq borasida?.. Qanday bo'larkin?  
Tavba! Nelar xayolimga kelur? Yo'q, yo'q, yorbormam unga!  
Peleyzoda menga rahm qilmaydiyam, mensimaydiyam;  
125. Aksincha, gar qurolimni erga qo'ysam, u hujum qilib,  
Shu ondayoq ojizani mahv etgandek o'ldirur meni,

Yo‘q, yo‘q, endi visol topgan yigit bilan qizcha singari  
Gapni eman yoki toshdan boshlamoqlik qo‘l kelmas bizga;  
Qishloqi qiz bilan yigit bunday chog‘da xush suhbat qurur;

130. Biz, yaxshisi, jang qilamiz! Shunda shohid bo‘lamiz, Zevsning  
Ikkimizdan kimga ato etganiga g‘olibiyatni!”

Shunday o‘yga tolgandi u; Arey kabi mudhish Axilles  
Yaqin keldi janggoh uzra dubulg‘asin o‘tdek porlatib;  
O‘ng yelkaga ko‘targandi shumtol bandli ota nayzasin;

135. Egnidagi sovutlari porlar edi ko‘z qamashtirib,  
Naq o‘t olgan alangadek, bosh ko‘tarib chiqayotgan quyoshdek yoxud.  
Hektor ko‘rib qo‘rqib ketdi; turolmadi Axillni kutib;  
Qochdi Askey qopqasidan, yuragini hovuchlagancha.  
Umid bog‘lab poylariga, quva ketdi uni Axilles,

140. Qushlar ichra eng chaqqoni tog‘ lochini g‘ayri tasavvur  
Tezlik bilan uchib, qo‘r quoq kabutarning payiga tushar:  
Sho‘rlik unga chap berar, lek lochin uning ortidan qolmas  
Va aksar payt qichqirgancha hamla qilib o‘ljani tutar, -  
Axilles ham misli quyun quvar edi Hektor ortidan,

145. U “oyog‘in qo‘lga olib” qochar edi devor yoqalab.  
Ular jadal bir tepadan va bir anjir yonidan o‘tib,  
Arava yo‘l bo‘ylab shahar devoridan uzoqlashdilar  
Va etdilar zilol suvi qaynab turgan ikki buloqqa,  
Ki serto‘lqin Askamandr sarchashmasi edi bu suvlar.

150. Bir chashmadan g‘oyat qaynoq suv oqardi va uning ustин

Muttasil bug‘ burkagandi, gulxan uzra qalqqan tutundek;  
Ikkinchisin suvi hatto saratonning o‘rtasida ham  
Misli do‘l yo pag‘a-pag‘a qordek muz va yax edi.  
Shu buloqlar yaqinida silliq toshlar bilan o‘ralgan

155. Ikki najib hovuz bo‘lib, bir zamonlar, tinchlik davrida  
Troyalik xotinlar va dilbar qizlar bu hovuzlarda  
Kir yuvGANI kelardilar – argosliklar kelmasdan oldin.  
Qochayotgan ham, quvayotgan ham yelib o‘tdi shu hovuzlardan.  
Qochgan kuchli, quvayotgan ming bor kuchliroq edi,

160. Lek bu poyga, Poygachilar oddiy muzdi: qurbanlik buqa  
Yoki uning terisini olish uchun boshlanmagandi;  
Yo‘q, Hektoring joni uchun boshlangandi bu musobaqa.  
Marhum arning ruhini shod etmoq uchun uyushtirilgan  
Poygalarda chavandozlar nodir sovrin: navnihol qiz yo

165. Sepoyaga erishmoq-chun keng davrani uch marotaba  
Yeldek chopib chiqqanidek quyun yanglig‘ uchqur otlarda, -  
Bu mardlar ham uch marota chopib chiqdi buyuk Troya  
Atrofini. Xudovandlar kuzatardi ular poygasin.  
Dedi shunda boqiylaru foniylarning sarpadari Zevs:

170.“E voh! Menga aziz bo‘lgan pahlavonni quvganlarini  
Ko‘rdimu men og‘ir anduh qamrab oldi yurak-bag‘rimni!  
Pokdil Hektor menga atab buqalarning semiz sonini  
Ko‘p marota yondirgandi Pergamda va yuksak Idada:  
Bugun esa yeldek chopqir va g‘oratgar Axill Hektorni

175. Tirqiratib quvlamoqda Troyaning bo‘sag‘asida.

Yo tangrilar dildan puxta o‘ylab ko‘ring, maslahat bering:  
Saqlaymizmi Hektorni biz shum o‘limdan, yo Peleyzodning  
Bu safar ul dilovarni yengishiga yo‘l qo‘yamizmi? ”  
Shahlo ko‘zli qiz Pallada javob qildi shu zahot Zevsga:

180. “Bulutquvar, chaqmoqotar ota! Nelar deyursan asti?  
Tug‘ilganda qismatiga halok bo‘lmoq bitib qo‘yilgan  
Bir bandani shum o‘limdan butkul xalos etmoqchimisan?  
Ixtiyor, lekin senga qo‘shilmagan aksar ma’budlar! ”  
Bulutquvar Zevs qiziga shu zahoti ayladi javob:

185. “O, Afina, erka qizim, qo‘rqma aslo! Jiddiymas gapim.  
Senga bo‘lgan marhamatim hadi yo‘qdir, aziza qizim.  
Yuragingda ne niyating bo‘lsa bajar, paysalga solmay ”.  
Dedi Zevs va Afinaning jo‘shqin qalbin jo‘shtirdi yana;  
Yuksak Olimp cho‘qqisidan u quyundek uchdi zaminga.

190. Axill esa quvar edi mard Hektorni mudom beto‘xtov  
Tozi kiyik bolasini haydab chiqib g‘ordan – inidan,  
Quva boshlar chakalakzor va jarliklar osha tog‘ma-tog‘:  
Hattoki u biron buta panasiga berkinganda ham,  
Uning isi va izidan quva-quva tutgay nihoyat, -

195. Axillesdan qocholmadi kiyik kabi Priamzoda ham,  
Har gal qopqa sarhadidan o‘tyotganda Hektor sarbaland  
Minoraga o‘zin urmoq bo‘lar edi. Troyaliklar  
Uni shunda hifz qilgan bo‘lardilar deverda turib  
Lek har safar chaqqon Axill najot yo‘lin to‘sib, Hektorni

200. Chetga quvar, o‘zi esa yugurardi devor yoqalab.

Tush ko‘rganda odam quvgan odamiga yetolmagandek, -  
Hektor qochib ketolmasdi. Axill quvib yetolmas edi.  
Hektor bu gal mash’um qismat va o‘limdan qocholmasdi ham,

205. Gar Apollon so‘nggi marta unga madad bermaganida;  
U Hektoring bilagiga kuch, poyiga g‘ayrat baxsh etdi.  
Peleyzoda lashkariga boshi bilan ishora qilib,  
Farmon berdi Priamzoda ustiga o‘q yog‘dirmaslikni,  
Ki Hektorni o‘zi engib, yolg‘iz o‘zi shon quchmoqchiydi.

210. To‘rtinchi bor etganida ular Ksanf sarchashmasiga,  
Chaqmoqdor Zevs olib oltin tarozuni, qo‘sh pallasiga  
Mangu uyqu baxsh etuvchi ikki o‘lim qur’asin qo‘ydi:  
Bitta qur’a Axillniki, ikkinchisi Hektornikiydi.  
Tarozuni ko‘tardi Zevs; og‘ir ketib Hektor pallasi,

215. Tortdi uni Aid sari; Feb o‘zini oldi chekkaga.  
Chashmi tobon Afineya kelib Peley o‘g‘li qoshiga,  
Unga shunday dabdabali so‘zlar ila tavajjuh qildi:  
“O, tangrilar arzandas, saxovatli Axilles, bugun  
Buyuk zafar eltajakmiz mirmidonlar qarorgohiga:

220. Jangga to‘ymas Hektorni biz bugun albat g‘orib yetgaymiz.  
O‘ylaymanki, endi ul mard bizdan qochib qutulolmaydi,  
Panogohi kumushkamon Feb – Apollon qancha ter to‘kib  
Yolbormasin, qodir padar chaqmoqdorning poyiga yotib.  
Sen, Peleyon, damingni ol; Priamzodni o‘zim qoshingga

225. Boshlab kelib, uni sen-la jang qilmoqqa da’vat etaman”.

Shunday dedi Zevsning qizi; Peleyzoda ham rozi bo‘ldi  
Va mis tig‘li obdon nayzasiga tayandi asta.  
Afina ham yeldek uchib yetib oldi Priamzodga.  
To‘xtab uning qarshisida Deifobning qiyofasida,

230. Makkorona so‘zlar aytdi ovozin ham o‘zgartirgancha:  
“O, e’zozli og‘am! Seni Axilles ko‘p qiynab qo‘yibdi  
Azim shahar Troyaning atrofida beto‘xtov quvib.  
Kel, shu yerda to‘xtayligu kutaylik biz mardni mardona!”  
Qodir og‘a – dubulg‘asi obdon Hektor javob ayladi:

235. “O, Deifob! Sen azaldan eng suyukli inim bo‘lgansan  
Hekuba va Priamdan dunyo kelgan o‘g‘illar ichra;  
Endi esa senga bo‘lgan mehrim yana bo‘ldi ziyoda;  
Zeroki, sen meni dashtda yolg‘iz ko‘rib, yordam bergani  
Chiqib kelding, lek boshqalar o‘tiripti qo‘rg‘onda loqayd”.

240. Yana unga javob qildichaqmoqkorning shahlo ko‘z qizi:  
Hektor, mening poyim quchib yolbordilar otam va onam;  
“Bizni tashlab ketma”, deya yoronlar ham qildi iltijo;  
Shu daraja oldirishgan yuraklarin ularning bari.  
Ammo qalbim seni qo‘msab, undayverdi istiqbolingga.

245. Kel, ikkimiz dadil turib, otashin jang qilaylik bunda:  
Nayzalarni ayamaylik: qani, Axill biz ikkimizni  
Halok etib, kemasiga qonli siloh-sovutimizni  
Eltarmikin, yo sen uni nayzang-la mahv etarmikansan!”  
Shunday nayrang so‘zlar bilan Hektorni u boshladi olg‘a.

250. Ikki botir kelib turdi bir-birining ro‘baro‘siga.

Axillesga avval obdor dubulg‘ali Hektor gap qotdi:  
“Peleyzoda, endi ortiq olib qochmam sendan o‘zimni!  
Men hamlangdan qochib, uch bor Troyaning gir atrofini  
Elib chiqdim: lekin endi qalbim meni da’vat etmoqda

255. Sen ila jang qilmoqlikka; yo o‘laman, yo o‘ldiraman!

Tangrilarni shohidlikka chaqiraylik; yaxshi guvohdir  
Ular bari, shartimizga xolisona amal qilurlar:  
Basharti Zevs irodasi ila sendan ustun chiqsamu  
Qurolim-la joning olsam, jasadingni tahqirlamayman;

260. Faqat ajib sovutingni echib olib, mirmidonlarga  
Qaytib bergum jasadingni; sen ham amal qilgil shu shartga”.  
Chaqqonoyoq Axill unga o‘graygancha baqirib berdi:  
“O, sen manfur ag‘yor Hektor, menga taklif qilma shartningi!  
Sher va odam orasida bo‘lmagan va bo‘lmas ittifoq;

265. Hech qachon qo‘y bo‘ri bilan do‘sst va totuv yashay olmagay;  
Ular mudom bir-biriga qarshi g‘addor g‘anim erurlar, -  
Xuddi shunday, ikkimizning o‘rtamizda hech qanday mehr  
Yoki bitim zohir bo‘lmas, to bittamiz jondan ayrilib,  
O‘z qoni-la qahhor Arey chanqog‘ini qondirmaguncha!

270. “O, dilovar, ishga sol harb san’atingni! Zeroki, bugun  
Sen eng mohir nayzaandoz va mard jangchi bo‘lmog‘ing kerak!  
Qochmoqqa hech imkoning yo‘q; tezda mening mis nayzam ila  
Afina mahv etgay seni; ana shunda birvarakayga  
Janggohda sen halok qilgan do‘stlarimning xunin olgayman!”

275. Dedi u va cho‘ng nayzasin qulochkashlab turib itqitdi.

Dubulg‘ali obdor Hektor buni ko‘rib chap berib qoldi;  
U engashdi, tepasidan uchgan nayza sanchildi yerga;  
Lek Pallada troyalik mard Hektorga ko‘rinmay turib,  
Uni erdan sug‘urdiyu Axillesga tutqazdi yana.

280. Hektor baland ovoz bilan na’ra qildi Peley o‘g‘liga:  
“Zarbang bekor ketdi, qattol! Sen ma’budvash, eshitmagansan  
Qismatimni tangri Zevsdan, garchi, shunday degan bo‘lsang ham;  
Shunchaki, sen makr ila quruq vaysab, meni – Hektorni  
Qo‘rqiitmoqchi, jasoratim va qudratim qirqmoq bo‘lgansan,

285. Yo‘q, qochmam men; nayzangni sen kuragimga sancholmagaysan,  
Mard bo‘lsang, tik ko‘ksimga sanch tangri xohish bildirsa magar.  
Illo mening nayzamdan ham ehtiyot bo‘l! O, koshki edi  
Uning o‘tkir tig‘in sening alp to‘shingga botira qolsam!  
Ilionli o‘g‘lonlar-chun bu qonli jang yengil ko‘chardi,

290. Gar seni men mahv etolmasam-seni; xalqing mash’um ofatin! ”  
Dedi u va, cho‘ng nayzasin qulochkashlab turib itqitdi,  
Borib tegdi nayza Axill qalqoning qoq o‘rtasiga;  
Vale nayza urildiyu chatnab qaytdi ortga qalqondan.  
Hektor ko‘rib xafa bo‘ldi nayzasining zoe ketganin;

295. Esankirab qolgandi u; o‘zga nayza yo‘q edi qo‘lda.  
Shunda yangroq ovoz bilan inisini yordamga chorlib,  
Nayza talab qildi; ammo g‘oyib bo‘lgan edi Deifob.  
Buni Hektor o‘z qalbi-la his etdiyu dedi o‘ziga:  
“Ne nadomat! Menga o‘lim yo‘llamoqda boqiy tangrilar!”

300. Jasur inim Deifobni menga qo‘ldosh deb o‘ylagandim;

Ilionda o‘ltirur u; laqillatdi meni Pallada.

Yonboshimda turur O‘lim! Qocholmayman enda men undan!

Yo‘qdir najot! Shubhasizki, avvallari pushtipanohim,

Xaloskorim bo‘lganZevs va Zevs o‘g‘loni Apollon

305. Shunday Hukm chiqarganlar; mana, chiqdi qismatim hukmi!

Lek bekorga o‘lmam, xoki turob bo‘lmam shuhrat qozonmay;

Bir jasorat ko‘rsatayki, avlodlarga yetsin dovrug‘im! ”

Shunday deb, u chap yonga osilgan cho‘ng g‘ilofdan ulkan,

Nihoyatda o‘tkir, zalvar shamshirini sug‘urdi jahd-la;

310. Bulutlardan ham balandda uchib yurib, to‘satdan yerda

Bir quyon yo qo‘zichoqni ko‘rib qolgan ochofat burgut

Sho‘ng‘igandek birdan pastga, - mard Hektor ham butun kuchini

Yig‘ib, birdan olg‘a yurdi silkigancha qattol shamshirin.

Axelles ham hamla qildi butun qalbi to‘lib g‘azabga;

315. U muhtasham va serbezak qalqoni-la to‘sdi ko‘ksini;

Tebranardi boshidagi to‘rt vatlamlichon‘g dubulg‘asi,

Bu dubulg‘a cho‘qqisiga – tarog‘iga Hefest qo‘li-la,

Qo‘ndirilgan oltin rangli bir tutam yol elpinar edi.

Zulmat tunda yulduzlarning orasida cho‘lpon yulduzi

320. Qanday go‘zal shu’la sochib porlab tursa kechki shafaqdek, -

Axellesning g‘oyat ajib nayzasi ham porlardi shunday;

O‘ng qo‘liga ushlab uni Priamzodning jonin olmoqqa

Chog‘lanarkan, axtarardi raqibining qaltis yerini.

Lek Hektoring butun jismi, Patroklni o‘ldirganida

325. Yechib olgan hashamatli missovut-la to‘silgan edi.

Faqat uning o‘mrovidan sal yuqori – halqumigina  
Ochiq qolgan ediki, shu edi yolg‘iz zaif tomoni;  
Ela kelib nayza sanchdi Axill uning shu halqumiga;  
Mard Hektorning oppoq bo‘ynin teshib o‘tdi ajalkash nayza,

330. Faqat uzib yubormadi butkul uning kekirdagini,  
To o‘limi oldidan u ayta olsin ikki og‘iz so‘z;  
U zaminga “gurs” quladi, - na’ra tortdi Axilles shodon:  
“Patroklni o‘ldirib sen o‘zing tirik qolmoqchi eding!  
Sen mendan ham hayiqmading, jang qilmasdan turgan chog‘imda,

335. Yo‘q, ey nodon g‘anim! Axeys kemalari panasida men –  
Uning sendan ming bor kuchli qasoskori – men turgan edim.  
Ha, men sening tizing bukdum! Yem bo‘lgaysan itu zog‘larga,  
Patroklni esa izzat bilan dafn qilur danaylor”.  
Dubulg‘asi obdon Hektor dedi unga zo‘r-bazo‘r ihrab:

340. “Aziz joning, ota-onang haqqi, sening poying quchaman.  
Yolboraman, otma jismim mirmidonning it, zog‘lariga;  
Sen og‘zingga siqqanicha mas va oltin so‘ra men uchun;  
Aytganingni yuborurlar padarim va mehribon onam;  
Jasadimni qaytarsang bas, toki jami troyaliklar

345. Aza tutib, izzat bilan jismimni o‘tga qo‘ysinlar”.  
Chaqqonoyoq shox Axilles dedi unga xo‘mrayib turib:  
“Sen, it, bekor quchma poyim, tilga olma otam-onamni!  
Quloq ossam g‘azabimga, o‘zim go‘shtingni yegan bo‘lardim.  
Seni tilka-pora qilib, - bizga shuncha badkorlik qilding?

350. Yo‘q, hech bir kas jasadingni kemirayotgan itni haydmas!

Agar menga o'n, yigirma marta ortiq beba ho tuhfa  
Olib kelib, yana shuncha boylik va'da qilishganda ham;  
Shoh Priam vazningga teng oltin tortib berganda ham;  
Hekuba o'z tuqqan o'g'lin ko'rolmaydi o'lim to'shakda,

355. Boshing uzra to'yib-to'yib yig'lolmaydi onaizoring;  
Jasadningni quzg'unlaru itlar talon-taroj qilgayilar!"  
Dubulg'asi obdon Hektor dedi unga jon berar ekan:  
"Sezgan edim iltijomni inobatga olmasligingni:  
Kimligingni bilar edim; toshdan ekan yuraging sening.

360. Shoshma hali, sen nechog'lik iqtidorli bo'lma, baribir.  
Paris ila cho'ng mergan Feb seni Askey darvozasida  
Mahv etganda, men tangrilar qahri bo'libzohir bo'lgayman!"  
Hektor shunday dediyu shum o'lim yumdi uning ko'zini;  
Jismini tark etib ruhi, asta tushar ekan Aidga,

365. Zorlandi kuch va yoshligin tortib olgan talx qismatidan.  
Peleyzoda yana xitob qildi shunda o'lik jasadga:  
"Sen o'laver! O'z muqarrar o'limimni men adl turib  
Kutib olgum, chaqmoq dor Zevs va tangrilar ravo ko'rgan on!"  
Shunday deya tortib oldi u jasaddan nayzani

370. Va bir chetga otib uni, mard Hektoring qonli sovutin  
Yecha ketdi. O'zga axey mardlari ham keldilar elib.  
Hamma hayrat bilan boqar pahlavonning bo'yi-bastiyu  
Jamliga va sanchardi bir-bir kelib unga nayzasin.  
Ba'zi erlar bir-biriga yuzlanishib shunday dedilar:

375. "Qara, Hektor kemalarga o't qo'ymoqchi bo'lgan chog'iga

Qaraganda, ancha mo‘min va muloyim bo‘lib qoptimi? ”  
Ko‘plar shunday der edilar, yaqinlashib tig‘ sancharkanlar.  
Lekin shu payt Peleyzoda yechintirib bo‘lib jasadgt,

380. “O, yoronlar, mard axeylar, o, Areyning jasur lashkari!  
Bir o‘zi o‘z lashkaridan ko‘p yovuzlik qilgan bu yerni  
Mahv etishga noil qildi oxir meni boqiy tangrilar.  
Endi hujum qilgaymiz biz metindevor azim shaharga;  
Hujum qilib, uning ahlin niyatini bilib olgaymiz;

385. Endi Hektor o‘lgandan so‘ng, tark eturmi ular qal’ani,  
Yoki uni muhofaza qilurlarmi sarkardasiz ham?  
Evoх, nechun bunday xayol qutqu solur mening qalbimga?  
Bandargohda dafn etilmay yotur hamon do‘stim Patrokl!  
Hali tirik ekanman men, yurarkanman tiriklar aro,

390. Oyoqlarim harakatda ekan aslo unutman uni!  
O‘lgan banda xotirasin yo‘qotadi Aidga tushgach;  
Hatto o‘shal maskanda ham unutmam men sodiq do‘stimni!  
O, axeylar, keling endi kuylagancha zafar qo‘shig‘in  
Priamzodning jasadini bandargohga sudrab boraylik.

395. Biz munavvar zafar quchdik! Halok bo‘ldi ilohiy Hektor!  
Troyalik mardlar xudo deb sig‘ingan dilovar Hektor!”  
Deb, noshoist bir ish qildi Peleyzoda jasadni xo‘rlab:  
U Hektoring tovoni vak to‘pig‘ining orasidagi  
Payni teshib, undan tasma o‘tkazdi-da jangarobaga

400. Bog‘lab qo‘ydi tasma uchin; jasad boshi sudraldi yerda;  
Arobaga chiqdiyu u ko‘z-ko‘z qilib nodir sovutni,

Qamchi urdi otlariga: mute otlar yeldi shamoldek,  
To‘zon turdi yer sidirib borayotgan jasad ortidan;  
Priamzodning bir vaqtlar ko‘p bejirim bo‘lgan boshi ham,

405. Uning qora sochlari ham changga botdi; bu ulug‘ boshni  
O‘z yurtida tahqirlardi endi g‘anim Zevs xohishi-la!  
O‘z dilbandin changga botib xor bo‘lganin ko‘rgan volida  
Yulib oppoq sochlarini, boshidan o‘rtugin otib,  
Oh urgancha o‘g‘lin qo‘msab, achchiq-achchiq yig‘lay boshladi.

410. Achchiq-achchiq kshz yosh qildi keksa ota; butun aholi  
Aza tutdi; ohu noma bosib ketdi butun shaharni.  
Go‘yo azim Ilionni poyidan to cho‘qqisigacha,  
U boshdan-bu boshiga yong‘in qamrab olganday edi!  
O‘zin Askey qopqasiga otib, janggoh chiqmoqchi bo‘lgan

415. G‘amnok cholni zo‘rg‘a ushlab turardilar troyaliklar.  
Mahzun podsho har bir erni nomin atab, oyoqlariga  
Yiqilarkan, o‘ksib-o‘ksib yig‘lar edi iltijo qilib:  
“Tutmang meni, o, azizlar, qo‘ying, chiqay shahar tashiga!  
Borgum o‘zim mirmidonlar kemalari poyiga yolg‘iz

420. Va yolborgum ul bag‘ritosh, bediyonat Peleyzodaga.  
Oq soqolim hurmati, u shafqat qilar men qariyaga;  
U ham inson, munkillagan padari bor uning ham mendek;  
Keksa Peley Troyaning sho‘ri qilib o‘stirdi uni,  
Valekin yuz karra mening – Priamning sho‘ri bo‘ldi u!

425. U ne-ne yosh o‘g‘illarim xag‘on qildi muhorabada!

Hammalarin o‘lganlari bir bo‘ldiyu, sarlochinimdan  
Ayrilganim o‘zi ham bir azob bo‘ldi; bu anduh meni  
Go‘rga tiqqay! O, koshkiydi jon bersa u shu qo‘llarimda  
Hech bo‘masa yig‘lab-yig‘lab yuragimiz bo‘shatardik biz, -

430. Biz, notavon ota bilan baxtiqaro ona ikkimiz!”  
Ho‘ng-ho‘ng yig‘lab dedi podsho; jo‘r bo‘ldilar troyaliklar  
Hekuba ham xotin-xalaj ichra mungli yig‘lay boshladi:  
“Nuridiydam, ne azobga qoldirding men – baxtiqaroni?  
Ilionda mening yolg‘iz faxrim eding kechayu kunduz,

435. Sen suyangan tog‘i eding erkak, ayol, yoshu qarining!  
Har yerda el pushtipanoh xudovanddek xushlardi seni:  
Sen Troya elin buyuk iftixori eding, toychog‘im,  
Bag‘rimizdan tortib oldi o‘lim sendek aziz insonni!”  
Lek Hektorning ahvolini bilmas edi uning zavjas;

440. Hali hech kim darvozadan tashqarida, jang maydonida  
Uning o‘lib yotganini aytmagandi yugurib kelib  
U qasrning eng chekka bir go‘shasida qirmizi mato  
To‘qir edi, ajib turqa gullardan naqsh solib sathiga  
Sal oldinroq amr etgandi u sumbulsoch joriyalarga,

445. Mahobatli sepoyaning ostiga o‘t qalab, janggohdan  
Xorib qaytgan Priamzodga suv isitmoq lozimligini.  
Sho‘rlik xotin! U Hektorni keng dalada Axill qo‘li-la  
Afineya o‘ldirganin xayoliga ham keltirmasdi.  
Birdan faryod qilgan sasni eshitdi u minora yoqdan,

450. Vujudi bir seskandiyu tushib ketdi qo‘ldan urchug‘i;

Turib ketdi u o‘rnidan dedi ikki joriyasiga:

“Qani turing, yuring men-la, kshrmochiman ne bo‘lganini;  
Qaynotamning ovozini eshiturman; qalbim hapqirib  
Chiqmoq bo‘lur o‘z qinidan; tizzalarim qaltiramoqda!

455. Priamzodlar boshiga bir shum falokat tushmadimikin?..

O! Daf bo‘lsin xunuk xabar! Lek baribir qalbim larzada...  
Yo ehtimol tangrimonand mard Hektorni dashtda Axilles  
Qopqa yoqqa yo‘lin kesib quvyapkandir yakka o‘zini?  
Tag‘in erim jasoratdan bevaqt judo bo‘lmadimikin?

460. Botir G‘ektor hech vaqt o‘zin urmas edi olomon ichra;

Doim olg‘a otilardi, jasoratda beqiyos edi! ”  
Shunday deb u o‘z ko‘shkidin elib chiqdi hayajon ila  
Go‘yoki bir menadadek: joriyalar ergashdi unga;  
Uchib chiqdi minoraga, odamlarning orasin yorib

465. Olg‘a o‘tdi va atrofga ko‘z yogurtib devor boshidan,

Boshdan-oyoq changga botgan bir jasadni ko‘rdi dalada, -  
Otlar axey kemalari tomon sudrab borardi uni.  
Andromaxa ko‘z oldini birdan qora zulmat burkadi;  
Bir oh urib hushdan ketdi u chalqancha yiqilar ekan.

470. Boshidagi hashamatli bog‘ichlar ham, ajib uqadan

Jiyagi bor nafis to‘r ham, oltin tojli Afroditaning  
Armug‘oni – urtugi ham uchib ketdi(pahlavon Hektor  
Bir vaqlar bisyor qalin evaziga Andromaxani  
Etionning maqomidan o‘z uyiga olib ketganda,

475. Bu bebaho urtukni hur Afrodita tuhfa qilgandi).

Quti o‘chgan, g‘am adoyi tamom qilgan Andromaxaning  
Atrofida ovsin, qayin singillari parvona edi.  
U hushiga kelib oxir ququr bir tin oldiyu so‘ngra  
Achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kib varyod chekdi ayollar ichra:

480. “Sho‘rpeshona ekanman men, O Hektorim! Ikkalamiz ham  
Badbaxt bo‘lib tug‘ilmiz: sen – Priam koshonasida,  
Men – Fivada, Plak tog‘in yon bag‘rida, shoh Etionning  
Maqomida; badbaxt otam meni – badbaxt qizin papalab  
Katta qildi. O, yaxshiydi bu kunimdan tug‘ilmaganim!

485. O, shaharim, sen Aidga – yer qa’riga rixlat etyapsan  
Men bevani gamu anduh og‘ushiga tashlab tamoman:  
Enda ikki benavodan dunyo kelgan sho‘rlik o‘g‘limiz  
Yyetimlikning mashaqqatin tortur mudom! O, endi na sen  
Unga homiy bo‘lolasan, na u senga tayanch bo‘ladi!

490. Hattoki u axeylarning qirg‘inidan omon qolsa ham,  
Qolgan umri og‘ir mehnat, qayg‘u-hasrat bilan o‘tadi;  
Begonalar tortib olur yetimchaning yerusuvini.  
Mahrum bo‘lur sho‘rlik yetim do‘stlaridan, boshpanasidan:  
Ko‘zlari nam va boshi xam tentib yurar bolam bechora.

495. Gado bo‘lib otasiga do‘st bo‘lganlar uyiga borsa  
Va goh uning, goho buning etagidan ohista tortsa, -  
Ba’zilari rahm qilib qadah tutgay yetim og‘ziga, -  
Ammo labi nam bo‘lar-u, tomog‘iga yetmas tomchi ham.  
Ba’zan uni ko‘kragiga turtib haydar ota-onasi

500. Tirik bolaostonadan dilni vayron qiluvchi so‘z-la:

- Tur, yo‘qol, ket! Padaring yo‘q uyimizda mehmonlar aro –  
Avvallari otasining tizzasida o‘tirib olib,  
Qo‘y iligi va go‘shtini to‘yib egan Astianaksim  
O‘ksib-o‘ksib yig‘lagancha beva ona qoshiga kelar;

505. Bir vaqtlar o‘ynab-o‘ynab charchaganda, enagasining  
U orombaxsh quchog‘ida, par to‘sakda bamaylixotir  
Shirin uyqu og‘ushida to‘ygunicha uxlardi yotib.  
Ahvoli ne kechgay endi bu bepadar Astianaksning, -  
Shu nom bilan atardilar uni doim troyaliklar,


510. Zero, faqat sen qopqani muhofaza qilganding, Hektor;  
Endi bo‘lsa yov kemasi etagida, bizdan yiroqda  
It g‘ajigan qip-yalang‘och jasadangni qurtlar kemirar!  
Yalang‘ochsan! Lek ayollar to‘qib, tikkan nafis va go‘zal!  
Liboslaring koshonangda gard tegmasdan yotur besanoq!

515. Ular barin endi o‘tga tashlagayman men baxtiqaro!  
Darkor emassenga ular, kiyolmaysan ularni endi!  
El oldida yoqqum sening sharafingga jami libosing!”  
Shunday nola qilardi u; jo‘r bo‘lardi barcha xotinlar.

(Qodir Mirmuhamedov tarjimasi)

## HESIOD

(M.o. VIII-VII asrlar)



Hesiodning hayotiga doir ma'lumotlar kam bo'lsada, tarix sahifalarida saqlanib qolgan. U qadimgi Yunon adabiyotidagi hayoti haqida aniq ma'lumotlar yetib kelgan birinchi ijodkor sanaladi. Uning otasi Kichik Osiyoning Kim degan yerida tug'ilgan, keyinchalik Yunonistonning asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi Beotiya viloyatiga ko'chib o'tgan. Shoir o'zi haqidagi ba'zi bir ma'lumotlarni "Mehnat va kunlar" dostonida keltiradi, ya'ni u otasi kabi yoshligidan dehqonchilik bilan shug'ullangan, shu bilan birga Evbeya orolida o'tkazilgan rapsod(baxshi)lar musobaqasida qatnashib, faxrli sovrinni qo'lga kiritgan. Hesiod qadimgi Yunonlar nazarida Homer bilan bir safda turuvchi ulug' shoir bo'lgan.

Yunon qahramonlik eposi o'z ichiga didaktik elementlarni ham qamrab olgan, jumladan, Homer dostonlaridagi Nestorning o'git va nasihatlari didaktik poeziyaga misol bo'la oladi. Biroq, Hesiodning "Mehnat va kunlar" dostoni inson mehnatining ulug'vorligi, adolatning barqarorligi va mehnat ahlining tirikchiligi yo'lida uchraydigan boshqa turli-tuman masalalar haqida inisi Persga qarata aytilgan pand-nasihatlar tarzida yozilgan *birinchi didaktik* asardir.

"Mehnat va kunlar" dostonining ijodkori hayotning jamiki boyliklari faqat mehnat tufayli bunyod etilganligini asarning boshidan oxiriga qadar qayta-qayta takrorlaydi. Doston o'zining zamonaviy mazmuni, ajoyib realistik lavhalar bilan Yunon adabiyoti tarixida favqulotda muhim o'rinni egalladi.

Mazkur asarda Hesiod mustahkam oila hususidagi qarashlarni ham bayon etadi. Unga ko'ra er kishi ishq-muhabbat ehtiroslaridan o'zini tiyishi, o'ttiz yoshga to'lganda yosh qizga uylanishi lozim deb maslahat beradi. Chunki yosh qizlarni nozik axloq qoidalariga o'rgatish oson kechadi. Hesiod oilada o'g'il bittadan ko'p bo'lsa tomorqani taqsimlashda muammolar paydo bo'lishidan ogohlantiradi.

“Mehnat va kunlar” dostonidan tashqari yana ikkita doston - “Teogoniya” va “Ayollar jadvali” asarlari Hesiod nomi bilan bog‘lanadi.

“Teogoniya” (“Ma’budlarning paydo bo‘lishi”) dostonida qadimgi Yunonlarning Xaos va Yerdan paydo bo‘lgan koinot, Uran(Osmon), Kron va Zevs boshqargan turli ma’budlarning kelib chiqishi haqidagi tushunchalari, mifologik e’tiqodlari bayon qilinadi. Muallifning ta’kidlashicha, Zevs taxtni ko‘plab jinoyatlar sodir etgan otasidan tortib oladi va hokimiyatini mustahkamlash uchun Kronning qarindoshlari bo‘lgan titanlarga qarshi mashaqqatli kurash olib boradi. Titanlar va dahshatli mahluq Tifoya qarshi olib borilgan janglarning bayoni, Samoda va Yerda odil tartib o‘rnatgan qudratli hamda dono hukmdor Zevsni ulug‘lash asarning kulminatsiyasini tashkil qiladi.

“Ayollar jadvali” ham mazmun jihatidan “Teogoniya” dostoniga ancha yaqin bo‘lib – asar biror ma’buddan atoqli qahramon farzand ko‘rgan ayollarga bag‘ishlangan. Dostondan turli hajmdagi parchalar saqlanib qolgan bo‘lib, ahamiyatli jihat shundaki, ularda Homer dostonlarida uchramaydigan, lekin keyingi davrlarda xor lirkasi va tragediyalarda keng foydalanilgan miflar keltirilgan.

M.o. VI asrda didaktik epos negizida falsafiy doston janri shakllandi va Hesiodning “Teogoniya” asari an’analari shoir-faylasuflar Ksenofan(tax. m.o. 565 – 470 y.), Parmenid(m.o. VI asr oxiri – V asr boshlari), Empedokl(tax. 495 – 435 y.) tomonidan davom ettirildi.

Antik davr tanqidchiligi Hesiod bayon uslubiga hos quruqlikni inkor etmagan holda dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho bergenlar. Tarixchi Gerodot (m.av. V asr) ikki daho shoir – Hesiod va Homer ellinlarga ma’bud va ma’budalarning kelib chiqish tarixini bayon qilish bilan birga ularning ismlariga epitetlar bilan ta’rif bergenini ta’kidlagan edi.

## QAHRAMONLAR

### BESH ASR

*Hesiodning «Mehnat va kunlar» dostoni asosida bayon etilgan*

Nurafshon Olimpda yashayotgan umriboqiy xudolar ilk inson zotini baxtli qilib yaratishgandi. Bu o‘ziga xos oltin asr edi. O‘shanda osmonda ma’bud Kron hukmronlik qilardi. O‘sha zamonlarda odamlar mas’ud ma’budlar yanglig‘ na tashvish, na mashaqqat va na g‘am-alamni bilardi. Ularga bemajol keksalik ham yet edti. Ularning qo‘l hamda oyoqlari hamisha kuchli va baquvvat edi. Beozor va saodatlari hayotlari esa mangu ziyoftlardan iborat edi. Uzoq umr ko‘rgandan so‘ng boshga tushgan o‘lim ular uchun osoyishta va osuda uyquni eslatardi. Ularning tirik chog‘idagi turmushi farovon va badastur bo‘ldi. Erning o‘zi beqiyos boylik baxsh etardi, shu boisdan mehnat sarflab, yerga ishlov berishga to‘g‘ri kelmaydigan shirin-shakar mevalar keltiruvchi bog‘larni aytmaysizmi! Podalarining soni-sanog‘i yo‘q edi, ular sero‘t sayxonlarda bemalol o‘tblab yurardilar. Oltin asrda yashayotganlar tinch va osuda hayot kechirashardi. Xudolar odamlar bilan bamaslahat ish qilishardi. Biroq oltin asr abadiy emas ekan, tamom bo‘ldi, o‘sha odamlar avlodidan hech kim qolmadi. Oltin asr odamlari o‘lgandan keyin arvoхlar yangi avlod kishilarining homiylariga aylanib ketdi. Ular tumanga chulg‘angan holda yelib, haqiqatni muhofaza qiladilar, yovuzlikni jazolaydilar. Ularni o‘limdan so‘ng Zevs shunday taqdirlagan edi.

Ikkilamchi odam zoti va ikkilamchi asr birlamchisidek baxtli emasdi. Bu kumush asri edi. Kumush asri odamlari oltin asri odamlariga na kuch-qudratda, na aqlan teng edilar. Ular onalari bag‘rida aqli nuqsligicha yuz yillab yashar, voyaga yetar, o‘shandagina ularni tark etishardi. Kamolot yoshiga etganda ko‘p yashamasdilar, aqlsizliklari tufayli hayotda ko‘pincha baxtsizlik va g‘am-alamni boshdan kechirar edilar. Kumush asrining odamlari itoatkor emasdi. Umriboqiy ma’budlarga tobeklik bajo keltirishmas, ularga qurbanlik keltirishni istamasdilar. Kronning buyuk o‘g‘li Zevs er yuzidan ularning urug‘ini butunlay quritdi. Zevs ulardan nurafshon Olimpda yashayotgan ma’bularga tobe bo‘limganliklari uchun g‘azablanardi. Zevs ularni yer qa’ridagi zulumot sultanatiga ko‘chirdi. U erda ular

na shodlikni, na g‘am-alamni bilib yashaydilar. Ularga odamlar hurmat bajo keltirardilar, xolos.

Hazrati Zevs uchlamchi zot va uchlamchi asr – mis asrini yaratdi. Lekin u kumush asriga o‘xshamasdi. Zevs nayza dastasidan dahshatli va qudratli odamlarni vujudga keltirdi. Mis asrining odamlari nolayu afg‘on keltiruvchi urush va takabburlikni ma’qul ko‘rishdi. Ular ziroatchilikni bilmas, ular bog‘lar va dalalar baxsh etayotgan samaralardan bebahra edilar. Zevs ularga ulkan bo‘y va engilmas kuch-qudrat ato etgan edi. Ularning qalbi sarkashlik va jasoratga to‘la, qo‘llari esa bukilmas edi. Ularning quroq-aslahasi misdan, uylari ham misdan bo‘lgan, ularning ish quroli ham misdan edi. O‘sha zamonlarda qora temirni hali bilishmasdi. Mis asrining odamlari bir-birovlarini o‘z qo‘llari bilan mahv etishardi. Ular ko‘p yashamasdan qop-qorong‘i va vahshatli Aid sultanati – Yer qa‘riga kirib ketardilar. Nechoq‘lik kuchli bo‘lishmasin, baribir ularni beshafqat o‘lim olib ketardi, shu zayl yorqin quyosh yog‘dusini bevaqt tark etardilar.

Mazkur zot ko‘lankalar sultanatini ixtiyor etdi deguncha buyuk Zevs shu zahotiyoq hammani boquvchi zamin uzra ancha oljanob, ancha odil yarimxudolar deb atalgan qahramonlarga teng keladigan yangi odamzotni yaratdi. Ular ham manfur urush hamda dahshatli janglarda halok bo‘lib ketishdi. Ba’zilari yetti darvozali Fiva yonida, Kadm mamlakatida Edipdan qolgan meros uchun kurashib halok bo‘ldilar. Boshqalari zebo kokilli sohibjamol Yelenani o‘g‘irlash uchun o‘z kemalarida keng dengizni suzib o‘tib, Troya yonida halok bo‘lishdi. Ularning barchasi o‘limga duchor bo‘lgach, yashinchaqnatar Zevs ularni tirik odamlar ko‘zidan uzoqqa, yerning narigi chekkasiga ko‘chirdi. Yarimxudo qahramonlar O‘qyonusning suronli suvlariga yaqin orollarda saodatmand va beg‘am hayot kechirishardi. U yerlarda yer bir yilda uch marta asalday shirin hosil keltiradi.

So‘nggi, beshinchchi asr odamzotning temir davridir. U yer yuzida hamon davom etarkan, tun-kun tinim bilmay g‘am-anduh va tinkani quritadigan mashaqqatli mehnat odamlarni halok etadi. Ma’budlar odamlarni og‘ir tashvishlarga duchor qiladi. To‘g‘ri, xudolar yovuzlik va yaxshilikni bir-biriga aralashtirib yuborishsa-da, baribir yovuzlik ustun, u hamma joyda hukmrondir.

Bolalar ota-onani mensimaydilar. Do'st do'stga sodiq emas. Mehmon mehmonnavozlikdan mahrum. Aka-uka o'rtasida mehru oqibat yo'q. Kishilar ichgan ontlariga rioya qilmaydilar, haqiqat va ezgulikning qadriga yetishmaydi. Vijdon va odilhakamlik ma'budalari odamlarni mutlaqo tark etgan. Ular o'zlarining oq liboslariga burkanib, sarbaland Olimpdagi umriboqiy tangrilar tomon parvoz etib ketdilar, odamlar og'ir musibatga hukm etilgan bo'lib, yovuzlikdan himoyalanishga ham ojizdirlar.

## DEVKALION VA PIRRA

*(TO 'FON)*

Mis asrining odamlari xiyla katta jinoyatlarga yo'l qo'yishdi. Takabbur va murtadlar Olimp xudolariga bo'yin egishmadi, shu boisdan yashinchaqnatar Zevs ularga qahrini sochdi. Zebsni alalxusus Arkadiyadagi Likosura podshosi Likaon g'azablantirgan edi. Kunlardan bir kun Zebs oddiy odam sifatida Likosuraga keldi. U yerda yashovchilar uning xudo ekanligini bilishlari uchun ularga karomat ko'rsatdi, barcha xaloyiq uning oldida tiz cho'kib, uni xudo o'rnida ko'rib, ehtirom bajo keltirishdi. Yolg'iz Likaongina Zevsga hurmat ko'rsatmadni va unga ehtirom bajo keltirganlar ustidan kului. Keyin Likaon Zebsning xudoligini sinashga qaror qildi. U saroyida istiqomat qilib turgan garov tariqasida olingan odamni o'ldirib, jasadining bir qismini pishirib, bir qismini qovurib, buyuk yashinchaqnatarga yemak sifatida taklif etdi. Zebs uning bunday ablalhligidan qattiq g'azablandi. Yashin zarbasi bilan Likaonning saroyini vayronaga, o'zini esa qonxo'r bo'riga aylantirdi.

Odamlar battar murtadlashdi, buyuk bulutquvar, qattiqqlar Zebs odam zotini mahv etishga qaror qildi. U yer yuziga shunday jala quydirdiki, hamma narsa suv tagida qoldi. Zebs shamollarning esishini man etdi, faqat rutubatli janub shamoli Not osmon bo'ylab qora bulutlarni haydardi. Yerga chelakdan quyganday jala yog'ardi. Dengiz va daryolar suvi hamon baland ko'tarilar, butun borliq suv ichra suzar edi. Shahar devorlari, ibodatxona va uylar suv ostida qolib ketdi, hatto shahar devorlaridan ancha yuksak bo'lgan minoralar ham ko'rinmay qoldi. Borgan sayin

hamma narsa – o‘rmonlar bilan qoplangan tepaliklar, baland cho‘qqili tog‘lar ham suv tagida qoldi. Butun Yunoniston dengizning quturgan to‘lqinlari ostida g‘oyib bo‘ldi. Faqat ikki boshli Parnasning cho‘qqisigina to‘lqinlar o‘rtasidan qad ko‘targan edi. Ilgari dehqon o‘z dalalariga ishlov bergan va marjon donasiday uzum shodalariga kon bo‘lgan tokzorlar o‘rnida baliqlar suzar, suv bilan qoplangan o‘rmonlarda esa delfinlar to‘dasi yayrardi.

Mis asridagi odamzot shu zaylda halok bo‘lgan edi. Ushbu halokat chog‘ida ikki nafar kishigina omon qolgandi – biri Prometeyning o‘g‘li Devkalion va xotini Pirra. Otasining maslahatiga ko‘ra Devkalion ulkan quti yasadi, uni eguliklar bilan to‘ldirib, ichiga xotini bilan o‘zi kirib oldi. Devkalionning qutisi to‘qqiz kechayu to‘qqiz kun butun rub‘i maskunni qoplagan dengiz to‘lqinlari uzra yelib yurdi. Nihoyat, to‘lqinlar uni ikki boshli Parnas tog‘i cho‘qqisiga olib chiqishdi. Zevs yuborgan jala tindi. Devkalion va Pirra qutidan eson-omon chiqib olishdi. Ularni quturgan to‘lqinlar girdobida omon qoldirgani uchun Zevsga minnatdorlik ramzi sifatida qurban keltirishdi. Suv chekinib, tag‘in to‘lqinlar tagidan cho‘lday bo‘mbo‘sh bo‘lib qolgan yer ko‘rindi.

O‘shanda purqudrat Zevs xudolar xabarchisi Hermesni Devkalion huzuriga yubordi. U bo‘shab qolgan yer uzra shamolday yelib, Devkalion huzurida hoziru nozir bo‘ldi va unga dedi:

– Ma’budlar va odamlar hukmdori Zevs sening olijanobligingni inobatga olib, qanday mukofotni tanlashingni amr etdi. Istagingni bayon etsang bas, Kronning o‘g‘li uni albatta bajo keltiradi.

Devkalion Hermesga shunday javob berdi:

– O, buyuk Hermes, Zevsdan yagona istagim, toki u yer yuzini tag‘in odamlar bilan obod etsa.


Ildamqadam Hermes nurafshon Olimpga yetib keldi va Zevsga Devkalionning iltijosini bayon etdi. Buyuk Zevs Devkalion da Pirraga toshlarni yig‘ib, ularni orqaga o‘grilmasdan boshdan oshirib tashlashni amr qildi. Devkalion qudratli yashinchaqnatarning amrini bajo keltirdi, o‘zi tashlagan toshlardan erkaklar, xotini Pirra tashlagan toshlardan xotinlar yaraldi. Ana shu zayl Yer

to‘fondan so‘ng yana odamlar maskaniga aylandi, unda yangi – toshdan yaralgan odam zoti yashay boshladi.

*(Rus tilidan Poshali Usmon va Fazliddin Shukur tarjimasi)*

## EZOP

(Akadroz) ( tax. m.o. VI asr)



Masalchilikning otasi deb hisoblangan yarim afsonaviy Ezop – miloddan oldingi VI asrda yashagan. Rivoyatlarga qaraganda, aslida u frigiyalik qul bo‘lib, keyinchalik ozod qilingan. Lidiya shohi Krez saroyida xizmatda bo‘lgan, Delfada erli xalq bilan bo‘lgan janjalda qoyadan uloqtirib o‘ldirilgan. Antik davrda ma’lum bo‘lgan deyarli barcha masallarning syujeti Ezopniki deb hisoblangan. Ular miloddan avvalgi V- IV asrlardan boshlab to‘planib, yozib olingan va “Ezop masallari” kitobiga kiritilgan. Milodiy X-XV asrlardagi qo‘lyozmalarda 300 dan ortiq shunday masal saqlanib qolgan.

Aksariyat syujetlari Shumer og‘zaki va yozma adabiyotiga borib taqaluvchi Yaqin Sharq masallariga yaqin turuvchi Ezopning nasriy masallari g‘oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari(asosan, hayvonlar) o‘ta shartli. Voqealar ixcham bayon qilinib, pand-nasixat bilan yakunlangan, tili sodda, jonli tilga yaqin. Masalchining ismi bilan yashirin ma’nosи bo‘lgan fikrlar *ezop tili* deb atala boshlagan. Yevropa masalchiligi syujetining asosini Ezop masallari tashkil etgan. Ezopning ta’sirini keyingi davr masalchilarining deyarli barchasida, jumladan, fransuz yozuvchisi Lafonten(XVII asr), nemis adibi Lessing(XVIII asr), rus masalnavisi Krilovda sezish mumkin. “Dehqon bilan o‘g‘illari”, “Bog‘bon bilan o‘g‘illari”, “O‘g‘ri bilan onasi”, “Yolg‘onchi cho‘pon” masallardagi syujet va motivlarni o‘zbek xalq ertaklari(“Birlashgan o‘zar” ertagi), A. Navoiyning “Hayrat ul abror” asaridagi “Yolg‘onchi cho‘pon” hikoyatida uchratish mumkin.

## **EZOP MASALARIDAN NAMUNALAR**

### **BURGUT, ZAG‘CHA VA CHO‘PON**

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut suruvdagi qo‘zichoqni ildi-yu ketdi. Zag‘cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib, o‘zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag‘cha jon-jahdi bilan chinqirgancha bir qo‘chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o‘ralashib qoldi-yu, na uchishga va na qochishga imkon topoldi. Uning jon holatda pitirlayotganini ko‘rgan cho‘pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib tashlab, o‘zini ermak uchun bolalariga eltdi. Bolalari chuvillashib: “Bu qandoq qush?” – deya so‘raganlarida, cho‘pon aytdi: “Men-ku buning zag‘chaligini bilaman-a, ammo uning o‘zi o‘zini burgut hisoblaydi-da?!”.

*Alqissa, o‘zingdan zo ‘rroqlar bilan bellashaman deb chiranganing bilan, hech ish chiqarolmaysan, kulgi bo‘lganing qoladi, xolos.*

### **TULKI BILAN UZUM**

Och tulkinining ko‘zi tokda g‘arq pishib yotgan uzumga tushdi-da, olmoq uchun bir-ikki intildi – chog‘i kelmad; hafsalasi pir bo‘lib, nari ketarkan, o‘ziga-o‘zi dedi: “Hali g‘o‘r ekan!”.

*Alqissa, ayrim kirilar ham shunga o‘xshaydi: asli kuchi yetmaganidan muvaffaqiyatga erisholmaydilar-da, sharoitni ro ‘kach qiladilar.*

### **DEHQON BILAN O‘G‘ILLARI**

Dehqonning o‘g‘illari hech murosa qilisholmas, qachon qarasang, janjallahib yurishardi. Dehqon o‘g‘illariga ko‘p nasihatlar qildi-yu, gaplari foyda bermadi: shunda ularni ko‘zini jonli tamsil yordamida ochishga jazm etdi. O‘g‘illariga bir bog‘ xivchin keltirdi-da: “Bog‘i bilan sindirib ko‘ringlar”, - dedi. Kuchga to‘lgan o‘g‘illari qanchalik urinmasin, bu ishni uddalay olishmadi. Ota bog‘ni yechib, xivchinlarni bittalab bergandi, o‘g‘illari bir zumda sindirib bitirishdi. Shunda ota dedi: “Bolalarim, sizlar ham xuddi shunga o‘xhash: o‘zaro

ahil bo‘lsangiz, sizni hech kim yengolmaydi; agar janjallasha boshlangiz, istagan kishi madh etadi”.

*Alqissa, ahillik nechog‘li yengilmas kuch bo‘lsa, kelishmovchilik shunchalar ojizlikdir.*

### **BOG‘BON BILAN O‘G‘ILLARI**

Qazo vaqtı yaqinlashgan bog‘bon bolalarining ham mirishkor bog‘bon bo‘lishlarini xohlardi. Shuni o‘ylab, u o‘g‘illarini to‘pladi va aytdi: “Bolalarim, toklardan birining tagiga xazina ko‘milgan!”. Bog‘bon o‘lgandan so‘ng, o‘g‘illari belkuragu ketmon bilan bog‘ni ag‘dar-to‘ntar qilib kavlashdi. Xazinani-ku topisholmadi, biroq chuqur chopib ag‘darilgan tokzor har yilidan chandon ortiq hosil berdi.

*Alqissa, har qanday xazinaning kaliti – mehnat.*

### **O‘G‘RI BILAN ONASI**

Bolakay maktabda o‘rtog‘ining xat taxtasini o‘g‘irlab, uyiga keltirgandi, onasi uni maqtab qo‘ydi. Keyingi safar u birovning to‘pini keltirdi, onasi bu matohni yanada xushroq qabul qildi. Vaqt o‘tib, bolakay voyaga yetdi, endi kattaroq o‘g‘irliklarga qo‘l urdi. Nihoyat, uni o‘g‘irlik ustida ushladilar-da, qo‘llarini qayirib, qatlgohga sudradilar; onasi ularning ortidan ko‘ksiga mushtlab, dodlagancha ergashdi. Bir payt yigit dedi: “Onajonim, qulog‘ingga aytarim bor!”. Onasi kelib, qulog‘ini tutgandi, uni g‘archcha tishlab uzib oldi. Ona noqobil farzandni koyib ketdi: “shuncha jinoyating yetmagandek, tuqqan onangga zulm ham qilasanmi-ya?!” . O‘g‘il dedi: “Ho‘-o‘... o‘sha taxtachani keltirganimdayoq, meni jazolaganingda edi, taqdirim tamom boshqa yo‘ldan ketgan, hozir meni qatlga sudrab borishmayotgan bo‘lardi!”.

*Alqissa, agar ayb boshdayoq jazolanmasa, u borgan sari kattarib ketaveradi.*

## TULKI BILAN ONA SHER

Tulki ona sherni kamsitmoqchi bo‘lib, dedi: “Voy, yiliga bittagina tug‘asan-a?!”. Ona sher aytdi: “Bitta-yu, sherbachcha tug‘aman-da!”.

*Alqissa, gap sonda emas, sifatda.*

## QARI OT

*Bilgilki, kishi kuchga to ‘lib, shuhrat topgan paytlarda ham o ‘zidan ketmasligi lozim, zero, ko ‘pchilikka uqubat to ‘la keksalik nasib etadi.*

Qari otni juvozkashga sotdilar. Juvozkash otni juvozga qo‘shib haydarkan, u mahzun nola chekdi: “Darig‘o, poygalarda chopgan paytlarim qancha keng doiralarda aylanardim-u, endi nechog‘li tor doirada aylana man-a!”.

*( D.Quronov tarjimasi)*

## ALKEY


( M.o. 630-640 yy. tug'.)

Lesbos orolining poytaxti Mitilena shahrida badavlat oilada tug‘ilgan. Shoir, taxminan miloddan oldingi VII – VI asrlar o‘rtasida ijod qilgan. Bu davrlarda zodagonlar bilan quyi tabaqa o‘rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar juda keskinlashib ketgan edi. Uning ijodida siyosiy kurashlar, fuqarolar urushi, muhojirlar hayotini aks ettirish assosiy o‘rinni egallagan bo‘lsada, muhabbat mavzularida ham juda ko‘p jo‘shqin misralar yaratgan. Lesboslik shoira binafsha soch, nozik tabassumli, Sapfo sharafiga ham she’rlar bitgan.

Lesbos taxtiga o‘tirgan Pittakga unga qarshi chiqqanligi sabab, uzoq o‘lkalarga quvg‘inda yashashga majbur bo‘ladi.

She’riyatning oddiy turlari hisoblangan yamb hamda elegiya bilan birga miloddan oldingi VII – VI asrlarda monodik, ya’ni yakkaxon lirika ham taraqqiy etgan. Monodik lirikaning ohang xususiyatlari faqatgina musiqa maqomi bilan belgilangan. Yakkaxon lirikaning vazni rang-barang, baytlari esa g‘oyatda nafis bo‘lgan. Shoir ixtiro qilgan turli-tuman vaznlar bilan monodik lirikani mislsiz yuksak san’atkorlik cho‘qqisiga ko‘tardi. Alkeydan keyin jahon she’riyatida abadiy o‘rnashib qolgan bir vazn hamon ulug‘ shoirning nomi bilan ataladi.

Alkey o‘z she’rlarida ertangi kuniga katta umidlar bog‘lamaydi. O‘zi yashayotgan polisni to‘lqinlar taloto‘pi ichra dengizda suzayotgan kemaga qiyoslaydi. Shoir Siyosiy mazmundagi she’rlardan tashqari, quvonch va qayg‘u, muhabbat izxori, qaxraton qish va jazirama yoz mavzularida, dasturxon atrofidagi gurung qo‘shiqlarini ham yaratgan. Bu qo‘shiqlar ijodkorning ulfatlari oldida o‘z tuyg‘u hamda fikrlarini bayon etish vositasi bo‘lgan. Ularning aksariyati qayg‘u va alamlarni unutish uchun mayxo‘rlik qilishga undov bilan tugallanadi. Alkey o‘z qo‘shiqlarida “may bor joyda haqiqat bor”, “may-insonlar ko‘zgusi” degan iboralarni qo‘llagan.



Qadimgi Yunonistonda Alkey she'rlarining g'oyat keng tarqalganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shoirning asarlari Aleksandriya olimlari tomonidan mazmuniga qarab, o'n jildga ajratilgan.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Alkeyning she'rlari o'zining muxtasarligi, tilining ravonligi, misralarning nafis va ohangdorligi hamda o'lchovlarning rango-rangligi bilan antik dunyo kishilarini o'ziga maftun etgan va keyingi davrlar adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

# **ALKEY IJODIDAN NAMUNALAR**

## **AMALGA KIRDI HAMAL**

*Sapfoga*

Nozik tabassumli, gulgún, musaffo,  
Sochlari jingalik, maftunkor Sapfo!  
Bir gap aytmoqchiman qulqlaringga,  
Lekin aytolmayman, yo'l qo'ymas hayo.

\* \* \*

Binafsha soch ey Sapfo,  
Hushtabassum, musaffo.  
Senga bir so'z aytgim bor,  
Ammo yo'l qo'ymaydi or.

## **BO'RON**

Asov shamolni anglash qiyin ko'pida  
Bostirib keladi to'lqinlar lak-lak.  
Ularning isyonkor taloto'pida  
Kemamiz xas misol bo'lar chirpirak.

Sarkash to'lqinlarga zo'rg'a berar dosh.  
Palubamiz suvgaga to'ldi butunlay.  
Holi xarob yelkan ko'tarolmas bosh,  
Chirsillab uzilar arqon paydar-pay.

Illo, g'anim beshafqat – boshni mag'rur tut,  
Yanada baland to'lqin kelayotir bostirib.  
Bundan ham badtar tashvish, mashaqqatni kut,  
Agar bo'ronga xudo bermasa firib.

\* \* \*

Qurol-yarog‘lar-la jihozlangan uy,  
Harbiy mis ashyolar yaraqlar voy-bo‘y –  
Areyga<sup>3</sup> alyor!

Bunda dubulg‘alar yal-yal yonadi,  
Asli toza mis-da, zo‘r toblanadi,  
Bari serviqor.

Qilich, shamshirlarning qinlari qator,  
Tizilgan mixlarda ilinib yotar,  
Sovutlar bisyor.

Bir chekkadan qarab ko‘z ilg‘ar arang,  
Qalqonning turi ko‘p, juda rang-barang –  
Xilma-xil, zirhdor.

Xalkid xanjarlari emas bunda kam,  
Topilar belbog‘lar – qurshoqlari ham;  
Hammasi tayyor.

Bu yerda hech narsa unutilmagan,  
Unutmayliksira, do‘stlar, nimaga  
Qildik biz qaror!

---

<sup>3</sup> Arey – urush ma’budi

## BAHOR

Guv-guv guvlab, guvillab

Kirib keldi bahoroy.

Lolaqizg‘aldoq gullab

Qirlarga berdi chiroy.

Jonlandi bog‘u rog‘lar

Amalga kirdi Hamal.

Qushlar jo‘shqin chag‘-chag‘lar

Bir-biriga bermay gal.

Bahorning nafasida

Elga bo‘lib jo‘rovoz,

Bulbullarning sasida

Taraldi navo-soz!

Tog‘ bag‘ridan muzdek suv

Pastga otar o‘zini.

Yashillanib tok zangi

Asta ochar ko‘zini.

Sohildagi qamishzor

Yasanar jig‘a taqib,

Olazarak kakku ham

Sayrar dilga o‘t yoqib.

Ana, tom butog‘iga

Qaldirg‘och quribdi in.

Bola ochib, jonhalak

Emish tashiydi betin.

Uyada uchishga shay  
Silkinar temir qanot.  
Bahor bilan ularga  
Boshlanar yangi hayot!

(*E.Vohidov tarjimasi* )

## SAPFO

(M.o. 612-yili tug‘ilgan)

Alkeyning zamondoshi va vatandoshi bo‘lgan shoira Sapfo zodagon oilasida tug‘ilgan. Mitilana hukmroni Pittak davrida bir necha yil Sitsiliya orolida quvg‘inlikda bo‘lgan. Vataniga qaytib kelgach, mакtab ochib, bu yerda yoshqizlarni turli bilimlarga: musiqa, ashula, raqs va she‘r to‘qishga o‘rgatadi. Maktabda nafaqat Yunonistonning uzoq-yaqin yerlaridan, hattoki boshqa mamlakatlardan kelgan qizlar ta’lim olgan.



Qadimgi manbalarda Sapfoning o‘nta kitob yozgani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Biroq bularning barchasi, nasroniy ruhoniylarining amriga ko‘ra, IX asrda yondirib yuborilgan. Alkey ijodi uchun asosan ijtimoiy-siyosiy voqealar zamin bo‘lgan bo‘lsa, Sapfo she‘riyati asosiy mavzusi shaxsiy kechinmalar, yurak tuyg‘ulari bilan chegaralangan; deyarli yagona mavzu – sevgi va go‘zallikdir. Bizgacha yetib kelgan she‘riy parchalarda muhabbat nash’asi, yor vasliga yetish shodliklari haqida hikoya qiluvchi misralar bor. Lekin Sapfoning aksariyat baytlaridan xotin kishining yurak dardlari – rad etilgan muhabbat, ayrılıq, hijron, rashk va intazorlik sadolari eshitiladi, shoira o‘zining muhabbat yo‘lida chekkan ichtiroblari, dog‘u hasratlari haqida nola qiladi. Antik davr kishilari ulug‘ shoirani faqat dardmand ma’shuqa sifatida taniganlar.

Sapfoning ikkita she‘ri to‘la holda etib kelgan. Afroditaga atalgan mazkur she‘rlardan birida, shoira sevgi ma’budasiga iltijo qilib, ishq dardida o‘rtangan qalbiga tasalli berishini, musibatli damlarda ko‘makdosh bo‘lishini so‘raydi. Ikkinci she‘rda esa Sapfo mahbuba husnining sehrli jozibasini ta’riflaydi. Antik dunyoda o‘tgan qalam ahli orasida ishq sharorasini bunchalik jo‘shqin ifodalaganbirorta shoirni topib bo‘lmaydi.

Ishqiy she‘rlardan tashqari Sapfo epitalamalar (nikoh to‘yi qo‘shiqlari) ham ijod qilgan. Qadimda o‘zimizning “yor-yor”lar qabilidagi bunday qo‘shiqlarni qizjuvonlar, yigitlar aytib kelinchakni kuyovning uyiga kuzatib borganlar.

Sapfo ijodining butun mohiyati, olamshumul tarixiy ahamiyati she'riyatda insonning ichki hissiyot dunyosini, go'zallik olamini ochganligidadir.

Shoira Yunon she'riyatining vazn doiralarini yanada kengaytirishi natijasida lirikaning ravon va ohangdor bo'lishiga keng yo'l ochildi. Sapfo she'rlari atoqli shoir E.Vohidov tomonidan o'zbek tiliga o'girildi.

## SAPFO IJODIDAN NAMUNALAR

### MEN SENGA SIG‘INAMAN

*Afrodita madhi*

Iloha Afrodita, ey jilvagar kamalak,  
Zevsning erka qizi, quvnoq sehrgar malak!  
Qalbimni qilma pora, sog‘intirib sen juda –  
Karam ayla, ma’buda!

Cho‘qqilardan ot o‘zing, avvalgiday bo‘l mardon:  
Chaqirsam eshitarding sen olis-olislardan,  
Kelar eding tark etib otang qal’asin –  
Tangri arshi a’losin!

Oltin aravaga sen minarding zavqqa to‘lib,  
Uni olib uchardi xuddi quyuday bo‘lib,  
Havo bag‘rin tilardi kuchli qanotlar sasi –  
Kabutarlar galasi.

Yetib kelar eding sen huzurimga bir zumda,  
Tabassumng ko‘rib, o‘t chaqnardi ko‘zimda.  
“Sapfo! – derding. – Mana men! So‘yla, nedir tilaging,  
Nimadan g‘ash yuraging?

Nima o‘rtaydi seni, nega aqling parishon?  
Aytgil yo muhabbatmi yuragingni qilgan qon?  
Seni xafa qilgan kim? Kimlarni tiz cho‘ktiray?  
Kimning jazosin beray?

Ayrilmaydi endi hech, o‘sha qochib yurgan kas;

Sovg‘ani olmagan-chi, hadyalar keltirar, bas;  
Hali sevmagan esa, sipqarib sevgi mayin –  
Sevib qolishi tayin...”

Yetib kelsangchi-chi, yana, tutgil ishq nash’asidan.  
Qutqar meni yurakning yangi xarxashasidan!  
Kamoningga eng uchqur muhabbat o‘qlarin ter,  
Menga madad ber!

\* \* \*

Afrodita, taxt uzra mag‘rur  
Ko‘ngillarga solg‘uvchi yag‘mo!  
Oshufta bu ahsolimni ko‘r,  
Darig‘ tutma shafqatingni, o!

O, yonimga kel! Sen bir zamon  
Tinglar eding qalbim ohini.  
Kelar eding sen tark aylabon  
Buyuk otang – Zevs dargohini.

Oq kaptarlar oltin arobang  
Qanotida olib uchardi.  
Va charx urib arshi a’lodan  
Yashin kabi yerga tushardi.

Shunda sening o‘lmas jamoling  
Ko‘z oldimda bo‘lardi paydo.  
So‘rar eding: – Ne kechdi holing,  
Nega meni chaqirding, Sapfo?  
So‘yla menga, istaging nadir?

Ishq ko‘yida bo‘ldingmi gado?

Ayt, kim seni qilmadi qadr?

Kim ranjitdi, so‘yla, ey Sapfo?

Mayli, meni sevmas bukun ul,

Ammo erta bo‘lg‘usi shaydo.

Senga mangu bog‘lagay ko‘ngil,

Sen kechsang ham u kechmas Sapfo!

Kelgil axir, kelgil bugun ham,

Seni so‘rab o‘rtanur bag‘rim.

Bo‘lgil endi ko‘nglimga malham,

Dardlarimnisovurgil, tangrim...

\* \* \*

Tangri ulkim, sening jamoling,

Husn ichra buyuk kamoling

Ko‘z oldida erur har zamon.

Bahra olur takallumingdan,

Lazzat topur takallumingdan,

Muhabbatting mulkiga sulton.

Sening chehrang, go‘zal dilrabo,

Ko‘z oldimda bo‘lganda paydo

Ko‘ksim yonur, tilim bo‘lur lol.

Goh muz titroq chirmashar tanga,

Goh vujudim chulg‘ar alanga,

Men behudman, men oshuftahol.

Borlig‘imda otash hayajon,

Ko‘z oldimni qoplab zimiston,  
Oyog‘imda turolmam xasta.  
Boshlarimdan quyar sovuq ter,  
So‘lgan o‘tman, tortar meni yer,  
Nafasim yo‘q, so‘naman asta...

\* \* \*

Agar kim go‘zal bo‘lsa,  
Faqat ko‘zga quvonch, nur.  
Agar kim yaxshi bo‘lsa  
Shundoq ham go‘zal erur.

\* \* \*

Hilol botdi, Hulkar yulduzi  
Ko‘rinmaydi. Yarim bo‘ldi tun.  
Muncha ham tez o‘tar vaqt o‘zi...  
Yana yolg‘iz uxlayman bugun!

\* \* \*

Menga jondek aziz  
Qizim, jonginam.  
Bahoring tillarang  
Guli-Kleidam!  
Senga bermam dunyoda  
Bor tillaga ham.

\* \* \*

Qahr nima bilmaydi hali –  
Yurakkinam, go‘dak misoli.

\* \* \*

Madhiya yangragan chog‘,  
Raqsga tushadi quvnoq,  
Krit qizlari bari.

Maysazorlar ustida,  
Nozik oyoqostida,  
Toptalar qir gullari.

\* \* \*

“O, bokirraligim, iffat, sharaf-shon,  
Nechun meni tark etding.”  
“Seniki bo‘lommam endi hech qachon,  
Mangu tark etib ketdim”.

\* \* \*

Qadrdon do‘stsan. Biroq...  
Yoshim sendan kattaroq,  
Yoshroq juvonga uylan.

\* \* \*

Baxtni baham ko‘rishga,  
Sen-la davron surishga  
Aslo botinolmayman.

\* \* \*


Aziz ona! Bu dastgoh  
Charchatar borgan sari  
To‘qiy desam yo‘q mador.

Dilda anduh ila oh,  
Nozik sarv daraxtlari,  
Zoriqqan ko‘zlar bedor.

*(Erkin Vohidov tarjiması)*

## ESXIL

**(m.o.525-456 yy.)**



Bizga ma'lum bo'lgan qadimgi Yunon fofianavisi Esxil chin ma'noda "tragediyaning otasi" deb tan olingan.

Shoirning hayotiga doir ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. U taxminan 525-yili Elevesin shahrida yirik zamindor oilasida dunyoga keldi. Bu yillar Yunonlarning fors istilochilariga qarshi mustaqillik uchun kurash olib borgan davri edi. Shoir o'z hayotida yirik ijtimoiy va siyosiy voqealarning shohidi bo'lgan(Marafon yaqinidagi forslar ustidan qozonilgan g'alaba(m.o. 490-y.), m.o. 483-yili Salamin oroli yaqinida fors flotining tor-mor qilinishi, 479-yili forslarning Plateyadagi mag'lubiyati, Afina davlatida pul munosabatlarining mustahkamlanishi).

Keyinchalik o'z mamlakatidagi mavjud tartiblardan norozi bo'lgan Esxil Afinani tark etib, Sitsiliyada qaror topadi va m.o.456 Gela shahrida vafot etadi.

Qahramonlik afsonalarini (asosan Homer asarlari syujetidan foydalangan)asosiy manba qilib olgan Esxil 21 yoshida ilk bor dramatik shoirlar musobaqasida qatnashadi va 40 yoshida birinchi marta g'alaba qozonadi.

Qahramon hayoti uchta tragediyada aks ettiriladi va mifologik syujet asosida yozilgan satirlar dramasi bilan yakunlangan. Qadimgi adabiyotshunoslarning zikr etishlaricha, u 90 ga yaqin tragediya yozgan bo'lib, bizgacha faqat 7 tasigina yetib kelgan( "Iltijogo'ylar", "Eroniylar", "Zanjirband Prometey", "Fivaning yetti dushmani", "Oresteya" trilogiyasini tashkil qiluvchi "Agamemnon", "Xoeforlar", "Evmenidalar").

Aristotelning "Potika"sida yozilishicha Esxil birinchi bo'lib, akterlar sonini bittadan ikkitaga oshirgan, xor partiyasini kamaytirgan va dialog asarning asosiy elementiga aylantirilgan.

Shoir ijodining ilk namunasi “Iltijogo‘ylar” tragediyasi bo‘lib, bizgacha uning birinchi qismi yetib kelgan. Asar syujeti shoh Danayning 50 ta qizi haqidagi afsonadan olingan. Yunon adabiyotidagi zamonaviy mavzuda yaratilgan yagona asar, “Eroniylar” tragediyasi Eron-Yunon urushiga bag‘ishlangan.

Esxilning saqlanib qolgan tragediyalari uning ijodini uchta davrga bo‘lish imkonini beradi: 1) Ilk pesalarida(“Iltijogo‘ylar”, “Eroniylar” ) asosiy rolni xor ijo etadi. 2) “Zanjirband Prometey”, “Fivaning yetti dushmani” asarlarida markaziy qahramon obrazi gavdalanadi, dialogga katta o‘rin beriladi. 3) “Oresteya” asarida kompozitsiya birmuncha murakkabashtiriladi, ikkinchi darajali obrazlar asar dramatizmini kuchaytirishga xizmat qiladi. Uchinchi akterdan foydalanila boshlanadi.

“Zanjirband Prometey” qadimgi Yunon afsonalari asosida yaratilgan. Ularda hikoya qilinishicha, Prometey suv va tuproqdan dastlabki odamlarni bunyod etgan. Ma’buda Afina esa jonbaxsh nafasi bilan ularga hayot bag‘ishlagan. Lekin ma’budlar hukmdori(Olimp) odamlarni butunlay yo‘qotib yuborishga qasd qiladi: odamlardan olovni yashirib, ularni sovuqda, zulmatda tutadi.

Titanlardan bo‘lgan Prometey, Olimp mehrobidan muqaddas olovni o‘g‘irlab, odamlarga keltirib beradi. Shundan boshlab yerda yangi hayot quloch yozadi, endi odamlar o‘zlarini erkin va qudratlilis qila boshladilar. Bu “shakkoklikdan” g‘azablangan Zevs uni qoyaga zanjirband qilishni buyurib, ming yillar davomida azoblaydi. To Gerakl kelib ozod etmagancha zanjirband Prometeyga Zevsning qanotli iti – jeztumshuqli burgut misli ko‘rilmagan azoblarni beradi, har kuni uning jigarini cho‘qib, qonini ichadi...

Esxil o‘z asarlarida ma’bularni yoki biror maqsad yo‘lida kurashuvchi, bukilmas irodali kishilarni tasvirlaydi. “Zanjirband Prometey” hamon inson tafakkurining mangu durdonasi, qadimiy Yunon fojianavisining nodir asari sifatida yashab kelmoqda.

## **“ZANJIRBAND PROMETEY” TRAGEDIYASIDAN PARCHA**

### **Qatnashuvchilar**

Hukumdorlik va zo'rlik	- Zavsning xohish, irodasini bajaruvchilar.
Gefest	- olov ma'budi, temirchi.
Prometey	- titan, ma'bud, odamlarning valine'mati.
Okeanidalar xori	- Океаннинг қизлари.
Okean	- титан, баҳр маъбуди.
IO	- Argos shohi Inahning qizi.
Germes	- ma'bud, Zevsning xabarchisi.

### **Ikkinchи manzara**

#### **Prometey**

Jim turmoqqa mag'rurligi majbur etar, deb  
O'ylamanglar. Illo dildan azoblanaman  
O'zim ushbu sharmisorlik tamannosidan,  
Barcha yangi ma'bularga mansab berildi.  
Menga ato etilgani sharmandalikmi?  
Bular bari sizga ayon, bu to'g'rida bas,  
Foniylarning azobidan gap ochgan ma'qul.  
Axir men-ku, ongsizlarga idrok baxsh etib,  
Mulohaza yuritmoqqa o'rgatgan ma'bud,  
Buni minnat yuzasidan gapirmayapman.  
Vale barcha ezguligim mohiyatini  
Tushuntirib beray, deyman, bir boshdan sizga.

Avvallari odamlarning ko‘zi bo‘lsa ham  
Ko‘rmas edi, qulq boru eshitmas edi.  
Kun kechardi allaqanday g‘aflat hobida:  
Bilishmasdi najorlikni, g‘ishtin uylarni  
Qurishmasdi, zah g‘orlarda nursiz hilvatda  
Kumursqadek ojizona kun ko‘rishardi.  
Fasllarni farq qilolmay dovdirashardi,  
Na bahorni, va na qishni, va nada yozni,  
Va na ne’mat ulashguvchi kuzni o‘shanda.  
Bilib netmay har narsaga urishardi qo‘l,  
Men bo‘lsam-chi, ko‘rsatmoqqa muyassar bo‘ldim;  
Ularga ko‘k yulduzlarin chiqish-botishin.  
Ilk bor o‘zim aljabrdan, nahv ilmidan  
Saboq berdim va ijodiy Xotirotni ham  
Baxsh ayladim, baxsh etgandek ona muzani.  
Ham dastavval ishlab chiqdim bo‘yinturuqni  
Shu boisdan yuvosh tortdi vahshiy hayvonlar.  
Jisman mushkul bo‘lgan mehnat, odamlar uchun  
Yengil bo‘ldi. Arobaga otlarni qo‘shdim,  
Itoatkor jilov berdim zodagonlarga.  
Mendan bo‘lak dengiz aro ildam eluvchi  
Uchqur qanot kemalarni o‘ylab topgan kim?  
Ha, hammasini kashf etgandim foniylar uchun,  
Ammo o‘zim topolmadim dardimga chora!

## **Xor**

Sharmandali uqubatlar bois bo‘ldi-yu,  
Sen burungi aqlingni ham boy berib qo‘yding.  
Hasta bo‘lib qolganida uquvsiz tabib  
O‘zi uchun dori-darmon topolmagandek.

## **Prometey**

Tag‘in menga qulqoq tutgin, azmim tufayli  
Yaratilgan ixtiolar hayratangizdir.  
So‘ylab beray senga juda muhimlarini:  
Menga qadar bilishmasdi malham dorini  
Keragicha yemay-ichmay shu taqlid ular  
Qirilishib ketishardi tib yordamsiz.  
Men o‘rgatdim dorilardan foydalanishni,  
Shundan keyin barham topdi barcha kasallik.  
Tez orada folbinlikning yo‘llarini tikladim:  
Ta’bir qildim tushlarni ham payg‘ambarona –  
Nima yolg‘on, nimadir haq ko‘rsatib berdim.  
Ifsho qildim karomatli so‘zlar mazmunin,  
Yo‘l belgisin, parrandalar parvozini ham,  
Qanday axbor berishlarin baxtdan, ofatdan,  
Ularning-da yashash tarzin, ishq va nizosin,  
Ziyon-zahmat chekkanlarning ichki asrorin,  
Jigar ila safroning-da xili, rangini  
Qurbonlikka qaysi biri xush kelishin ham,

Qurbanlikkahozirlangan hayvon sonini  
Kuydirgancha, olovning ko‘p xosiyatlarin  
Ko‘z-ko‘z etib, odamlarni hayratga soldim,  
Zero, avval hech bir kimsa ko‘rmagan edi.  
Binobarin... Kim aytishga jur’at etadi,  
Menga qadar yer ostida yashirin yotgan  
Temir, oltin, kumushlarni, rangin mislarni  
Odamlarning foydasiga etkizganimni,  
U kimdirki mag‘rurlansin, albatta, hech kim,  
Ochig‘ini aytsam agar bilib qo‘yginki,  
Prometeydan o‘tgan xalqqa barcha san’atlar!

## Xor

Foniylarga madad berib haddan tashqari  
Baxtsizlikda qoldirmagin bu xilda o‘zni,  
Illo imon komildirki, banding yechilgay,  
Zevs yanglig‘ bo‘lajaksan purqudrat tag‘in.

## Prometey

Bo‘lмаган gap, olimaqom ilohiy taqdir  
Shunga o‘xshash hodisani hal qilgani yo‘q.  
Vale hozir azoblarga mubtalodirman,  
Kishanlardan qutilsam ham ojizlik qilur  
Doim san’at zaruriyatostonasida...

## **Xor**

Kim tomondan boshqarilur taqdiri azal?

### **Prometey**

Uch Moyra va Erinnilar,

O‘shalarga ayon bor narsa.

## **Xor**

Nahotki Zevs ulardan ojiz...

### **Prometey**

Ko‘radi u peshanasiga yozilganini.

## **Xor**

Nahot Zevs hukmronlik qilmagay mangu?

### **Prometey**

Buni bila olmagaysan, urinma bekor!

## **Xor**

Chamamda sen saqlayapsan buyuk bir sirni

### **Prometey**

Yetar endi, boshqa gapga o‘taqolaylik!

Bu to‘g‘rida gapirmayman; mavrudi emas.

Sir yashirin saqlansin-da, agarda uni

Saqlay bilsamuqubatli kishanlardan ham

Bir kun kelib tamomila forig‘ bo‘lurmen.

## 2-STASIM<sup>4</sup>

### 1-band

Buka olmas irodamni  
Zevsning-da, taxtu qudrati!  
Ularni deb buqa sonini  
Mehrob sari yo'llayman tag'in.  
Olib ketgay uni uyqusiz,  
Moviy ummon oqimi ildam!  
Mayli boshqa yoronlar bilan  
Bazmi oliv qurmay qo'yayin!  
Saqlanadi bu sir toabad  
Mening jonu jahonimda!

### Aksilband

Umidga ko'z tutib sarkashlik ila  
Davru davron sursam  
Nechog'lik yaxshi,  
Ko'ngilga jo aylab porloq sururni!  
Ammo titroq bosar ko'rgan sari  
Ming xil g'amda qiynalishingni!  
Hayiqmaysan yolg'iz sen qahhor Zevsdan  
Takabburlik qilib hozio ham,  
Senga aziz bo'lgan umri bebaqo  
Odamlarni ko'tarasan ko'klarga, o Prometey!

---

<sup>4</sup> Stasim – Стасим – xor bilan aytildigan qo'shiq

## 2-band

Munisim, inon, mehr ko‘p ko‘rguzib,  
Topmassan mehr: o‘zing o‘ylab ko‘r.  
Qani seni himoya etganlari?..  
Boshingga musibat tushgani kezda  
Ko‘rindimi ularning biri?  
Ojizlik zanjiri bilan  
Foniylarning oyoq-qo‘li bog‘langanmi?  
Yo‘q, ularning qo‘lidan kelmas  
Dunyoni qayta qurmoq!

## 2- aksilband


Peshonangni sho‘rligini anglaganimdan  
Buni senga gapiryapman, Prometey! E voh,  
To‘y oldidan bunday qo‘shiq kuylamagandim,  
Bizlar yuvib-tarab gulday kelinni  
Qo‘shiq aytib ro‘parangga doxil qilgandik.  
Unga o‘zing tuhfa berib, ko‘nglini olib,  
Gesiona otliq kelin – bizning singlimiz –  
Bahru nahr malagining kuyovi bo‘lding.  
O‘sha kunlar naqadar zavqiyob edi.

(Asqar Qosimov tarjimasi)

## SOFOKL

(m.o. 496-406 yy.)

Sofokl m.o. 496 yili Afina yaqinidagi Kolon degan joyda, quroq-aslaxa korxonasi xo‘jayinining oilasida tug‘ilgan. Adabiy faoliyatini ancha erta boshlagan bo‘lib, m.o. 468 yili birinchi marta dramaturg sifatida maydonga chiqadi, 28 yoshida adiblar musobaqasida o‘z ustozi Esxilni mag‘lub etib, Plutarx qo‘lidan qimmatbaho sovrin olgan va hammasi bo‘lib musobaqalarda 24 marta g‘olib bo‘lgan.



Sofokl m.o. 441-yili oliy lavozim – strateglikka saylanadi. Xukmdor Perikl bilan yaqin do‘stona munosabatda bo‘lgan. U butun umrini shonu-shavkatda o‘tkazib, m.o. 406-yili vafot etgan. O‘limidan keyin buyuk zotlarga ko‘rsatiladigan izzat-ikrom ko‘rsatilib, har yili qabri ustida qurbanlik qilish taomilga aylangan. Shoirning 123 ta pesasidan yettetasigina saqlanib qolgan. 1912-yili “Izquvarlar” satirlar dramasidan katta parcha topilgan.

Sofokl Esxil boshlagan ishni davom ettirib, tragediyani tantanali lirik qo‘shiqdan chinakam dramaga aylantirishda katta xissasini qo‘shdi. Agar Esxil asarlarida oliy kuchlar inson yurish-turishida faol ishtirok etgan bo‘lsa, Sofokl qahramonlari mustaqil harakat qilib, boshqa kishilarga nisbatan munosabatlarini ham o‘zları belgilaydi. Shoirni to‘lqinlantirgan muammolar endi avlod taqdiri bilan emas, balki alohida shaxs taqdiri bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu mazmunan bog‘langan trilogiyalardan voz kechishga olib keldi. Sofoklda har bir asar alohida badiiy yechim va muammoga ega bo‘ldi.

Dramaturg o‘z ijodi davomida xorni chiqarib tashlamagan bo‘lsa ham unda xor qo‘shiqlari qisqarib bordi va bu voqealar sur’ati tezlashdi. Sofokl tomonidan kiritilgan yana bir yangilik – dramaga uchinchi akterning kiritilishi bo‘ldi. Aristotelning “Poetika” da xabar berishicha, buyuk dramaturg sahna san’ati nazariyasi bo‘yicha ham ko‘p yangiliklar kiritgan: xor tarkibini o‘zgartirgan,

musiqiy parchalar joriy etgan, teatr dekoratsiyasi qo‘llagan. Gyotening aytishicha, “Sahna san’atini Sofoklchalik hech kim bilmagan”.

Uning “Shoh Edip”, “Antigona”, “Edip Kolonda” tragediyalarining syujeti afsonalarning Fiva turkumidan olingan. “Elektra”, “Filoklet”, “Ayaks” asarlari Troya afsonalari mavzusida yozilgan bo‘lsa, “Traxinalik ayollar” Gerakl haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan.

Qahramonlarning tabiatini chuqurroq ochish maqsadida Sofokl turli usullarni qo‘llaydi. Ulardan biri taqqoslash usulidir. Ikki qahramonni yonma-yon qo‘yib tasvirlashning eng mohir namunasini “Antigona” tragediyasida ko‘ramiz. Sofokl ajoyib obrazlari bilan bir qatorda, dramatik voqealarni ustalik bilan bir-biriga bog‘lagan san’atkor sifatida ham mashhur.

Sofakl “Shoh Edip” tragediyasida Yunon san’atining “kuch va vositasigina emas, zamini ham bo‘lgan” mifologiyadan keng foydalangan. Odatda miflarning bir qancha variantlari bo‘lib, dramaturglar ularni o‘zgartirib, o‘z g‘oyalariga moslab, ijodiy qayta ishlaganlar. “Shoh Edip” bunga misol bo‘la oladi. Edip haqidagi mif Homerning “Odisseya”sida ham bor edi. Ammo Sofokl unga juda aniq psixologik ishlov beradi, uni “qismat fojeasi”dan chinakam insoniy dramaga aylantiradi. Edipning o‘z umri sirlarini bilish jarayoni unga mudhish taqdirni ochibgina qolmay, o‘z aybiga iqror bo‘lishga ham olib keladi. Inson o‘z qilmishlariga o‘zi mas’uldir: inson bezavol va beajal tangrilardan shu bilan farqlanadiki, uning hayoti doimiy kurashlarda, har qanday g‘ovlarni, qismatni yengib o‘tish uchun intilishda o‘tadi.

Mifda mana shu qismat birinchi o‘rinda turadi. Sofokl tragediyasida esa taqdir qahramon yo‘lida bir rishta xolos. Edip umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan chuqur va murakkab obrazga aylanadi.

Antik davrdagi hech qaysi dramaturgning asari jahon adabiyotida “Shoh Edip” tragediyasi kabi chuqur iz qoldirmagan. Bu asar ta’sirida XVIII asr oxiri XIX boshlarida Yevropa adabiyotida “Taqdir tragediyasi” deb atalgan adabiy oqim paydo bo‘ldi va u Shekspirning “xarakterlar” tragediyasiga qarshi qo‘yildi.

## “SHOH EDIP”

### TRAGEDIYASIDAN PARCHA

#### PROLOG

Edip

E, Kadm<sup>5</sup> boboning yosh avlodlari!

Shahrimiz ko‘kida iltijo, faryod,

Aza qo‘shiqlari yangragan mahal

Nega siz mehroblar ro‘parasida

Ibodat niholin ushlab turibsiz?

O‘lkangizda otim – shuhratli Edip,

Bu holning sababin bilmoxni istab

Mana bugun keldim huzuringizga.

Qani, ayt, qariya, – yoshlар nomidan

Arzu izhor etmoq senga yarashur, –

Nega to‘plandingiz bu maydon aro,

Qo‘rqib keldingizmi yo arz bilanmi? Tila,

Tilagingni keltiray bajo,

O‘tinib kelganga marhamatim keng, Kohin

Kishvarimiz hokimisan, Edip!

Yoshu qari – jammiz, ko‘rib turibsan:

Temir qanot polaponlar shunda,

Yoshini yashagan kohinlar shunda,

Men o‘zim Zevsning kohinidirman,

---

<sup>5</sup> Kadm – Edipning ajdodlaridan

Mana, fuqarongning guli, qaymog‘i,

Xalq esa boshiga gulchambar tutib,

Pallada<sup>6</sup>ning ikki qadamjosida,

Qurbonlar xokidan bashorat kutib,

Ismena<sup>7</sup> bo‘yida turar muntazir.

Shahrimiz larzada to‘fon tufayli,

Ko‘rib turibsanki, bosh ko‘tarishning

Iloji yo‘q qonli to‘lqin qa’ridan.

Nish urmay ildizdan quridi ekin,

Ofat qirib ketdi yilqi, chorvani,

O‘lik tug‘ilmoqda farzandlarimiz.

Iskanjaga olib dahshatli qirg‘in,

O‘lim azobida to‘lg‘anar shahar.

Kadm xonadoni huvillab qoldi,

Soyalar dunyosi – u dunyo, do‘zax

Yana oh-nolalar bilan boyidi.

Seni xudolarga tenglamayman, yo‘q,

Ofatni yengishda tenging yo‘q, ammo

Xudolar bilan tez til topishasan.

Fivaga kelding-u, ajdaho qush<sup>8</sup>ga

Tirik boj to‘lashdan bizni qutqarding.

---

<sup>6</sup> Pallada – Afinaning sifatlaridan, ezgu nomlaridan biri

<sup>7</sup> Ismena – Fivada bir daryo. Uning sohilida yondirilgan qurbonlik kuliga qarab fol ochilar ekan.

<sup>8</sup> Ajdaho qush – Fiva shahri yaqinida paydo bo‘lib, o‘tkinchilarga jumboq aytgan. Uning jumboqlarini hech kim echolmay, hamma bu mudhish maxluqning panjasida halok bo‘lib keta boshlagan. Faqat Edip jumboqni echib ofatni daf etgan.

Bexabar bo‘lsang ham bizlardan u payt,  
Xudolar izmidan og‘ishmay kelib,  
Hayot berding bizday bechoralarga.  
O, mardlarning mardi, haqiqiy inson,  
Hozir o‘tinch bilan keldik qoshingga:  
Bizning irodamiz, xudo amri-la  
Najotkorimiz bo‘l, shohan Shoh Edip!  
Ma’lumki, dlnolar kengash berganda  
Odamning mushkuli bo‘ladi oson.  
Sen xaloskor eding. Kelajakda ham  
Yaxshi noming bilan faxrlanaylik:  
Azm et, shahrimizning qaddini tikla!  
Qoyaday tebranmas bir qal’a bo‘lsin!  
Bir vaqt jonimizga oro kirganding,  
Yana baxsh aylagin bizga saodat!  
Bu yurtga hokimlik qilmoqchi ersang –  
Inson bo‘lsin unda, bo‘lmasin sahro.  
Axir misli yaproq dengizda kema,  
Qochib ketgan bo‘lsa muhofizlari.

### Edip

Baxtsiz norastalar! Ko‘rib turibman:  
Beadad azobda, iztirobdasiz.  
Shahrim deb to‘lg‘anar otashda qalbim;  
Ammo birontangiz menchalik yonmas,

Menchalik tortmagay uning dardini.  
Mangu bedorman men, g‘aflatda emas,  
Achchiq ko‘z yosh to‘kdim o‘ylda behisob,  
Behisob yo‘l bosdim xayolga cho‘mib  
Shunday qaror topdi oxir o‘ylarim;  
Qaynim Kreontni Febga yo‘lladim,  
Toki bilib kelsin, qanday so‘z bilan,  
Qanday tadbir bilan qutqazay shahrim.  
Ammo tashvishdaman, u qaytmayapti,  
Qaytadigan payti o‘tib ketmoqda,  
Qaytib kelganida, men shoh emasman –  
Bajo keltirmasam iloh amrini! ...

### **UCHINCHI STASIM**

Xor

Strofa

Bashoratga qobil bo‘lsam,  
Ko‘zim ko‘rsa uzoqni,  
Olimp bilan ont ichaman:  
Eshitarsan, Kiferon,  
Ertagadan oyli tunda  
Seni qutlay boshlaysiz.  
Sen Edipning vatanisan,  
Ota yurti, beshigi.  
Sen azaldan maqbul eding

Fivaning shohlariga.

Sharafingga biz boshlaymiz

Shodiyona marosim.

Antistrofa

Onang kim edi, go‘dak,

Umri boqiylardanmi?

Otang kim edi, go‘dak,

Loksiymi yoki Germes?

Chunki biri azaldan

O‘tloqlarning oshig‘i,

Biri esa o‘zi ham

Tog‘-tosh aro tug‘ilgan.

Xudolar bazmgohi –

Gelikon cho‘qqisida

Kayfu safo tangrisi

Sening otang emasmi?

## TO‘RTINCHI EPSODIY

Edip

Men cho‘ponni tanimayman, ammo

Yuragim hovliqib ketdi, qaranglar,

Biz kutgan qariya o‘sha emasmi?

Elchi bilan tengqur ko‘rinishi ham.

Kuzatib kelmoqda mening qullarim,

Razm sol, aniqroq aytarsan o‘zing,

Ko‘p ko‘rgansan axir keksa cho‘ponni.

Xor

Xotirjam bo‘l, shohim, yaxshi bilaman,

U – Layning ko‘p halol cho‘poni edi.

*Cho‘pon kiradi*

Edip

Assal sendan so‘ray, korinflik mehmon,

Sen aytgan shumidi?

Elchi

Xuddi mana shu.

Edip

Ko‘zlarimga qarab javob ber, cho‘pon:

Sen Layga qulmiding?

Cho‘pon

Qul edim, ammo

Bir farzandday edim xonadonida.

Edip

Qanday kasb-kordan kun ko‘rar eding?

Cho‘pon

Aksar poda boqib terdim risqimni.

Edip

Qaysi o‘lkalarda kechdi hayoting?

Cho‘pon

Ko‘pincha Kiferon yaylovlardida.

Edip

Bu senga tanishmi? Ko‘rganmisan hech?

Cho‘pon

Nima qilyapti u? Kimni aytyapsan?

Edip

Qarshingdagi zotni ko‘rganmisan hech?

Cho‘pon

Balki ko‘rgandirman, eslay olmadim.

Elchi

Darrov eslolmasa ajab emas, shoh.

Men yodiga solay hozir birma-bir.

Sayr etib Kiferon yaylovlarda

Kezgan chog‘larimiz yodingga tushar.

Ikki poda edi qaramog‘ingda,

Ilk bahordan toki sovuq kuzgacha

Birga yurmadikmi rosa uch fasl?

Qishda men qo‘ylarni qo‘tonga quvsam,

Sen Layning qasriga haydab ketarding.

Esingdami shular, to‘g‘rimi-yo‘qmi?

Cho‘pon

Bari to‘g‘ri ... Eh-he, qachonlar edi ...

Elchi

Endi ayt: sen menga bir chaqaloqni

Boqib olgin deya berganing haqmi?

Cho‘pon

Bersam nima bo‘pti, nega so‘rayapsan?

Elchi

Nima bo‘lar edi, o‘sha chaqaloq

Mana, ro‘parangda turibdi, oshna.

Cho‘pon

O tiling kesilsin, la’nati, jim bo‘l!

Sening so‘zlariningdir la’natga loyiq.

Edip

Sen, qariya, uni la’natlama;

Sening so‘zlariningdir la’natga loyiq.

Cho‘pon

Mening aybim nima, shahanshoh?

Edip

Go‘dakdan gap ochsa, sen chap beryapsan!

Cho‘pon

Hech narsa bilmayman; bari bekor gap.

Edip

Qahrim olovlanmay, yaxshilikcha ayt.

Cho‘pon

Cholga, xudo haqqi, rahming kelsin, shoh1

Edip

Qo‘lin orqasinga bog‘lang chambarchas.

Cho‘pon

Oh, sho'rlik peshonam! Nimani aytay?

Edip

Bunga chaqaloqni bergenmisan, ayt?

Cho'pon

Berganman... o'lganim yaxshiydi bermay!..

Edip

To'g'risini aytmasang – o'lasan, shoshma.

Cho'pon

Endi bir so'z aytsam, til tortmay o'lay.

Edip

Bu chol, nazarimda, qutulib ketmoqchi.

Cho'pon

Go'dakni bergenman, dedim-ku, bo'ldi-da.

Edip

Bola kimnikiydi? Qaydan olgansan?

Cho'pon

Boshqa bir odamdan olgandim...

Edip

Boshqa bir odamdan? Kim u? Qayerlik?

Cho'pon

Bu yog'in so'rama, xudo haqqa, shoh!

Edip

Joningdan umid uz, qayta so'rasam!

Cho'pon

U odam shoh Layning xonadonidan.

Edip

Quoimida yo qarindoshi?

Cho'pon

Yo haq! Bu dahshatni qanday aytaman...

Edip

Evoh, sen aytishing, men tinglashim shart.

Cho'pon

Layga farzand edi o'sha chaqaloq...

Xotiningdan so'ra qolgan gaplapni.

Edip

Go'dakni u bergenmidi senga?

Cho'pon

Ha, shoh!

Edip

Nega axir?

Cho'pon

O'ldirgan deya...

Edip

Ona – o'z farzandini?

Cho'pon

Shum bashoratdan

Qo'rqardi malika.

Edip

Qanday bashorat?

Cho‘pon

Padarkush bo‘ladi farzanding, deya

Kelgan malikamga g‘oyibdan ovoz.

Edip

Nega, unday bo‘lsa, birovga berding?

Cho‘pon

Juda rahmim keldi. Bu oshnam uni

Uzoq o‘z yurtiga olib ketgandi.

Bolani asrabdi kulfatlar uchun...

Agar o‘sha bo‘lsang, badbaxtsan, badbaxt!

Edip

Tamom, bari ayon! O yorug‘ jahon,

So‘nggi bor ko‘rmoqda ko‘zlarim seni,

Hayot harom, nafas harom, nikoh harom menga.

Qonga bulg‘anganman, jirkanchman, jirkanch!

*Yugurib qasrga kirib ketadi.*

## TO‘RTINCHI STASIM

Xor

1-strofa

Inson, inson! O, foni avlod!

Ma’nosiz va bebaqo dunyo!

Bog‘ri butun bormi dunyoda!

“Toleim bor” deya ulgurmey

Toleidan mahrum bandasi.

Baxti qaro Edip, o, Edip!

Menga saboq bo‘ldi qismating.

Sening xunuk qissangdan hissa:


Bu dunyoda baxtli inson yo‘q!

*(Asqad Muxtor tarjimasi)*

## EVRIPID

(m.o. 480-406 yy.)

Qadimgi Yunon tragediyasining yana bir vakili Evripid Afina yaqinidagi Salamin orolida tug'ilgan. Antik davr adabiyotining uch buyuk vakili haqida quyidagi rivoyat bog'lab turgan: Salamin yaqinidagi g'alaba nishonlanayotganda(m.o. 480) Esxil g'olib askarlar safida bo'lган. G'alaba bayramida uyushtirilgan o'yinlarda Sofokl o'zini ko'rsatgan va xuddi shu kuni dehqon Mnesarx oilasida Evripid dunyoga kelgan.



M.o. V asr oxirida komediyanavislar shoirga ko'p ta'na va malomatlar yog'dirdilar. U Makedoniyaga ko'chib ketishga majbur bo'ladi va shu yerda vafot etadi.

Evripid teatr musobaqalarida uch marta g'olib chiqqan. O'z davrida qadrlanmagan shoir keyingi asrlarda(ellinizm davrida) xalqning eng sevimli tragik shoiriga aylanadi. U jami 92 ta asar yozgan bo'lib, bizgacha 19 tasi etib kelgan. Masalan: "Alkestida", "Medeya", "Geraklidlar", "Ippolit", "Elektra", "Andromaxa", "Troyalik ayollar" tragediyalari. Bu asarlarning barchasi Sofokl va Esxil singari mifologik afsonalar mavzusida yozilgan. Evripid o'z asarlarida zamonasining turli-tuman muammolari bilan birga psixologik muammolarni ham qo'yadi. Yunon shoiri jahon adabiyotida avvalambor, ayollar obrazi va ularning psixologik qiyoqasini mahorat bilan tasvirlagan adib sifatida mashhurdir.

Uning eng kuchli tragediyalaridan biri m.o. 431-yili Afina sahnasida qo'yilgan "Medeya" hisoblanadi. Asar syujeti "Argonavtlar" haqidagi afsonadan olingan. Bir qancha Yunon pahlavonlari Yason boshchiligidida oltin qo'y junini olib kelish uchun "Argo" kemasida Kolxida eliga jo'naydilar. U erda podshoning qizi, quyosh ma'budi Geliosning nabirasi go'zal Medeya Yasonni sevib qoladi, uni deb ota-onasi, vatanidan voz kechadi, akasini o'ldiradi. Oltin qo'y junini Yunonistonga olib kelgach, ular turmush quradilar. Bir qancha muddat o'tgach, Yason Korinf

shohi Kreontning qizi Glafkaga uylanmoqchi bo‘ladi. Evripidning asari xuddi ana shu joydan boshlanadi. Bevafolikdan g‘azablangan Medeya eridan qasos olishga ahd qiladi, kelin, uning otasi va o‘z farzandlarini o‘ldirib ajdaholar qo‘shilgan aravada uchib ketadi. Agar “Medeya” xaqratlangan sevgi va rashk haqidagi asar bo‘lsa, “Ippolit” jinoyatkorona, qabih sevgi haqidagi tragediyadir. Afina podshosi Tezeyning oldingi xotinidan qolgan o‘g‘li Ippolitni o‘gay onasi Fedra sevib qoladi. Yigit uning sevgisini rad etgach, Fedra o‘z joniga qasd qiladi. O‘limidan oldin yozib qoldirgan maktubida u Ippolitni tajavvuzda ayblaydi. Otasi tomonidan la’natlangan Ippolit halok bo‘ladi.

Evripid juda katta maxorat bilan burch va ehtiros o‘rtasidagi kurashdan azoblangan qahramonlar ruhiyatini tasvirlaydi.

# **“MEDEYA” TRAGEDIYASIDAN PARCHA**

## **MUQADDIMA**

Enaga

Mushkul erur Kolxidaga kirmoq yotlarga,

Agar alar ishlatmasa hiyla va tadbir.

Hali yetmay ikki qoya oralig‘iga

Argonavtlar kabutarni uchiribdilar.

Kabutarni siqib ikki lojuvard qoya<sup>9</sup>

Qayta boshdan o‘z asliga qaytayotganda

Yot kimsalar Kolxidaga kirib olibdi.

Iolk shohi Peliy beku bekzodlarni

Eshkaklar-la ta’min aylab, mudhish ajdaho

Maskaniga qorako‘l-chun yubormaganda

Oliymaqom sohibamiz Medeya bonu

Aslo suzib bormas erdi o‘zga yurt sari

Ham telbaday ko‘ngil qo‘yib ul alp Yasonga,

Yot elatga oqko‘ngillik Peliyzodlarga

Padarkushlik san’atidan saboq bermasdi.

Endi eri, bolalari birla Korinfda

Yurmas erdi kulba izlab. Quvg‘indilikda

El ko‘ziga ul boyaqish xush ko‘rinsa-da,

---

<sup>9</sup> Ikki lojuvard qoya – oltin yungli terini – qorako‘lni qo‘lga kiritish uchun Argoning kemasi Simplegaddan – dengiz qoyalari orasidan o‘tishi kerak edi.

Sodiq xotin bo‘lib qoldi lekin eriga.  
(Bag‘ri butun kam topilur, ushbu dunyoda  
Totuvlikda yashayotgan er-xotin qayda?)  
Medeyaning peshonasi sho‘r ekan illo,  
Endi uni sevmaydilar, mehribonlar ham  
Yig‘ishtirib qo‘ymoqdalar, bordi-keldini.  
Guldan-da voz kecharkanlar g‘unchani ko‘rgach,  
Yason xotin va bola-chaqalaridan  
Qo‘l siltabon shoh qiziga uylanmoqchimish!  
Shunday qilib, tahqirlangan Medeya bibish  
Sho‘rlikning-da fig‘oniga yeru ko‘k titrar.  
Qani, der ul, ahdu vafo, qani der, lafz  
Ma’budlarni shohidlikka chaqira turib.  
Zero alar betavfiqni ko‘rib qo‘yishsin:  
Yason nomard, Yason lavfsiz, Yason bevafo.  
Bibishgina necha kunki baytulhazanda  
Yuragiga hasrat uya qurgandan beri  
Ilon yanglig‘ to‘lg‘anadur, safo bilmaydur.  
Xuddi qoya to‘lqinlari singari kar ul,  
Eshitmaydi yoru do‘sstar daldasini ham.  
Shu holda ul behush yotar, o‘ziga kelib  
Ba’zan boshin nadomat-la siltab qo‘yar-da,  
Yodga olar o‘z diyorin, qadrdon uyin.  
Ko‘z yoshini daryo-daryo oqizib, qilgan –

Barcha noxush ishlarini dildan o‘tkazar:  
Erini deb boy bergandi o‘z diyorini,  
Erini deb duchor bo‘ldi quvg‘indilikka,  
Medeyaga endi hatto farzandlari ham  
Yoqmay qoldi. Alarga ko‘z qirin tashlamas.  
Sho‘rim qursin, ishqilib, ul aynab qolmasin.  
Yo‘qsa yana bir baloni boshlar, chamasi,  
Sitamlarga dosh bermasa og‘ir o‘ylari.  
Mana shunday cho‘rtkesar ul. Qo‘rqaman, nogoh  
Och biqinga shamshir tirab olmog‘i mumkin.  
Ul-bul ishni shahanshohga, kuyovto‘raga  
Qo‘llay bilar jahli chiqsa, ochiqdan-ochiq.  
Osongina g‘olib bo‘lmas dushmani uning!  
Ana uning o‘g‘lonlari sayildan qaytib,  
Tinch-xotirjam kelishmoqda koshona sari,  
Onaizor qayg‘usidan xabar topmasdan.  
Ha, bolalar, bolalar-da, azoblar bilan  
Necha pullik ishlari bor, axir, alarning.  
Keksa eshik og‘asi ikki bolani boshlab kiradi.

### Eshik og‘asi

Hoy, sen sobiq malikaning sodiq cho‘risi!  
Bo‘sag‘ada nechun yolg‘iz turibsan? Yohud  
G‘am tufayli ayrilganday Medeya hushdan,  
Sen ham qayg‘u chekmoqlikka hu qilursanmi?

Enaga

E, sen Yason farzandlarin keksa rahboni!

Ne kunlarga, yorab, bizni soldi bu falak?

Undanmi bu falokatlar yo o‘zimizdan?

Hanuzgacha sidqidil-la xizmat etsak-da,

Na emakda, na ichmakda ro‘shinolik bor,

Kuya-kuya ado bo‘ldim, kuyganimdan-da,

Eru ko‘kka bibishimning dostonin aytib,

Yuragimni hasratlardin forig‘ qilurmen.

Eshik og‘asi

Yana yig‘lab ohu fig‘on qilayotirmi?

Enaga

Hey, qariya, soddaliking qolgani yo‘q-da,

G‘am qissasi endi o‘qilmoqda-ku.

Eshik og‘asi

He, ko‘r ...

Bulg‘ab bo‘lmas qazolar sha’nin. Yangi

Kulfatlari borligini bilmasa kerak.

Enaga

Qanday kulfat? Gapisang-chi, mundoq ochiqroq.

Eshik og‘asi

Ke, qo‘ysang-chi, chiqib ketdi og‘zimdan bexos.

Enaga

O‘tinaman, oq soqoling haqqi, yashirma!

Sen qul bo‘lsang, men cho‘riman sohibamizga.

Gar qolishi vojib ersa qozon yopig‘liq

Biz ham aslo ochmagaymiz ...

Eshik og‘asi

Men eshitdimu

Sirtiga suv yuqtirmagan kishiday bo‘ldim,

O‘ta turib bukun shatranj maydonchasidan

Pirenada<sup>10</sup> muqaddas suv bo‘yida pirlar

Nelarnidir so‘zlashardi – mazmunan bildim:

Shoh taraddud ko‘rsatibdi: mulki Korinfdan

Medeyani farzandi-la haydab solarmish.

Bilolmadim bu ovoza qanchalik to‘g‘ri,

Bag‘oyatda avlo erdi noto‘g‘ri bo‘lsa.

Enaga

Nima, Yason qilmaydimi bunga e’tiroz?

Xotinidan bir umrga bezgan bo‘lsa-da,

Voz kechmas-ku shahdu shakar bolalaridin.

Eshik og‘asi

Iloj qancha? Xush yoqadi yangi yor doim:

Shoh avvalgi oilani tan olmas emish.

Enaga

Halok bo‘ldik ... daf etmayin ko‘hna baloni

---

<sup>10</sup> Pirena – Korinfdag'i chashma

Favqulodda yangisiga duch kelmoqdamiz.

Eshik og‘asi

So‘zlarimni saqlagaysan ko‘ngil tubida,

Bibishimiz bilmagani ma’qul bu gapni.

Enaga

Ana, qandoq dadangiz bor, bolajonlarim!

Tangri hifzi salomat saqlagay uni.

Har holda ul sohibimiz. Va lekin erkak –

Oilasin zinhor majruh etmasligi shart.

Eshik og‘asi

Har bandaning ta’bida bor bu xislat, inson

Boshqalarga qaraganda o‘zini sevar.

Yo shum xabar eshitdingmi, taajubdamen ...

Farzandlarin qurban qilish jatiga Yason

Yangi yor-la ishrat etmoq tamasidanmi?

Enaga

Boring endi, xudo xalloq, bolajonlarim,

Barham topur noxushliklar.

Sen esa, ey, chol,

Bolalarni yiroq tutgil voldasidin –

Jahli chiqqan. G‘azab qotgan asoratida –

Zaharini yaqinlariga to‘kmasaydi, oh!

Menga ayon – qurbanliksiz qahri bosilmas.

Bizlar emas, yov yo‘liqsin qahriga faqat ...

Medeya

(sahna ortidan)

Vodarig‘o!

Muncha yovuz uqubatlarim!

O, shum ajal! Vodarig‘o! O, shum azozil!

Enaga

Ohu fig‘on boshlanmoqda ... o, bolajonlar...

Ichkarida validangiz –

G‘am bistarida.

Undan picha nari turing, girgittonlarim.

Nazariga tusha ko‘rmang, yo‘qsa, balokash

Sizga g‘azab olovini sochar ayovsiz.

Bir qadam ham unga yaqin kelmangiz zinhor.

Tutsa agar sarkashligi, yovvoyiligi

Ho‘l-quruqni bir tekisda yondira olur.

Qoching uning g‘azabidan, bolajonlarim.

Qani tezroq pana joyga o‘tib olingiz.

Bu ra’d agar dabdurustdan sizga yo‘nalsa,

Chaqmoq urib, o‘tda kuyar xonumoningiz.

Ey, sen, ko‘ngil, dardlaringa intiho qani?

Nechun yupanch-tasallini bilmaysan hanuz,

Yoxud azob iloniga yem bo‘ldingmi sen?

## Medeya

(sahna ortidan)

O, musibat! O, aziyat, o azob va siz –  
Kuchsiz ohlar! Siz, farzandlar, otangiz birlan  
Gumdon bo‘ling, minba’d, minba’d qo‘shmozor bo‘ling!  
Qurib ketsin uy shunaqa bo‘lsa agarda.  
Er shu bo‘lsa, dunyodan toq o‘tmoq avlo-ku!

## Enaga

Voy, xudo-ey, sho‘ringizga –  
Sho‘rva to‘kildi!  
Shu ham gapmi ... Bolalarning gunohi nima?  
Yoxud alar javobgarmi padari uchun?  
Zug‘um qilib netadi ul bolakaylarga.  
Bolajonlar, qismatingiz ayanch erur, oh.  
Netay, naylay, sizlar uchun xavotirdaman.  
Shahansohlar dag‘dag‘asi dahshatli erur;  
Kundan-kunga oz qolmoqda itoatkorlar,  
Hukmdorlar ko‘paymoqda kun o‘tgan sayin ...  
Osongina bosilmaydi g‘azablari ham ...  
Barglar aro ko‘z ilg‘amas pinhon barg bo‘lib,  
Kun kechirgan yaxshimasmi? Qarigan chog‘da  
Shahansohlar g‘azabidan yiroqda bo‘lish;  
Osoyishta yashamoqlik – orzuim erur ...  
Eng sarasi, a’losi ham – me’yor saqlamoq,

Hayotda yo‘q shundan bo‘lak g‘aznai oliv!

Ehtiyojdan oshiqrog‘i omad keltirmas.

U qavmga yuklab qo‘yib ko‘h ba ko‘h ofat

Yo‘liqtirar ma’budlarning o‘tli qahriga.

### **Ikkinchı manzara**

Yason kiradi

Yason

Ilk bor emas, ko‘p ko‘rganman, kek bora-bora

Pillaqurtdek o‘z-o‘zini mahv etmog‘ini,

Sen shaharga, hovli-joyga ega bo‘lurding

Shohlar bilan olishmasdan siporoq yursang.

Loyiq esang gar quvg‘indi nomin olmoqqa

U holda shum ko‘rgilikni o‘z tilingdan ko‘r!

Bilamanki, tubanlikka yuz tutdi, deya

O‘z eringni qoralamoq qasdidadirsan.

Bundan bo‘lak tag‘in, shohning oilasidan

O‘rinlatib o‘ch olmoqni va’da qilibsan.

Bu yaxshimas. Kim aytadi seni eslik deb.

Kuch-qudratim etganicha bosdim shoh qahrin.

Seni bunda qoldirmoqqa tirishib ko‘rdim.

Vale barcha mehnatlarim chippakka chiqdi.

Saltanatga pand beruvchi so‘zlar aytibsan.

El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi, xotin.

Shu vajdan-da, endi senga shahrimiz yopiq.

Ammo, xotin, bola-chaqa tashvishidaman,  
Illo sizlar kamlik ko‘rmang zinhor hech erda  
Pul tufayli. Ozmi o‘zga diyorda axir  
Yovuzlik va muhtojliklar. Yason sen uchun  
Jirkanch odam. Ammo Yason kek nima bilmas,  
Uzatar u dushmanga ham do‘stlik qo‘lini.  
Boshqalardek to‘nini ters kiyib olmagay,  
Ilolabad zamonaga qarab ish tutur.

### Medeya

Voy paskashe ... voy olchog‘-e ... nomardligingni,  
Jangga yaroqsizligingni qanday so‘z bilan  
Izhor qilay, bilmay qoldim, tilim ham ojiz –  
Bizlar uchun bundan ortiq badlik bo‘lmaydi.  
Bizlar tomon kelasan-a tag‘in uyalmay.  
Buning oti murdorlikdir, jasorat emas.  
Odam degan o‘z do‘stiga shunday pand berib  
So‘ng ko‘ziga qaray olsa, botirlikmi shu?  
Bu illatni bizdagilar hayosizlik der.  
Har qalay men sendan shodman ... Ko‘nglimni endi  
Bo‘shatishga imkon bor-ku ... O tingla meni,  
Xah, nimaydi? Ha, boshlayin bir boshdan sekin.  
O‘sha kezda agar sening esingda bo‘lsa  
Seni saqlab qolg‘on erdim mudhish o‘limdan.  
Bunga o‘sha kemadagi bor ellinliklar

Shohid erur, qutqargandim, buqalarni sen  
Itoatga o‘rgatish-chun yuborilganding,  
Burunlari o‘t purkardi – ajal eriga  
Undan keyin urug‘ ekish – vazifang edi.  
Oldirtirib ajdahoning sehrli jonin  
Oltin yungli qo‘y terisin senga baxsh etgan  
Menmasmidim! Menmasmidim bedor ko‘zlarining  
Ko‘rmaganda qayta boshdan quyosh yog‘dusin  
Ato etgan! Menmasmidim otamdan kechib  
Elu yurtdan etak silkib Fessaliyaga  
Bir seni deb hayyo-huyt deb ravona bo‘lgan.  
Qiziqqonlik ustun kelib muhokamadan  
Peliy shohni o‘ldirtirgan o‘zim-ku, dahshat.  
Men tufayli padarkushlik qildi farzandlar!  
Bu bilan men mushkulingni oson ayladim.  
Mana endi bizdan ketding, oxir-oqibat  
Ahdni buzib, yangi nikoh qurayotirsan.  
Bolalarining dadasiga shu ish loyiqli?!

Yangi nikoh keltirmasin senga xurramlik.  
Ilolabad nasling bitsin, tirnoqqa zor bo‘l.  
Bolalarining bo‘lmasaydi, ha, mayli derdim:  
“Farzandi yo‘q, ajab emas, o‘zgadan ko‘rsa”.  
Bolalarining bo‘la turib bu ne sarkashlik?  
Qani vafo? Qani o‘sha muqaddas ahdlar

Yo u paymon so‘zlarini eshitgan razzoq  
Endi hukm yurgizmasmi, yoki qonunlar  
O‘zgardimi? Sen shohidsan bari, bariga  
Qani iqror bo‘lmay ko‘r-chi, sen ont ni buzding.  
O, necha bor surkalganding menga bu bilan ...  
Tizzamni-da bulg‘agansan yaqinlashish-la!  
Orzu-umid puchga chiqdi. Boy berildi qalb.  
Sendan endi nimani ham kutmog‘im mumkin?  
Ammo ko‘ngil dudog‘imni cho‘g‘dek kuydirur –  
Ro‘yirost bu orsizliging savollar bilan  
Fosh qilgayman ... Alhosilkim, farmoyish bering:  
Qay sari biz azm etaylik, aytingiz? Yoki  
Ketaylikmi o‘z uyimiz – ota hovliga?  
Senga osig‘ bo‘lsin deya boy berdim yurtni.  
Yo jo‘naymi badbaxt Peliyzodalar sari?  
Otalarin o‘ldirganman, albatta, ular  
Meni yopug‘ diydor bilan kutmasa kerak.  
Eski do‘sstar, dugonalar haqida so‘z yo‘q:  
Ular mendan voz kechishgan xiyonatim-chun  
Kimgaki men qilgan ersam qabihlik agar  
O‘z foydamni ko‘zlab emas, seni deb qildim.  
Ular menga endilikda ashaddiy dushman.  
Sho‘rim qursin! O‘sha shonu shavkat – mana u, –  
Ellinliklar aro ko‘rgan halovatlarim ...

O'shanda sen yolg'on va'da bergen ekansan.

Mag'rurlansam, ha bo'ladi, sodiq er bilan ...

Binobarin, baxti kulgan kelin-kuyovlar

Aslo g'amgin bo'lmagaylar. Agar Medeya

Bu shahardan uzil-kesil mosuvo bo'lsa,

Ham bir o'zi himoyasiz jujuqlari-la

Lol qoldirib ... yosh-qarini – badbaxtligi-la

Daydib yursa ... Bolalarim bir burda non deb

Qo'lchalarin uzatishsa mo'ltiragancha,

Ma'qulmi bu, seningcha, xo'sh? Seni o'limdan

Shuning uchun sog'-salomat qoldirganmidim?

O, sen Zavs, o, xudoyim, oltinni misdan

Ajratmoqqa qodir ersang, nechun bu yozmish?

Nima uchun kuydirilgan tamg'a bosmading

Nobakorga, tursin deya ko'zga tashlanib?!

Korifey<sup>11</sup>

Davosi yo'q va dahshatli g'azab qo'pmoqda,

Kimsalarning aduvligi yiqrar xeshlarni.

Yason

Yason bo'lib tug'ilgan zot bukun haqirdir,

Unga kun yo'q. Men bir kema darg'asimankim,

Hushyordirman, bo'ron tursa yelkanni ozroq

Tushiraman, yo'qsa ig'vo bo'roni va bu

---

<sup>11</sup> Korifey – qadimgi yunon tragediyasida xor boshlig'i

So‘z quyuni bizni g‘arqob aylaydi, xotin.  
Minnatlaring cheksiz ekan – havvoza yanglig‘  
Havo sari o‘rlab ketdi. Mening safarim  
Xayrli deb hisoblansa, bunga Kiprida –  
Bois, undan burchlidirman, Kiprida axir  
Yazdonlarning ichida ham, xalq ichida ham  
Kipridadir, - balki bu gap o‘zgaga yoqmas.  
Ammoki, sen undagi nazokatga boq:  
Gar kimda-kim bul Yasonni qutqarmoq uchun  
Medeyani ruhlantirgan bo‘lsa, bu Erot ...  
Mayda-chuda narsalarni qo‘zg‘atmoq nechun?  
Xizmatlaring tan olaman, xo‘sh, bundan ne naf?  
Burch o‘talgan allaqachon ortig‘i birlan.  
Birlamchi, sen Elladada yashayotirsan,  
Yovvoyilar ichidamas, qabilangdagi  
Insu jinslar qolib ketdi, bu erda yangi  
Qonun ila haqiqatni o‘rganding bizdan.  
San’atingni ellinliklar sharafladilar.  
Nufuzing bor, o‘sha dunyo sarhadi aro  
Sokingina kun ko‘raver hashamatsiz jim.  
Biz uchun hech saroydagi mol-dunyo, Orfey –  
Qo‘shiqlari ojiz o‘sha shon qarshisida.  
Bir zamonlar o‘sha shon-la yashadim xushbaxt,  
Gap taqaldi kelib-kelib yana o‘zimga.

Modomiki, bu bahsni qo‘zg‘agan bo‘lsang,  
Uylanishim xususida biron nima dey.  
Avvalambor, oqilona va undan keyin  
Kamtarona ish tutdim men, nimaga desang  
Bu barchasi bolalarim va sening uchun.  
Faqatgina chimrilmasdan qulq bersang bas,  
Iolkdan buyon badbaxtlik keltirdim yolg‘iz,  
Sizlar ham yuk ustiga yuk – zanjir bo‘ldingiz.  
Garchi erksiz ham quvg‘indi bo‘lsak-da nogoh –  
Kutilmagan baxt-saodat yo‘liqdi menga.  
Shoh qizi-la yulduzimiz bir ekan asli.  
Sen bekorga, xotin, bizni malomat qilma.  
Ishtiyogi baland dersan yotish-turishga.  
Dilda shahvat alangasi gurullamagan.  
Serfarzandlik istagi ham bor emas menda.  
Nazirimda, ular bizda etarli, xotin.  
Bu xususda senga ta’na qilolmayman ham,  
Yangi yorga uylanishim ehtiyojdan, bil.  
O‘z o‘rnini topmog‘i bor hayotda har kim.  
Shunday qilsam, ko‘rmagaymiz muhtojlik betin.  
Bilamanki, har kishining bori bo‘lmasa,  
Yuz o‘girar qarindoshi, yoronlari ham!  
Bolalarni oyoqqa tez turg‘izish uchun  
Mablag‘ kerak. Ular o‘qib voyaga etgach,

Undan keyin rohatini ko‘raveramiz, –  
Tug‘ilajak ukalari soyalarida  
Hademayin qaddilarin tutib olurlar.  
Senga tag‘in farzand nechun? Menga bo‘lsa-chi  
Ular zarur, mo‘may mablag‘, daromad uchun.  
Seningcha men nohaqmanmi? “Ha”, deb aytarding,  
Rashk qilasan-da. Hammangiz ham bu xususda shu –  
Yotog‘ingiz but bo‘lmasa eringiz bilan  
Dunyoning to‘s-to‘polonini chiqazasizlar.  
Siz foydali maslahatdan nafratlanasiz.  
Bola-chaqa shunday bunyod bo‘lsaki, bunda  
Xotin zoti ishtiroki ko‘rilmasa hech  
Bashar ahli kulfatlardan xoli bo‘lardi.

### Korifey

Suxanbozlik san’atini qo‘llading, Yason,  
Sharttakilik qilgan bo‘lsam, aybsitma meni,  
Haq emassan, Medeyani tark etsang agar.

### Medeya

Farqlanaman odamlardan ko‘p jihatdan men.  
Bu xususda, darhaqiqat, gap ham bormaydi.  
Gar ixtiyor bo‘lib qolsa mening ilkimda  
Suxanbozlik qilganlarga eng oliy jazo  
Berar erdim! Bu bilan u haqqoniyatni  
Yerga urdi. Suxanbozlik mashg‘ulotini

Kimki davom ettirsa-chi, shumlik bo‘risi  
Qo‘y terisini yopingancha ishrat qiladir.  
Ne ishlarni qilmaydi u niqob ostida?  
Ayb-nuqson ham mavjud bunday donishmandlikda  
Sen, inchunin ayyorlik va ehtiyotlik-la  
So‘z tuzog‘in yoza bilding, to‘g‘ridan-to‘g‘ri.  
Ha, sen uchun hech gap emas bizga pand bermoq.  
Bizdan olib rizolikni ba’daz to‘y qilsang,  
Soz bo‘lurdi. Sen-chi, avval uylanib olding ...

### Yason

Sendan olib bo‘larmidi rozi-rizolik,  
Hozir, sirdan, siporoqsan, lek yovuzlikni  
Haligacha yuragingda asrab kelasan.

### Medeya

Yo‘q, umrbod sen men bilan qolishdan cho‘chib<sup>12</sup>,  
Shunday qilding. Qartayganda siz ellinliklar,  
Eski yor-la yashamoqdan ozorlanasiz.

### Yason

Bunday teran xayollarga bormagin, xotin,  
Hech qanaqa sir-sinoat yo‘q bu nikohda:  
Senga axir boyta aytdim, oilamizni  
Mustimahkam qilmoqchiman shoh qizin olib,  
Tug‘ib bersa, yashaymiz biz shoh soyasida.

---

<sup>12</sup> Yo‘q, umrbod sen men bilan qolishdan cho‘chib ... – Medeya YASON shahriga kelgindi hisoblangani uchun Afina rasmi rusmiga ko‘ra u fuqarolikka qabul qilinmagan, lekin undan bino bo‘lgan farzandlar fuqarolikka o‘tgan.

Medeya

Bunday soya kerak emas, axir, bu nomus  
Evaziga olingan zar – boylikni netay,  
Azobmasmi, tashvishmasmi, turgan-bitgani?

Yason

Ma’budlarga ibodat qil, Medeya bonu,  
O‘zga orzu-istiklarni qalbingga jo qil.  
Qo‘lga kirgan naqdginangdan ranjima aslo,  
Boyqush bo‘lib ko‘rinmasin iqbol bulbuli.

Medeya

Masxara qil ... Qidirmaysan biz uchun uy-joy,  
Ro‘parangda himoyasiz quvg‘indi turar.

Yason

O‘zing yomon yo‘l tanlading – o‘zgada ayb yo‘q.

Medeya

Aldagan ham, uylanmoqchi bo‘lgan ham menmi?

Yason

Osylarcha qarg‘aganding o‘z shohlariningi.

Medeya

La’natlayman sening o‘rda-saroyingni ham!

Yason

Shu bilan biz tugatamiz. Bordiyu sizga –  
Senga yoki farzandlarga pul kerak bo‘lsa,  
Darig‘ tutmam ehsonimni – bir og‘iz so‘zim.

Kerak bo‘lsa yuborurman qo‘noq belgisin<sup>13</sup>.

Qadrdonlar sizlarga lutf ko‘rsatishadi.

Kerakmasmi? Arazlaring o‘rinli emas.

Ko‘zingni och, qahru itob qilavermasdan.

Qo‘lim uzun, manfaatim tegadi, inon.

### Medeya

Pul-mullaring, oshnolaring boshingda qolsin.

Vafosiz er muruvvati – qo‘lni kuydirur.

Taklif qilma, keragi yo‘q, olmayman zinhor.

### Yason

Xudo shohid, manfaatim tegib qolsin deb

Ko‘p urindim, ammo bizning saxovatni u

Qadrlamay o‘z-o‘ziga, farzandlarimga

Jabr qildi. Nima derdim – o‘zidan ko‘rsin.

(chiqadi)

### Medeya

Bor boraver, qalbing visol orzusidadir,

Yosh kelinchak kutib qoldi saroyda seni.

Tantana qil, nikoh! Mayli, safo qilaver,

Voz kechgaysan, kuyov bola, hali kelindan.

(Faxriddin Nizomov tarjimasi)

---

<sup>13</sup> Qo‘noq belgisi – jadval taxtacha; ikki bo‘lak bo‘lib, biri qadrdon tanishlarda bo‘ladi. Ikkinci bo‘lakni boshqa odam orqali yuborish esa ikki yorti bir butunlikni kasb etadi, ya’ni: qabul et mehmonni, bu – o‘z odamimiz, degan ma’noni bildiradi.

## RIM ADABIYOTI

Miloddan oldingi IV asrning oxiri – III asrning boshlarida Rim davlati Italiya erlarining asosiy qismini egallab, qulchilik asosiga qurilgan demokratik polis tuzumini joriy etdi va bir necha asr davomida jahongirlik siyosatini olib bordi. Birin-ketin Sitsiliya, Karfagen, Makedoniya(m.o.148 y), Yunoniston(m.o.146 y), Ispaniyaning bir qismini o‘zlariga tobe qildilar va Kichik Osiyorning g‘arbiy qirg‘oqlarida mustahkam o‘rnashib oldilar. Shunday qilib, II asr o‘rtalarida Rim dunyoning eng qudratli davlatiga aylandi.

Yunon xalqi inqirozga yuz tutgan bir davrda, O‘rta Yer dengizining g‘arbiy qirg‘og‘ida antik dunyo adabiyotining ikkinchi tarmog‘i – Rim adabiyoti paydo bo‘la boshladi. Mazkur adabiyot lotin tilida yaratildi. Rim adabiyoti Yunon adabiyoti erishgan barcha yutuqlardan, va shu bilan birga, ellinism davri adabiyotining bu xazinaga qo‘shtigan qator yangiliklardan to‘la-to‘kis foydalanib, ham shaklan, ham mazmunan yana bir daraja yuqori bosqichga ko‘tariladi va, keyinchalik, yangi dunyo Yevropa adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan qudratli bir adabiyotga aylandi. Uyg‘onish davrining ijodkorlari, XVII asr yozuvchilari o‘z faoliyatlarida asosan Rim adabiyoti namunalariga taqlid etadilar. G‘arbiy Yevropada XVIII asrga qadar antiklik Rim davri bilan bog‘liq holda talqin etildi.

Yunonlarning odat-taomillari, asbob-anjomlari, kiyim-kechaklari rimliklarning turmushiga juda tez kira boshladi. Rimning madaniy hayotida Yunonlarning xizmati singmagan deyarli hech qanday soha bo‘lmagan deyish mumkin. Hattoki birinchi Rim shoiri Liviy Andronik (m.av.284-204 y) ham Yunonistonlik bo‘lgan. Yunon maktablarida izohli o‘qishda asosan Homer dostonlaridan foydalanilgan. Shu bois Liviy Andronik “Odisseya” dostonini lotin tiliga tarjima qilgan. Mazkur tarjima Rim adabiyotining birinchi yozma yodgorligi bo‘lishi bilan birga, qariyb ikki asr davomida maktablarda asosiy o‘quv kitobi bo‘lib xizmat qilgan.

XVII asr klassitsizm tragediyalariga xos bo‘lgan “libos” Esxil, Sofoklga qaraganda ko‘proq Rim dramaturgi Seneka ijodi ta’sirida shakllangan bo‘lgan bo‘lsa, mazkur davr Yevropa eposi Homer dostonlari ta’sirida emas, Vergiliyning “Eneida”si asosida yaratildi.

Rim she’riyatining *oltin asri* m.o. I asrning o‘rtalaridan melodiy I asrning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Rim tarixining muhim voqealari sodir bo‘ldi. Fuqarolar urushi davomida m.o. 31- yili Aksium yaqinidagi jangda siyosiy arbob va sarkarda Mark Antoniyning qo‘smini, keyinchalik Avgust faxriy unvonini olgan Oktavian askarlari tomonidan tor-mor etildi. Oktavian Avgust Rim imperiyasining yagona hukmdoriga aylandi.

Rim adabiyotining bu davrida publisistika gullab-yashnadi, buyuk Rim shoirlari – Goratsiy, Vergiliy, Ovidiyalarining she’riy asarlari yozildi. Goratsiy lirkasi, Vergiliy va Ovidiyning epik dostonlari Rim she’riyatining oltin meros bo‘lib qoldi.

Rim adabiyotini lotin tili taraqqiyoti davrlariga mos ravishda quyidagi asosiy davrlarga ajratish mumkin:

- I. Qadimgi davr – Rimda Yunonlar namunasi asosidagi adabiyot paydo bo‘lguniga qadar (m.av.240 yilga qadar)
- II. Arxaik davr – Sitseron adabiy faoliyatiga qadar (m.av.240-81 yillar)
- III. Rim adabiyotining oltin davri:
  - a) Sitseron davri – Rim nasrining gullab yashnashi (m.av. 81-43 y)
  - b) Avgust davri – Rim she’riyatining gullab yashnashi (m.av. 43-14 y)
- IV. Rim adabiyotining kumush davri – imператор Trayan vafotiga qadar (14-117 y.)
- IV. Kech imparatorlik davri (117-476 y.)

## **Rim adabiyoti bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Rim adabiyotining paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatgan qanday omillarni bilasiz?
2. Rim adabiyotining ilk yozma yodgorligi sifatida etirof etilgan asarni ayting?
3. Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy, Plavt asarlarining Rim adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati?
4. Apuley o‘z «Metamorfazalar»ida qanday muammolarni ko‘targan?
5. Antik dunyo adabiyoti Yevropa madaniyatiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
6. XVII asr Evropa klassitsizm tragediyalari qaysi Rim dramaturgining ijodi ta’sirida shakllangan?
7. Rim adabiyotining oltin asri haqida nimalarni bilasiz?
8. Rim adabiyotining Evropa adabiyoti taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri haqida ma’lumot bering.

## PLAVT

**(tax. m.o. 250-184 y)**



Rimning ulug‘ komediyaganavisi Tit Makk Plavt Italiyaning Umbriya viloyatida tug‘iladi. Uning hayotiga doir ma’lumotlar juda oz. Kambag‘al oilada dunyoga kelgan shoir, yoshligida Rimga kelgan va teatrda sahna ishchisi bo‘lib ishni boshlab, keyinchalik o‘z kuchini akterlik mahorati bo‘yicha sinab ko‘rgan.

Sayyor teatr bilan Yunoniston safarida bo‘lib, Yunon tilini o‘zlashtirgan va Yunon mualliflarining pesalarini lotin tiliga o‘girgan, shundan so‘ng o‘zi ham komediylar yozishga kirishgan. U o‘zining aksariyat asarlarida bizgacha etib kelmagan Yunon komediylarining syujet va obrazlaridan foydalangan, ularni Rim hayotidan olingan voqealar hamda detallar bilan boyitgan. Plavt o‘zidan oldin ijod qilgan shoirlarning(Andronik, Neviy, Enniy) usullarini davom ettirib, o‘z ijodida muttasil yangi Yunon komediyasi vakillarining(Felimon, Difil, Menandr) asarlarini Rim sahnasiga moslashtirish bilan shug‘ullangan. Yunon komediylarini Rim jamiyatining keng ommasi didiga moslashtirish maqsadida u *kontaminatsiya usulidan* keng foydalanib, mazmun jihatidan bir-biriga yaqin ikkita pesani birlashtirib yuboradi va yo‘l-yo‘lakay asar to‘qimasiga o‘zidan qiziq-qiziq iboralar, maroqli hodisalar kiritib, dramatik xolatlarning keskin, voqealarning o‘ynoqi bo‘lishiga erishadi.

Plavt komediyalidagi voqealar Yunon shaharlarida bo‘lib o‘tib, ismlari ham Yunoncha bo‘lsada, Rim tomoshabini o‘zini, o‘z urf-odatlarini va ahloqini har doim tanigan. Qadim zamonlarda yuzdan ortiq komediyani Plavt nomi bilan bog‘lab kelganlar. Ammo miloddan oldingi I asrda Rim olimi Varron shulardan faqat yigirma bittasini Plavt qo‘li bilan yozganligini aniqlaydi.

Plavt komediylari juda kulgili, ular qiziqarli sahnalar, hazillar, zukko va quvnoq replikalarga boy bo‘lib, asarlarining qahramonlari boylar va kambag‘allar,

qullar va savdogarlar bo‘lgan. Ularning har biri o‘z xarakteri va o‘ziga xos hulq-atvoriga ega edi.

Plavtning eng o‘tkir va maroqli asarlari “Maqtanchoq jangchi”, “Xumcha”, “Psevdol( “Aldamchi qul”)” komediyalaridir. Plavt o‘z faoliyatini faqatgina komediya doirasi bilan chegaralagan va eng muhimi, asarlarining deyarli hammasi bizga qadar yetib kelgan birinchi Rim komediyavisi shoiridir. Uning she’riyat bobidagi mahorati yuksak taqdir va tahsinga sazovor. Shoirning asarlarida hech qachon bir vazndagi o‘lchov uchramaydi. Sahna sirlarini nihoyatda chuqur bilish ham Plavtning muhim fazilatlaridandir.

“Xumcha” komediyasidan ruhlangan XVII asr fransuz dramaturgi Moler “Xasis” komediyasini yaratdi. “Xumcha” komediyasining qahramoni xasis Evklion obraziga o‘xshash personajlarni ko‘plab yozuvchilarning asarlarida uchratish mumkin – fransuz yozuvchisi Balzakda( “Gobsek”), ingliz yozuvchisi Ch.Dikkensda( “Prozadagi Rojdestvo qo‘srig‘i”dagi Skruj), rus yozuvchisi Gogolda( “O‘lik jonlar”dagi Plyushkin), o‘zbek adiblaridan S.Ayniyning Qori Ishkambasi, A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani qahramonlaridan biri Solih maxdum, S.Ahmadning “Ufq” romanidagi Inoyat oqsoqollar shular jumlasidandir.

## **“XUMCHA” KOMEDIYASIDAN SAHNALAR**

*Ishtirokchilar*

Lar – xonadon, uy-ro‘zg‘or ma’budi

Evklion – qariya

Stafila – qari kampir, Evklionning oqsochi

Megador – boy qariya, Evklionning qo‘shnisi

Evnomiya – Likonidning onasi

Likonid – o‘siprin, Evnomiyaning o‘g‘li

Strobil – quł

Anfrak – oshpaz

Kongrion – oshpaz

Pifodik – quł

Fedra – Evklionning qizi

Qo‘shnilar, Evklion va Megadorning uylar yonma-yon joylashgan

ko‘cha. Sadoqat ma’budasining ibodatxonasi; qurbanlik

marosimi bajariluvchi joy.

Prolog

Lar

Kimligimni bilmaysizmi? Sizga qisqa aytaman:

Men xonadon Lariman, mana buning uyidan,

Men qayerdan chiqqanimni sizlar guvohi. Yashagayman

Bunda men uzoq yillardan buyon. Yangi xo‘jamning

Otasi va bobosiga qildim homiylik.

Uning bobosi menga ko‘p iltijolar qilib

Oltin xazinasin ishonib topshirdi va,  
O‘choqning o‘rtasiga sekin yashirib, mendan  
O‘tinib so‘rdi uni asrashni.

Va u o‘ldi: shunchalar ochko‘z, razilki, xatto  
O‘g‘liga ham lozim topmadi uni.

Xazinasin ko‘rsatmas chun u faqat,  
Qashshoqlikni ko‘rdi ravo o‘g‘liga.  
Bir parcha yer meros qoldi o‘g‘liga,  
Mayli qora mehnatda bo‘lsin, qashshoq.  
Xazinini ishonib menga, bandalik qilgach,  
Zimdan razm soldim o‘g‘liga, otasidan ko‘proq  
Menga hurmat ko‘rsata olarmikin deb.

Biroq borgan sari hurmati kamayib bordi  
Biroq borgan sari hurmatin kamaytib bordi,  
Borgan sari in’omlarin ozaytib bordi.<sup>14</sup>  
Men ham shunga munosib xarakat qildim.

Va nihoyat u ham o‘ldi, o‘g‘li qoldi,  
Mana shu bugun uyning xo‘jasি,  
Fe’l-atvori xuddi bobosi-yu, otasi.

Uning bilan qizi yashar, u har doim in’om qilar  
May keltirar, ladan, yoki shu kabi narsa,  
Gulchambar qo‘yadi. Uning sharafiga  
Evklionga xazina topishga izn berdim men,

---

<sup>14</sup> ladan - diniy marosimlarda tutatiladigan xushbo‘y smola

Osonroq qizini erga bersin deb.

## I AKT

### Birinchi sahna

(Xazinaning egasi bo‘lgan Evklionning tinchi buzildi. Uning xayolida atorfidagi har bir odamning o‘y-fikri, faqat xazinani o‘g‘irlash edi.)

Evklion, Stafila.

Evklion

Yo‘qol! Daf bo‘l! Gumdon bo‘l! Eshik ortiga! Tuyog‘ingni shiqillat!

Sening ishing zimdan mo‘ralab, olazarak bo‘lib turmoq!

Stafila

Ne sabab, men bechorani, savalaysan sen?

Evklion

Yaramassan, shunga mos kechsin hayoting,

Stafila

Xozir meni ne sababdan quvding uyingdan?

Evklion

Senga hisob beraymi men, shaqildoq!

Eshikdan qoch! Yo‘qol bu erdan! Qarang uning

Ketishini! Bilasanmi nima bo‘lishin?

Hozir olib qo‘lga arqon yo kaltak

Sening shum qadaming tezlashtiraman!

Stafila

Senda bunday xizmat qilgandan ko‘ra,

Ma’budlar-da meni dorga tomon yo‘llasin.

## Evklion

Buni qara, o‘z-o‘zicha g‘o‘ldirashin, bu yaramasning!  
Shoshmay turgin, sen hayvon! Xudo haqqi, ko‘zlarining o‘yaman!  
Ko‘rsatib qo‘yaman senga poylashni.  
Daf bo‘lgin! Gumdon bo‘l! Yana, yana! Mana shunday. Ey-ey  
To‘xta joyingda! Gar shu turgan joyingdan andak,  
Bir qarich, zig‘ircha, qimirlab ko‘rsang,  
Ortga qarasang, mening iznimsiz  
Shu onda men seni jallodga bergum!  
Umrimda sendayin mal’un kampirni ko‘rgan  
Emasman! To‘g‘risi, men undan juda qo‘rqaman:  
Pismayib yonimga nogoh qoladi kelib,  
Oltin yashirgan joyim iskab topib oladi!  
Bu makkorning ensasi ham ko‘ra oladi.

## Stafila

E, yo‘q!

Men soqchiliq qilayinmi? Nima uyni kimlardir  
Olib ketarmi? O‘g‘ri olishiga hech vafo yo‘q-ku, –  
Bo‘m-bo‘sh har yon, bosib ketgan o‘rgimchak ini<sup>15</sup>.

## Evklion

Balki senga yoqish uchun Yupiter meni, badavlat,  
Podsho Filipp yoki Doro qilmoqchi dersan. O‘rgimchakning  
Inini qo‘riqlashing xohlayman.

---

<sup>15</sup> Evklionni hamma kambag‘al deb o‘ylaydi; uning o‘zi ham shundayo deydi; qo‘shnisi Megador ham shunday deb o‘ylaydi Stafila buni qullarga xos aniqlik bilan ifodalaydi:

Kambag‘alman, ha. Chidayman-da! Xudoning irodasi shul!  
Ichkari kir, eshiklarni tanbala. Men tez qaytaman,  
Yotlar bilan bo‘lgin ehtiyot, hech kimni qo‘yma.  
Olov so‘rab kelsalar gar – shu on o‘chirgin,  
Mabodo ko‘rib qolsam – o‘chiraman o‘zingni.  
Suv so‘rab kelsalar gar – aytgil: suv tugadi deb.  
Qachon ko‘rsang qo‘shnilar tilanchilik qilurlar:  
Hali kerak idish yo pichoq, bolta yoki kulisop-u hovoncha.  
Degin, o‘g‘rilar tunab, barchasin olib ketdi,  
Xullasi kalom, kimki bo‘lmasisin, kiritma mensiz!  
Yaxshilab eshitib ol: zinhor kiritma,  
Fortuna<sup>16</sup> o‘zi kelsa ham xatto.

### Stafila

Menimcha, uning o‘zi ham oshiqqani yo‘q  
Kirishga bu erga; biror marta uyimizga  
Yaqinlashmadi, bo‘lganda ham yaqin orada.

### Evklion

Jim bo‘l! Ket!

### Stafila

Jim bo‘ldim. Ketdim.

### Evklion

Eshiklarni yaxshi tambala,  
Lo‘kidonni surib qo‘y! Tezda qaytaman.

---

<sup>16</sup> Fortuna – taqdir, baxt-omad ma’budasi

*(Stafila ketadi)*

Qiynalib ketdim! Uydan chiqishim kerak!  
Chiqqim yo‘q, biroq, zarur ishim bor.  
Kuriyamiz<sup>17</sup> oqsoqoli pul tarqatilishin aytdi.  
Agar bormasam men, shubha tug‘ilur shaksiz,  
Shu on, oshkor bo‘ladi, xazinamning borligi:  
Bo‘lishi mumkinmi axir, bir bechora kambag‘al  
Mayda chaqa bo‘lsa ham, moyanadan voz kechsa?  
Qanchalar o‘zgalarda qunt bilan yashirsam ham,  
Xayolimda go‘yoki barchaga ayon sirim: barcha odam  
Men bilan iltifot-la so‘rashur!  
Yonimga kelishadi, to‘xtatishadi, qo‘llarimni  
Siqishib, xol-axvol so‘rashadi.  
Ketayotgan erimga boray. Keyin – uyga.  
Imkon qadar tez qaytgum.

*(chiqib ketadi)*

## II AKT

*(Evklionning nazarida uning pullarini o‘g‘irlab ketishayotgandan tuyulaveradi. Badavlat qariya Megador qiziga sovchilik qiladi. Biroq Evklionga hatto qizining sepini qilish ham malol keladi, u kambag‘alligini ro ‘kach qilaveradi. Megador bilan gaplashayotgan paytda, Evklionning xayolida, o‘g‘rilan uning uyini bosishayotganday tuyulaveradi.)*

### Ikkinchı sahna

Evklion, Megador

---

<sup>17</sup> Kuriya(okrug) – kuriya oqsoqollari kambag‘allarga yordam berib pul tarqatgan

Evklion

Uydan chiqayotganda kelgandi-ya ko‘nglimga.

Oyog‘im tortmagandi! Kelsam – kuriyada hech kimsa yo‘q,

Oqsoqol ham yo‘q, pul ham tarqatilmayaati.

Endi tezroq, tezroq uyga! O‘zim bunda, ko‘nglim esa uyda.

Megador

Evklion, senga salomlar, baxtli bo‘l, doim salomat.

Evklion

Salom, Megador!

Megador

Xo‘sh qalaysan, ishlaring, sog‘lig‘ing qanday?

Evklion

(*chetga qarab*)

Bekorgamas badavlatning kambag‘alga ilakshishi:

Oltinimning isin olgan, shuning uchun xushomadlar.

Megador

Sog‘lig‘ing yaxshimi?

Evklion

Durust, faqat, shu pul...

Megador

Ha, shu xolosmi!

Tinch-tetik bo‘lsa ruhing, yashash uchun etadi.

Evklion

(*chetga qarab*)

Oltin haqda kampirshoning aytgani aniq,  
Uyga qaytib, tillarin sug‘urib, ko‘zlarin o‘yib olay!

Megador

Nimalar deb pichirlaysan?

Evklion

Muhtojlikdan zorlanaman.

Qizim o‘tirib qoldi: qanday qilib uzataman, sepi bo‘lmasa?  
Qaysi kuyov sepsiz olar?

Megador

E, gapirmagin, Evklion, bardamroq bo‘l!  
Sep to‘plashga yordam qilay. Nima zarur? Qani gapir!

Evklion

(*chetga qarab*)

Timirskilab nimanidir, shu ondayoq va’dalar berar:  
Oltinga ko‘z olaytirgan! Bir qo‘lida non bo‘lsa,  
Boshqasida tosh turar. Kambag‘alga mehribonlik  
Qilgan boyga ishonch yo‘q.

Qo‘llaringni do‘stona siqib, shu ondayoq rasvo qiladi.  
Bilaman bu poliplarni<sup>18</sup>; salgina tegib ketsa yopishib olur.

Megador

Evklion, diqqatingni menga qarat. Gapning lo‘ndasin aytsam  
Gapirmoq istardim umum ishimiz haqda.

Evklion

---

<sup>18</sup> Polip – qimirlamay bir joyda yashovchi, yopishqoq dengiz hayvoni

*(Chetga qarab)*

Oh, falokatga yo‘liqdim!

Oltinimni uydan o‘marishgan, endi u, bilaman,

Rasamad qilmoqchi men bilan. Yo‘q, uyga – ko‘ray-chi!

Megador

Qayoqqasan?

Evklion

Tezda qaytgum. Uyda ko‘rmoqchiman ba’zi narsalar.

*(Ketadi)*

Megador

Gap boshlasam, uylanmoqchi ekanimni qiziga

Ustimdan kulayapsan, deb o‘ylar.

Kambag‘allikdan, bunday xasis bo‘lganni, ko‘rmaganman hech.

Evklion

*(qaytadi)*

Xudoga shukur, joyida ekan: yo‘qolmagan narsa joyida bo‘lur.

Borayotib qo‘rqdim juda: keldi nafas giribonimga!

Megador, men qaytdim. Nima gaping bor?

Megador

Minnatdorman juda ham.

Menga javob berishdan qilma hazar, so‘raganda.

Evklion

Neni so‘raysan? Ba’zilariga javob bergim yo‘q.

Megador

Gap bunday: fikringcha bizning urug‘ yaxshimi-yomon?

Evklion

Ha, yaxshi.

Megador

Shonimiz, shuhratimiz yomon emasmi?

Evklion

Albatta.

Megador

Ishimiz, yurish-turishimiz-chi?

Evklion

Halol, pok.

Megador

Yoshimni bilasanmi?

Evklion

Puling kabi, oz emas.

Megador

Xuddi shunday, sen men uchun hozirgiday

Benuqson fuqaro, bo‘lgansan doim.

Evklion

(*Chetga qarab*)

Oltin isin sezib qolgan.

Tinchlikmi? Ishing bormidi menda?

Megador

Gar do‘stga do‘stday qarasak bizlar

Unda sening, mening-da baxtimizga, qizing baxtiga

Uni menga turmushga uzat. Javob ber: mayli, de!

Evklion

Oh, oh, Megador! Senga bunday ishlar yarashmaydi.

Oldingdagi bechorada ayb yo‘q: nechun ustimdan kulasan mening?

Na yumushim va na xulqim bilan munosib emasman bunga.

Megador

Ustingdan kulmadim, bunga yo‘q sabab.

Evklion

Unda nechun qizimga sen uylanmoqchisan?

Megador

Ahvolingiz yaxshilayman, siz esa – mening.

Evklion

Kallamga mana qanday keldi fikr. Sen badavlat

Obro‘li odam bo‘lsang, men esa kambag‘allar kambag‘ali.

Gar qizimni senga bersam(shundayin deb fikr qilsak):

Sen – xo‘kiz, men esa go‘yo eshak. Ikkimizni bir qo‘shta qo‘shib  
bo‘larmi?

Sen ko‘targan yukni men ko‘tara olmam: eshak loyga yiqilib yotsa –

Xo‘kiz qayrilib boqmas, go‘yo u, olamda yo‘q.

Sen dushmanaga aylanursan, xeshlarim kular rosa,

Unda ham, bunda o‘z bo‘lmam bo‘lmas, gar bundayin nizo chiqsa.

Eshaklar g‘ajib tashlar, xo‘kiz shoxi tushar ishga.

Eshaklardan o‘tsam xo‘kiz tomonga – men uchun bu katta tavakkal.

Megador

Halol bilan qarindosh bo‘lish – eng yaxshi ishdir.

Gapimga kir, taklifimni etma rad,

Qizingni menga uzat.

Evklion

Biroq... sepi yo‘q-ku, axir!

Megador

Mayli! Xushfe'l bo‘lsa – shu sepi bo‘lar.

Evklion

Men shunchaki, yana o‘ylama, xazina topgan bu deb.

Megador

Bilaman, o‘rgatma. Rozimisan?

Evklion

Mayli. O, Yupiter! O‘ldim, men!

Megador

Senga nima qildi?

Evklion

Nima? Bu temirning jarangimi? Men hozir.

(*Yugurib ketadi.*)

(Evklion xasisligining chegarasi yo‘q. Qul Strobilning aytishicha, Evklion hamma narsaga achinadi: yuvinayotgan suviga, nafas olayotgan xavosiga, - shu sababdan u uxlayotganda og‘zini dastro‘mol bilan bog‘lab oladi. U vaqtı-vaqtı bilan olib turiluvchi tirnoqlarga ham achinadi.

Plavt o‘z qahramonining xasisligini mubog‘ala bilan beradi, giperboladan foydalanadi, va aynan shu komik vaziyatni paydo qiladi. Evklion qizining

to‘yiga taraddudi qilmoqda. U bozorga boradi, biroq ochko‘zligi sabab, hech narsa sotib olmaydi.)

### **Yettinchi sahna**

Evklion

Bugun o‘z-o‘zimga dalda bermoqchi, qizimning to‘yiga

ruhlantirmoqchi bo‘ldim: bozorga jo‘nadim:

So‘radim baliq – qimmat juda.

Qo‘y go‘sht, mol go‘shti, buzoq go‘shti.

Tunets(baliq), cho‘chqa go‘shti. Ne so‘rasang, barchasi qimmat.

Ulardan-da qimmati: pulning yo‘qligi.

Ranju alamda qaytdim, olgani hech vaqom yo‘q.

Shunday qilib qutuldim men, qaroqchilar qo‘lidan

Yo‘lda qaytayotib o‘zimcha o‘yladim men:

“Bayram kuni hotamtoy bo‘lsang,

Begim kunlar kamomad bo‘lgay”, - bu fikrni

Uzatdim aniq yurakka-yu, oshqozonimga.

Qanday qilib to‘yni kamharj o‘tkazish mumkin?

Ruhim mening hal qildi ushbu muammoni.

Gulchambar va tutatqilar oldim mana,

Larimiz mehrobiga ularni qo‘ymoq uchun,

Tahfa qilsin qizimga baxtli nikohni!

Biroq, bu nimasi? Uyimizning eshigi ochiq,

Ichkari shovqin. Nahot bo‘ldi falokat? Yo, talonchilar!?

(*Sidiq Xo‘jaev tarjimasи*)

## GORATSIY

(m.o. 65)

Vergiliyning zamondoshi va do'sti, Avgust davrining ikkinchi ulug' shoiri Kvint Goratsiy Flakk miloddan oldingi 65 yilda Italiya janubidagi Vinuziya shaharchasida tug'ilgan. Uning otasi soliq yig'uvchi bo'lib, Apuleyada uncha katta bo'limgan mulkka egalik qilgan. Goratsiy avval Rimda, keyin Afinada saboq oladi, o'tmishdagi ulug' Yunon shoirlarining asarlarini qunt bilan o'rghanadi. O'zining aytishicha ilk she'rlarini Yunon tilida yozgan. Uning dastlabki she'rlariyoq kitobxonlarga, shu jumladan Vergiliyga manzur bo'ladi. Aynan Vergiliy uni adabiyotning atoqli homiysi Silniy Metsenat bilan tanishtiradi. Shoir sevgi-muhabbat, do'stlik, hayot oqimining tez oqarligi haqida yozdi. Avgustning muruvvati va Metsenantning himmatlari tufayli Goratsiy tez orada muhtojlik tashvishlaridan qutulib, dorilamon hayot kechira boshlaydi.



Goratsiy she'riyatning turli janrlarida ijod qildi: oda, satira, madhiya, nomalar shular jumlasidan. Shoir ijodida san'at va she'riyatning jamiyatdagi o'rni masalalariga katta e'tibor qaratilgan. "Avgustga noma"da she'riyat insonni shakllantirishi, unga taskin berishi, dardiga davo bo'lishi haqida so'z yuritilsa, "She'riyat san'ati haqida" nomasida asarni qanday qurish va so'z boyliklaridan umumli foydalanish, xarakterlarni qanday yaratish haqida maslahatlar beradi. Uning mashg'ur "Haykal o'rnatdim men" qasidasida ijodkor va she'riyatning umriboqiyligi mavzusi qalamga olingan.

Goratsiyning ijodiy me'rosi bizgacha deyarli to'la holda etib kelgan. Ular quyidagilar:

1. "Epodlar" deb ataluvchi 17 she'rdan iborat bitta to'plam.
2. "Satiralar" deb ataluvchi 18 she'rdan iborat ikkita to'plam.
3. "Qasidalar" deb nomlanuvchi 103 she'rdan iborat to'rtta to'plam.
4. "Nomalar" deb ataluvchi 23 she'rdan iborat ikkita to'plam.
5. "Bayram madhiyasi" she'ri.

Goratsiy ijodida favqulotda o‘rin tutadigan shoh asari shubhasiz, uning “Qasidalar”idir. To‘rt majmuadan iborat bo‘lgan qasidalarning birinchi uch qismini shoir miloddan avvalgi 23 yilda, to‘rtinchi qismini 13 yilda nashr qildiradi. Shoirning o‘zi to‘rtala to‘plamga kirgan asarlarining barchasini “qo‘sishqlar”, “she’rlar” deb atagan bo‘lsa ham, antik davrda “qasida” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

“Qasidalar” muallifi qadimgi Yunon shoirlari ixtiro etgan rang-barang va murakkab she’riy vaznlardan ustalik bilan foydalangan va shu orqali Rim she’riyatining shaklini boyitib, unga turli-tuman go‘zal va nozik taronalar bag‘ishlagan. Qasidalar mazmun jihatidan ham, janr jihatidan ham benihoyat xilma-xildir.

Goratsiy ijodining butun mazmuni – xoh “Epodlar” da bo‘lsin, xoh “Satiralar”da bo‘lsin, xoh “Qasidalar”da bo‘lsin – asosan shod-xurramlikni, yor-do‘stlikni, may va ishq-muhabbatni targ‘ib qilishdan iboratdir. Uning fikricha inson uchun bularning birontasidan saqlanishning hech qanday zaruriyati yo‘q.

Goratsiy lotin tilida mutlaqo yangi lirika yaratdi. Qasidalardagi fikriy teranlik, shakliy rang-baranglik, uslubining nafisligi, ixchamligi, sodda va ravonligi – ulug‘ shoir tomonidan Rim she’riyatiga kiritilgan yangiliklarning yorqin namunasidir. Shoir o‘z ijodiga yakun yasab, “Qasidalar” uchinchi majmuasining “Haykal” nomli mashhur 30- qasidasida Rim she’riyatining taraqqiyoti yo‘lidagi buyuk xizmatlarini, inchunin, lirik shoir sifatida abadiy barhayot qolajagini e’tirof etar ekan, g‘urur bilan yozilgan bu so‘zlarda hech qanday mubolag‘a bo‘lgan emas.

Ulug‘ rus shoiri A.S.Pushkinning mashhur “Haykal” she’rining yaratilishiga Goratsiyning “Haykal o‘rnatdim men” (“Exegi monumentum”) qasidasи turtki bo‘lgan. Ruschada uni “Pamyatnik nerukotvornyy”, “Poxvala pissam” deya atashgan. Antik davrning bu qasidasidan ilhomlangan M.Lomonosov, G.Derjavin, .Kapnist, A.Vostokov, S.Tytchev kabi XVIII asr mualliflari ham haykal mavzusida o‘z qasidalarini yozishgan. Ammo faqat Pushkinning qasidasи davrlar osha sevib o‘qilmoqda.

# **GORATSIY IJODIDAN NAMUNALAR**

## **Epod**

1, 7[Rimliklarga]

Qayga, jinoyatchilar, qayga? Nechun tig‘larni  
Qinlardan sug‘irasiz?  
Hali oz deb o‘ylaysiz?  
U nafratli va mag‘rur Karfagen kelsin

10. Yoqilgan qal'a kabi –

Boshdan oyoq band etilgan, o‘jar britaniyalik  
Muqaddas yo‘lga tushsin, –  
Yo‘q, parfiyaliklar istaganday shahrimizni o‘z qo‘li  
Xarob qilsin uchun bu.  
Bo‘rilarda, arslonlarda bu qiliq yo‘q, balki boshqa  
Yirtqichlarda bo‘lmasa.  
Ko‘r tentaklik yo qudratli kuchmi sizni sudraydi?  
yo qusur? Javob bering!  
Sas kesildi, yuzlari bo‘zday oqardi nochor,

20. Fikrlar boshdan uchgan.

Remning ma’sum qoni tomib, evaralarga  
Irim bo‘lib qolganmish,  
Hali ham rimliklarni quvlar u zolim taqdir  
Va qardoshni o‘ldirish.

## **Qasidalar(odalar)**

1, 9 [Ulfatchilik qo‘shig‘i]

Qara: yuksaladi qorli Sorakta,  
O‘rmon bosh egibdi og‘ir yukidan,  
O‘tkir, qora yovuz sovuq band etgan  
Barcha daryolar ham asta to‘xtabdi.  
Ey Taliarx, mo‘l-ko‘l tashlab o‘choqqa

O‘tinlarni, ildam quvla sovuqni;  
Qani tez bo‘l, menga ko‘zachada quy  
10 U top-toza eski Sabin mayini.  
Qo‘y o‘zgani, dengizda shamollar jangin  
Bo‘ysundirgan xudo qayg‘usin esin!  
  
Ana hozir tip-tinch baland sarvlar,  
Shamshodlar turadi qimir etmasdan.  
  
Erta nima bo‘lar, - yaxshisi so‘rma,  
Qo‘l kelgan ne’matni ilaver beg‘am,  
Hali yosh ekansan, bo‘yin tovlama  
Shirin muhabbatdan va sho‘h raqlardan  
Jingalak sochingda halioq yo‘qmi,  
20 Maydonga, u xilvat joylarga yugur

Va kechki uchrashuv soatida sen  
Borlig‘ing-la mayin sadolarni il,  
Xilvat joyda tingla qiz kulishini,  
Berkingan qizlarni xandasidan bil  
Tez ko‘nar va ma’sum gul barmoqlarning  
Uzuklarin asra, ishq garovi deb.

1, 11 [Levkoniya]

Yo‘q, bilmoqqa sen urinma – bilish gunoh – tangri mening,  
Yoki sening hayotingni netajakdir oxirida,  
Levkoniya, bas fol ochish, xaldeylarning raqamlari  
Ma’nosiga kirishni qo‘y! Taqdir nima bag‘ishlasa,  
Bardosh yaxshi: tangri bizga Tirren suvi qirg‘oqlarin

To‘lqinlarning zarbasi-la ezayotgan shu qishnimi  
Yoki yana ko‘p-ko‘p qishlar yashamoqni nasib etgan:  
Esingni yig‘, qadahlarga suz sharobni, juda uzoq  
10 Xayollarni yaqinlashtir. Biz bu erda so‘z sotguncha,  
Kechar bizning qisqa umr. Dam g‘animat, shu damlarni  
Qo‘ldan qo‘yma, eng oz inon ertangi kun lazzatiga.

\* \* \*

Men misdan o‘rnatdim mustahkam xaykal,

Ehromlardan yuksak ulug‘vor basti

Vayron qila olmas uni hech mahal

Akvilon shamoli na yomg‘ir asti

Vaqt chopib borar o‘tar yil safi

Biroq men o‘lmasman ruhim oliya

Faqat jismim ketar Libitinadan

Meni qayta chorlar Kapitoliya

Oliy kohin borar bokira qizla

Ismim aytib oqar Aufid yo‘lida

Chunki men kuyladim muqaddas so‘zla

Cho‘pon qabilasi Davn elida

Eol qo‘shiqlarin kuyladi torim

Italiy yo‘liga jo‘natdim abad

Melpomena qabul et iftixorim

Delfa toji bilan boshimni bezat

(Rustam Umrzakov tarjimasi)

## A.S.PUSHKIN

### **Haykal<sup>19</sup>**

Qo‘l bilan tiklab bo‘lmas haykal qo‘ydim o‘zimga,  
Xalqning kelar yo‘lini o‘t-o‘lanlar qilmas band;  
U mag‘rur qad ko‘tardi bosh egmasdan ta’zimga,  
Aleksandr qubbasidan ham baland.

Yo‘q, butunlay o‘lmayman – qalbim yashar liramda,  
Tuprog‘im-la chirimay yashaydi u to abad,  
To biron shoir-poir qolar ekan olamda,  
Meni sira tark etmaydi shon-shuhrat.

Ovozim-la chulg‘anar poyoni yo‘q ulug‘ Rus,  
Undagi el-elatlar meni yodlaydi har dam,  
Mag‘rur slavyan nasli, bugungi avom tungus,  
Fin xalqi-yu dashtlar do‘sti qalmoq ham.

Uzoq zamon xalq mehriga bo‘lajakman musharraf,  
Zotan, rubobim bilan ezgu haslar tug‘dirdim,  
Shu yovuz zamonamda kuyladim erkni maqtab,  
Xor-zorlarga achinmoqqa chaqirdim.

*(Ramz Bobojon tar.)*


---

<sup>19</sup> Ushbu she’r Goratsiyning she’riga nazira shaklida yaratilgan

## VERGILY

(m.o. 70 y)

Rimning eng ulug‘ shoiri Publiy Vergiliy Maron miloddan oldingi 70 yilda Italiyaning shimolidagi Mantuya shahri atrofida tug‘ilgan. Vergiliy oldin Kremonda, keyinchalik Milan, Rim shaharlarida tahsil oladi; ritorika , falsafa bilimlarini, ayniqsa adabiyotni chuqur o‘rganadi. Birq tabiatan yumshoqligi, uyatchanligi, notiqlikka qiziqishi va iste’dodining yo‘qligidan faqat bir marta sud ishida qatnashib, tez orada o‘z yuritiga qaytib ketadi, bu yerda dehqonchilik qiladi va adabiyot bilan shug‘ullanadi. 41 yilda Oktavian Avgust o‘zining qo‘sishini Italiyaning shimoliga joylashtiradi, Vergiliyning mansabdor muxlislari uni imperator bilan tanishtiradilar. Shoир Avgust saltanatiga chuqur samimiyat va xayrixohlik bilan qaragan va o‘z asarlarida Avgust saltanatini kuylovchi, uning ishlarini tarannum etuvchi ulug‘ saroy shoiri darajasiga ko‘tariladi.



Rim eposi asoschisining Vergiliyning “Eneida” dostoni, Homerining dostonlari bilan tenglashtirilgan.

Vergiliydan hammasi bo‘lib uchta asar etib kelgan. Bulardan birinchisi “Bukolikalar”(cho‘pon she’rlari), ikkinchisi “Gerogikalar”(dehqon qo‘sishlari) va uchinchisi “Eneida” dostonidir. Mazkur asarlardan tashqari bizga qadar “catalepta”, ya’ni “mayda-chuda she’rlar” deb ataluvchi yana bir to‘plami saqlanib qolgan. Bu to‘plamga kirgan she’rlarning ko‘pchiligi neoteriklar, ayniqsa, Katull usulida yozilgan turli-tuman vazndagi she’riy asarlardan iborat.

Vergiliyning birinchi yirik asari “Bukolikalar” o‘nta she’rdan iborat to‘plamdir. Bu to‘plamga kiritilgan she’rlarni ko‘pchiligi eklogalar, ya’ni she’riy parchalar deb ham ataladi. “Bukolikalar” muallifining diqqat makazida turadigan asosiy masala – dehqonchilik ishlarining boshqa kasblarga nisbatan a’loligini,

oddiy qishloq hayotining go‘zalliklarini madh qidishdan va shu yo‘sin yer egalarining manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Vergiliyning dehqonchilik haqida yozilgan ikkinchi asari – “Georgikalar” dostoni ham mazmun jihatidan birinchi to‘plamga juda yaqin turadi. Didaktik mazmundagi ushbu asar yirik-yirik to‘rt qismdan iboratdir. Bu qismlardan birinchisi g‘allakorlikka, ikkinchisi bog‘dorchilik va tokchilikka, uchinchisi chorvachilikka va to‘rtinchisi asalarichilikka bag‘ishlanadi.

Doston muallifining otashin vatanparvarligi, qishloq hayotiga bo‘lgan jo‘shqin muhabbati, ayniqsa dehqonlarga samimiy xayrixohlik bilan qarashi – asarning yuksak badiiy mahorat bilan yozilishini ta’minlagan.

Vergiliyi Rim she’riyatining cho‘qqisiga olib chiqqan, uning shuhratini yer yuziga taratgan ulug‘ asari “Eneida” dostonidir. Qadimgi ma’lumotlarga qaraganda, shoir asar ustida o‘n ishlagan va uni m.o. 19 yilda tugatgan. “Eneida” dostonining butun voqeasi Troya shahri tor-mor qilinganidan so‘ng bosh qahramon Eneyning o‘z hamrohlari bilan birga Italiyaga qarab yo‘lga chiqishi, uning dengizda tortgan og‘ir mashaqqatlari, nihoyat manzilga yetib kelishi, Rim davlatini barpo qilish yo‘lida olib borgan kurashlari tasviridan iborat. Asar har biri olti bobdan(qo‘shiqdan) iborat, ikki qismga ajratib yozilgan. Birinchi olti bob qahramonning Troyadan chiqib Italiyaga yetib kelish davrida kechirgan saoguzashtlariga, keyingisi Italiya tuprog‘idagi janglariga bag‘ishlanadi.

Vergiliy o‘z asarini oxiriga etkazolmagan bo‘lsa kerak. Chunki dostonda troyaliklar bilan rutullar o‘rtasidagi urushdan keyingi voqealarni, masalan, troyaliklarning lotinlarga qo‘shilib, har ikkala xalqning totuvlashib ketganini, Eneyning Laviniyaga uylanishi, ularidan Iulning tug‘ilishi, Iul naslidan Romul hamda Rem degan egizak bolalarning dunyoga kelishi, shular tomonidan Rim shahrining barpo etilishi va, nihoyat, dastlabki Rim podshohlari avlodlarining(Yuliy Sezar, Oktavian Avgustning ajdodlari) tarqalishi haqidagi afsonalarni ko‘rmaymiz.

Vergiliyning Rim she'riyatini rivojlantirishga hissasi beqiyos. Yunon dostonchiligining eng murakkab bo'lgan gekzamert vaznini lotin she'riyati talablariga moslashtirishga ko'plab shoirlar uringanlar, biroq bu o'lchovni mislsiz kamolot bosqichiga ko'tarish faqat Vergiliyga nasib qilgan.

## **“ENEIDA” DOSTONIDAN PARCHALAR**

(Italiyaga yetib kelgan Eney, Kum shahri yaqinidagi Apollon ibodatxonasida sohibbashorat Sivitsilla bilan uchrashadi, undan o‘z taqdiri haqida bilib oladi(1 – 97 misralar). Eney yer osti podsholigidagi otasi Anxisning soyasi bilan uchrashishga ruhsat so‘raydi. Sivitsilla unga do‘zaxga tushish yo‘llarini ko‘rsatadi(98 – 155). Eney Svitsilla aytgan “oltin butoq”ni topib, do‘zaxga tushadi va dengizda cho‘kib ketgan hamroxi qahramon Miseyni tantanalar bilan dafn qiladi(156 - 235).)

236 Buni tugatib, Svitsilla amrini bajarmoqqa shoshildi.

Grot<sup>20</sup> balandda edi, ulkan va keng og‘izday,  
Qop-qora ko‘l va zim-ziyo o‘rmon zulmatida yashiringan,  
Uning ustidan hatto ucholmasdi qushlar jazosiz.

240 Qanotlarin yozganda: qorayib turgan tuynuklardan

Yuqoriga bug‘lar chiqib, osmon gumbaziga qadar yetardi  
(Shu sababdan bu joylar Yunonlarda Aornon<sup>21</sup> deyiladi).

Qurbanlikka kohin ayol qora orqali to‘rt buzoqni olib  
Kelib, boshlarin sharob bilan chiqdi purkab,  
Shundan so‘ng qirqdi shoxlari orasidagi yunglar uchini  
Va ularni muqaddas olovga qo‘ydi birinchi nazr qilib,  
Xitob qilib chaqirdi Gekatani, Ereb va samo ma’budasin.  
Xizmatkorlar pichoqlarin qo‘yishib, issiq qonni to‘plashdi  
Qadahlarga. Shaxsan Eney qora yungli bir qo‘yni.

250 Furiya<sup>22</sup>lar onasi Yerga, qilich bilan tunda qurbanlik qildi.

<sup>20</sup> Grot – dengiz qirg‘og‘idagi tik qoyalarda hosil bo‘ladigan g‘or

<sup>21</sup> Aornon – jahannamga tushish yo‘li Avern ko‘li yaqinidan boshlangan, chunki uning suvlari shunday par chiqarar ediki, xatto qushlar ham ustidan uchib o‘tolmagan.

Prozerpinaga esa qisir g‘unajinni qurbanlikka keltirdi.  
Stiks hukmdori<sup>23</sup>ga tungi qurbanlikni baxshida qildi,  
Butun boshli xo‘kizlarning go‘shtini olovga qo‘yib  
Yonayotgan yurak va o‘pkaga yog‘lar sepdi.  
Quyosh ilk nurlarin sochgan maxalda oyoqlari ostida  
Yer guvullay hamda tog‘-u o‘rmonzorlar silkina boshladi.  
Zimistonda ko‘ppaklar uvlardi go‘yo; ma’buda Gekata<sup>24</sup>  
Kirish yo‘lin ochadi. Bashoratchi chorlar: “davom etgil yurishda, yana,  
Bexabarlar. Muqaddas o‘rmonzordan ketinglar tezda!  
260 Sen esa kirgil, qindan sug‘ur qiliching! Bu paytda  
Mardlik senga kerak bo‘ladi, Eney, hamda mustahkam yurak!”  
Shu onda u o‘zin tutolmay ochiq g‘orga otilib kirdi  
Eney ham uning ortidan shunday tezlik bilan yo‘naldi...  
268 Zim-ziyo tun bilan qoplangan, soyalar aro ular bordilar yolg‘iz,  
Bo‘m-bo‘sh ko‘shklar va Dit<sup>25</sup>ning er osti sultanati oralab.  
270 Yo‘l shunday, o‘rmon aro oyning g‘alat milt-milt yog‘dusida,  
Yupiter samolarni zulmatda yashirsa gar, qaro tun  
Zamindagi narsalarning tamom yo‘qotsa rangin.  
Ork<sup>26</sup> jarining boshlanishi, unga kirish erida,  
Joy olgandir yuraklarni kemirguvchi Hasrat va Tashvish,  
In qurganlar Bo‘zargan Dardlar, ma’yus Keksalik,  
Yovuzlikka yo‘llovchi Dahshat va Ochlik, hamda qabih Faqirlilik,

---

<sup>22</sup> Furiyalar – yunonlardagi eriniyalarga mos keluvchi, rimliklarning qasos ma’budalar.

<sup>23</sup> Stiks hukmdori – bu erda: do‘zax ma’budi – Pluton

<sup>24</sup> Gekata – er osti ma’budasi

<sup>25</sup> Dit - Pluton

<sup>26</sup> Ork – o‘lim ma’budi, hamda o‘lim sultanati(yunonlarda Aid)

Ko‘rinishi mudhish arvoхlar – O‘lim va Azoblar,  
O‘lim bilan qondosh bo‘lgan Uyqu va Ichiqoralik,  
Ostonaning yonida, o‘lim va qotillik keltiruvchi Urush,  
Undan nari Evmenidlar temir qasri va ilonli sochini  
Qonli belbog‘ qilib bog‘lab olgan g‘azabnok Adovat,  
Markazdan olgan joy qari shoxlari tarvaqaylagan ulkan  
qora qayrag‘och. Aytisharlar, bunda har bir yaproq ostida,  
O‘zlariga joy qilganlar quruq va puch shirin Orzular,  
Bundan tashqari eshiklar atrofida turli-tuman yovvoyi,  
Maxluqlar ham joylashgan: kentavrlar, ikkiyuzli Skillalar,  
Yuzta qo‘lli Briarey va dahshat solib vishshilovchi gidra,  
Lerna<sup>27</sup>lar, olovnafas Ximera hamda Gorgona<sup>28</sup>lar,  
Garpiya<sup>29</sup>lar va uchtanali dahshatli ko‘lanka – Gerion.

290 Nogoh qo‘rqib ketgan Eney, qilichin qo‘lga olib,  
Unga tomon kelganlarga qaratdi o‘z qilichin,  
Agar unga dono kohin(ayol) aytmaganda,  
Bo‘sh qobiqda tanasiz arvoхlar kezib yurishin,  
Qilich bilan tashlanardi behuda, soyalar bilan jangga.  
Shu joyda Tartarga yo‘l Axeront suvlari tomon boradi,  
Loyqalangan ulkan oqim girdob misol quturib;  
O‘zi bilan balchiqlarni, Kotsit<sup>30</sup> tomon otadi.  
Daryoning bu oqimini qo‘riqlar dahshatli solchi,

<sup>27</sup> Lerna – Peloponnesdagi ko‘l va joy nomi. Bu erda Gerakl gidrani o‘ldirgan.

<sup>28</sup> Gorgona – sochlari o‘rnida ilonlar bo‘lgan maxluq, o‘z nazari bilan barchani toshga aylantirgan

<sup>29</sup> Garpiya – qiz bola boshli qo‘rqinchili qushlar

<sup>30</sup> Kotsit – jahannamdagи ko‘z yoshlari daryosi

Balchiqlarga bulg‘angan Xaron<sup>31</sup>; iyagi uzun, paxmoq  
Va oppoq; ko‘zlari telbalarcha alanglab charaqlaydi,  
Yelkasidan tushib turar keng, isqirt, tugun qilib bog‘langan,  
Plashi. O‘z qayig‘in uzun tayoq bilan surib keladi va, yelkan qo‘yib,  
Murdalarni to‘q-qizg‘ish rangli qayiqda tashir; u juda  
Qari, biroq boqiy ma’budning keksaligi ham tetik va yosh.  
Bu qirg‘oqqa barcha marhumlar intilar ulkan olamon bo‘lib:  
Ayollar, erkaklar va hayotlarin tugatgan, Ruhi buyuk botirlar,  
Turmushga chiqmagan bokira qizlar, go‘dak bolalar,  
Otalarin ko‘z oldida gulxanga qo‘yilgan o‘spirinlar,  
O‘rmonlarda xazonrezgi, ilk sovuqlar tushgan payt,  
Yaproqlar to‘kilganday yo dengiz ichkarisidan quruqlikka, qushlar  
Uchib kelgan misol: ularni yilning sovuq oylari dengiz qa’risi  
Ustdidan, nurafshon o‘lkalarga haydab kelardi.  
Har biri tik turib tezroq uni jo‘natishni iltijo qilardi,  
Qo‘llarin uzatishar uzoq qirg‘oqlarni sog‘inib. Biroq,  
Tund solchi goh unisin, goh bunisin qayiqqa olar,  
Qolgan barchalarin qumli sohildan uzoqroq quvar.  
Shunda shovqindan lol bo‘lgan Eney – “O, bokira ayol,  
Qanday olomon, - dedi, to‘planibdi daryo bo‘yida? Ularga nima kerak?  
O‘liklar neni so‘ramoqda? Ne sabab ba’zilar bunda qolmoqda,  
320 Boshqalar eshkak eshmoqda qayg‘uli suvlar uzra?”  
Kohin ayol unga qisqa javob qildi:

---

<sup>31</sup> Xaron – er osti dunyosida o‘lganlarni daryoning narigi qirg‘og‘iga olib o‘tuvchi

“O, Anxis o‘g‘li, ma’budlarning asl zuryodi! Ko‘rayapsan  
Bunda Kotsitning chuqur botqog‘i,  
Ularga ont ichishga va uni buzishga ojiz xatto ma’bundler.  
Murdalarning u nochor to‘dasi ko‘milishdan maxrum qilingan.  
Tashuvchi- Xaron; to‘lqinlar aro u yolg‘iz dafn qilinganlarni olib o‘tadi.  
Shovqin-suronli to‘lqinlar uzra dahshatli qirg‘oqqa  
Ustixonlar qabrdagi tin olmaguncha olib o‘tish mumkin emas.  
Yuz yillab ular sohilda tentirab yuradilar.  
330 Faqat shundan keyingina, nihoyat ular suvga yaqin yo‘latilar”.  
Shunda Anxis o‘g‘li birdan to‘xtadi,  
Qalbini qamrab oldi og‘ir bir xayol.  
O‘limdan so‘ng sharaf topmaganlarni ko‘rdi:  
Levkaspidni Likiya floti sardori Oront bilan,  
Avstr ularni kema va boshqa suzuvchilar bilan suvga cho‘ktirgan...

(*Sidiq Xo‘jaev tarjimasi*)

# OVIDIY

(m.o. 43 - m. 17 yy.)

Rim she'riyatining oltin davri Ovidiy ijodi bilan bog'liq. Shoir Rim yaqinidagi Sulmon shaharchasida chavandoz (Qadimgi Rimda ikkinchi tabaqa hisoblangan) oilasida dunyoga kelgan elegiyavanis shoir. Rim elegiyasiga shoir Gall asos solgan bo'lsa, Tibull va Propersiyalar uni rivojlantirdilar, Ovidiy esa yuqori darajaga olib chiqdi. Boshqa rimlik shoirlar singari Ovidiy ham Yunon she'riyatini qadrlagan va o'z asarlarini yaratar ekan, unga qayta-qayta murojaat qilgan. "Yo'q! Homer o'lmaydi... Sofoklning tragediyalari hech qachon unutilmaydi", - deb yozgan edi Ovidiy.



Shoirning "Ishqiy elegiyalar" ("Amores") to'plami 3 qismidan iborat bo'lib, Korinna ismli ma'shuqasiga bag'ishlangan. "Qahramon ayollar" – mashhur afsonaviy ayollarning(masalan, Penelopaning Odisseyga, Fedra – Ippolit, Lidiya – Yason, Britida – Axill, Didona - Eney) o'z oshiqlariga yozgan nomalari to'plami. Didaktik xarakterdagi "Sevgi san'ati" poemasi garchi dadaktik doston qabilida yozilgan bo'lsada, aslida sevgini madh etuvchi asardir. Doston uch qismdan iborat bo'lib, I va II qismlarda ma'shuqalarni qayerlardan axtarish va qay tartibda ularning iltifotlarini qozonish haqida erkaklarga maslaxatlar berilsa, III qismda ayollarga maslaxatlar beriladi. Bundan tashqari Ovidiyning "Fastlar"(Rim bayramlarining tavsifi), "Ishqning davosi", "Yuz uchun vositalar", "Pontdan maktublar" kabi asarlari ham ma'lum.

"Metamorfozalar" epik dostoni Ovidiy ijodining cho'qqisi, Rim adabiyotining ulug' yodgorliklaridan. Yirik-yirik 15 bobdan, gekzametr vaznidagi 12 ming misradan iborat salmoq dor bu dostonda Yunon va Rim mifologiyalarida benihoya ko'p uchraydigan afsonaviy evrilishlar – ma'bud va ma'budalarning, suv va o'rmon parilarining, ayniqsa odamlarning jonivorlarga, o'simliklarga, tosh va tog'larga, hatto yulduzlarga aylanib qolishlari haqidagi rivoyatlar hikoya qilinadi. Dostonning ichiga ana shunday rivoyatlardan qariyb 250 tasi kirgan.

Oxiri evrilish bilan tamomlangan afsonalarni qalamga olgan shoirlarni Yunon va Rim adabiyotlarida, ayniqsa ellenizm davri poeziyasida ko‘plab uchratish mumkin. Biroq ularning birontasi shu mavzudagi rivoyatlarga Ovidiy singari nafis badiiy sayqal berib, ularning har birini uzviy suratda bir-biri bilan bog‘lab, “Metamorfozalar” singari go‘zal va yaxlit epik doston yarata olgan emas.

“Metamorfozalar” asarida benihoya ko‘p va turli-tuman shaxslarni – ma’bud va ma’budalarni, titan va parizodlarni, podshoh va bahodirlarni, arbob va sarkardalarni, san’atkor va shoirlarni, oddiy odamlarni uchratamiz; ravish-raftori bir-biriga to‘g‘ri kelmagan mahzun va masrurlarga, mo‘min va mag‘rurlarga, telba va donolarga, fosiq va foruqlarga duch kelamiz; qanchadan-qancha insoniy ehtiroslar, sevgi va g‘azab, sadoqat va hiyonat, rashk va himmat, pastkashlik va olijanoblik, tama va himmat, ochko‘zlik va saxiylik, mardlik va qo‘rkoqlik,adolat va qallobliklarning shohidi bo‘lamiz. Shoир shu qahramonlarning har birini, alalxusus, ularning ruhiy holatlarini alohida-alohida mushohada etib, qalblariga chuqur ko‘z tashlab, ruhiyatlarini ajoyib iste’dod va poetik mahorat bilan tasvirlaydi, yorqin bo‘yoqlarda qiyofalarini chizadi.

Bayonotning erkin va ixchamligi, tilning ravshan va harirliga, majoziy vositalarning ajib husnkorligi, she’riy vaznlarning ravon, o‘ynoqi va rango-rangligi “Metamorfozalar” dostonini antik dunyo adabiyotining eng jozibador badiiy yodgorliklari darajasiga ko‘targan.

## **“METAMORFOZALAR(EVRILISHLAR)”**

### **DOSTONIDAN PARCHALAR**

#### **AFRODITA**

Qonli janglarga kirish nozik va yengiltak ma'buda Afroditaning ishi emas. U ma'budlar va foniylar qalbiga mehru muhabbat baxsh etadi. Ana shu qudrati tufayli u butun dunyo ustidan hukmronlik qiladi.

Undan hech kim, xatto xudolar ham qochib qutulolmaydi. Faqat jangovar Afina, Hestiya va Artemida uning hukmiga bo'yin egmaydi. Baland bo'yli, sarvqomat, chehrasi xushbichim, boshida bamisol tojdek mayin to'lqinli oltin sochlarga molik bo'lgan go'zal Afrodita ilohiy malohat va mangu navqironlik ramzidir. U muattar liboslarini kiyib, mahobatini namoyish etganda quyosh o'zgacha nur taratadi, gullar shukuh kasb etadi. O'rmondagi yovvoyi hayvonlar ham unga peshvoz chiqadi, u o'rmonda kezarkan, qushlar gala-gala bo'lib, unga qarab talpinadilar. Arslon, qoplon, sirtlon va ayiqlar ham unga erkalanib, suykanishadi. U vahshiy hayvonlar o'rtasida bemalol va mag'rur yuraveradi. Afroditaning yo'ldoshlari Horalar va xaritlar – go'zallik va nazokat ma'budalari uning xizmatida. Ular Afroditani dabdabali liboslarga burkaydilar, uning oltin sochlarni taraydilar, uning boshini turfa jig'ayu tillaqoshlar bilan bezaydilar.

Uranning qizi Afrodita Kifera oroliga yaqin joyda dengiz to'lqinlarining oppoq ko'piklaridan dunyoga kelgan bo'lib, engil va yoqimli shamol uni Kipr oroliga keltirgan. U yerda dengiz to'lqinlaridan chiqqan sevgi ma'budasini yosh Horalar o'rab olgandi. Ular uni zarhal bilan tikilgan libosga burkashdi va unga xushbo'y gullardan toj kiygizishdi. Afroditaning qadami tekkan joyda gurkirab gullar unib chiqaveradi. Havo muattar hidga to'lib ketardi. Erot va Himerot g'aroyib ma'budani Olimpga boshlab borishdi. O'shandan buyon mangu navqiron, ma'budalar ichra eng go'zali oltin sochlari Afrodita Olimp xudolari bilan birga istiqomat qiladi.

## PIRAM VA FISBA

Bir paytlar Piram bilan Fisba yashagan; hamma yigitlardan u o‘ktam edi,  
Sharqda Fisba barcha qizlardan-da go‘zalroq edi.

Rivoyatlarga ko‘ra, qachonlardir Semiramida<sup>32</sup> qurdirgan g‘ishtin  
Devor bilan o‘ralgan shaharda ular qo‘shni bo‘lishgan.

Shunday qilib ularning tanishishlari va yaqinlashishi qo‘shnichilikdan edi.

Yillar o‘tib sevgilari mustahkamlandi; bo‘lar edi qonuniy to‘y,  
Agar rozi bo‘lsa ota va ona; bir narsani taqiqlashni bilishmagan, -  
Sevgi olovida asir qalblari lovillab yonishni bas qildirishni.

Sheriklari yo‘q edi; imo-ishora bilan, ta’zim qilib so‘zlashardilar;  
Qanchalar ko‘p yashirsalar, shunchalik ko‘p dilda yonar maxfiy otash.

Har ikki oila uchun umumiy bo‘lgan devorda, u qurilgan paytlarda  
Ingichka bir tirqish paydo bo‘lgan edi.

Bu nuqsonni asrlar davomida hech kimsa bilmagan edi, -  
Sevgi nimalarni payqamaydi? – sevishganlar – siz ko‘rdingiz,  
Tovushga siz yo‘l ochdingiz, va sizlarning pichirlab aytgan  
Nozik izxorlaringiz, xavf-xatarsiz etib borardi.

Tez-tez turardilar. Piram u tomonda, Fisba – bu tomon.  
Navbat bilan nafaslarin poylab, derdilar:  
“Shunchalar hasadlisan-ki, ey devor, sevishganlarga to‘siq bo‘lasan!”

.....

Turli joylarda shunday so‘zlarni behudaga qaytargach,  
Ularni ayrib turgan devorga “kechir!” – deb aytdilar,  
Orasidan o‘tib bo‘lmas devordan yubordilar bir-biriga bo‘salar.  
Mana shafaq kelib tungi chiroqlarni bir-bir o‘chirdi,  
Quyosh nurlari bilan maysalarga qo‘ngan shabnamni quritdi,  
Odatdagи joyda uchrashdilar. Sekingina pichirlashib dardlarini to‘kdilar.  
Va tun sukunatida qo‘riqchilar dozorin aldab, eshikdan chiqmoqni  
Uydan qochib, shaharni tark etishni reja qildilar;

---

<sup>32</sup> Semiramida – Bobil malikasining ismi(m.o. IX asrning oxiri).

Keng dala-yu-dashtda adashib yurmaslik uchun Nin<sup>33</sup> maqbarasi yonida  
Uchrashib, daraxt soyasida yashirinmoqchi bo‘ldilar. Bu baland tut edi:  
Mevalari g‘arq pishgan, yaqin joyda suvi zilol ariq oqardi.  
Kelishuv ma’qul bo‘ldi, oqshom juda sekin o‘tdi, go‘yo.  
Suvga g‘arq bo‘ldi kunduz, undan chiqdi yangi tun.  
Epchil Fisba bu orada eshik zulfin ochib qo‘ydi,  
Aldab uydagilarin, yuzin berkitib tashqari chiqdi; tez orada  
Maqbaraga etib, tut daraxtin ostiga keldi, o‘tirdi.  
Sevgi unga kuch bergen edi. Biroq shu on paydo bo‘ldi, hozirgina  
Buqalarni burdalagan, tumshug‘ini qonli ko‘pik qoplagan  
Urg‘ochi sher – yaqin joyda chanqog‘ini qondirishni istadi.  
Oy nurida uzoqdan ko‘rdi uni bobillik Fisba  
Va qorong‘u g‘orga tomon tovonlari qaltirab yugurdi.  
Chopayotib yelkasidan tushib qoldi yopinchiq,  
Bu orada chanqog‘in qondirgan urg‘ochi sher, o‘rmonga qaytayotib,  
Fisbani emas, yerga tushgan harir yoqinchiqni topib oldi  
Va parcha-parcha qildi uni qonli tumshug‘i bilan.  
Keyinroq chiqqan yosh Piram changda ko‘rdi urg‘ochi sher  
Izlarin va oqarib ketdi yuzi misol bir murda;  
Qon dog‘lari qotgan kiyimni topib, -  
“Bugun ikki sevishganni, tun qilmoqda halok, - dedi,  
Biroq ikkisidan ham u munosibroq edi uzoq yashashga!  
Menga hayot musibatga aylandi. Bechora, halok etdim men seni.  
Qo‘rquinchili joylarga kelgil deya, men aytdim.  
Biroq o‘zim kech qolib keldim. Meni burda-burda qilinglar  
Bu la’nati tanamni yo‘q qilingiz darg‘azab tishlab,  
Qoya ostiga, pana joyga yashirinib olgan sherlar!  
Biroq faqat qo‘rkoq odam o‘ldirilishni istar!” Va Fisbaning  
YOpinchig‘in qo‘lga olib, uni tut daraxti soyasiga olib bordi.

---

<sup>33</sup> Nin – Semiramidaning turmush o‘rtog‘i, Assiriya podsholigiga asos solgan.

Unda tanish matoni bo'salar va ko'z yoshlar-la ko'mib tashladi, -  
"Endi mening qonimni ham qabul etgil sen!"  
Shu ondayoq kamaridan temirin olib, o'ziga sanchdi,  
O'layotib yarasidan sug'urib oldi...  
Fisba qaytib keldi; qalbi va ko'zлari qidirib yigitni,  
Qanday dahshatli xavfdan qochganini aytmoq istardi.  
Joyni shu on topdi, ariq ham, daraxt ham tanish,  
Mevalarning rangi uni xayron qoldirdi: o'sha daraxtmi?  
Birdan ko'rib qoldi: qonli yerga urilgan, gavda titrashin,  
Ortga u chekindi, va yuzlari dokadek oqarib ketdi,  
Qo'rqinchga to'ldi, to'lqinlanib ketdi misoli dengiz,  
Agar qimirlasa usti shamol esganda.  
Biroq faqat vaqt o'tgach, sevimli do'stini tanidi u, -  
Azoblarga noloyiq ko'krugin zor-zor yig'i titratdi  
Sochlarini yula boshladi, va, sevimli tanani quchib,  
Yaralarga qo'shdi yig'ini, va qonni ko'z yosh bilan sug'ordi,  
Muzlab qolgan yuzidan tinmay bo'salar olib, -  
"O! - nola qildi u, - Piram, qanday baxtsizlik seni olib ketdi?  
Fisbaga javob ber, Piram: seni azizang Fisba chorlar!  
Eshityapsanmi, sen meni! Ko'tar boshing sevgilim!"  
Uning nomin eshitgan Piram, o'lim soya solgan ko'zlarin  
Ochdi, biroq shu zahoti yumildi ular.  
Yopinchig'in tanidi qiz, shu zaxot qin bo'sh ko'rib,  
"Bechora, o'z qo'ling va sevging bilan, nobud bo'libsan.  
Biroq bilgil shuni, menining bilagimdagi kuch va sevgim,  
Senikidan kam emas. Men baxtiqaro, ortingdan ketgum  
O'liming sababchisi va hamrohing. Oh, faqat o'lim bizni  
Ajratali mumkin, biroq o'lim ham mendan tortib ololmas!"  
So'nggi bor iltijo qilaman, ham uning, ham mening bukun  
Baxtsiz bo'lgan ota-yu onamizga:

Haqiqiy muhabbat va so‘nggi nafas rishtalari ila  
Bog‘liq bo‘lgan bizlarni, yagona bir qabrga qo‘ying!  
Sen esa, ey daraxt, birimizning qayg‘uli xokimiz,  
Shoxlari bilan to‘sigan, tez onlarda ikkimizni qoplarsan.  
Qotillikning belgilarin saqlagin, sening dard-alamli  
Mevalaring abad - bir butun o‘limga xotira bo‘lsin!”, - dedi.  
Qotillikdan hali issiq qilichning o‘tkir uchin  
Mo‘ljal qilib yurakka, otdi o‘zini.  
Iltijolar etdi axir ma’budlar-u, ota-onaga.  
Shundan buyon tut mevasi, qorayadi pishganda;  
Ularning-da xoklari saqlanar bir qutida.

(*Sidiq Xo‘jaev tarjimasi*)

## **“QAYG’ULI ELEGIYALAR” DOSTONIDAN PARCHALAR**

IV, 10 [Avtobiografiya]

Kim edi ishq tarixlarin ertakchisi, kim u kuychi?

Bugun kimning qo’shiqlarinkuylaydirsan, bilib ol, avlod,

Tug‘ilib o’sgan shahrim Sulmon, u boy muzdek buloqlarga,

Rim u erdan faqatgina to‘qson porsox narida.

Bir urushda ikki konsul halok bo‘lgan bir yili men

Tug‘ilgandim u shaharda(sen zamonni aniqroq bil).

Balki aytmoq lozim bo‘lur, men suvoriy nasabim-la,

10 Bu unvonni menga taqdir saxiyligi baxsh etmagan.

Oilada men to‘ng‘ichmas, qardoshimdan so‘ng tug‘ildim;

Mendan xuddi bir yil avval duny yuzin ko‘rgandir u.

Tug‘ilgan kun ikkimizga nur sochdi bir tong yulduzi.

Naq bir kunda ikki nazir somsa yopildi uyda.

Jangchi Minersa bayramining besh kunidan biridir bu.

O‘sha kundanbuyon qonli bayram kuni bo‘lib turar.

Kichik yoshdan o‘qitdilar bizni: otam buyurdiki,

Rimda yaxshi murabbiylar sari qatnay men akam-la.

So‘z bozori u Forumda notiqlikka mening akam

20 Yoshligidan intilardi, gapdonlikka tug‘ilgan u.

Bolalikdan men istadim ko‘k eliga xizmat qilay.

Muza meni orqasidan ergashtirda qattiq, pinhon.

Otam ko‘p vaqt derdi menga: “puchak ishga urinasen

Hatto Gomer o‘zidan so‘ng ko‘pmi boylik qoldirdi?”

Otam so‘zi ta’sir qildi, Gelikon-la muzalarni

Tashlab, she’rdan butun qochib, boshqa narsa yozay dedim

Lekin so‘zlar o‘z-o‘zidan ohang bilan tizilardi,

Nasr bilan yozgan narsam, o‘zi she’rday quyilardi.

Asta-asta olg‘a bosdi mening yoshlik chog‘larim-da;

30 Akam bilan menga endi kengroq kiyim berildi.

Keng to‘q qizil uqa tutgan rdaga biz buruldik;  
Lekin bizning ruhimizda saqlandi u intilishlar.  
Mening akam yigirmaga endigina kirganda  
Vafot etdi to‘sindan, so‘ng jigarimsiz men yashadim.  
So‘ng yoshlikda men birinchi faxriy mansab ishg‘ol etdim  
Va men uchoik bir hay’atga a’zo bo‘lib ishladim.  
Istiqbolda senat ham bor. Lekin... yo‘lni torroq oldim:  
Chidamimdan ko‘ra ko‘proq ezdi u yuk yelkalarim.  
Jisman zaif hamda aqlim mayl etmadi u ishga,

40 Shuhrat sevish g‘avg‘osidan chetroq turish istadim.

Muzalar o‘z tin paytlari sari meni chaqirdilar,  
Men-da har vaqt ko‘p sevardim ular-la tinch kechinishni.  
Oh, men qanday izzat-hurmat qildim davrim shoirlarin!  
Atrofimda qancha kuychi bo‘lsa, shuncha xudolar  
Ko‘lkalandi ko‘zimda!..

(Oybek tarjimasi)

## **YEVROPA O‘RTA ASRLAR ADABIYOTI**

Yevropa o‘rta asrlar davri deyarli ming yillikni qamrab olgan bo‘lib – V – XIV asrlarni o‘z ichiga oladi. Rim imperiyasining qulashidan Uyg‘onish davrigacha davom etadigan o‘rta asrlar adabiyoti **ilk** (V – X asrlar) va **so‘nggi** (XI – XIV asrlar) bosqichlarga ajratiladi.

Rim imperiyasi parchalanib ketgandan keyin, Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrikaning unga qarashli bo‘lgan hududlarda xalqlarning buyuk ko‘chishi boshlandi. Bu jarayon urushlar, kurash, yangi davlatlarning shakllanishi bilan birga sodir bo‘ldi.

Rimliklardan qabul qilingan lotin tili, Yevropaning turli mintaqalarida yashovchi turli millat vakillarini birlashtiruvchi omil bo‘ldi. Ushbu tilda o‘rta asr olimlari va faylasuflari o‘z asarlarini yozdilar. Lotin tili ilm-fanning rasmiy tiliga aylandi. Ma’naviyat va ma’rifatning markazi cherkov hamda XII-XIII asrlarda paydo bo‘lgan universitetlar bo‘lib qoldi. Ularda bo‘lajak olimlar, mutafakkirlar, kashfiyotchilar, ilmiy risola va tarixiy xronikalar mualliflari tahsil oldilar.

Yevropa o‘rta asrlar adabiyotining shakllanishida 3 ta omil muhim rol o‘ynagan: 1) xalq ijodi; 2) antik davr adabiyoti; 3) xristianlik.

O‘rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida milliy adabiyotlar shakllandı, bu davrda ayniqsa, ritsarlik she’riyati va romanlari, shahar adabiyoti rivojlandi. Xalq-qahramonlik eposlari o‘rta asrlar adabiyotining noyob namunalari sanaladi. “Beovulf” dostoni ilk o‘rta asrlarda anglosaksonlar tomonidan yaratilgan bo‘lsa, feodal munosabatlari shakllangan davrda Fransiyada “Roland haqida qo‘sish”, Germaniyada “Nibeluenglar haqida qo‘sish”, Ispaniyada “Sid haqida qo‘sish”lar yaratildi. Bu asarlarda davr muxiti o‘z ifodasini topgan bo‘lib, sodir bo‘lgan o‘tgan voqealar poetik shaklda, badiiy lashtirilib berilgan. Odatda qahramonlik eposi namunalarida real voqealar badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashib ketadi.

Yevropa va jahon adabiyotini rivojlanishiga ulkan xissa qo‘sishgan adabiyotlardan biri sanaluvchi fransuz adabiyoti negizida o‘rta asrlarda keng tarqalgan ko‘plab asosiy janrlar va yo‘nalishlar shakllandı(milliy qahramonlik

eposi, trubadurlar she’riyati, ritsarlik romanlari, shahar adabiyoti janrlaridan – fablio, misteriya va b.).

O’rta asrlarda qahramonlik va qahramon shaxsi haqidagi tasavvurlar antik davrga nisbatan birmuncha o‘zgardi. Agar qadimgi Yunonlar qahramonlik haqidagi tasavvurlarini ma’budlar va ularning farzandlari bilan bog‘lagan bo‘lsalar, o’rta asr qahramonlik dostonlarida asar qahramoni qilib, o‘z Vatani va qiroliga sodiq bo‘lgan jasur kishi tanlanadi. Qadimgi Yunon qahramoni Gerakl – Zevsning o‘g‘li, Axill – ma’buda Fetidaning farzandi. “Roland haqida qo‘shiq” dostonining qahramoni – “aziz Fransiya” va imperator Karl uchun jasorat ko‘rsatgan mard va fidokor ritsar. Qahramonlik haqidagi tushuncha ham o‘zgardi: endi bu, shaxsning yuksak, oliy maqsad yo‘lidagi xatti-harakatlarini badiiy ifoda qilish edi.

O’rta asrlar qahramonlik eposi asarlarining mualliflari haqidagi masala xalihanuz bahsli-munozarali bo‘lib qolmoqda. Ular jamoaviy-individual ijodning natijasi bo‘lib, mualliflarning nomlari bizgacha yetib kelmagan. O’rta asr qahramonlik dostonlarining asosida – afsonaviy-tarixiy qahramonlar va ularning faoliyati haqidagi xalq afsonalari yotadi.

**Kelt eposi.** V asr boshlarida Britaniyada yashagan kelt(irland) qabilalari Rim imperiyasining zaiflashganidan foydalanib, mustaqillikni qo‘lga kirtdilar. Ilk o’rta asrlarda kelt qabilalari hayoti haqidagi xalq she’riyati negizida qahramonlik eposi shakllandi. Eposlarni kuylovchilar 2 guruhga – lirik she’riyatni kuylovchi bardlar va epik she’riyat bilan shug‘ullanuvchi filidlarga bo‘lingan. Filidlar o‘z qissalarini nasrda bayon qilganlar, keyinroq ular “saga”(qissa) nomini olgan. Sagalarning ta’sir kuchini yanada oshirish uchun filidlar she’riy parchalar kiritganlar.

Kelt eposining qahramonlik qissalari ulad qiroli Konxobar va uning jiyani Kuxulinning sarguzashtlariga bag‘ishlangan. Bizgacha ushbu qissalarning bir nechtaasi yetib kelgan bo‘lib, “Usnex o‘g‘illarining quvilishi”, “Mak-Dato cho‘chqasi haqida qissa”, “Kualngenden buqa o‘g‘irlash”, “Kuxulinning Ferdiad bilan jangi”, “Kuxulinning xastaliga”, “Kuxulinning o‘limi” shular jumlasidan.

Qahramonlik eposi bilan bir qatorda maishiy, sarguzasht, fantastik mavzularda ham qissalar yaratildi: “Beyli haqida qissa”, “Etaynga muhabbat”, “Febelning o‘g‘li Branning suzishi”.

Qadimgi kelt(irland) eposi G‘arb adabiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, undagi syujet, obrazlardan keyingi davr adiblari unumli foydalandilar.

**Ingliz o‘rta asrlar adabiyoti.** Hozirgi inglizlarning ajdodlari – mamlakatga Yevropadan ko‘chib o‘tgan ingliz-sakslar bo‘lib, bu aholi o‘rtasida juda ko‘plab rivoyat va afsonalar tildan-tilga o‘tib yurardi. Ingliz tilidagi adabiyotlar (ingliz adabiyoti degan tushunchaning o‘zi ham) asosan anglosakslar nasroniylik dinini qabul qilganlaridan keyin paydo bo‘ldi. O‘sha paytlarda rohiblar xalq ichida yurib qahramonlik doston (poema)larini yozib olganlar (ular ichida eng mashhuri VII asrda qog‘ozga tushgan “Beovulf” asaridir). Qahramonlik dostonlaridan tashqari, ilk o‘rta asrlarda adabiyotning boshqa janrlarida ham asarlar (diniy risola va traktatlar, ritsarlikning she’rlari, solnomalar) yaratila boshlandi.

XI-XII asrlarda Angliya hududini hozirgi fransuzlarning ajdodlari hisoblanmish normannlar bosib oldi. Begona til va madaniyatning suqilib kirishi tufayli yuz bergen murakkab vaziyatlar oqibatida bu davrda ingliz adabiyoti uch tilda yaratila boshlandi: diniy adabiyotlar – lotin tilida, qadimiy solnomalar, rivoyatlar, qadim o‘tmish voqealari – ingliz tilida, she’r va dostonlar – fransuz tilida (ularning ko‘pchilik qismi bizgacha yetib kelgan). Angliya hududi normannlar istibdodidan kutilganidan so‘ng mamlakatda yagona milliy til – ingliz tili vujudga keldi (XIV asr)

“**Beovulf**” dostonining qo‘lyozmasi X asrga doir bo‘lib, u ingliz tiliga asos bo‘lgan anglosakson tilida yozilgan. “Beovulf” dostoni o‘rta asrlar ilk davrining bizgacha yetib kelgan eng birinchi namunasi hisoblanadi. Doston Britaniya orollariga ko‘chib o‘tgan majusiy angl va sakslarning rivoyatlari negizida paydo bo‘ldi. Doston aynan mana shu og‘zaki rivoyatlar negizida nasroniylik davrida yozib olingan va asarning muallifi ma’lum emas. “Beovulf” dostonining qo‘lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Dostonda Daniyani dahshatli dengiz maxluqi Grendeldan qutqargan jasur bahodir Beovulfning qahramonliklari hikoya qilinadi. Beovulf o‘zining o‘n to‘rt ritsarlari bilan qirol Xrotga yordam berish uchun Daniyadan kelganda Grendal ularni dengiz qa’riga tortib ketib nobut qiladi. Beovulf uning ustidan g‘olib keladi va o‘z vataniga qaytib ketadi. U o‘z yurtida ellik yil sultanatni boshqaradi va yerlariga olovpurkar ajdaho bostirib kirganda, uni jangda yengadi, biroq o‘zi ham maxluqning zaharli tishlaridan yaralanib vafot etadi.

Dostonda ertak motivlari mavjud bo‘lib, unda turli maxluqlar va ajdaholar ishtirok etadi, shu bilan birga doston matnida bo‘layotgan hodisalarga Xudoning aralashishi va Injildagi ismlar(Avel, Noy) uchraydi, Grendel esa Kainning avlodidan deyiladi. Bularning barchasi muallifga nasroniy dinining ta’siri katta bo‘lganidan dalolat beradi.

**Fransiya o‘rta asrlar adabiyoti.** Zamonaviy Fransiya hududida qadimda kelt xalqlari guruhiga mansub bo‘lgan gall qabilalari istiqomat qilgan bo‘lib, ular keyinchalik rimliklar tomonidan bosib olingan. V asrga kelib german qabilalaridan bo‘lgan franklar gall yerlarini bosib olganlar va tez orada ular mahalliy xalqlarning ta’sirida assimilyasiyaga uchraganlar.

Uzoq vaqt mobaynida hozirgi Fransiya hududi Frank davlati tarkibida bo‘lgan. Buyuk Karl (768-814) qirolligi davrida mamlakat har tomonlama rivojlanib qudratli davlatga aylangan. Karlning vafotidan keyin mazkur davlat parchalanib ketishi natijasida (843 yil) Reyn daryosining g‘arbiy hududida Fransiya davlati shakllana boshlagan. Buyuk Karlning nabirasi “taqirbosh” laqabli Karl bu davlatning birinchi qiroli hisoblanadi.

Aynan IX asrda fransuz tili shakllana boshladidi. Agar katolik cherkovining tili lotin tili bo‘lsa, oddiy xalq “roman” tilida so‘zlashgan. Bu tilning shakllanishiga gallar va german qabilalarining ta’siri bo‘lgan bo‘lsada, uning asosini “vulgar lotin”i tashkil etdi. Asrning boshlaridayoq (813 yil) Tur ibodatxonasidagi diniy va’zlar xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun roman tilida o‘qila boshlangan edi.

Bizgacha o‘rta asrlar adabiyotidan epik dostonlar, kichik hajmdagi lirik she’rlar, roman va diniy mavzudagi dramalar, latifaga yaqin turuvchi hikoya – fabliolar yetib kelgan.

**Qahramonlik eposi.** O‘rta asrlar qahramonlik dostonlari (fr. chansons de geste) ning syujetlari real tarixiy voqealar asosiga qurilgan bo‘lib, ularni ijod qilish jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin: xalq ijodiyoti tarixiy voqealarga poetik ishlov bergen bo‘lsa, keyinchalik u shoirlar tomonidan birlashtirilib sayqallangan.

Baxshi (jongler) ritsar va qirollarning jasoratlari, o‘zaro qarama-qarshiliklar, nizolari haqidagi qo‘shiqlarning muallifi va ijrochisi bo‘lgan.

Fransuz epik dostonlarini shartli ravishda uch turkum(sikl)ga ajratish mumkin: 1) Qirollik turkumi. Bu turkumdagi dostonlar markazida Buyuk Karl obrazi bo‘lib, u Fransyaning ramzi sifatida tasvirlangan. 2) Goran de Monglan bag‘ishlangan dostonlarda ideal vassal tarannum etiladi. 3) Feodallar o‘rtasidagi nizolarga bag‘ishlangan Doon de Mayans yoki feodal turkumi.

**“Roland haqida qo‘sish” dostoni** – XI-XIV asrlarda Fransiyada paydo bo‘lgan ko‘plab dostonlar orasida eng mashhuri sanaladi. Mualliflarining nomi saqlanib qolmagan bu dostonlarni *truver*<sup>34</sup>lar yozishgan, ularni joglerlar arfa yoki viola musiqa asboblari jo‘rligida ijro qilishgan. Aksariyat dostonlar qirol Buyuk Karl va uning safdoshlari amalga oshirgan “ulug” ishlariga bag‘ishlangan.

“Roland haqida qo‘sish” da ham Karl va uning sodiq ritsari Roland madh qilinadi. Doston 1100 yillarda yaratilgan bo‘lib, unda Karlning Ispaniyaga qilgan yurishi haqida hikoya qilinadi. Bu voqealar aks ettirilgan XVIII asr solnomasi matnida, qirol Karl armiyasining ar’ergardi<sup>35</sup> Pireney tog‘larida tor-mor qilinganligi, halok bo‘lganlar orasida Breton chegara qo‘sishinlarining boshlig‘i Xroulend bo‘lganligi haqida xabar beriladi. Bu tarixiy voqealarning markaziy mavzusiga aylandi. Biroq asarda ko‘p narsalar o‘zgartirilgan: yosh qirol Karlning 778- yillarda bo‘lib o‘tgan yurishi, yetti yilgi urush sifatida, uning o‘zi esa yoshi

---

<sup>34</sup> Truver(fr. trouvere) – ixtiro qilmoq, topmoq.

<sup>35</sup> Ar’ergard –qo‘sinning chekinishini pana qiluvchi guruh.

ulug‘ mo‘ysafid qilib tasvirlanadi, ar’ergardga hujum qilgan basklar o‘rnini saratsin<sup>36</sup>lar egallagan.

Dostonda franklarning Ispaniyaga yurishi bilan bog‘liq ko‘plab voqealar keltirilgan: saratsinlar bilan olib borilgan muzokaralar, Ganelonning xiyonati, Rolandning kam sonli qo‘shini bilan saratsinlarning son jixatidan yigirma barabar ko‘p qo‘shiniga qarshi Ronseval darasida olib borgan jangi. Ronseval darasidagi jang asarning kulminatsiyasi bo‘lib, aynan shu epizodda Rolandning jasorati, sodiq do‘sti Oliverning aql-zakovati, ularning vatan manfaatlari uchun fidokorligi namoyon bo‘ladi. Oliver o‘q tegib o‘ldi, o‘n ikkita jasur per<sup>37</sup>lar halok bo‘ldi, yaralangan arxiepiskop Turpin yiqildi. Og‘ir yaralangan Roland jang maydonida yolg‘iz qoladi va o‘z qilichi Dyurendal, burg‘usi Olifant bilan vidolashadi.

Doston 291 she‘r bandi(bu bandlar *tirada* deyiladi)dan iborat bo‘lib, ular yagona vazn bilan birlashtirilgan. Aksariyat bandlar oxirida o‘ziga xos naqorat bo‘lgan “Aoy” xitobi yangraydi.

**Ritsar-kurtuaz adabiyoti.** X – XII asrlar davomida Fransiya, shuningdek, G‘arbiy Yevropaning ko‘p mamlakatlarida feodallahish jarayoni tugallangan, feudal ishlab chiqarish usuli qaror topgan edi. Davlat tepasida qiro turar va u boshqa feodallar uchun sin’or – syuzeri hisoblanar edi.

Qirolning vassallari – katta yer egalari graf, gersog, episkop va boshqalar o‘z grafliklari doirasida mustaqil hukmron edilar. Ular ko‘pincha qironga ham itoat qilmas edilar. Kichikroq baronlar yirik graf va garsoglarni sin’or deb ataganlar. Baronlarga kichikroq feudal va ritsarlar bo‘ysunganlar.

Ritsar o‘z xo‘jayiniga sodiq, uning mol-mulki va manfaatlarini himoya qiluvchi jangchi edi.

O‘rta asrlar sharoitida ritsarlik harbiy-feodal zodagonlarning o‘ziga xos muhim hususiyatlarini belgilardi. Asta-sekin unga yangi rasm-rusmlar ham paydo bo‘la boshlaydi. Endi ritsardan o‘z sin’origa sodiq, rostgo‘y bo‘lish bilan birga, dinni himoya qilish, zaiflarga yordam berish vazifalari ham talab etila boshladi.

<sup>36</sup> Saratsinlar – Evropada o‘rta asrlarda arablar va YAqin SHarq xalqlarini shunday atashgan.

<sup>37</sup> Per – O‘rta asr Fransiyasidagi oliy tabaqa zodagonlarning unvoni

Dabdabali ritsar qoidalarini yaratishda XII-XIII asrlarda yuzaga kelgan risar' adabiyoti ma'lum rol o'ynadi.

Ritsar adabiyoti o'rta asrlarda feodalizmning markazi bo'lgan Fransiyada vujudga keladi va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida shakllanayotgan ritsar adabiyoti uchun namuna xizmatini o'taydi.

Avvallari saxiylik ritsarning jangovar kurashida qo'shimcha bir holat edi. XII asrda esa u ritsar adabiyotida ifodalangan qahramonning asosiy xususiyatiga aylanadi. Ritsar faqat mard bo'lishi bilan kifoyalanmasdan, shu bilan birga kurtuazcha nozik didli, ko'rkam, sezgir va xushmuomala bo'lishi kerak, degan talab ham qo'yiladi. Shuningdek, insoniy xis-tuyg'ularni qadrlash, ayollarga nozik iltifot, romantik sevgi kechinmalarini madh qilish rasm bo'lib qoladi.

X asr boshlarida Janubiy Fransianing Provans viloyatida feodal sin'orlari dunyoviy ritsar madaniyatining ifodasi bo'lgan kurtuaz poeziyasi yuzaga keladi. Bu adabiyot saroya xos "kurtuazcha" nafislik, odob-tavoze, xonimlarga nisbatan xushmuomalalikni talab qiladi. Ayollar kulti – ayollarni ulug'lash Provans shoirlari – trubadurlar ijodida asosiy o'rin egallaydi.

Trubadurlar lirikasining asosiy janrlari: 1) **kansona** – sevgi qo'shig'i bo'lib, unda muhabbat va diniy mavzu yoritiladi, bu janrdagi she'rlar nafisligi va bandlarning murakkabligi bilan ajralib turadi; 2) **sirventa** – asosan siyosiy xarakterdagi, qisman shaxsiy masalalarga bag'ishlangan munozara yo'sinidagi qo'shiqdir. Shoир unda o'z dushmaniga qarshi hujum qiladi; 3) **tensoreda** – sevgi adabiy-falsafiy mavzularda ikki shoир o'rtasida bo'lgan she'riy dialogdan iborat; 4) **alba** yoki tong qo'shig'ida ritsar o'z do'stining kuzatuvi ostida tunda sevgani bilan uchrashgani borishi kuylanadi. Tong yorisha boshlashi bilan do'sti "Tong" qo'shig'ini aytadi va ritsarni ogohlantiradi; 5) **pastorela** – mavzusi jihatidan alba kabi alohida voqeani aks ettirgan lirik qo'shiq bo'lib, ko'pincha u suhbat-dialogdan tashkil topgan kichik pesani eslatadi, unda ritsar bilan cho'pon qizning uchrashuvi hamda ular o'rtasidagi munozara tasvirlanadi. Qo'shiqning kirish qismida ritsar qizni tabiat quchog'ida uchratib unga mulozamat qila boshlaydi. Qiz ritsarning so'zlariga ishonib, unga o'z ixtiyorini topshiradi, biroq ritsar uni tashlab ketadi,

yoki aksincha, qiz ritsarga jiddiy zarba berib, uni haydab yuboradi; 6) **motam qo'shib'i** – bironta obro'li sinor yoki yaqin kishining vafotiga shoirning qayg'usini bayon etgan she'rdir.

Trubadurlar lirkasi XII – XIII mobaynida rivoj topdi. Uning eng gullagan davri XII asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Shu davrda ijod etgan yirik trubadurlardan biri Bernard de Ventadorn (tax. 1140-1195 yy.). Shoir Bertran de Born (tax. 1140-1215 yy.) ijodida siyosiy muammolar yoritiladi.

Ritsarlik lirkasida kuylangan sevgi, turmush quvonchlari kurtuaz-ritsarlik romanining ham asosiy mavzusi edi. Ritsarlik romanida muhabbat feodal axloqi tamoyillariga bo'ysunilgan tarzda ko'tarinki ruhda, fantastik bo'yoqlarda tasvirlanadi. Shuningdek, qahramonlarning ruhiy kechinmalari tasviriga ham alohida e'tibor beriladi. Ritsar xonimga bo'lgan sevgisi tufayli jangovar sarguzashtlarga otlanadi, lekin endi ritsar vatan manfaatini emas, balki o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab qahramonlik safarlariga chiqadi.

Kurtuaz-ritsarlik romani ham Fransiyada vujudga kelib, so'ngra boshqa yerlarga tarqalgan. U mavzusiga qarab 2 turkumga ajratiladi: 1) antik turkum; 2) breton turkumi. Birinchi turkumga antik manbalar asos bo'lib xizmat qilgan ("Aleksandr haqida roman", "Eney haqida roman", "Troya haqida roman"). Ikkinci - breton turkumiga esa fantastika va ishqiy voqealarga boy bo'lgan kelt ertaklari asos bo'lib xizmat qilgan ("Artur" yoki "Dumaloq stol" romanlari, "Iven yoki yo'lbars ritsar", "Tristan va Izolda").

**Shahar adabiyoti.** O'rta asr shaharlarida ishlab chiqarishning o'sishi hunarmandchilikning rivojlanishiga olib keldi. XII asrdan boshlab savdo-sotiq va hunarmandchilik markazi sifatida shaharlarning mavqeい osha boshladidi. Shaharlarning rivojlanishi barobarida feodal aloqalarga qarshi bo'lgan burjua sinfi shakllandi. Borliqqa nisbatan ideal qarashda bo'lgan ritsarlik she'riyatidan farqli ravishda shahar adabiyoti hushyor, hozirjavob va real hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shahar adabiyotida yangi janrlar paydo bo'ldi. Ana shunday janrdan biri fablio hisoblanadi. Fablio kichik she'riy hikoya bo'lib, uning asosiy maqsadi tinglovchilarni kuldirib, ko'nglini ko'tarishdan iborat bo'lgan. Fablioning stili

(uslub) mukammal bo‘lmagan, aksariyat hollarda ularning qofiyasi sodda edi. Hikoyalarda hayotdan olingan qiziqarli voqealar, latifalar bayon qilingan. Fablioning markazida chaqqon, abjir, aqli qahramon turadi. Keyinchalik alohida fabliolar bunday qahramon atrofida birlashtirilib, yaxlit holatga keltirilgan va shu tarzda roman paydo bo‘lgan. Turli e’tirozlarni bir qahramon atrofiga jipslashtirish natijasida o‘rta asrlarning eng mashhur asari “Tulki haqida roman” paydo bo‘lgan.

Fablio ma’lum darajada keyingi davr Yevropa adabiyotiga ta’sir qo‘rsatdi. Molerning “Zo‘raki tabib” komediyasida, Lafontenning “Ertaklar”ida fablio syujeti, uslubi ko‘rinadi. Germaniyada fablioning ta’siri ostida zamonaviy hajviy ruhdagi realistik **hikoya-shvanklar** yuzaga keladi. Ayniqsa, Shtrikkerning “Pop Amis” haqidagi hikoyalar turkumida fablioning ta’siri yaqqol ko‘rinadi.

## **Yevropa o‘rta asrlar adabiyoti bo’icha nazorat savollari:**

1. Yevropa o‘rta asrlar adabiyotiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni ayting?
2. O‘rta asrlar adabiyoti qanday davrlarga bo‘linadi?
3. Kel’t eposi qanday xususiyatlarga ega?
4. “Beovulf” dostoning asosiy hususiyatlari.
5. “Roland haqida qo‘shiq” dostoni qahramonlik eposining namunasi sifatida.
6. Yevropa halqlari qahramonlik eposi va “Alpomish ” dostoni o’rtasidagi umumiyligi va o’ziga xosliklar haqida ma’lumot bering?
7. Ritsarlik poeziyasining paydo bo‘lish asoslari va asosiy janirlari?
8. Kurtuaz-ritsarlik romanlari qanday turkumlarga bo‘linadi?
9. Fablio-SHahar adabiyotining xarakterli janri sifatida.

## **“BEOVULF” DOSTONIDAN PARCHA**

Arvoх kelar asta-sekin qorong‘u tunda  
Soqchilarchi uxlab yotar qasrda beg‘am  
Uxlamaydi bedor bo‘lib Beovulf bunda  
Uxlamaydi yovni kutib Beovulf o‘ktam

Murdor tangri irodasi bo‘lmasa agar  
Jo‘natolmas arvoхlarin qasr yoniga  
Uni kutar sergak, jasur Beovulf ritsar  
Yovni yengib oro berar xalqi joniga

Botqoq yerdan, tepalikdan tun cho‘kkan mahal  
Tushib kelar lan’atlangan maxluq Grendal...

Daniyaliklar oltin uyiga  
Kirib keldi bir battol tana  
Xrotgarning hasham zalini  
Talamoqni boshladi yana

Na tarixda na kelajakda  
Uchramagan qonxo‘r bundayin  
Pusib kelib qasr yoniga  
Darvozani oldi shundayin:

Yulib oldi shovqin ko‘tarib  
Va zal tomon yurdi badkirdor  
Qon isini ketdi axtarib  
Ko‘zlarida o‘t yonar murdor

Kuchga to‘lgan qahramonlarni  
Yo‘q qilmoqchi bo‘ldi hammasin  
Qaror qildi navqironlarning  
So‘ndirishga hayot nafasin

Uxlayotgan jangchini ushlab  
Mushaklarin uzdi indamay  
So‘rib oldi qonini nishlab  
Qo‘l-oyog‘in yutdi yamlamay

Osmon uzra chaqmoq chaqqanday  
Paydo bo‘ldi Beovulf o‘ktam  
Temir kabi mustahkam qo‘llar  
Grendalni ushladi mahkam

Qo‘lga tushdi maxluq badkirdor  
Qochmoqqa yo‘l yo‘q chekinishga  
Jahannamga qaytolmas xatto  
Ketarlik joy yo‘q berkinishga

Ko‘rinurki Beovulf jangga  
O‘qib kelgan kechki namozin  
Xigelakning g‘olib jangchisi  
Tangrisiga ayladi ta’zim

Qochmoq bo‘ldi Grendal battol  
Jangchi tushdi uning ortiga  
Shu zaylda Grendal behol  
Kirib bordi Bug‘u qasriga

Shiddatli jang kechdi qasrda  
Titrab ketdi devorlar qarang  
Mo“jiza yuz berib shu kuni  
Temir qasr chidadi arang

Bilar edi daniyaliklar  
Qasrni hech kuch engolmasdi  
Bu kun ular yanglishmadilar  
Biroq engdi olovning basti

Ko‘kni tutdi ayanchli nola  
Qasr ahlin qo‘rquv chulg‘adi  
Dajjalning oh-vohi faryodi  
Olov ichra zaif yangradi

G‘olib qo‘li ushladi uni  
Havfni sezdi odamxo‘r-hayvon  
Suyak sindi paylar uzildi  
Qabih niyat qolmadi omon

Botqoqlikka daf bo‘ldi Iblis  
Zafar quchdi bunda munosib  
Tarix hukmin o‘qidi yana:  
Munosibga g‘alaba nasib.

*(Rustam Umrzaqov tarjimasi)*

## “ROLAND JANGNOMASI” DOSTONIDAN PARCHALAR

Buyuk imperator Karl mammun:  
Qo’shini egalladi Kordovani.  
Manjaniq toshlaridan bo’ldi vayron minoralar,  
Va devorlar kuli sovrildi ko’kka.  
Ritsarlari ega bo’ldi boy o’ljaga:  
Yarog‘-aslaha, asbob-anjom, kumush va oltinga.  
Majusiylar unda boshqa qolmadi, –  
Halok bo‘limgani cho‘qintirildi.  
Bog‘da iperator atrofida to‘plandilar  
Roland va Oliver, ikki jasur graf;  
Samson, va Anseis, va Jofrua –  
Qirol yalovbardori,  
Jeren, Jerer, va boshqalar,  
Unda to‘plandilar aziz Fransiyadan  
O’n besh mingta jasur jangchilar.  
Bog‘da oq ipak gilamlarda, olar  
Xordiq farang ritsarlarin sarasi.  
O‘ynar shoxmot katta yoshlar,  
Yosh jangchiga qurol ovunchoq;  
Qarag‘ay soyasida, yovvoyi gullar ichra;  
Joy olgandi oltin taxt;  
Unda o‘ltiradi – hoqoni farang.  
Soqoli oq, sochlari oppoq,  
Xushqomat, andomi mag‘rur, –  
Uni tanir har kimsa beshak.  
Bo‘lib hozir imperator huzurida

Xushmuolama elchilar<sup>38</sup> so‘zlar.

9

Blankandrin so‘zlar birinchi bo‘lib:  
“Tangri o‘zi duo qilsin, iloho,  
Mudom sizni yomonlardan asrasin!  
Qirol Marsiliy yetkazishni buyurdi,  
Nasroniylik dinin yetibdi anglab.  
Sizga tortiq qilmoqchidir in’omlar.  
Yubormoqchi sizga sovg‘alar sonsiz:  
Yetti yuzta nortuya va yovvoyi ayiq,  
Yirtqich sherlar, sarlochinlar;  
Bu boyliklar yetadi sizga  
Yollangan qo‘sinni haqqin to‘lashga.  
Ispaniyada uzoq mehmon bo‘ldingiz,  
Endi Aaxenga, poytaxtga tomon  
Qaytib ketish vaqtি keldi sizlarga.  
Sizdan keyin u tomonga shoshilur  
Vassalingiz sifatida hukmdorim”.  
Buyuk Karl ko‘tardi qo‘llarin ko‘kka;  
Boshin egdi, va toldi o‘yga.

Aoy.<...>

12

Karl qarag‘ay ostida taxtda o‘tirar.  
To‘plandilar atrofida maslahat uchun  
Arxiepiskop<sup>39</sup> Turpin, graf Ojer,  
Keksa Rishar, uning Genrix jiyani,  
Jasur Gaskon grafi Aselen,

---

<sup>38</sup> SHoh Marsiliy elchilar

<sup>39</sup> Arxiepiskop – nasroniy cherkovining oliv mansabli kohini

Reymslik Milon, ukasi Tedbald;  
Va graf Roland, u bilan birga,  
Jasur va shavkatli do‘sti Oliver.  
Birgalikda mingdan ortiq farang to‘plandi.  
Ganelon ham keldi, riyokor qalbli.  
Va boshlandi o‘sha mash’um maslaxat.

Aoy.

13

“Janobi baronlar! – gapin boshladi Karl, –  
Podsho Marsiliy jo‘natibdi menga elchilar.  
U lozim topgan mish meni siylashni  
O‘zining xazinasidan:  
Ayiqlar, sherlar, tuyalarni va’da qilipti,  
Va yana – ovning ziynati bo‘lmish lochinlarni ham,  
Yuzlab xachir arab oltinin,  
Bunga qo‘shib kumushlarni ham.  
Evaziga xohlaydi u tark etishim,  
Shu ondayok Ispaniya sarhadlarini.  
Ortimdan borar emish u Aaxenga,  
Saroyimda qabul qilmish cho‘qintirishni,  
Va bo‘lar emish mening – sodiq vassalim –  
Ispan yerin boshqararmish len marka<sup>40</sup> kabi.  
Shunday deya aytibdi, u elchilaridan,  
Biroq ko‘nglida ne bor, bilmasman”.  
Shunda faranglar Karlga javob aytdilar:  
“Bunda o‘ta ehtiyyot bo‘lishlik kerak!”.

Aoy.

14

O‘z nutqin tugatdi imperator.

---

<sup>40</sup> Len marka – len – senorga xizmati uchun beriladigan er mulki; marka – markgraf boshqaridigan chegara viloyati.

Rolandning ko‘ngliga u ko‘p ham yoqmadı,  
Bunga u shunday javobni aytdi:  
“Marsiliyga siz ishonmang aslo!  
Biz axir yetti yil Ispaniyadamiz.  
Siz uchun men bosib oldim  
Komibl-u Noplni va, Valternani,  
Seziliya, Tuzla, Balagerni,  
Zabt etdim-ku Pin erlarin ham.  
Shunda qirol Marsiliy, manfur kazzob,  
Yuborgandi elchilarin salomlar bilan.  
Har birin qo‘lida zaytun butog‘i,  
Yarashamiz deya aldashgan edi.  
Mashvaratga chorlagansiz o‘shanda ham siz, –  
Ishongansiz yovning elchilariga.  
Jasur graf Bazant ila Bazilisni,  
G‘ayridinlar oldiga siz yuborgansiz, –  
Podsho Marsiliy boshlarini qilgandi judo.  
Oldingiday urushni siz davom ettiring,  
Poytaxt shahri devorlarin qamal qiling,  
Saragosni er bilan yakson qiling!  
Mayli, davom etsin qamal uzoq vaqt,  
Graflarning xunin oling, g‘ayridinlardan!”

Aoy.

15

Imperator boshi egilib qoldi,  
Oq soqolin tutamlab qoldi;  
Na yaxshi so‘z, va na yomon so‘z  
Jiyaniga ayta olmadi...

(Rolandni ko‘rarga ko‘zi bo‘lmagan graf Ganelon mavrlar huzuriga elchi etib yuboriladi. U dushman bilan til biriktirib, ulardan qimmatbaho sovg‘a-salomlar qabul qiladi va mavrlarga franklarning arergardiga hujum qilishni maslaxat beradi. Ganelon imperator Karlni mavrlar tinchlik istayotgani, qo‘shinni Ispaniyadan olib chiqib ketish kerakligiga ishontirishga erishadi. Kekchi Ganelon Karlga arergardga Rolandni boshliq qilib tayinlashni maslaxat beradi. Ko‘ngli rash bo‘lsada, Karl jiyanini arergardga qo‘yadi. Rolandga o‘n ikki jasur per va yigirma mingta jangchi sherik bo‘ladi. Ronseval darasida faranglar bilan mavrlar o‘rtasida qirg‘inbarot jang boshlanadi. Katta talofat ko‘rib, ko‘plab qahramonlar halok bo‘lgandan so‘ng, Oliver Rolandga o‘z vaqtida imperator Karlni yordamga chaqirmaganligini ta’na qiladi.)

### 133

U(Roland) Olifant<sup>41</sup>in bosib labiga,  
Bor kuchini to‘plab pufladi.  
  
Tog‘lar aro yangrar da’vatkor burg‘u,  
O‘ttiz le<sup>42</sup>gacha eshitilar na’ra.  
  
Bo‘g‘iq ovoz yetib bordi Karlga qadar,  
Karl dedi: “Faranglar qilmoqda jang”.  
Xoin Ganelon boshqa fikrda:  
“Bu gaplarni boshqa kimdir aytganda edi.  
Derdim, sen – manfur, razil aldamchi”. Aoy.

### 134

Katta kuchu, ulkan kuchlanish bilan,  
Puflar edi Roland burg‘uga.  
  
Lablaridan oqar edi tiniq qon,  
Zo‘rlanishdan chakkalari ketdi yorilib.  
Uzoq-uzoqlarga yoyildi chorlov.

<sup>41</sup> Olifant – Rolandning burg‘usi

<sup>42</sup> Le- Fransiyada 4,5 km.ga teng qadimgi uzunlik o‘lchovи

Chegarada yetib bordi Karlga ham,  
Farang polklarining achchiq nolasi.  
Qirol dedi: “Roland chalmoqda burg‘u!  
Jang bo‘lmasa gar, chalmasdi uni!”  
Ganelon der: “hech qanday jang unda yo‘q  
Sochlaringiz qorday oppoq bo‘lsa ham,  
Yosh boladay tutmoqdasiz o‘zingizni.  
Rolandning kekkaygan fe’lin bilasiz,  
Qanday chidar bunga tangri hayronman.  
U emasmi Noplni bir o‘zi olmoqchi bo‘lgan?  
Majusiylar qo‘qqisdan qilib hujum,  
Tor-mor etgandilar shonli Rolandni.  
O‘lganlarning sonin yashirish uchun,  
Buyurgandi o‘tloqlarni obi-g‘arq etishga.  
Quyon ovi chiqqanda avjga, qiziqishda,  
Kuni bo‘yi turar tayyor burg‘u chalishga,  
O‘z perlari bilan hazil qilayotgandir.  
Kim unga qarshi jangga chiqishga qodir?  
Ne sababdan to‘xtadingiz? Yo‘limiz olis,  
Ona vatangacha uzoq yo‘l kutmoqda bizni”. Aoy

163

Roland yana qaytdi jang maydoniga,  
Oliver-do‘stining murdasin topdi.  
Ko‘zlaridan keldi yosh, bag‘riga bosdi.  
Olib bordi uni arang qalqon ustida,  
Arxiepiskopning huzuri tomon.  
Va ruhoniylar och bilan cho‘qintirdi uni.  
Dard-alamga botgan Roland dedi:  
“Oh, Oliver, qadrdon do‘stim!

Shavkatli otaning o‘g‘li edingiz  
Uning mulki vodiyda, Ryunerda edi.  
Gersog Reneday hech kim yovning qalqonin  
Va yo nayzasin, parchalab-sindirib tashlolmas edi  
U tengilar hech qayerda topilmas endi...”

164

O‘n ikki perlarin jasadin ko‘rib  
Oliver do‘stining o‘ligin ko‘rib,  
Roland to‘xtatolmas ko‘z yoshlarini.  
Yuzi oqaradi va ko‘zлari xira,  
Qayg‘udan oyoqlarda qolmadi majol,  
Yerga yiqildi u, hushdan ayrilib.  
Arxiepiskop u tomon shoshdi,  
Rolandning dardga sherik bo‘lish-chun.  
(O‘limining yaqinlashib kelayotganini sezgan Roland, qilichi Dyurendal  
bilan vidolashib, birgalikda qozongan g‘alabalarini yodga oladi.)

174

Roland sezdi: o‘limi yaqin,  
Boshdan tushmoqda u yurak tomonga.  
Katta qarag‘ayga bazo‘r etib olib,  
Ostdagi yashil maysaga yotdi.  
Qilichi va Olifantin ustiga yotib,  
Yuzini qaratdi dushmanlar tomon,  
Ko‘rsin-chun Karl cho‘chmaganini,  
O‘limi oldida yovdan qo‘rqmaganini;  
G‘olib bo‘lib gulchambarga burkanganini.  
Iltifotli graf Roland, jasur jangchi  
Qo‘lqopini cho‘zdi u osmonga tomon,  
Tangridan gunohlarin mag‘firat so‘rdi etishni. Aoy

(Mavrlar Karlning kechikib bo‘lsa-da etib kelgan qo‘smini tomonidan tormor qilindi. Qahramonlar tantanali ravishda dafn etilib, xoin Ganelonga munosib jazo berilib, u qatl ettirildi.)

(A.Qosimov tarjimasi)

# VOLFRAM FON ESHENBAX

(1170-1220)



Tong qo'shig'i  
Bulutlarning quyuq jomasin  
Tirnoqlari bilan yorgancha,  
Tong – adirlar ortidan vazmin  
Qudrati-la ko'kka o'rlaydi.  
Huzurimga o'zim chorlagan  
Kimsaning shod daqiqalarin  
Uzaytirmas endi tong ortiq.  
Sadoqat va do'stlikka butkul  
U loyiqdir, aytmog'im kerak.

Sen kuylagan qo'shiqlar, posbon,  
Iztirobga soladi meni.  
Yoqtirmayman uni mutlaqo!  
Otmasidan hali oppoq tong  
Kelyotgan kun to'g'risida  
Mujda bermoq uchun shoshasan.  
Do'st bo'laqol bizga, o, posbon.  
Otayotgan tong borasida  
Kuylamagin qo'shiqlaringni.  
Aziz do'stim quchoqlarimda  
Yana bir zum bo'lsin ortiqroq.  
Shoshaversin, shoshsin, mayliga!

Yetdi sizga hijron fursati.  
Mujda berib, so'zlama yolg'on.  
Senga bo'lgan muhabbatini

Mayliga, u saqlasin pinhon.  
Nomus uchun, hayoti uchun  
Hijron chog‘i yetib kelganin  
Xabar qilmoq burchimdir mening.  
Tong ham otdi, tun edi axir  
Sizni bo‘sа qovushtirgan choq.

Ne xohlasang kuylayver posbon,  
Faqat do‘sni etma bezovta.  
Qutqularing bizlarni har dam  
Solar faqat dahshat, qo‘rquvga,  
Ishq onini etolmas bekor.  
Yoyilmadi hali tong nuri,  
Hali oftob chiqqanicha yo‘q,  
Ayriliqqa chorlaysan bekor,  
Qalblarimiz ajralmas aslo.

Tong shu’lasi lekin baribir  
Soldi uni qo‘rquv, dahshatga.  
Darichaga ko‘z tashlab behol,  
Aziz yorning ko‘kragiga jim  
Xasrat bilan to‘sini bosdi.  
Ayriliqqa chorlagan nido,  
Da’vatlarni tinglab vallomat,  
Dilbariga vido va hijron  
Izxorini qilmoqqa shoshdi.

*(A.Oripov tarjimasi)*

# **GYUNTER DE BROYN**

## **Tristan va Izolda**

### **So‘zboshi o‘rnida**

Sevishganlar oldidagi to‘sıqlar qanchalar ulkan bo‘lsa, ular to‘g‘risidagi dostonlarning qadri ham, bahosi ham shunchalar yuksakdir, chunki tuyg‘ularning, muhabbatning kuchi o‘sha to‘sinqi yengib o‘tishda namoyon bo‘ladi... O‘ta kuchli tuyg‘ular... bartaraf etish mushkul bo‘lgan to‘sıqlarga duch kelganda ham o‘chmaydi. Bunday hollarda qissalar asosan fofia bilan tugaydi... “Tristan va Izolda” kabi asarlar insoniylikning, odamiylikning ko‘lamini, me’yorini belgilaydi.

Fridrix fon Shtrassburg ham Irlandiya, Shotlandiya, Angliya va Fransiyadan kelib chiqqan, asrlar osha tildan tilga o‘tib kelayotgan dostonni qayta hikoya qilib, o‘z davri va jamiyatiga xuddi shunday talablar qo‘ygan edi. O‘rta asrlar jamiyatni esa bu talablarni bajarishga qodir emasdi, chunki u sevishganlarga chinakam baxt haqida kafolat berolmas edi. Qizig‘i shundaki, sevishganlar jamiyatdan tashqarida ham, ya’ni odam qadami yetmagan yovvoyi o‘rmonzorda ham o‘zlari istagan baxtni topolmaydilar. Eng ulkan, otashin muhabbat ham sevishganlar bilan ular yashagan ijtimoiy turmush orasidagi rishtalarni uzib tashlashga qodir emas. Kishi jamiyatdan jabr-zulm ko‘rgan taqdirda ham shu jamiyatning bir qismi bo‘lib qolaveradi...

O‘rta asrlarda yaratilgan bu dostonning muallifi to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam, aniqrog‘i, uning 1210 yillar atrofida vafot etganidan bo‘lak narsa aniq emas. Uning oqsuyaklar yoki kiborlar toifasidan bo‘lmaganini tasavvur etish mumkin. Manessiya she’rlar kitobchasida uning surati gerbsiz berilgan. Boshqa shoirlar uni ritsarlarga xos ravishda janob deb emas, balki ustoz deb atashgan. U saroy shoirlariga xos xususiyatlarni hurmat qilgan bo‘lsa-da, chinakam ritsarona hayotga e’tiborsiz va saobiy nuqtai nazar bilan qaragan, bu esa uning oddiy fuqaro bo‘lganidan dalolat beradi...

“Tristan va Izolda” bizga faqat parchalar holida qisman etib kelgan. Asarning 20000 misrasidan keyingi qismi, ya’ni Tristan oqbilak Izolda bilan uchrashgandan keyingi voqealar esa bizgacha etib kelmagan. Asarni Gotfrid fon

Shtrassburgning vafotidan 20 yil keyin Ulrix fon Tyurhaym, oradan 60 yil o‘tgach esa Haynrix fon Frayberglar davom ettirib, chop ettirishgan.

Asarning nasriy matnini tayyorlashda asosan Ulrix fon Tyurhaym chop ettirgan variantdan foydalandim, chunki bu variant Haynrix fon Fraybergnikiga qaraganda qadimgi manbalarga ko‘proq mos keladi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy o‘quvchilarga yoqadigan uslubda hikoya qilish bilan birga, Gotfridning she’riy variantidan chetga chiqmaslikka harakat qildim. Albatta ba’zi juz’iy qisqartirish va o‘zgartirishsiz bu ishni amalga oshirib bo‘lmasdi. Shuningdek, yangi tarjimalarning ham ko‘plaridan foydalandim...

*Gyunter de Broyn*

### **Yolg‘onning misi chiqdi**

Ertasiga ertalab makkor dasturxonchining talabnomasini sud hay’ati ajrim qilib berishi kerak edi. Ko‘pgina baron va qurolbadorlar qasr zaliga to‘plandilar. Barchaning fikri-zikrida Izoldaga uylanish uchun dasturxonchi kim bilan jang qilar ekan, degan o‘y hukmron edi. Konuellik baron va qurolbadorlar kelgandan so‘ng bu erdagи shov-shuvlar battar kuchaydi. Qirol konuelliklar bilan do‘stona salomlashdi. Biroq hech kim ular bilan gaplasha olmasdi, chunki chet elliklar irland tilini bilmasdilar.

Qirolicha qizi bilan zalga kirib kelganida erkaklar ulardan ko‘z uzolmay qolishdi. Ona Izolda, ya’ni qirolicha tong shafag‘iday bo‘lsa, yosh Izolda bamisoliquyoshday uning ortidan kelardi. Qirolicha u yon-bu yonga ta’zim qilar, erkaklar bilan salomlashar, jilmayib bir zum gaplashar, qizi esa ibo-hayo bilan bir chetda iymanib turardi. Qiz kamtarlik va latofat bilan o‘z joyi tomon yurdi. Egnidagi jigarrang baxmal ko‘ylagi nozik-nihol, latif qomatiga quyib qo‘ygandek yarashgan, ko‘ylakning yuqori qismi tor tikilgan bo‘lib, badaniga yopishib turar, burma qilib tikilgan etagi esa oyoqlarining uchigacha tushib turardi. Paltosi ham jigarrang baxmaldan tikilgandi. Bo‘yniga paltosi ustidan ham do‘ppayib sezilib turgan ko‘kraklarigacha tushgan oq marvarid tizimcha taqilgandi. U marvarid tizimcha ustiga chap qo‘lining bosh barmog‘ini qo‘yib kelar, o‘ng qo‘lining ikki barmog‘i bilan – oqsuyak xonimlarga xos tarzda – yurganda ochilib ketmasin deb

paltosining barlaridan ushlab olgandi. Ammo baribir, qiz har bir qadam tashlaganda etaklar bir oz ochilib, astar qilib tikilgan oq suvsar terisi paltosining ustki tomoniga ishlatilgan qora sobol terisidan farqli ravishda yarq etib ko‘zga tashlanardi. U peshonasiga zumrad, yoqt va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ensizgina tillaqosh taqib olgan edi. Toshlar bo‘lmaganda ehtimol tillaqoshni butunlay ko‘rib bo‘lmasdi, chunki qizning sochlari ham xuddi oltin rangida edi.

Qirolicha bilan qizi qirol yoniga o‘tirishlari bilan dasturxonchi o‘rtaga chiqib, dedi:

- Janobi oliylari, men shu yerdaman. O‘z haqqimni talab etyapman. Meni obro‘-e’tiborimdan va sizning qizingizdan mahrum etmoqchi bo‘lgan kimsa qani?
- Dasturxonchi, - dedi qirol, - haqqim deb aytayotgan narsadan voz kechsang o‘zingga yaxshi bo‘larmida, balki?
- Izoldadan voz kechaymi, hech qachon! – qichqirdi dasturxonchi.
- Biz haliyam bu bahsni ziyon-zahmat yetkazmay bartaraf qilishimiz mumkin edi, - dedi qirolicha, - mayli, o‘zingdan ko‘r.
- Meni nima deb o‘ylayapsizlar? Ajdahoni o‘ldirgan bahodir qandaydir bir yolg‘onchi bilan jang qilishdan qo‘rqadimi?
- Mayli, xohishing, - dedi qirolicha.– Paranis, boyagi yigitni chaqir!

Zalda shivir-shivir boshlandi. Barchaning ko‘zi eshikka qadaldi. Paranis eshikni ochdi. Go‘zal va mag‘rur Brangene Tristanning qo‘lini ushlagancha, zalga boshlab kirdi.

Tristan Kurvesal olib kelgan sandiqdan faqat o‘zining kiyimlari hamda sochga taqiladigan bezaknigina olgan, qolgan boyliklarni uchala xonimga sovg‘a qilgan edi. Tristanning qo‘ng‘ir sochlariga qadalgan oltin gardishli la’l yulduzdek charaqlar, ipak kiyimlari ham oltin iplar bilan qavilgan edi. Uning egnidagi kamzulning tashqi tomoniga oq marvaridlar qadalgan, astari binafsha rangda edi.

Irlandiyaliklar unga hurmat bilan joy bo‘shatishdi. Konuellik qurolbardorlar esa qiy-chuv bilan salom berdilar. Faqat dasturxonchi xo‘mrayib turar, qovog‘idan qor yog‘ilardi.

Qirol barchadan sukul saqlashni talab qilib, dasturxonchiga dedi:

- Qani, mana shu kishi oldida ham bizga aytgan gaplaringni bir takrorla-chi!
- Ajdahoni o‘ldirgan kishi menman.
- Yo‘q, janob, - dedi Tristan, - ajdahoni men o‘ldirganman.
- Mening dalil-isbotim bor.
- Xo‘sh, nima bilan isbotlaysiz?
- Mana, ajdahoni o‘ldirib, boshini kesib olganman.
- Agar o‘sha boshda til ham bo‘lsa, dalilga ishonish mumkin.

Odamlar ajdahoning og‘zini ochib qarashdi. Uning tili kesib olingan ekan.

Tristan yonidan ajdahoning tilini olib ko‘rsatdi va dedi:

- Endi o‘zlaring hukm chiqaringlar, janoblar.

Zalda o‘tirganlarning har birida ajdahoni Tristan o‘ldirganiga shubha qolmadidi.

Dasturxonchi e’tiroz bildirmoqchi edi, ammo nima demoqchi bo‘lganini unutib duduqlanib qoldi.

- Demak, endi qizingiz menga tegishli, janob qirol, - dedi Tristan.
- Ha, xuddi kelishib olganimizdek, - dedi qirol.

Dasturxonchi bir oz o‘zini o‘nglab olib dedi:

- Yo‘q, bu yolg‘on, sizni yakkama-yakka jangga chaqiraman.
- Yaxshi, men tayyorman, - dedi Tristan.

Dasturxonchi tilini tiyolmaganidan afsuslanib, qarindoshlari bilan maslahatlashib olish uchun ularni bir chekkaga chaqirdi.

- Obro‘-e’tiboringni-ku yo‘qotib bo‘lding, - deyishdi ular, - nima endi bir kami joningdan ham judo bo‘lmoqchimisan?

Dasturxonchi qirol oldiga borib dedi:

- Janobi oliylari, yakkama-yakka jangdan hech narsa chiqmaydigan ko‘rinadi. Qarindoshlarim gaplarimni qaytib olishimni talab qilishayapti. – Vayzefort qasrida qah-qaha ko‘tarildi. Yolg‘onning misi chiqib, oxiri sharmandalik bilan tugadi. Tristan esa irlandlar uning kimligini bilib qolishgandan keyin ham katta obro‘-

e'tibor qozondi. Ikki davlat o'rtasidagi yarashuv bitimi barcha qalblarga quvonch baxsh etdi.

Qirol qizini Tristanning yoniga boshlab kelib, ikkovining qo'llarini birlashtirib qo'ydi. Sovchi o'z xo'jayini qirol Marke uchun kelinni shu tariqa qabul qilib oldi.

- Tantanali ravishda va'da berib aytamanki, - dedi Tristan, - qizingiz Izolda Konuel davlatini subhidam tuhfasidak qabul qilib, butun Angliya qirolichasi bo'lajak.

Ammo sizlardan yana bitta iltimosim bor, yangi qirolichamiz sharafiga bizdan o'lpon tariqasida olib ketgan yigitlarimizni qaytarib beringlar.

- Mayli, ular ham sizlar bilan ketadi,- dedi qirol Gurmun.

Mamlakatning hamma burchaklaridan asir yigitlarni ozod qilib qasrga keltirishdi. Izolda, Tristan va ularning odamlari safar tadorigini ko'ra boshladilar.

### **Muhabbat sharobi**

Jo'nab ketishlaridan bir necha kun oldin ilgari qirolicha Brangenenı bir chetga tortib, shunday dedi:

- Chet elga Izolda bilan hamroh bo'lib ketasan, jiyan, ammo sen qo'rqlama. Qizim chet ellarda hech kimni tanimaydi, birdan bir ishongan kishisi sen bo'lasan. Ammo seni unga qo'shib jo'natayotganimning yana bitta sababi bor, zimmangga muhim bir vazifa yuklamoqchiman. Bu haqda hech kim bilmasligi kerak. Sendan bo'lak hech kimga ishonmayman buni. Mana bu shisha idishga qara! Uning ichidagi suyuqlikning ko'rinishi ham, ta'mi ham sharobnikidek, ammo bu oddiy sharob emas, muhabbat sharobi. Men uni qadimiy yozuvlar bo'yicha har xil giyohlardan tayyorlaganman. Buni ichgan yigit-qiz bir-birini juda qattiq sevib qoladi. Shodligu g'amlarni, hayotu mamotni birga baham ko'radi. Bu ichimlik qizim va uning bo'lajak qaylig'iga mo'ljallangan. Ular ishq ehtirosida qovurilib birinchi kecha qovushganlaridan keyin ichirasan, ammo boshqa birov icha ko'rmasin.

Bu shishani ko'z qorachig'ingday ehtiyot qil, aks holda Izoldaning baxtiga zomin bo'lasan.

-Buyrug‘ingiz bosh ustiga, malikam, - dedi Brangene va ichimlik solingan shishani olib qo‘yniga yashirdi.

Xayrlashuv chog‘i ancha yig‘i-sig‘i qilishdi. Qirol bilan qirolicha o‘z a’yonlari bilan birgalikda jo‘nab ketayotgan Izoldani bandargohgacha kuzatib qo‘ydi. Izolda yig‘lagancha Tristannning qo‘lidan ushlab borardi. Kemaga chiqqunga qadar u g‘amguzor ota-onasini qayta-qayta quchoqlab o‘pdi. Tristan eng oxirida kemaga chiqib, safarlari bexatar bo‘lishini, Irlandiya va Konuel davlatlarining gullab yashnashini xudodan tilab, qirg‘oqdan jilishga buyruq berdi. So‘ngra “Biz otlandik olis safarga, Xudo nomin dilga jo qilib”, deb boshlanuvchi ashulani ayta boshladi. Hamma unga jo‘r bo‘ldi. Tristan ko‘z yoshi to‘kayotgan Izolda yonida, ya’ni palubada turar, qizning olis ufqda elas-elas ko‘zga tashlanib turgan yurtidan ko‘z uzmasdi.

Markening qaylig‘i uchun kemada alohida xona ajratilgan bo‘lib, qiz u erda o‘z kanizlari bilan joylashdi. Tristan uni yupatish uchun tez-tez yoniga kelib turardi, chunki qiz tunu kun yig‘idan to‘xtay demasdi. Yigit qo‘lini uning yelkasiga tashlab, yosh bolani ovutganday ovuta boshlasa, qiz o‘zini chetga olib, unga ta’na qila boshlardi:

- Hammasiga siz aybdorsiz. Siz tufayli meni shunday olis yurtga uzatishdi.

Tristan unga “yaqinda sen qirolicha bo‘lsan, seni porloq keljak kutib turibdi”, deb eslatsa, qiz “qirolicha bo‘lib g‘am chekib yurganimdan ko‘ra, kamtargina sharoitda shodu xurram yurganim ma’qulroq edi”, deya e’tiroz bildirardi. Unga o‘z yurti va ota-onasidan olisda qirolicha bo‘lib yurgandan ko‘ra, manfur dasturxonchiga tegib bo‘lsa ham, o‘z yurtida yurgani yaxshiroq tuyulardi. Tristan qizning iztiroblarini yengillatish uchun ko‘p gapirar, maslahatlar berardi, ammo bularning barchasi befoyda edi.

Kemada yurib o‘rganmaganlari uchun ko‘pgina qizlar dengiz kasaliga yo‘liqdilar. Tristan ularga bir oz dam berish maqsadida qirg‘oqqa yaqinlashib, langar tashlashni buyurdi. Kanizlar qayiqlarga o‘tirib, oyoqlarining chigilini yozish uchun qirg‘oq tomon suzib ketishdi. Izolda kayutada yolg‘iz o‘zi qoldi. Tristan uning yoniga kirib har doimgidek ancha vaqt gaplashib o‘tirdi. So‘ngra juda

chanqagani uchun bir oz may keltirishni iltimos qildi. Izolda oqsoch qizlarning biriga may keltirishni buyurdi. U Brangenening xonasidan bir shisha idish topib, ichidagi may bo‘lsa kerak deb o‘ylab, ularga keltirib berdi. U may emas, muhabbat og‘usi edi. Tristan bilan Izolda to‘yib ichib olishdi. Brangene kayutaga kirgan zahoti ularning o‘rtasida turgan bo‘sh shishani ko‘rdi-yu, rangi bo‘zdek oqarib ketdi. Yuragi muz qotib, shishani olgancha palubaga chivdi va uni dengizga uloqtirarkan, Tristan bilan Izoldaga qarab dedi:

- Evoh, sho‘rlik Izolda, evoh, bechora Tristan, iztirob va ajal sharobini ichib qo‘yibsizlar.

### **Uylanish**

Tristan ikkala Izoldani sevgani uchun kalavaning uchini yo‘qotib qo‘ydi. Biroq yonidagi oqbilak Izolda olisdagi zarkokil Izoldani uning xayolidan butunlay quvib chiqara olmadi. Shu sabab tez-tez xayolga cho‘mar, ilk bor ishqni tushgan mahbubasidan boshqa qizga ko‘ngil qo‘ya olmasligiga qayta-qayta amin bo‘lardi. Ba’zan esa qirol Markeni aldab, uning xotini bilan don olishib yurganligidan uyalib, boshi ochiq Izoldani chin qalbdan sevsam bo‘lmaydimi, deb ham o‘ylab qolardi. Ba’zan esa irlandiyalik Izolda eri bilan apoq-chapoq o‘ynab-kulib, meni butunlay unutgan bo‘lsa-yu, men ahmoq uning hajrida dardu hasrat chekib yuribman, deb o‘zidan o‘zi g‘azablanib ketardi.

Kunlarning birida u zarkokil Izoldagi bo‘lgan muhabbatim butunlay so‘ngan degan o‘yda kayfiyati buzilib, do‘sti Kaedinga shunday dedi:

- Azizim, men singlingni sevaman. Agar rozi bo‘lsang, unga uylanmoqchiman.
- Keyin biznikida qolasanmi? – so‘radi so‘radi Kaedin shodlanib.
- Ha, agar ota-onang, singling bunga rozi bo‘lsa, albatta, qolaman.

Kaedin bu xushxabarni qarindash urug‘lariga yetkazish uchun yugurib ketdi. Borsa ota-onasi, singlisi birga o‘tirishgan ekan.

- Tristan bizning huzurimizda qolsa, - dedi gersoginya, - Kaedinning onasi, - biz dushmanlar xurujidan xoli bo‘lamiz. O‘g‘lim, tezda uni bu yerga chaqirib

keling. Xayrli ishni kechiktirib bo‘lmaydi, darhol unashtririb qo‘yishimiz kerak. Izolda sen unga do‘stona munosabatda bo‘lgan, xo‘pmi.

- Xo‘p bo‘ladi, oyijon, - dedi Izolda, - har qanday boshqa ishdan ko‘ra bu yumushni bajonidil qilaman.

Kaedin shoshilganicha Tristanni chaqirishga ketdi. Tristan kelib, gersog va gersoginya oldida o‘z iltimosini takrorladi.

- O‘la o‘lguncha bizning yonimizda, Arundelda qolishga qasamyod qilasizmi? – so‘radi gersoginya.

- Qasamyod qilaman.

Troitsa bayrami arafasida shodiyona to‘y bo‘lib o‘tdi. Episkop yosh kelin-kuyovlarning barmoqlariga nikoh uzuklarini taqib, fotiha qildi. So‘ngra ular yosh kelin-kuyovlar uchun tayyorlangan alohida xonaga kiritildi...

### **Atirgul va chirmoviq**

O‘lim holatida yotgan Tristan Kurvenalni chaqirtirib, unga shunday dedi:

- Qadrdon do‘stim, agar sizga mening hayotim aziz bo‘lsa, tezroq Tintayolga borib sevgilim Izoldadan iltimos qiling, meni bir ko‘rib ketsin. Unda onasi tayyorlaydigan, bir vaqtlar meni o‘limdan asrab qolgan dorivor moy bor. O‘scha dori va Izoldaning yonimda bo‘lishi menga quvvat bo‘ladi.

- Xo‘p bo‘ladi, janob, iloji boricha tezyurar kema topishga harakat qilaman, - javob berdi Kurvenal.

- Do‘stim, agar qirolichani olib kelayotgan bo‘lsangiz, qaytishda kemada oq yelkan ko‘taring. Agar olib kelolmasangiz, demak umidlaring puchga chiqdi, degan mazmunda qora yelkan ko‘taring.

Kurvenal zudlik bilan bandargohga borib, tezyurar kema topdi va Kornuelga yo‘l oldi. Kunlar o‘tib Tintayolga etib borganda kech tushib qolgandi. U Izoldani xonasida yolg‘iz o‘tirgan paytda topdi.

- Xudo sizni o‘z panohida asrasin, malikam, men Tristanning oldidan kelayapman. U o‘lim to‘shagida yotibdi.

- U o‘lsa, men ham o‘laman, - dedi Izolda.

- Yo‘q, malikam, siz ham, Tristan ham yashashlaring kerak. Uning tanasi zaharlangan. Onangiz tayyorlagan dorivor moy bilan uning hayotini saqlab qolishingiz mumkin.

- Xo‘sh, qachon jo‘naymiz?
- Qachon desangiz ham bosh ustiga, malikam.
- U holda kemangizni shay qilib turing, Kurvenal. Tong yorishgach, yashirinchha kemaga kelaman.

Ertalab Marke qirolichani ancha vaqt behuda axtardi. U butun qasrni, shahar va bandargohni tit-pitisini chiqarib yubordi, ammo faqat kequrunga borib uning josluslari Izolda va Kurvenalni kemaga chiqib ketayotganda ko‘rgan odamlarni topib kelishdi. Qirol tezda bir necha kemalarni jihozlatib, quvishni buyurdi. Biroq ular Kurvenalning kemasi tezyurar bo‘lgani va ancha olislab ketgani uchun etolmadilar.

Karke qasrida yotgan Tristanning ahvoli borgan sari og‘irlashib, hamma tashvishga tushib qolgandi. Hatto o‘zini o‘nglab o‘tirishga ham qodir emasdi. Oqbilak Izolda tunu kun uning oldidan jilmasdi. Tristan butunlay gapirmas, ming qiyinchilik bilan lab juftlab gapirganda ham, gapi “Kornueldan kema kelyaptimi?” degan savoldan iborat bo‘lardi. Shunda uning xotini deraza oldiga borib, dengizga ko‘z yogurtirar va derdi:

- Yo‘q, janob, biron ta ham kema ko‘rinmayapti.

Xotini kemada kim kelishi lozimligini bilar, shu boisdan hozirgi dardu g‘amlari yetmaganday, rashk o‘tida qovurila boshlardi.

“Evoh, - o‘ylardi u o‘zicha, - bunchalar sho‘rpeshona bo‘lmasam. Mening chekimga tushgani faqat motam va g‘am-alam ekan. Qirolicha kelmasa erim halok bo‘ladi, kelsa erim uning quchog‘ida yotadi. Men uchun bu hammasidan ham og‘ir”.

Shu tariqa oradan kunlar o‘tib, nihoyat ufqda oq yelkan ko‘rindi.

- Konueldan biron ta kema kelmayaptimi? – so‘radi Tristan past ovozda.
- Kelyapti, janob, kelyapti!
- Yelkani qanaqa rangda?

- Qora rangda, janob, ko‘mirdek qop-qora rangda, - yolg‘on gapirdi arundellik Izolda. Uning shu bitta gapi erini adoyi-tamom qildi. Umidlarining puchga chiqishi Tristanni so‘nggi kuchidan ham mahrum etdi. U ko‘zlarini yumib oldi. So‘ng qayta ochmadi.

Murda tobutga solinib, cherkovga keltirildi. Shahardagi barcha cherkovlarning qo‘ng‘iroqlari motam kuyini chaldi. Oqbilak Izolda tobut yonidan bir lahma ham jilmasdi. Erining hamda uning qotili bo‘lmish o‘zining taqdiridan nolib ko‘z yosh to‘kardi.

Zarkokil Izolda kemadan tushiboq qanday voqeа sodir bo‘lganidan xabar topdi. G‘am-alam uni yerga yiqilayozdi. Kurvenalning qo‘liga suyangancha, so‘nggi kuchini to‘plab, zo‘rg‘a ibodatxonaga yetib keldi.

- Jo‘nang bu eyrdan, - dedi u oqbilak Izoldaga, – bu yer mening joyim! So‘ngra o‘zini murda ustiga tashladi. Iztirobdan yuragi toshga aylanib, keyin parcha-parcha bo‘lib ketdi.

- Sizning o‘limingiz mening ham o‘limim bo‘ladi, - derdi u doim Tristanga. Bashorati to‘g‘ri chiqdi.

Qirol Marke kemalari bilan Karkega yetib kelganida xotini va jiyani tobutda yonma-yon yotardilar.

Qirolning ham iztirobi haddan ziyoda bo‘lib, ko‘p oh chekdi, chunki u xotining o‘limini istamagan edi-da. Marke ularning jasadlarini o‘zi bilan Konuelga olib ketdi va ularni yonma-yon dafn etishlarini buyurdi. So‘ngra o‘zi Izoldaning qabriga uzum novdasini ekib qo‘ydi.

Atirgul bilan tok novdasi bir-biriga chirmovuqday chirmashib, bamisoli bitta o‘simplikday o‘sib ketdi. Bu hol sevishganlarni o‘lim ham ajratolmasligidan bir nishonadir. Ularning bir-biriga bo‘lgan otashin muhabbatи abadiyat kasb etdi. Tristanning sevib aytadigan ashulasi haligacha ko‘plab mamlakatlarda hofizlar tilidan tushmaydi.

*Izolda shodligim, kadarim o‘zing,*

*Sen mening hayotim, zavolim o‘zing.*

## **SHAHAR ADABIYOTI NAMUNALARI**

### **Rohibning qo‘ng‘ir sigiri haqida**

Chorikor haqida bayonim ushbu:

Hur qiz kuni erta sahar chog‘i u

Rafiqasi bilan bordi cherkovga.

Iboden oldidan chiqib mehrobga

Munda mav’izasin boshladi rohib:

Qo‘shaloq sovg‘aga bo‘ladi sohib.

Qilinsa sovg‘alar, go‘yoki nomoz,

Berilsa, samimiy yurakdan boz, boz,

– Eshitgil, xotinjon, rohibdir dono,

So‘zladi chorikor, - qanday yaxshi, o – o!

Yurakdan qilinsa sovg‘alar albat,

Tangri ko‘paytirar qo‘ringni behad,

Xudoning yo‘lida maqbuldir sigir,

Beramiz rohibga suti kam, qisir.

– Nima derdim, balki... – so‘z qotdi xotin, –

Beramiz, roziman, albat xo‘jayin.

Shamolga sovurmey biror so‘zini,

Uyiga keliboq urdi o‘zini

Og‘ilga, haydadi qo‘ng‘ir sigirin,  
Rohibning oldiga qaytdi u tag‘in.

Rohib ayyor edi, yana mug‘ombir...  
Qo‘lin qovushtirdi mana chorikor:

“Qabul qil, Tangriga ehsonim shu on,  
Deya tutqazdi u rohibga arqon.

- Ont ichgum, borini berdim, ushbu choq”.
- Donolarcha tutding, yo‘lingni, o‘rtoq.

Dedi Konstan ota nazokat bilan.  
Demakki, xo‘rakka yaxshi hirs qo‘ygan, –

“Boraqol bu ishing maqtovga loyiq,  
Barcha ham sen kabi o‘ylasa, aniq

Sovg‘alari bilan to‘plardim chorva,  
Chorvamas, balki, butun bosh qo‘ra!”

Ortga qaytdi shunda chorikor,  
Rohibdan ko‘rsatma oldi xizmatkor:

Oq sigirga bog‘la qo‘ng‘irni bugun,  
Uyimga ko‘niksin turib tunu kun.

Rohibning bog‘ida turgan oq sigir,  
Bo‘yniga bog‘landi shu tarzda qo‘ng‘ir.

Sigarlar o‘tloqda qoldilar yolg‘iz,  
Qo‘ng‘ir sigir bo‘ynin burdi-ku, shu kez.

O‘tlash-chun boshini qo‘ng‘iri egdi,  
Oq sigir o‘tlashni istamas endi.

Kuch bilan arqonni boricha tortdi.  
Go‘yoki qo‘ng‘irni shatakka oldi.

Yaylovu qishloqlar bo‘ylab etaklab,  
Etaklab-da emas, balki, emaklab.

To‘xtashdi – Chorikor eshigida, bas!  
Chorikor angraygan – ko‘zga ishonmas.

Ming bor hayratda, qalbida hayajon:  
“Eha” – so‘z qotdi Chorikor hayron,

Haq ekan, qadoli xotinjon, qara!  
Tangri berdi bizga – ortiq yuz karra.

Qo‘ng‘iri ortidan oq ham kelibdi,  
Bir sigirimiz ikki bo‘libdi.

Ertakdan olingan saboqqa ma’no:  
Tangrini o‘ziga qaratdi dono.

Xudo bersa kimga, olar misqollab,  
Xasislar yashirar – berar qo‘sh qo‘llab.

Hammasini hal etdi tasodif,  
Hirs sabab boridan ayrildi rohib.

(*Q. Yo 'lchiev tarjimasi*)

### **Renar va chittak**

Bolalarin yetaklab chiqib,  
O'tirgandi kovakda Chittak,  
Tongdan tetik va dimog'i chog'.  
Yo'lkada yugurgan Renar ko'rindi,  
Va qushchani ko'rib qichqirdi:  
“Salom mening aziz egachim,  
Ko'pdan Sizni ko'rmadim, qushim!  
Pastga tushing, bag'rimga bosay!”  
“Sabab nima, Renar? Bilayin,  
Ishonch yo'qdir, sizga, bu tayin” –  
Javob qildi so'rovga Chittak, –  
“Etkazdingiz, bo'lmay men ahmoq,  
Shu qadar ko'p, hammaga ziyon.  
Shirin so'zga uchdim bir zamon.  
Yo'g'-ey, sizga aldanmam tamom,  
Yo'lingizda etingiz davom!”  
“Rahm qiling!” – Tulki xitobda. –  
Qo'rqmay sira tushingiz pastga,  
Axir sizga doimo do'stman,  
To'g'rimasmi?.. Ha, chiqdi esdan  
Aytmoqchiydim sizga yangilik,  
Ishonmaysiz, siz menga biroq,  
Bizning buyuk shohimiz sher-la,  
Kelishdim men tinchlik haqida.  
Nahot sizga aytmadni hech kim?

Buni sira kutmagan edim.  
Mayli endi eshiting siz ham,  
Tinchlik uchun men qildim qasam:  
Hayvonlarning orasida shum  
Va yovlikni etish-chun taslim.  
Agar buzsam qasamim, dono  
Nobl – hokim beradi jazo.  
Kulganicha so‘zlati Chittak: –  
“Tan olaman, sizning bu holat,  
Kimlargadir beradi ishonch,  
Tushunarsiz faqat men uchun,  
Siz-la bitim tuzmoq ne kerak, –  
Og‘iz-burun o‘pishmoq faqat?..”  
“Ha, bilaman, ishonch yo‘q, hayhot!  
Qancha sodir etganman kulfat,” –  
Dedi Renar so‘nib nigohi, –  
“O‘zgargandim, o‘shandan beri,  
Gunohlardan bo‘lganman forig‘,  
Va tinchlik-chun, tuzganman sulh.  
Tush, egachim, kel yonimga sen,  
Ishonishing uchun, endi men,  
Yumib turay ko‘zlarim, tamom,  
Shunda balki ishonar avom”.  
“Nima derdim, kelishdik, tezroq,  
Ko‘zlarining yumgin qattiqroq”  
“Marhamat”, - deb Tulkı yumdi ko‘z,  
Shunda Chittak otildi beso‘z.  
Yengil navda kabi Tulkiga,  
Tegdi sal-pal – tukiga,  
Tezda o‘nglab o‘zini qayta,

Uchib ketdi bundan yuksakka.  
(Endi bizga ma'lum, kim ekan ayyor,  
Qolganin eshitmoqqa bo'lingiz tayyor)  
Renar ochmoq bo'ldi jag'ini,  
Tortmoq bo'lib qush oyog'ini  
Ulgurmadi. "Mana qanday soz! –  
Aldadingiz". Yangradi ovoz.  
"Ahd qildingiz nechun aldashga?"  
Renar kirdi aldov-kurashga:  
"Cho'chitmoqchi edim, biroz, ha,  
Egachimni aldayman nega?  
Tushib ko'ring, bu safar albat,  
Qo'rqiitmayman, ishoning, faqat".  
"Mayli, yana ko'ramiz" deya,  
Imkon bermay Tulkiga sira  
Olish uchun nishonni aniq,  
Pastga qarab uchdi va shu choq  
Qaytib qo'ndi butoqqa Chittak,  
Tulki qoldi chalgancha chapak.  
Tutish uchun jag'in ochgandi,  
Tulki takror aldanib qoldi.  
"Ishonganda, Sizga men, Renar" –  
Eshitdi u – " va do'zax yamlar –  
Edi xushnud chog'ida ko'ngil!"  
"Egachim-ey, bu, yana, hazil,  
Voy Xudoyim, ekan qo'rqoq!  
Boshim qo'yib, so'z bergum shu chiq,  
Xayolda yo'q sira, beozor  
Joningizga yetkazish ozor.  
Qanday haddim sig'adi?! Bexos

Cho‘chitmoqchi edim-ku, xolos.

Kechiringiz hazilim – gunoh

Xudo haqqi, bilmam o‘rtoq”.

Biroq qushning ko‘rinishi quv,

Jongga tegdi Tulki, va uyqu

Istab suqdi patiga tumshuq.

Birdan chalib ovchi mug‘zini,

Xabar qildi ovning vaqtini

Va o‘rmonda yangradi shu on,

It ovozi, ovchidan suron.

Ayyor Tulki egilib bir zum,

Buta aro bo‘lmoqchiydi “gum”.

Shunda qushcha qichqirdi unga:

“Ketmoqchisiz chog‘i? Nimaga?

Shoshmay turing, mana shu lahza,

Uchinchi bor olaman bo‘sa!..”

Ammo Tulki dono ham ayyor,

Va berkinish shartligin bilar.

Aldandi u, yo‘qdir e’tiroz,

Qochib qolsa bo‘lgani, shu soz!

“Sizni aziz, egachim, shu choq,

Aldab bo‘lsas, ayyorsiz mutloq,

Biroq katta bobomlar haqda,

Naql yurar bu qadim xalqda:

Tulki aqlin yegan, tulki bu,

Aldab bo‘lmas ularni mangu,

Aldolmagan kabi Sizni men”.

Nafs yo‘lida qolib beiloj,

O‘zingizsiz yordamga muxtoj.

Yolg‘on sizga alal oqibat.

– Shoshmay turing, egachim zora,  
Omon qolsam topgayman chora!  
... Boshin baland tutgan qo‘rqib,  
Qochdi Renar, dumini qisib.  
“To‘g‘risi shu, alvido endi,  
Yetib olay uyimga”, – dedi.  
“Nima derdim, yuguring, hazrat,  
Axir o‘lim solmoqda dahshat”  
O‘zin urdi o‘rmonga Tulki.  
Eshitgancha masxara, kulgi.

(*Q. Yo ‘lchiev tarjimasi*)

## XALQ BALLADALARI

Ballada(Fransuzcha “*ballade*” – raqsga tushib aytildigan qo’shiq so‘zidan kelib chiqqan) – Yevropa xalqlari adabiyotida XIV-XVI asrlarda shakllangan she’riy janr.

### **Quzg‘un uchar quzg‘un tomon...**

Quzg‘un uchar quzg‘un tomon,  
“Qar-qar” etib, solar suron:  
– Aytgil, deydi, og‘a Quzg‘un,  
Yemak qayda bizlar uchun?

Kim o‘ldirgan va ne uchun,  
Buni bilar faqat lochin.  
Yana bilar baytal-do‘non  
Ham yoshgina xushro‘y juvon.

Quzg‘un og‘a bergay sado:  
– Keng maydonda bizning g‘izo  
Tol ostida taom bordir,  
O‘lib yotar bir bahodir.

Lochin uchdi tog‘-yobonga,  
Yog‘iy mindi ul do‘nonga,  
Endi, esiz, xushro‘y juvon  
Yangi yorin kutar bu on...

### **Robin Gud sherifni qanday mehmon**

#### **qilgani haqida**

##### **I**

Kamonchilar bahslashdi bir kun:  
“Oramizda eng zo‘r mergan kim?!”  
Bahsga guvoh – Sherifning o‘zi,  
Qani kimda omad yulduzi?

Shunday qilib Kichik Jon noxos,  
Sherif uchun bo‘ldi xos navkar.  
Xo‘p yarashdi unga bu libos,  
Lek o‘zgarmas tili, naq zahar...

Davra aro tushdi Kichik Jon,  
Ko‘tarildi qiy-chuv to‘polon.  
Dadil tutib tig‘i paykoni,  
Uch bor aniq oldi nishonni

Bir kun Sherif qalin o‘rmonga  
Shikor uchun ot soldi jadal.  
So‘z demadi bul haqda Jonga,  
Na pinhona va yoki dangal.

– Kimsan o‘zi? – so‘radi Sherif, –

Tushlik vaqtি etsa-da hamon,

Qadding baland, fe'ling ko'p jo'mard.  
Jon dedi: – Lozimmas ta'rif:  
Reynolddirman, el der: Yashilbarg!

Kelgin, Reynold, kirgin xizmatga,  
Menda sira bo'lmagaysan kam.  
Maosh tayin – yigirma tilla,  
Yana bergum bir arg'umoq ham.

Sherifdan hech bo'lmasdi darak.  
Jahl bilan dedi Kichik Jon:  
– Qani, oshpaz, keltiring emak!

"Ozroq chida, o'lib qolmaysan  
Sabr tagi – oltin", – der oshpaz.  
– Nima deding, meni bilmabsan,  
Ovqat keltir dedim, lo'ttiboz!

## II

Jon chiqardi o'tkir qilichin,  
Oshpaz yigit undan emas kam.  
Ikkisi ham ko'rsatib kuchin,  
Qilichbozlik boshlandi shu dam.

Boshlar uzra shamshir yalang'och,  
Chor atrofga taratar jarang.  
–Qoyil, – dedi Jon topmay iloj, –  
Qilichbozsan, ustasi farang!

Borasanmi, men-la Shervudga,  
Sarboz bo'lib sen Robin Gudga?  
Yigit dedi: – Roziman yuz bor,  
Oshxonadan bo'lganman bezor!

Shunday deya u chaqqon shitob,  
Olib keldi sur go'shtu sharob.  
Kichik Jonni siyladi obdon,  
O'zini ham unutmay bir on...

Gaping chinmi – g'alat, yo pir-ay,  
Gar rost bo'lsa, kiyikni ko'ray.  
–Marhamat, – der lutf ila Jon ham.  
Yo'ldoshingiz o'zimman har dam.

Sherif yetdi daryoga, shoyad,  
Ortda qoldi o'rmonli hudud.  
Bamisoli bir yashil qoya,  
Unga peshvoz chiqdi Robin Gud...

U Sherifni siyladi chunon,  
Ziyofatda baqamti ikkov,  
Sherif tutib qadahni shu on,  
Oltin jomin tanidi darrov.

Tanidi-yu ishtaha sindi.  
Robin Gud-chi hayqirar quvnoq.  
Kayfu safo avjiga mindi:  
–Do'stlik uchun ol endi, o'rtoq!

Keyin esa bor idishlarni  
Jadal yig‘ib, qopga joyladi.  
Oddiysinmas, sof kumushlarni  
To‘latdi-yu, qopni boyladi.

Tag‘in katta oltin qadahni  
Ilkis olib qopga tiqdi ul.  
Shul qadahda tuyib farahni  
Sherif sharob ichardi nuqlu...

Kulib qarshi oldi Robin Gud,  
Kelmish mashhur, tengsiz tiyrandoz.  
Ikkovlon shod kuylashdi surud,  
So‘ng chiqdilar Sherifga peshvoz...

Sherif so‘rar: – Ayt, qani, Reynold,  
Ne qilursan o‘rmonda bu chog‘?  
Jon dediki: – Ey, muhtaram zot,  
Sizni kutib bo‘ldim-ku mushtoq.

Bir mujda bor, Sizga muntazir  
Kiyik ko‘rdim, daryordan nari,  
Sardor kiyik, yashil tusdadir,  
Naq bahoriy novda singari...

Biz maishat qilamiz uzoq,  
Siylab sendek ulfati xosni.  
Shartimiz bor sen, uchun biroq,  
Kiygaydirsan yashil libosni...

Seni o‘zim shogird qilaman,  
Qaroqchilar ichrasan, tamom.  
O‘n ikki oy sinab, bilaman.  
Maskan bo‘lgay senga shul o‘rmon!

–Nima? – so‘rar Sherif ko‘p hayron,  
–Bunda qol-u, o‘rmonda yasha!  
–O, og‘aynim, Robin, qadrdon,  
Bundan ko‘ra chavaqlab tashla!

–Qo‘limdagি mana shu qilich,  
Shamshir haqqi, qasamyod ayla.  
Kambag‘alni yoqlash-chun ont ich,  
Zolimnimas, sen xalqni siyla!

Qutlug‘ ontqi Sherif tan oldi,  
Garchi bunga qiyndaldi chunon.  
Bir umrga Shervudda qoldi,  
Kech bo‘lsa-da uyg‘ondi vijdon...

(Muhiddin Omon tar.)

## **G'ARBIY YEVROPA UYG'ONISH ADABIYOTI**

Yevropa o'rta asrlar **tamaddunining yakunlanishi insoniyat tarixida** Uyg'onish(yoki ilm-fanda qabul qilingan, fransuz atamasi Renessans) nomini olgan ajoyib davr bilan bog'liq. Uyg'onish, antik yoki o'rta asrlarga nisbatan ancha qisqa muddat davom etgan bo'lsa-da, fan va madaniyatda erishilgan ulkan yantuqlar uni alohida bir bosqich sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Madaniyat tarixida Renesans nomi bilan yuritiladigan ushbu harakat dastlab Italiyada (XIV) va keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish shakllarining yangi kurtaklari–manufakturaga o'tish, buyuk geografik kashfiyotlar (Yevropa uchun Amerikaning kashf etilishi, Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi) va dunyo miqyosida savdo-sotiqning rivojlanishi absolyutizmning g'alabasi natijasida feudal tarqoqlikka chek qo'yilib, milliy davlatlarning paydo bo'lishi, buyuk dehqonlar urushi va xalq qo'zg'olonlari – bular ijtimoiy hayot va ijtimoiy tushunchada qator yangiliklar tug'diradi.

Antik madaniyat ta'sirida Italiyada san'at mislsiz darajada yuksaldi. Italiya, Fransiya, Angliya, Ispaniya va Germaniyada yangi zamon adabiyoti vujudga keldi.

Uyg'onish davri madaniyatining ahamiyati uning feudal tuzumi va cherkovga qarshi g'oyaviy kurash olib borishi bilan belgilanadi. Shaxs erkinligi va uni cherkov sirtmog'idan ozod etish hamda dunyoviy madaniyat yaratish uchun o'z bilim va kuchlarini sarf etgan bu titanlar – o'zlarini gumanistlar (lotincha – humanis ya'ni insoniylik) deb atadilar.

Inson shaxsini ulug'lash, tabiat va jamiyatni inson manfaatlariga xizmat ettirish uyg'onish davrining muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Uyg'onish davrining xususiyatlaridan yana biri antik madaniyatga bo'dgan munosabatda namoyon bo'ladi. Gumanistlar o'zlarining ilg'or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun antik davr ulug' siymolari ijodiga murojaat qiladilar. Ular rim va grek adabiyoti janrlarining turli uslub shakllarigagina emas, balki ularning tarixiy manbalari, g'oyaviy mazmuniga ham

diqqatlarini qaratdilar. Italian olim va yozuvchilari, jumladan birinchi gumanist Bokkachcho unutib yuborgan qadimgi qo‘lyozmalarni qidirib topishga kirishdilar.

Uyg‘onish davrining yana bir xususiyati shundaki, gumanistik adabiyotning rivoj topishi va uning realistik mazmunda bo‘lganligidadir. Gumanistlar antik manbalardan tenglik vaadolat uchun kurash g‘oyalarini oldilar. Antik adabiyotning bunday xususiyatlaridan ta’sirlanish F.Rablening “Gargantuya va Pantagryul”, M.Servantesning “Don Kixot”, V.Shekspir va Q.Marloning tragediyalarida yaqqol gavdalanadi. Xalq turmushidan olingan tematik obraz va folklor motivlari Bokkachcho va M.Novarskaya ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Italian tilida yozilgan ilk badiiy asarlar XII-XIII asrlarga taalluqli bo‘lib, birinchi italyan shoiri Fransisk Assiz hisoblanadi. XIII-XIV asrlarda yaratilgan lirik asarlarda “yangi yoqimli uslub” davr muammolarini o‘ziga xos tarzda hal qilish bilan ajralib turdi, ularda “zaminiy muhabbat” bilan “samoviy muhabbat”ning o‘zaro munosabatlari yoritildi.

Italiya ilk Uyg‘onish davrida yaratilgan asarlarda eskicha va yangicha dunyoqarash unsurlari, inson tafakkuridagi qarama-qarshiliklar jamlangan holda, mushtarak talqin qilina boshlandi. Bir tomondan, erdag‘i hayot – kelajakdagi , u dunyodagi mangu hayotga tayyorgarlik davri sifatida tasvirlansa, ikkinchi tomondan, jamiyatda odamlar ongidagi xurofot, insoniy his-tuyg‘ularni cheklovchi cherkov talablari tanqid qilindi.

Italiya Uyg‘onish davri adabiyoti – dunyonи insonparvarlik nuqtai nazaridan talqin qilish, insonning o‘zini Parvardigor yaratgan eng oliy va mahbub jonzod sifatida tasdiqlashi, odamzodning kuch-qudratiga ishonch, hurfikrlilik, xurofotlarga nafrat omili sifatida dunyoga keldi. Bu davr italyan adabiyotining atoqli namoyandalari Francesko Petrarka va Jovanni Bokkachcholardir. Petrarka lotin tilini O‘rta asrlarda paydo bo‘lgan vulgar so‘z qatlamlaridan tozalagan bo‘lsa, Bokkachcho nasrda adabiy tilnpng yaratuvchisi bo‘ldi.

Italiyadagi Uyg‘onish davrining eng gullab-yashnagan vaqtı XVI asming birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. YAgona italyan adabiy tilining shakllanish jarayoni aynan shu davrda yakunlandi.

Fransuz Uyg'onishi o'z rivojlanishida Italiyaga xos xususiyatlarga ega bo'lish bilan birgalikda, farqli tomonlari ham mavjud edi.

Fransuz burjauziyasi bir qadar ortda bo'lgani sababli gumanistik xarakatda faol ishtirok eta olmadi. Fransuz Uyg'onishiga Italiyaning ta'siri katta bo'ldi. Qirol Fransisk I davrida Italiya renessans madaniyati faol import qilindi. Qirol (1515 - 1547) Leonardo da Vinchi, Andrea del Sarto, Benvenuto Chellinilarni o'z saroyiga taklif qildi. Dante, Petrarka va Bokkachcholarning asarlari tarjima qilindi.

Fransuz gumanistik xarakatining atoqli arboblaridan biri qirol Fransisk I ning singlisi Margarita Navarrskaya(1492 - 1549) edi. Italyan, Yunon, lotin tillarini yaxshi o'zlashtirgan, ma'rifatli ayol bo'lgan Margarita ko'plab she'r va novellalar yaratgan. Uning mashhur asari "Geptameron" novellalar to'plami edi. Margarita Navarrskaya homiyligida faoliyat yuritgan to'garakda shoir Klemen Maro, yozuvchi Bonaventura Deperelar faol ishtirok etdilar.

Ispaniya Uyg'onishi (shuningdek 1580-1640 ispan qirollari qo'l ostida bo'lgan Portugaliya) o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. XV asrning ikkinchi yarmida bu erda kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi, sanoat va tashqi savdo aloqalari o'sdi, feodal munosabatlar inqirozga yuz tutdi.

Ispan ma'rifatparvarligi va gumanizmining o'ziga xos tomonlari quyidagicha:

a) Rekonkista xarakatining Ispaniyani turli viloyatlarida turli davrlarga bo'lishi oqibatida mustaqillikka erishgan ispan viloyatlarida qonunlar, urf-odatlar turlicha bo'lishiga olib keldi. Qaytarib olingan erlarda va bu erda barpo bo'lgan shaharlarda dehqonlar va shaharlar bir-biridan farq qiluvchi huquq va erkinlikka ega bo'ldilar. Natijada turli viloyatlar bilan qirollik o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi.

b) XVI asrda Ispan sanoati keskin qisqardi. Buning asosiy sababi Amerikaning ochilishi va mamlakatga oltinning ko'plab keltirilishi bo'ldi. Ispanlar uchun o'zida ishlab chiqarishdan ko'ra chetdan tovar olib kelish qulay edi. Dehqonchilikka ham putur etib, er katta feodallarning qo'liga o'ta boshladi. Ko'plab dehqonlar baxt izlab yangi erlarga keta boshladilar.

Ispan absolyutizmi (ayniqsa qirol Karl I davrida) dunyo xokimligiga intilar ekan, bunda uni harbiy kuch va katolik cherkovi qo'llab-quvvatlar edi. Lekin Ispaniya XVII asrning ikkichi yarmida Evropaning ikkinchi darajali davlatiga aylanib qoldi. Ispaniya Uyg'onishi quyidagi davrlarga bo'linadi:

- a) Ilk Uyg'onish davri (1475-1550 y.)
- b) Etuk Uyg'onish davri (1550-XVII asrning boshlari)

Ispan Renessans she'riyatida lirika va epik doston turlari rivojlandi. XVI asrning 30-yillarida shoirlar Boskan va Gosilaso dela-Velar italyan poetik formalarini (kansona, elegiya, eklog, noma, sonet) ispan adabiyotiga olib kirdilar.

Angliyada Uyg'onish davri Italiya, Fransiya, Ispaniyadan kechroq boshlandi. XV-XVI asrlarda Angliyada qirol hokimiyati dvoryanlar qarshiligini sindirdi. Hokimiyatga intilgan juda ko'p feodal baronlar o'zaro urushlarda halok bo'ldilar.

Tyudorlar sulosasidan bo'lgan Genrix VII va Genrix VIII lar davrida mutloq xokimyat kuchaydi. Mamalakatni qirolichcha Elizaveta (1558-1603) boshqargan yillarda Angliya iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlandi. 1588 yili ispanlarning Buyuk Armadasini tor-mor qilgan Angliya uchun dengiz yo'llarining barcha osonlik bilan ochila boshladi. Ko'plab dehqonlar o'z erlaridan mahrum bo'ldilar.

Ilk ingliz Uyg'onish davrining namoyondasi Tomas Mor (1478-1535) edi. Uning eng mashhur kitobi - «Yangi Utopiya oroli haqida» asaridir. (1516 y). «Utopiya» («Yo'q joy») da yozuvchi davridagi jamiyat haqida tanqidiy fikrlar bildirilgan.

T.Mordan keyin utopiya mavzusida bir qator asarlar yaratildi. T.Komponellaning «Quyosh shahri», F.Bekonning «Yangi Atlantida», Garingtonning «Okean» E.Kabening «Ikariyaga sayohat» asarlari shular jumlasidandir.

Genri Govard Sarri asosan sonet janrida ijod qildi. Petrarka sonetlardagi Laura Sarri syujetlarning qahramoni Jeraldinining o'ziga xos proobrazi bo'lib xizmat qildi. Genri Sarri ingliz adabiyotiga oq she'rni olib kirdi, «Eneida» ni

ingliz tiliga tarjima qildi. Keyinchalik K. Marlo va U. SHekspir ham o‘z tragediyalarida oq she’rdan foydalandilar.

XVI asrda Angliyada dramaturgiya gullab yashnadi. Ingliz teatri xalq manfaatlarini ifoda qilganligi sababli, xalq orasida katta shuhrat qozondi. Asr oxiriga kelib Angliyada 20 dan ortiq teatr mavjud edi.

Bu davrda Kristofer Marlo tragediya janrida samarali ijod qildi. Uning «Doktor Faustning fojiyaviy taqdiri» dramasi Logan SHpis tomonidan chop etilgan xalq kitobidagi Faust haqidagi afsona asosida yaratildi.

K.Marlo biz uchun Amir Temur siyosini adabiyotga olib kirgan dastlabki G‘arb mualliflaridan biri ekanligi bilan qadrlidir. Uning «Sohibqiron Temur» asarida buyuk sarkarda hayoti tasvirlanadi.


Uyg‘onish davrida Evropa madaniyati, ilm-fani, san’ati beqiyos darajada rivojlandi va yuksaldi. Antik merosni o‘zlashtirgan Uyg‘onish davri vakillari poetik prinsiplarni shakllana boshlagan milliy adabiyotlar nuqtai nazaridan idrok qildilar. Adabiyot va jamiyat munosabatlari, so‘z san’atining ijtimoiy hayotdagi o‘rnii va vazifalari yangicha talqin qilinib nasroniy cherkoviningadabiyotga ta’siri susaya bordi. Aynan shu davrda “adabiy til” tushunchasi paydo bo‘ldi va uning umumxalq tili bilan munosabati masalasiga oydinlik kiritildi, badiiy ijodning individual tabiatini, san’atkorning ijodiy erkinligi e’tirof etildi, poeziya mavjudligining asosi sifatida inson – ijodkor markazga qo‘yildi. Natijada jahon adabiyoti tarixida muhim bosqich sanalgan Uyg‘onish adabiyoti keyingi davrlar adabiyotiga ijobiy ta’sirini o‘tkazdi.

## **G‘arbiy Yevropa uyg‘onish davri adabiyoti bo'yicha nazorat savollari:**

1. Uyg‘onish davri tushunchasi. Sharq va G‘arb Uyg‘onishidagi o‘ziga hosliklar?
2. Italiya uyg‘onish adabiyotining asosiy bosqichlari?
3. Dante Aligiyerining Uyg‘onish adabiyotida tutgan o‘rni?
4. “Dekameron” asari g‘arb novellachiligi taraqqiyotida qanday o‘ringa ega?
5. Petrarka she’riyatning qaysi janrini rivojlantirdi?
6. F.Rable «Gargantuya va Pantagryuel» romanida qanday muammolarni ko‘tarib chiqdi?
7. Ispaniya ilk uyg‘onish davrida she’riyatning qaysi turi rivojlandi?
8. Servantesning «insoniyat tarixidagi eng buyuk asari».
9. Ingliz uyg‘onish davrining ilk vakili Tomos Mor qaysi asari bilan mashhur bo‘ldi?
10. Kristofer Marlo o‘zining qaysi asari bilan sohibqiron Temur timsoliga murojaat qilgan?
11. «SHekspir masalasi» deganda nima tushuniladi?
12. SHekspir ijodining asosiy davrlari haqida ma’lumot bering.
13. SHekspir sonetlarining asosiy xususiyatlari.

## DANTE ALIGERI

(1265-1321)



### Ilohiy komediya

*Do‘zax*

*To‘rtinchi qo‘shiq*

Dahshatli momaqaldiroqdan sergaklangan Dante o‘zini birinchi doiraning kanorasida ko‘radi. So‘ngra u xristian diniga mansub bo‘lmagan kishilar hamda cho‘qintirilmagan bola-baqlra joylashgan Limbga kirib boradi. Undan nariroqda esa Iso payg‘ambar aqidasiga g‘ayri bo‘lgan qadimgi dunyo donishmandlari va qahramonlarini ko‘radi. Ular orasida Sharq donishmandlari ibn Sino va ibn Rushd ham bor.

- 49 Bormi bular ichra biror zot pok,  
Yo birov duosi, yo o‘z savobi  
Nasib qilgan bo‘lsa to nuri aflok”
- 52 Shundoq bo‘ldi menga ustoz javobi:  
“Guvohman, bu erga keldi bir daf‘a  
Ulug‘ hazratlari – g‘olib janobi.
- 55 Odam Atoni u qutqazgandir, ha,  
O‘g‘lonin ham shundoq. No‘hi muborak,  
Hazrati Muso ham u zotga xalfa.
- 58 Shoh Dovud, nuroniyl Ibrohim beshak,  
Avlod-ajdodi-la hazrat Isroil,  
Rohila – qimmatga tushgan kelinchak.

- 61 Bo‘lmish ko‘p azizlar mehriga noil,  
Loyiq bo‘lomagan boshqalar va lek.  
Ilk bora o‘shalarga boqqanlar moyil”
- 64 Ulkan changalzorda ikkov ketardik,  
U faqat so‘zlardi, men-chi tinglardim,  
Changalzor – insonlar ruhistonidek.
- 67 Xob chulg‘angan joydan yiroq kezardim,  
Muqavvas zulmatning tagida lov-lov  
Yonayotgan o‘tga tushdi nazarim.
- 70 Garchand uzoqdaydi bizdan u olov,  
Lekin o‘sha yonda behad sarafruz  
Zotlar guruhini payqadim darrov.
- 73 “Ey, san’at va donish sohibi ustoz,  
Aytgil, kimdir bular, turar ovloqda –  
O‘zgalardan ko‘ra bohurmat, mumtoz”.
- 76 Ustoz javob qildi menga shu choqda:  
“Zaminni yaratgan bularning shoni,  
Bu kun samoda ham dovruq solmoqda”.
- 79 “Qutlangiz, eng yuksak shoirni, qani”. -  
Kimningdir ovozi qoldi jaranglab,  
Yaqinlab kelardi ruh ham shu oni.
- 82 Shundayin so‘zlarni turardim tinglib,  
Eshitdim to‘rt a’zam qadamin sasin,

Kelardilar na shod va na darg‘azab.

- 85 “Boq, - dedi shavkatli ustod olib tin, –  
Hammadan oldinda, qo‘lida shamshir,  
Ruxsori ulug‘vor, qadami sokin
- 88 Gomer kelar edi, shoirlarga pir,  
Ortida Goratsiy – shaddod qalamkash.  
Undan so‘ng Ovidiy va Lukan shoir.
- 91 Bizni tutashtirar buyuk nom yakkash,  
Qoshida shuning-chun ayladim ta’zim,  
Haqlidir, bular ham boqqanda dilkash”.
- 94 Qarshimda turardi zotlarki, azim,  
She’rlari jahonni yangratgan behad,  
Hanuz byetimsoldir ularning nazm.
- 97 Ustoz teshvoz chiqdi ularga xushvaqt,  
Kuychilar to‘dasi yurdi men tomon,  
Mannun jilmayardi ustozim faqat.
- 100 Ularning safiga kirganim zamon  
Sharafim oshardi mening tobora,  
Safda men oltinchi zot edim, shodon.
- 103 Suhbatga berildik yurib nur aro,  
Bu yerda bizlarning muloqot garchand,  
Bilmam, lozimmidi yo yo‘q, shu asno.

- 106 Qasr paydo bo‘ldi qarshimda baland,  
Yetti qat devoru yetti qat ravoq,  
Atrofda chuldirar chashmalar xursand.
- 109 Saf-basaf yo‘l bosib yurdik nariroq,  
Yetti darvozadan o‘tdi so‘qmoq yo‘l –  
Chiqdi qarshimizdan yam-yashil o‘tloq.
- 112 Vazmin zotlar edi u yerda nuql  
Ularning ovozi sokin, jarangdor.  
Nigohlari bosiq, sipoyi butkul.
- 115 Ochiq maydon ichra buyuk, shu'lador  
Tepalik turardi, savlati oliv,  
Unga ko‘tarildik bizlar saf qator.
- 118 Shu on yaylov uzra, misli xayoliy,  
Shavkatli insonlar bo‘ldilar paydo,  
Ko‘z oldimda edi ular jamoli.
- 121 Elektra turar ajdodlar aro,  
Eney va Gektor ham u erda ayon.  
Burgutnazar Sezar, jangsevar daho.
- 124 Penteseliya va Kamilla bir yon,  
Turardi Lavina – yonda otasi,  
Oliy shoh Brut ham bo‘ldi namoyon.
- 127 Sezar qizi, Kollatin zaifasi,

Grakxlar onasi, Katon mahrami,  
Salohiddin turar – safda hammasi.

- 130 Qiyalik tomonga boqdimu, jami  
Donishmand zotlarning ustozin ko‘rdim,  
Oqil hamdo‘stlari uning hamdami.
- 133 Aflatun, Suqrotga men boqib turdim,  
Baqamti yurardi u zotga bular.  
Dunyo tasodif deb atagan qadim –
- 136 Buyuk hikmatshunos Demokrit turar,  
Anaksagor, Fales, Diogen bunda, –  
Zenon, Empedokl, Geraklit yurar.
- 139 Shifo bilag‘oni Dioskorid unda,  
Seneka-yu Orfey, Tulliy hamda Lin.  
Ko‘zimni uzoqqa yugurtdim shunda:
- 142 Hisobdan Evklid, Batlimus, Galen,  
Gippokrat, ibn Sino, ibn Rushd paydo –  
Yangi g‘oyalarni targ‘ib etgan chin.
- 145 Aytolmasman sanab barchasin aslo,  
Bayonim bo‘lmog‘i darkor muxtasar,  
Tafsil qisqa esa eting istisno.
- 148 Ikkov qoldik, tarqab davrai sarvar,  
Osoyosh bu joydan qasirga tomon  
O‘zga manzillarga ayladik bovar.

*O‘n birinchi qo‘shiq*

Shoirlar yettinchi doira tepasiga borib yetadilar. Pastlikdan badbo‘y, qo‘llansa bir hid burqsab turadi. Hidga toqat qilolmagan shoirlar sal bo‘lsa ham ko‘nikmoq uchun papa Anastasiy sag‘anasi ortiga bekinishga majbur bo‘ladilar. Vergiliy Dantega doira qabatlarini tushuntiradi va sudxo‘rlik, baloxo‘rlik parvardigor irodasiga nomuvofiq ekanini anglatadi. So‘ngra ular so‘qmoq bo‘ylab pastlikka enib ketadilar.

Xandaqning chetiga keldik yaqinlab,  
Qoyalar – to‘siga qo‘ygan chog‘ qadam –  
O‘pirilib ketardi battar shovqinlab.

- 4 Jarlikning tubidan biz sari har dam  
Burqsab kelar edi bir hid – qo‘lansa,  
Sag‘ana ortiga bekindik shaxdam.
- 7 Lavha bitilgandi u erda esa:  
“Papa Anastasiy bu joyda mahkum,  
Fotinadan keyin adashgan kimsa”.
- 10 “Qiyaga tushmoqqa oshiqma bir zum,  
Dimoq badbo‘y hidga ko‘niksin sal-pal  
So‘ngra bilinmagay”, – dedi ustozim.
- 13 Dedim: “Behudaga o‘tar fursat, gal,  
Biror ne so‘ylagin, lutf etib, qani”

Dedi: “Niyatim shul mening ham, tugal”.

- 16   “O‘g‘lim, – so‘z boshladi ustoz serma’ni, –  
     Chog‘roq uch qabatni ko‘rarsan hozir,  
     Ular eslatadi uchta zinani
- 19   La’nati arvoхlar u yerda bijg‘ir;  
     Faqat nigoh tashlab o‘tmog‘ing uchun  
     Aylayin ularning kufrini zohir:
- 22   Samoga zid bo‘lgan yovuzlik va kin  
     Adovat – murodi – yolg‘on va o‘trik;  
     Firib, kuch – ularning yarog‘i butun.
- 25   Firib, illat ekan insonga sherik,  
     Yaratganga esa butkul begona.  
     Shu sabab tangrining g‘azabi buyuk.
- 28   Ilk qabat – jabru zulm ahliga xona,  
     Uchga bo‘linadi uning o‘zi ham,  
     Shuning-chun uch xildir shaklu ostona.
- 31   Xoliqqa yetkazar ozor va sitam  
     Va ham bandasiga koyish va kulfat.  
     Ko‘rsang ishonarsan o‘zing musallam.
- 34   Har biri topadi kulfat oqibat:  
     O‘lim yo jarohat, quvg‘in yo surgun, –  
     O‘g‘rilik, o‘t qo‘yish usuli faqat.

- 37 Zohir mintaqada qotil, ahli xun,  
O‘g‘ri yo‘lto‘saru qaroqchi – bari  
Saf-basaf bo‘linib tentirar betin.
- 40 It qavmida ketgan bul ba’zilari,  
Qasd qilgan o‘ziga, savobi abas.  
Ko‘z tashlagin o‘rta mintaqa sari:
- 43 U yerda jamiki noshukur, nokas,  
Qimorboz, isrofgar olgan yig‘ilib,  
Yo‘qotgan o‘zligin, oqibati past.
- 46 Koyish etkazarlar tangriga nolib,  
Dillari egridir ularning tamom,  
Yaratganni mudom yurarlar yanib.
- 49 Mintaqqa ortida Kaorso, Sodom –  
Baloxo‘rlar ahli o‘tda chekar oh,  
Yonar shikoyatchi osiyalar badnom.
- 52 Firibdan hamma ham xabardor, ogoh,  
Laqqa tushganga u keltirar balo,  
Ishonmaganga ham qazgusidir choh.
- 55 So‘nggisi mehr ipin uzar mutlaqo,  
Uzar muhabbatning ishonch rishtasin.  
Ikkinchi qavatning azobi ammo –
- 58 Chulg‘agan riyokor, ochko‘z hammasin, –

Aldamchi, hiylagar yo bandi mansab,  
Qo‘shmachi, soxtakor, qallob galasin.

61 Mehr ipi uzilsa oqibat sabab,  
Ishonch, imonga ham yetkusi putur,  
Barham topar do‘stlik, har ezgu matlab.

64 Ditning taxti turgan eng teran chuqur –  
Olam tubi bo‘lmish eng pastki qabat –  
Sotqinlar ahlini manguga yutur”.

67 Dedimki: “ Ustozim, lutf aylab g‘oyat,  
Jahannam qa’rini etding ifoda,  
Mahkumlar haqqinda qilding hikoyat.

70 Lekin bandilar bor balchiq yuhoda,  
Ularni savalar yomg‘ir va quyun,  
Haqqin talab qilar bukib iroda –

73 Bu qirmiz qal’aga kirmagan nechun,  
Holbuki, g‘azabga bo‘lmishlar duchor?  
Sababin aytib ber bu holning butun”.

76 U dedi: “ Haq yo‘ldan qaytding-ku zinhor,  
Fikringda g‘alatlik bo‘libdi sodir?  
Aqling faromushdur hamda beqaror.

79 Axloq kitobida yozilgan axir,  
Uch narsa falakka butkul noravo,  
Nahot eslolmassan ularni hozir:

- 82 Yengiltaklik va kek, pastlik – uch balo;  
Tangri taoloning qoshida zinhor  
Yengiltakning holi emasdir avlo.
- 85 Tafakkur aylagach bu holni takror,  
Eslagach mahkumlar saflarin qayta –  
Kim ichda bandiyu, kim tashda abgor, –
- 88 Anglarsan, ne uchun ular har qayda,  
Ularni ikkiga ajratmish tangri,  
Azob ham bir qadar yengil u joyda”.
- 91 “O, aqlu zehnning nuri, sarvari,  
Sening o‘gitlaring tinglab tobora  
Tavajjuhim oshar hikmatlar sari.
- 94 Marhamat ayla-yu anglat dubora:  
Nechun poraxo‘ru baloxo‘r zoti  
Tangrining qoshida eng past, eng qora?”
- 97 Dedi: “Kimningki bor saboq saboti,  
Faylasuf necha bor unga uqtirgan:  
Xilqatning boshida avval ijodi –
- 100 Hikmat va iloha san’ati turgan;  
Ulumi zohirni varaqlasang gar  
Shu so‘zlar chalinar ko‘zingga birdan:
- 103 San’at tabiatga doim ergashar,

Shogirdi misoli borar izma-az.

U ham ilohiydir asli bir qadar.

106 “Injil” avroqidan uqqansan shaksiz:

Har ikki jihatga tangri taolo

Yashash va yashnashni buyurgan hargiz.

109 Baloxo‘r-chi, ozgan yo‘lidan, rasvo,

Na xilqat, san’atni mensimas hech bir,

U o‘zga yo‘llarni izlar doimo.

112 Fursat o‘tib borar, qani endi yur;

Hut yulduzi bo‘ldi mashriqda paydo,

Yetti og‘ayni g‘arb-shimolda turur,

115 Yo‘limiz olisdir tubangacha to”.

### O‘ttiz to‘rtinchi qo‘shiq

Do‘zaxning so‘nggi to‘qqizinchи doirasining ushbu bo‘linmasida sotqinlar butkul vujudi bilan muzga band holda yotadilar. O‘rtada – Lyusifer(Sharqona nomi - Azozil) uchovlon og‘zidan chiqayotgan dahshatli oqim bilan uchta sotqin zotni tinimsiz jazolab turadi. Bular: Iso payg‘ambarga sotqinlik qilgan Iuda, Valine’mat hokimiyatining yuziga oyoq qo‘ygan Brut va Kassiy. Vergiliy Danteni og‘ushiga olib, Lyusifer – Azozilning mo‘yiga tirmashgancha yer kurrasining nuqtai nizomidan o‘tib, ikkinchi yarim sharga chiqib oladi. Ko‘kda yulduzlar charaqlaydi. Bu joylar A’rof tog‘laridir.

Vexilla regis prodeunt infernil

Ustozim dediki: “Ro‘baro‘ga boq,

Ko‘rarsan zulmatda U turgan yerni”.

- 4 Zamin osmoniga tun yoyilgan choq  
Va yoki tushganda tuman, bulduruq, –  
Tegirmon parragi ko‘ringay shundoq.
- 7 Bu ham turar edi haybatga to‘liq,  
Dahshatli shamoldan saqlay deya jon, –  
Borardim ustozga panalab, yovuq.
- 10 Shisha ichra qotgan butoqlarsimon  
Arvohlar yotardi muzga bo‘lib band.  
Baytga bitsam hatto guvranadi jon.
- 13 Kimdir tikka qotgan, kim muzga payvand,  
Kimning boshi tuban, kimning oyog‘i,  
Kimdir egilgandi bamisli kamand.
- 16 Qachondir xushsurat bo‘lgan siyog‘i –  
U zotga yaxshiroq tashla deb nazar,  
Hodiyi komilim istadi chog‘i –
- 19 Meni ilgariga undadi sarvar,  
Dedi: “Mana shu joy Ditning qo‘rasi,  
Bu yerda vahmaga berilma magar”.
- 22 So‘ramang, holimning ne tafsirasi,  
O‘sha on bitgandi butkul majolim,  
To‘ng‘ib ham qolgandim, gapning sirasi.
- 25 Na o‘lik, na tirik, mushkul ahvolim,

Mening shu chog‘dagi shaxtimni, illo,  
Ayon etar sizga bu hasbi holim.

- 28 Azob sultanati sohibining to,  
Ko‘kragi qadarli muzga edi band,  
Alplar qomatin ham mendek deng, ammo,
- 31 Lyusifer qo‘liga kelolmas monand.  
Muz tagida qolgan uning jussasin  
Tasavvur etib boq, o‘quvchim, harchand.
- 34 Xoliqqa bir zamon shu chehra aksin  
Ko‘rsatgan bo‘lsa gar ushbu badraftor –  
Demak, u kufrga ibtidodir chin.
- 37 Turardim qoshida lol qotib bisyor,  
Uning ruxsorida rang edi uch xil,  
Yuzin old tomoni – qirmizi uzor.
- 40 Ikki yon tomonda – ranglar muttasil  
Chaplashib, ayqashib ketgandi paqqos,  
Qo‘rqinch bir shamoyil etgandi hosil.
- 43 Azozil o‘ng yuzi oq sariqqa mos,  
Chap yuzi bo‘lsa-chi, ahli Nil misol  
Qoramtil tusdaydi – habashlarga xos.
- 46 Ikkala kiftida qanotlar yaqqol,  
Bahaybat edilar jismi singari,  
Kemalarda bundoq yelkan yo‘q, alhol.

- 49 Ko‘rshopalak misol – yo‘q patu pari,  
Sirpab va qayirib ulkan qanotin  
Uch taraf taratar shamol sarsari.
- 52 Bahri Kotsitni u muzlatar botin,  
Oltovlon ko‘zidan oqib yotar yosh,  
Uchchovlon og‘zidan-chi, qonli suv betin, –
- 55 Har bir uch tomondan kelishib yondosh,  
Har bitta mahkumga borib yetardi, –  
Bu yerda uch mahkum – bardoshi odosh.
- 58 Oldingi mahkumning bul edi dardi:  
Yelka kuragiga solgancha tirnoq,  
Terisini shilib, tirnab yotardi.
- 61 Ustoz dediki: “ Ro‘baro‘ga boq,  
Iuda Iskarot – azobi battar,  
Boshi muz ichida, tepada oyoq.
- 63 Manavi Brutga tashlagin nazar,  
Azozil og‘zidan chiqqan kallasi,  
Lablari qapishgan, guvranib yotar.
- 67 Ro‘baro‘da Kassiy – norg‘ul gavdasi.  
Yo‘lga otlanaylik, cho‘kmakdadir tun,  
Ko‘rding ne ba imkon – shuldir hammasi”.
- 70 Amr etdi – ustozni quchdim, inchunun,

Azozil qanoti yoyilgan zahot –  
Payt poylab, yondashdi yo‘lboshchim o‘qtin.

73 Maxluqning to‘shiga chang soldi azot –  
Va uning mo‘yidan tutamlab qur-qur  
Qumoq muzlar aro yo‘l soldi ul zot.

76 Tushdik osilgancha beliga dovur,  
Yarim tanasiga yetgach nihoyat,  
Yo‘lboshchim yostandi, halloslab, bazo‘r.

79 Bosh burib oyog‘i tomon sershiddat –  
Tepaga tirmashib ketdi bu bora,  
O‘ylabman, orqaga qaytdik deb, g‘alat.

82 Toliqqan odamday ustoz bechora  
Hansirab dediki, “ Ushlagil mahkam,  
Chiqarmiz tomug‘dan ushbu yo‘l ora”.

85 Qoya tirkishidan o‘tib u bardam,  
Bir chetga o‘tqizdi meni avvalo,  
So‘ng chiqdi qoyaning ustiga shaxdam.

88 Men bo‘lsam, Iblisga boqib shu asno,  
O‘ylardim, qoshidan chiqoldim qandoq.  
Holati teskari – u nechuk balo.

91 Dilimga qanchalar tushganin titroq,  
Men o‘tgan sarhadning bayonin topqur –  
Fahm etmagan zorlar aytsinlar ko‘proq.

- 94 Ustozim dediki: ” Qo‘zg‘al, endi yur,  
Mushkul, mashaqqatli yo‘llar kutar gal.  
Ikki soat bo‘ldi – oftob sochar nur”.
- 97 Qasrda emasdik ikkov u mahal,  
Tagi o‘nqir-cho‘nqir erto‘la-tosh tim,  
Miltirab turardi shu’la ham sal-pal.
- 100 Ustozga yuz burdim turgan zahotim:  
“Lutf ayla, ikkovlon toki zulmatda,  
Shubhalar ichra men sahv etmay tokim:
- 103 Muzlik qayda qoldi? Azozil – pastda  
Nechun oyoq cho‘zmish? Oftob samoda  
Qay yo‘sun kunduzga chevrildi shartta?”
- 106 Dedi: “Iblis mo‘yin tutgan yuhoda –  
Olamning nuqtai nizomida shay  
To hanuz turibmiz dersan mabodo?
- 109 Uni sen tubanda ko‘rding yo‘lakay,  
So‘ng esa azoblar yuki mujassam  
Nuqtada yo‘limni burgandim atay.
- 112 Hozir bosh ustingda samo muhtasham,  
Narigi osmonning teskarisi bu,  
Narigi hilqatda Inson mukarram –
- 115 Begunoh hayoti mahv bo‘ldi mangu.

Sen hozir oyog‘ing tirab turgan tosh –  
Judekkining aks, kichik doirasi shu.

- 118 Bunda – oftob, unda – qoraymoqda qosh.  
O‘zing voqif bo‘lgan zot – paxmoq narvon,  
Bu yerga sanchilib qolgan avvalbosh.
- 121 Samodan u qulab tushgan bir zamon.  
Naryoqda avvallar gullagan zamin  
Dengizga aylangan, dahshatga makon.
- 124 Yarim shar biz tomon bo‘lgan ost-ustun.  
Zamin chiqqan balki turtib tog‘sifat,  
Oraliq Bo‘shliqda qolgan u lokin”.
- 127 Velzuveldan nari bir joy bor, qat-qat –  
Dahmalar devori cho‘zilgan yiroq.  
Tubandan otilgan jilg‘aning faqat –
- 130 Guvlashidan uni anglaysan ko‘proq.  
Toshlar orasidan chiqqan suv qaynab  
Pastlikka taralar. Biz esa shu choq
- 133 Mavhum va belgisiz yo‘ldan shaxt aylab –  
Charog‘on dunyoga keldik ikkovlon.  
Endi intilardik yuksakka qarab,
- 136 Ustozga ergashib borardim hamon.  
Ketdik, shu'lalarga tushguncha to ko‘z,  
Chashmim yoritguncha nurafshon osmon.

139 Va yana namoyon bo‘lgandi yulduz.<sup>43</sup>

## A’ROF

### Beshinchı qo‘shiq

Mo‘min musofirdek ustoz ortidan  
Borardim tark etib arvoхlar safin,  
Biri meni ko‘rib qichqirdi birdan:

- 4 “Qarang, pastdagining so‘l, yon tarafin,  
Uning vujudidan nur o‘tmas manba’d.  
Baayni tirikdek tutar jussasin!”
- 7 Uning so‘zlariga burdimu diqqat;  
Qayrildim, arvoхlar turardi hayron  
Nur to‘sган tanimga boqib serhayrat.
- 10 Ustozim lutf etdi: “Nahot olomon  
Tursa yuragingga g‘ulg‘ula solib  
Ularga parvo qilma hech qachon.
- 13 Yurgil,o‘zlaricha vaysasin qolib  
Asriy, to‘fonlarga boqqan bepisand  
Sobit minoradek turaber qolib.
- 16 Inson o‘z ahdiga berar doim pand;  
Har zumda o‘zgarar undagi fikr,  
Biri rivoj topsa – ko‘hnasi parkand”.

---

<sup>43</sup> “... YULduz” – Dante asarining har bir bo‘limi shu so‘z bilan tugallanadi.

- 19 Ne vaj ko‘rsatardim demoqqa uzr?  
“Hozirman”, dedim men tortib xijolat,  
His etib, ustozim tutganin ma’zur.
- 22 Yuksak qiyalikda atsyni shu fursat,  
Arvoхlar to‘dasi bo‘ldi namoyon.  
“Miserere” duosin aylab tilovat.
- 25 Mening hayotligim payqagach ayon  
Ularning qo‘shig‘i hasrat to‘la “oh”  
Bo‘g‘iq, cho‘ziq sasga aylandi shu on.
- 28 Ulardan vakildek ikkita arvoh  
Kimsiz deb yugurdi biz tomon atay,  
Nechuk keldingiz deb yon banogoh.  
Ustozim dediki: “Javobimiz shay,  
Toki qolganlarga beringiz xabar,  
Hamrohim tirikdir, men sizga atay.
- 34 Uning ko‘lankasi cho‘chitsa agar,  
Juda ham jo‘n erur buni sharh etmoq:  
Iltifot qilsangiz u madad aylar”.
- 37 Ko‘kda yulduz ko‘chsa yo chaqsa chaqmoq,  
Yoyniki kechki yoz bulut karvoni  
Bunday yugurganin ko‘rmovdim mutloq.
- 40 Teppaga chopishdi o‘sha zamoni;  
Misoli yo‘rtishdi bir dasta askar

Yoprildi qaytadan to‘polomoni.

- 43 Shoirim so‘z qotdi: “To‘dani battar  
Bu yonga qismoqda xaloyiq saf-saf.  
Tinglab yurgin, sendan madad tilashar”.
- 46 Ortdan qichqirdilar: “Ruhing bomatlab  
Ma’voga oshiqar, tirik mutlaqo;  
Qadaming sekinlat, tirik mutlaqo;
- 49 Nazar sol, tanirsan bizni mabodo,  
Mujda ham eltarsan zaminga balki?  
Bunchalik shoshmagil, tingla bizni, o!
- 52 Biz ajal topganmiz shamshirdan balki,  
So‘nggi fursatgacha edik gunohkor.  
Ko‘k nurga to‘lganda shulki,
- 55 Tavba ayladik biz necha-necha bor.  
Ajalga bosh egdik imon birla but;  
Endi visol tilab chekarmiz oh-zor”.
- 58 Dedim: “ Tanimasman Sizni bovujud,  
Lekin, ayting, nedur Sizlarning istak?  
Hol qudrat, aylasam ruhingiz mas’ud.
- 61 Xilqatdan xilqatga olib o‘tajak  
Yo‘lboshchi hodiyning haqqi-hurmati,  
Sizning xizmat uchun tayyorman beshak”.  
Biri dedi: “Yo‘qdir ont zarurati!

Ezgu tilagingga qilurmiz bovar,  
Ado etsang – shul eng qimmati.

- 67 Madad so‘rab, ilk men so‘z boshlasam gar,  
Karl mulki bilan Romanya aro  
Fanoga qadaming qo‘yganing paytlar,
- 70 Meni yodga olgil, shuldir muddao;  
Gunohdan mutlaq pok bo‘lmog‘im uchun  
Mening haqqimga ham etsinlar duo.
- 73 Fanolikman, ammo umrimga yakun  
So‘nggi jarohatni bergen o‘zga er  
Antenorlar unda hokimdir bu kun.
- 76 Yomonlik tilagan emasdim hech bir;  
Estening dilida kin va adovat  
Adolatdan ko‘ra kelgandi kibir.
- 79 Oryakodan qurshov bo‘lganim fursat,  
Qochib qolsaydim gar Mira tomonga.  
Tirik yurar edim Siz kabi albat.
- 82 Yiqildim qamishzor, botqoq makonga,  
Ko‘rdim, balchiqzor u atrof tevarak  
To‘ldi tomirimdan otilgan qonga”.
- 85 Boshqasi so‘z boshlab dedi: “Ul yuksak  
Cho‘qqida kushoyish topganda orzu  
Meni ham yodingga olursan andak.

- 88 Montefeltro grafi Bonkonte – men bu,  
Meni unutmishlar, hatto rafiqam,  
Jovanni eslamas, nigh holim shu”.
- 91 Dedim: “Bir hodisa men uchun mubham,  
Kampaldinodan sen bo‘lgansan g‘oyib,  
Go‘yoki noma‘lum sening qabring ham?”
- 94 Oh chekib dedi u: “Arkyano oqib  
Kamaldoli bo‘ylab tushdi tuban,  
Kazenten bandlarini yuvadi toshib.  
O‘zgarar daryoning nomi shu bilan.  
U yerda bo‘g‘zimdan yedim jarohat.  
Keldim yakka-yolg‘iz, qonga belangan.
- 100 Mariya mulkiga yetganim fursat  
Ko‘zimdan nur so‘ndi, til qotgan, bejon.  
Singdim sho‘r yerda zaminga abad.
- 103 Yetkaz odamlarga: meni so‘nggi on  
Jannat farishtasi olib ketgandi.  
Do‘zax posboni-chi, chars, yoqavayron
- 106 Meni talab aylab g‘avg‘o etgandi.  
Degandi: “Ruhini olding egallab,  
Vujudini o‘zim yetgayman bandi”.
- 109 Voqifsan, ko‘kka bug‘ uchgach havolab,

Sovub, qayta boshdan yoqquncha to  
Osmonda kezardi to‘zg‘ib, burqirab.

112 Yovuz irodayu aql bo‘lgan jo  
Iblis zakovatin ishga soldi xo‘b.  
Zaminda boshladi to‘fonli g‘avg‘o.

115 Ayni zavol chog‘i, g‘azabga to‘lib  
Pratomanodan tizmaga qadar  
Vohani tumanga chulg‘adi borho.

118 Osmonda rutubat taraldi battar,  
Jala quyib berdi, ooshib nishab-qir.  
Ayqirib oqdi suv. Behuda, besar,

121 Voha yuzasini to‘ldirib oxir  
Daryoga yetguncha soldi to‘polon.  
Ayqash-uyqash qildi har yonni tag‘ir.

124 Sohilda tashlandiq bir ashyosimon  
Murdamni Arnoga eltdi Arkyano.  
Ochiq ko‘zlarimni yumgan so‘nggi on.

127 Qo‘lim ko‘ksimdaydi – xoch kabi go‘yo.  
U ham yozilgandi, bo‘tana nahr  
Qa’riga tosh kabi etdi meni jo”.  
Uchinchi arvoh ham dedi besabr:  
“Tiriklik mulkiga borganda tokim,  
Unut bo‘lgandan so‘ng mashaqqat, jabr

133 Meni ham xotirla, Piyadir otim.

Senada hayot, Maremmeda, oh,

Nikohdan o‘tdim-u, ajalim topdim.

136 Menga uylangan zot baridan ogoh”.

## IZOHLAR

### To‘rtinchi qo‘shiq

1. *Dilimiz mulkining biror chekkasin* – ya’ni eshitish a’zomiz yoki ko‘zimiz.
- 25-26. *San-Leo, Noli, Bismantov* – Italiyaning borish qiyin bo‘lgan tog‘li joylari.
58. *Akvilon* – shimol shamoli. Bu o‘rinda shamol ma’nosida.
69. *Sion* – ya’ni Quddisi sharif.
80. *Buyuk koinotning muqim nuqtasi* – o‘ninchis osmon.
104. *Soyada yotardi bir to‘da odam* – Bular o‘limdan oldingi eng so‘nggi lahzalarigacha tavba tazarru qilishdan eringan odamlar.
123. *Belakva* – florensiyalik, Dante u bilan bo‘lgan va uning gitarada chalgan kuylarini sevardi.

### Beshinchi qo‘shiq

24. “*Miserere*” – (lotincha) – psalom(psaltirdagi diniy qo‘shiqlar yoki oyatlardan biri): “(Menga) rahm-shafqat qil”.
64. *Biri dedi.* – Bu Yakopo del Kassero. 1298 yilda Oryakoda Adzoning malaylari tomonidan o‘ldirilgan.
75. *Antenorlar* – paduanliklar, chunki Paduyaga troyalik Antenor tomonidan asos solingan deb hisoblanadi.
80. *Mira* – Oryako va Paduya o‘rtasidagi shaharcha.
90. *Jovanni* – Buonkontening bevasi.
94. *Arkyano* – Kazentino viloyatidagi daryo, Arnoning irmog‘i.
97. *O‘zgarar daryoning nomi shu bilan* – ya’ni Arkyano Arnoga quyiladigan va o‘z nomini yo‘qotadigan joy.
- 133-136. *Piya dei Tolomei, Senlik, Nello dei Pannokkeskiga turmushga chiqqan va u Maremmedagi qasrlardan birida rashk qilib maxfiy ravishda o‘ldirilgan.*

*(Abdulla Oripov tarjimasi)*

## PETRARKA

Buyuk italyan shoiri Franchesko Petrarka(1304 - 1374)ning ijodi ilk Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Uning ota-onasi Florensiyalik bo'lib, Dante kabi Oq gvelflar partiyasi tarafdorlari bo'lgan va shahardan quvg'in qilinishgan. Aretssso shahrida tug'ilgan Petrarka, huquqshunoslikni Italiya universtetlarida o'rgandi, biroq yurist bo'lib ishlamadi. Antik madaniyat, uning tarixiga qiziqqan bo'lajak shoir, lotin tilini mukammal o'rgandi. U o'z hayotini qadimgi davr olimlari, rimlik shoir va faylasuflarning qo'lyozmalarini tadqiq etishga bag'ishlashga qaror qildi. Kutubxonalarga kirib ishlash imkoniyatini unga ruhoniy rutbasi berar edi. Kardinal Jovanni Kolonni bilan birga Yevropaning ko'plab mamlakatlari va shaharlarida bo'lgan Petrarka, bir necha yil Fransianing janubida yashadi va o'zining sevimli mashg'uloti bilan shug'ullandi. 1342- yili Rimda unga dafna daraxti yaproqlaridan shuhrat chambari taqdim etildi. Bu milliy shoirga bo'lgan yuksak ehtirom edi. 1327 yilning 6 aprelida Avinon shahrida uning hayotidagi muhim voqealardan biri sodir bo'ldi. Bu yerda u ilk bora Laura bilan uchrashdi. Go'zal xonimning qiyofasi bir umrga qalbiga muhrlandi. Shoir unga bag'ishlab ko'plab she'rlar, sonetlar bitdi. Lauraga bag'ishlangan she'rlari ikki qism: "Madonna Lauraning hayoti" va "Madonna Lauraning o'limi" dan iborat bo'lgan, "Qo'shiqlar kitobi"(1358) to'plamida jamlagan.



"Afrika" epik dostoni va buyuk rimliklar hayotiga bag'ishlangan – "Mashhur kishilar haqida" asari Petrarkaning qalamiga mansub. Shoir tiriklik chog'laridayoq Italiya adabiy dunyosining yetakchisiga aylandi.

Biroq Petrarka jahon adabiyoti tarixida avvalo sonetlar muallifi sifatida nom qozondi.

Sonet janri XIII asrda italyan she'riyatida paydo bo'ldi. Dantening Beatrichega bag'ishlangan she'rlari sonet shaklida yozilgan bo'lsada, bu janrni

XIV asrda Petrarka yuqori pog'onaga ko'tardi. Yevropadagi ko'plab mamlakat shoirlari uning an'analarini davom ettirdilar.

Sonet janri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat: sonet o'n to'rt misradan iborat bo'lishi kerak. Ular to'rt bandga bo'linadi: ikkita birinchi va ikkinchi bandlar to'rt qatorli bo'lib, *katrena* deb ataladi, uchinchi va to'rtinchi bandlar uch qatorli *tersetlardan* iborat. Petrarkaning sonetlari aynan shu tarzda qurilgan.

Italyan sonetlarida katalarning birinchi misra uchinchisi bilan qofiyadosh bo'lsa, ikkinchisi to'rtinchi misra bilan qofiyalanadi – *abab abab*, yoki ikkinchi varianti – *abba abba*.

Tersetlarda ham misralar ikki xil ko'rinishda qofiyalanadi: I variant – *cdc dcd*; II variant – *cdc cdc*. Petrarka ko'proq ikkinchi variantdan foydalangan.

Odatda sonet shunday quriladiki, birinchi katalnada bildirilgan fikrga ikkinchi katalnagi mulohaza qarama-qarshi qo'yiladi; sonet mulohazalarni tugallovchi o'y-fikrlar bilan yakunlanadi.

## PETRARKA SONETLARIDAN NAMUNALAR

\*\*\*

O, bu bol takallum, o, qarash qiyg‘och,  
Ko‘rgummi sizni bot, eshitgummi bot?  
Quyida xuniga cho‘mgan Muhabbat,  
Taqdiridan rozi o, bu, sumbul soch!

O, bu, ajib chehra, qahri boshda toj,  
Zormanu ko‘rgani, cho‘chirman, hayhot!  
O, bu ishq choyshabi va’da qilgan tot!  
Yotsam yondiradir, hohlasang-da, qoch!

Navozish va sehru jodu ko‘rsatib,  
Qiyo boqur ahyon-ahyonda bir-bir,  
Ma’no qorishadir bor hayotimga

Va shu on hasad-la olay, deb tortib –  
Shu zarra haqqim bor, fortuna-taqdir  
Beomon g‘animday shoshar oldimga.

(*Shukur Qurbon tarjiması*)

\*\*\*

Chaman undi qiz qarashida,  
Qoq tuyg‘ular tiriklik tuydi,  
Sho‘x kapalak qanoti kuydi,  
Ul nigohning shan otashida.

Kapalakdek asir bo‘ldim men,  
Ma’sum nazar, foje qarashga.  
Muhabbatni suyib tarashda

Kapalakdek basir bo‘ldim men.

Bilamanki, etarkan ta’qib,  
Kul qiladi ul shahlo oftob,  
Eski og‘riq – eng sodiq raqib.

Muhabbatning tuhfasi – sarob,  
Ulfat bo‘lsam – gulchambar taqib,  
Ajal tutar qo‘limga sharob.

\*\*\*

Men aqldan ozaman, agar  
Topolmasam ma’shuqdan nishon,  
Yurak bo‘lur zo‘r ishqqa kuldon,  
Raqibamdan yetmasa xabar.

Kamolidan yetsa bir asar...  
Toza jamol yetkazar qayg‘u,  
Ko‘k yashirgan ma’suma oy u,  
U nurafshon, u durri akbar.

Osmonni tark etgandek xurshid,  
Lablarimdan to‘kilar hayot,  
Tiriklik – bu chirib tushgan chit.

Suyganimdan yetmaydi najot,  
Qirchillama men kabi yigit  
Judo bo‘lar sevgidan, nahot?!

\*\*\*

U jonimda, u jonginamda:  
Jonga qo‘ydim jononimni men,

Jonga o‘ydim yomonimni men,  
Abadiyan u yonginamda.

Qabrim toshi tutgan yozuvda  
Muhabbatim umri aks etar,  
Bo‘m-bo‘sh qalbim oqaru ketar,  
Iztirobim oqizgan suvda.

Hasratimdan o‘yilgan o‘ra  
Tubidaman, ojizman va kar.  
Yaralarim tilgandan ko‘ra,

Koinotda beiz va besar  
Yitgan ruhdan mehrimni so‘ra:  
Ishq shamoli qay sori esar...

\*\*\*

Ozuqda jon, atrofni tani:  
Shu tepada, shunda kecha-kun.  
Duch kelgandi iqboli nigun.  
Bizni tashlab ketdimi, qani?

Endi bunda qolaylik, do‘stim.  
Ko‘rinarmi uzoqlardan yor,  
Yordan boshqa qayg‘ular bekor,  
Do‘st, ustingda ilohiy po‘stin.

Xun yurakka yana so‘z qotding,  
Tushmagandek o‘rtaga hijron,  
Qachonki sen sog‘inchga botding –

Sevding! Seni tark etdi shu on,  
O‘zga qalbda uni uyg‘otding,  
Otdi seni dil qa’ri tomon.

\*\*\*

Go‘zal chehra! Maftunkor nigoh!  
Raso qadda eshilgan g‘urur!  
Kibru shafqat omuxta surur –  
So‘z va shuur soyabon, panoh!

Nurli kulgich yo‘q endi, zotan,  
Jilmayadi mangu uyquda,  
U fanoga borsin osuda,  
Saltanatlar tutsinlar motam.

Jon, qonimda edi har nafas,  
Oramizga tushdi judolik.  
Xatto ajal qilmoqda havas!

So‘zboz emas, kasbim – fidolik:  
Shamollarda sovrilgan so‘z, sas –  
Hajr tuni oqqan qarolik.

\*\*\*

Kurtaklarda shitirlar bahor,  
Yuzlarimga urilar tafti,  
Yuzlarimni silaydi kafti,  
Sho‘r qismatdan yetmoqda ozor.

Quyosh kabi issiq qiyofa,  
Yuragimning har yarasida,  
Tilla sochlar sharsharasida

Dur, gavharlar tutmish ziyofat.

Mavjlanadi zebo kokillar,  
Oq yelkadan, o, quyiladi!..  
Xotirani o‘rtar u yillar.

Chigal tugun – vaqt uyuladi,  
Momiq qo‘llar sirtmoqni silar...  
Qora sharpa naq tuyuladi.

*(Salim Ashur tarjimasi)*

## BOKKACHCHO

(1313 - 1375)

Jovanni Bokkachcho Parijda, italiyalik badavlat savdogar va fransuz ayoli oilasida tug‘ildi. Bolaligida Italiyaga olib kelingan Bokkachcho oldin savdo maktabida, keyin Neopolitan universitetining huquqshunoslik fakultetida o‘qiganiga qaramay, adabiyot hayotining mazmuniga aylandi. U she’rlar, poemalar, romanlar muallifi bo‘lsa-da, hikoyalari bilan mashhurlikka erishdi. Bokkachcho Florensiya shahrining siyosiy hayotida faol ishtirok etdi, Florensiyaning Romanedagi elchisi bo‘ldi. Dantening “Ilohiy komediya”si ta’sirida “Muhabbat xayollari” poemasini yozib, boqiy baxt-saodat, huzur-halovatga erishish yo‘llarini izlash haqidagi fikr-muloxazalarini bayon qiladi. Adib Petrarka kabi antik davr madaniyatini chuqur o‘rgandi; “Iliada” dostonini asliyatda o‘qish maqsadida qadimgi Yunon tilini o‘rgandi.



Bokkachchoda qiziqrarli voqealarni kiftini keltirib so‘zlab berish qobiliyati bor bo‘lib, o‘z hikoyalari syujetini hayotning o‘zidan topar, qahramonlari turli tabaqa vakillari edi. Italian badiiy prozasi va novella janrining asoschisi bo‘lgan Bokkachcho, novellada hikoya janriga oid turli xususiyatlarni: afsona va rivoyatlar, ertaklar, masallarni birlashtirdi.

Yozuvchi novellalar to‘plami bo‘lgan “Dekameron” (Yunoncha *dekameron* so‘zi o‘n kunlik ma’nosini anglatadi) asari ustida 1352-1354 yillarda ishladi. Kitobning nomi uning kompozitsion qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘n qismdan iborat, har bir qismda o‘ntadan novella berilgan. Ular o‘nta hikoyachi – yetti erkak va uch ayol tomonidan o‘n kun davomida so‘zlab beriladi. Asarning kirish qismida o‘nta yigit va qiz Florensiyada tarqalgan vabo epidemiyasidan qochib, shahar tashqarisidagi bog‘li koshonada to‘planadilar. Ular har kecha navbatma-navbat turli hikoyalarni so‘zlab beradilar. Har kun uchun ma’lum mavzu tanlangan: baxtsiz muhabbat, oqilona javoblar, ayyor odamlar, bevafo xotinlar, muruvvatli va

saxovatli kishilar, inson boshiga tushgan mushkul sinovlar, taqdirning bevafoligi haqida.

Xarakteriga ko‘ra novellalar turlicha bo‘lib, “Dekameron”da sarguzasht novellalar(Landolfo Rufalo haqida – ikkinchi kun, to‘rtinchi novella), novella-latifalar( Cheska haqida – oltinchi kun, sakkizinchi novella), psixologik novellalar(Federigo delya Alberiga – beshinchi kun, to‘qqizinchi novella)ni uchratish mumkin.

Keyingi davrlarda Bokkachcho novellalari syujetlariga ko‘plab yozuvchilar, jumladan, Shekspir, Moler, ispan dramaturgi Lope de Vegalar murojaat qildilar. Rus kompozitori D.Bortnyanskiy Federigo haqidagi syujet asosida “Lochin” operasini yaratdi.

## “DEKAMERON”

novellalar to‘plamidan parchalar

(O‘n kunning yuz qissasi)

Dekameronning  
to‘rtinchi kuni tugab,  
beshinchi kuni boshlanmoqda.

*Fyametta hokimalik qilgan ushbu kunda kitobxon e’tiboriga ko‘p mashaqqatlar va sarson-sargardonliklarni boshlaridan kechirgan oshiq-ma’shuqlarga oxiri baxt kulib boqqani haqidagi hikoyatlar havola etiladi.*

To‘qqizinchi hikoyat

*Federigo deli Alberigi bir xonimga oshiq bo‘lib qoladi, ammo xonim unga qiyoham boqmaydi; yigit o‘z mahbubasi kuyida butun boyligini sovurib, xonavayron bo‘ladiki, bisotida yolg‘iz bir lochini qoladi, oqibat, kunlardan bir kun uyiga o‘sha sevikli mashuqasi mehmon bo‘lib kelganida, uni mehmon qilish uchun hech nima topa olmay, o‘sha lochinni pishirib stolga qo‘yadi; bundan voqif bo‘lgan xonim yigitga bo‘lgan sovuq munosabatini o‘zgartiradi, unga turmushga chiqadi va shuning sharofati bilan u yana badavlat bo‘lib ketadi*

Filomena sukutga toldi, qirolicha esa, hammadan keyin hikoya qilish imtiyoziga ega bo‘lgan Dionso bilan o‘zidan bo‘lak hech kim qolmaganini tushunib, xushchaqchaq chehra bilan gap boshladi:

– Endi qissaxonlik navbatи menga yetdi, shunga ko‘ra men, lobar xonimlar, mammuniyat bilan sizlarga bir qissa aytmoqchimanki, u ayrim jihatlari bilan bundan avvalgi qissaga o‘xshab ketadi, illo, men bu qissani, nainki sizlarning sehr-jodularingiz olijanob yigitlar qalbini rom qilishga naqadar mohir ekanligini

o‘zligingizga tushuntirish uchun, balki ayni paytda, ayrim vaziyatlarda o‘zingiz saxovat ko‘rsatmog‘ingiz lozimligini, binobarin, hamma vaqt ham taqdirga ishonib o‘tiraverishingiz to‘g‘ri emasligini anglab olmog‘ingiz uchun ham bayon qilmoqchiman, zero,taqdir aksariyat paytlarda o‘z tortiqlarini bemulohazalik, befarqlik bilan ulashadi.

Alqissa, ma’lumingiz bo‘lsinkim, bizning shahrimizda Koppodi Borgeze Domeniki ismli izzat-ikromli va g‘oyatda mo‘tabar, barchaning samimiyl hurmatini qozongan va tomirida aslzodalik qoni tepib turgani uchungina emas, balki ko‘proq diyonatli va qalbi pok bo‘lgani uchun odamlarning mudom tasannosiga loyiq bo‘lgan bir zot yashardi, ehtimol u hozir ham hayotdir; ana shul zot keksaygan chohida, o‘z qo‘ni-qo‘shnilari va o‘zga odamlar bilan suhbat qurib o‘tirib, ayniqsa moziyni eslashni xush ko‘rardikim, xotirasi nihoyatda o‘tkir, o‘zi nihoyatda so‘zamol odam bo‘lganligidan, har qanday odamdan ham yaxshiroq va kelishtiribroq hikoya qilardi. U qayta-qayta hikoya qiladigan eng ajoyib qissalardan biri – bu florensiyalik messer Filippo Alberiginining o‘g‘li Federigo ismli yigit haqida bo‘lib, bu yigit Toskana yosh-yalanglari orasida harbiy mahoratda tengi yo‘qligi bilan, shuningdek, o‘z odob-ahloqi bilan ajralib turardi. Alqissa, u aksariyat oliynasab yigitlarga o‘xshab, kunlarning birida monna Jovanna ismli aslzoda bir xonimga oshiq bo‘lib qoladi, o‘sha paytda bu ayol butun Florensiyada eng sohibjamol, eng maftunkor ayollardan biri hisoblanardi. Mana, Federigo bu xonimning sevgisiga musharraf bo‘lmoq uchun poygalar va musobaqalarda qatnasha boshladi, uning sha’niga tomoshalar uyushtirdi, uni sovg‘a-salomlarga ko‘mib tashladi, aqchalarini orqa-o‘ngiga qaramay xarjladı va lekin qanchalik serlatofat bo‘lsa, shunchalik sersaxovat monna Jovanna uni deb qilinayotgan bu ishlarga e’tibor bermas va iltifotkor yigitga parvo ham qilmasdi. Xullas, Federigo garchi o‘zining topish-tutishiga qaramay, butun aqchasini mahbubasi kuyida hech ayamay sovursa ham, hech nimaga erisha olmadi, oqibatda, odatda bunday paytlarda bo‘lganidek, hamyonlari qoqlanib, qashshoqlashib qoldi, uning behisob mol-davlatidan faqat bir parchagina g‘aribona yeri qolgan edikim, endi u mana shu yeridan tushgan arzimas daromad hisobiga

amal-taqal kun kechira boshladi, darvoqe, uning yana bitta lochini ham bo‘lib, jahonda bunga teng keladigan lochin yo‘q edi. Yigit monna Jovannani avvalgi paytdan ham ehtirosiroq seva boshladi, ammo shaharda yashashga va ilgari paytdagidek hayot kechirishga endi uning imkonni yo‘q edi, – mana shu sababga ko‘ra u o‘zining o‘sha g‘aribona mulki joylashgan Kampiga ko‘chib o‘tdi va qush ovlash bilan mashg‘ul bo‘ldi; shunday bo‘lsa ham u hech kimdan ko‘mak so‘ramay, muhtojlikka bardosh berib yashay boshladi. Tasodifni qarangki, Federigo nihoyatda tang ahvolga tushib qolgan shu paytda monna Jovannaning eri xasta bo‘lib qoladi-yu, kuni bitganiga ko‘zi yetib, o‘limi oldidan vasiyatnomaga yozadi. U o‘zining behisob mol-davlatiga, o‘sha paytda hali go‘dak bo‘lgan o‘g‘lini merosxo‘r deb e’lon qiladi, ammo ayni paytda vasiyatnomaga: basharti o‘g‘limning qazosi yetib o‘lib qolsa, o‘z pushtikamarimdan bo‘lgan o‘zga farzandim bo‘lmaganliga tufayli, butun boyligim jonimdan aziz bo‘lgan umr yo‘ldoshim monna Jovanna ixtiyoriga o‘tsin, deb ilova ham qiladi. Monna Jovanna beva qolgach, bizning xonimlar udumi bo‘yicha, har yili yozda o‘g‘lini olib, qishloqdagi o‘z mulkiga jo‘nab ketadigan va butun yoz faslini o‘sha erda o‘tkazadigan bo‘ldi: uning amloki Federigoning mulkiga qo‘shni bo‘lgani sababli, Federigoning qush va itlariga ishqiboz bo‘lib qolgan bola bora-bora Federigo bilan inoqlashib ketdi. U ko‘kda parvoz qilayotgan lochindan hech ko‘zini uza olmas edi, uning Federigoga havasi kelar, ammo uning o‘z lochinini eru ko‘kka ishonmasligini bilganidan, lochingizni menga sovg‘a qiling, deb aytishga tili bormasdi. Mana, kunlarning birida bola kasal bo‘lib qoldi. Ona bundan qattiq tashvish cheka boshladi, – axir onaning yakkayu yagona farzandi, binobarin uning joni-dili, suyangan tog‘i shu bola edi-da, – u o‘g‘lining boshidan bir qadam ham nari ketmas, uning ko‘nglini ochishga urinib, hadeb, ko‘ngling nimani tusayapti, deb surishtirardi, – baholi qudrat, hamma istaklaringni bajo keltiraman, derdi.

Hadeb ona qistroqqa olavergandan keyin, axiri bola yuragini yozdi: “Oyijon! Menga Federigoning lochinini olib bering – olib bersangiz, bir zumda tuzalib ketaman”, – dedi.

Ona o‘yga tolib, mulohaza qila boshladi. Ayol Federigoning ko‘p vaqtgacha uning ishqida yurganini, ammo boyaqish oshiqqa o‘zining qayrilib ham qaramaganini hali ham unutmagan edi. “Qanday qilib uning lochinini so‘rattiraman, lochiningni bolamga ber, deb aytishga qanday tilim boradi? –deb o‘zicha fikr yurita boshladi u . – Aytishlariga qaraganda, bunaqa lochin olamda bittamish; boz ustiga, shu lochini uning kuniga yarab turipti. Bir diyonatli odamning yagona ovunchog‘ini tortib olish noinsoflik bo‘lmasmikin?”. Monna Jovanna o‘z iltimosining rad etilmasligiga qat’iy ishonardi-yu, illo, bunday iltimos bilan murojaat qilishga jur’at eta olmayotgan edi, shunga ko‘ra, o‘g‘liga nima javob qilishini bilmay, boshi gangib lol turardi.

Baribir, axiri onalik mehri ustun chiqdi. Monna Jovanna o‘g‘lini xursand qilmoqchi bo‘ldi va buning oqibati qanday bo‘lishiga qaramay, lochinga odam yuborish niyatidan voz kechib, o‘zi Federigoning oldiga borishga ahd qildi. “Tinchlan, o‘g‘lim! – dedi u. – Ishqilib sen tezroq tuzalib ketsang bo‘lgani, ertagayoq lochinni olib kelishga so‘z beraman”. Bola shunchalik xursand bo‘lib ketdiki, hatto o‘sha kuniyoq ancha yengil tortib qoldi.

Ertasiga ertalab monna Jovanna yoniga dugonasini olib, go‘yo sayr qilib yurganday, Federigoning kulbasi tomon yurib ketdi, uning eshigiga etib borishganda uni chaqirtirdi. O‘sha kuni ob-havo ov qilishga nobop edi; buning ustiga, Federigo shundoq ham bir necha kundan buyon ovga chiqmasdan, tomorqasida yer chopish bilan mashg‘ul edi. U monna Jovanna so‘rayotganini eshitib, bu xushxabardan esini yo‘qotayozdi va yugurbanicha xonimning istiqboliga chiqdi.

Monna Jovanna Federigoni ko‘rishi bilan viqorli iltifot bilan o‘rnidan turdi va Federigoning ehtirom bilan bergen salomiga alik olib bo‘lgach, gapida davom etdi: “Sen meni nihoyatda kuchli harorat bilan sevgan chog‘laringda, dilingni vayron qilib, senga ko‘p ozor bergen edim, endi shu qilmishlarim evaziga tovon to‘lagani keldim qoshingga. To‘lamoqchi bo‘lgan tovonim esa, shundan iborat: men o‘z dugonam bilan bugun senikida bir mehmon bo‘lmoqchiman”.

Federigo ham unga kamsuqumlik bilan shunday javob ayladi: “Xonim, sizning menga biron yomonlik qilganingizni eslolmayman, aksincha: siz men uchun juda ko‘p yaxshiliklar qilgansiz; sizdagi ezgu fazilat shu qadar ulug‘ki, sizni sevmay ilojim yo‘q edi, oqibatda, aynan shu sevgi hissiyoti menga ezgulik baxsh etdi. Gaplarimga ishoning: kulbayi vayronamga qadam ranjidan qilganingizni ko‘rib quvonchdan boshim ko‘kka etdikim, bir vaqtlar sizning ko‘yingizda aqchalarimning hech hisobiga bormay, sarflab, sochish orqali musharraf bo‘lganim – quvonchlardan ham behad yuksakdir bugungi quvonchim, holbuki, shuni eslatish kerak, siz bugun qashshoq odamning uyiga mehmon bo‘lib keldingiz”. Shunday deya u xijolatdan o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay, ayolni uy ichidan bog‘chasiga olib o‘tdi, ammo mehmonning oldida o‘tiradigan hech kimi bo‘lmagani uchun unga shunday so‘zlar bilan yuzlandi: “Xonim! Mening oilam yo‘q, – shunga ko‘ra, siz bilan mana bu saxovatli ayol, xizmatkorimning xotini o‘tirib turadi, men esam, borib dasturxon tuzashni buyuray”.

Federigo o‘zining nihoyatda nochor ahvolda yashayotganiga qaramay, shu paytgacha negadir biror marotaba ham ne boisdan o‘z mol-davlatimni bu qadar beparvolik bilansovurdim-a, deb o‘ylab ham ko‘rmagan edi, faqat mana shu bugun, mehmonning, – bir vaqtlar uning sevgisiga musharraf bo‘lish uchun behisob odamlarga ziyofat bergen e’zozli mehmonining oldiga qo‘yish uchun uyida hech nima topa olmagach, o‘zining qanday mushkul ahvolga tushib qolganini yaqqol tasavvur qildi. Uning judayam ruhi tushib ketdi, o‘zining sho‘rpeshonaligidan nolib, nima qilishga boshi qotib qoldi va uy ichida zir yugura boshladi – uning na aqchasi, na garovga qo‘yish uchun biron buyumi bor edi, vaqt ham bir yerga borib qolgan, va lekin muhtarama xonimni biron nima bilan mehmon qilishni jonu dildan xohlardi, ammo yordam so‘rab biron odamga, hattoki, o‘z xizmatkoriga ham murojaat qilishga iymanardi, mana shu g‘oyatda mushkul paytda uning ko‘zi jonidan aziz ko‘ruvchi lochinga tushdi, – lochin shu erda, – hujrada qo‘ndoqda o‘tirardi. Hech bir iloj topa olmagan Federigo lochinni qo‘ndoqdan olib, uning badanini paypaslab ko‘rdi – lochin xiylagina semiz bo‘lib, bunday nufuzli xonimni ziyofat qilishga yarardi. Federigo ortiq o‘ylab-netib

o‘tarmasdan, lochinning bo‘ynini shartta uzdi va shu zahoti oqsochiga uning patini yulishni, ichlarini tozalashni va sixga tiqib, yaxshilab kabob qilishni buyurdi. Stolga esa, avvalgi dabdabali hayotdan nishona – qordek oppoq dasturxon yozdirdi, so‘ng bog‘chada o‘tirgan xonim qoshiga quvnoq chehra bilan chiqib keldi-da, dasturxon mehmonga muntazir ekanligini aytib, topgan-tayanganimizni baham ko‘rgaysiz, dedi. Xonim bilan uning dugonasi stol tegrasiga o‘tirishib, ularni “oling-oling”, deya mehmon qilayotgan Federigo bilan birgalikda noyob lochinning go‘shtini yeb yubordilaru, ammo nimaning go‘shtini tanovul qilganlarini bilmadilar.

Nihoyat, dasturxon ham yig‘ishtirildi, ovqatdan so‘ng, bir oz vaqt o‘tirishdi, ana shundan keyin, mehmon ayol o‘z tashrifining sababini bayon qilish payti etganini tushunib, Federigoga iltifotli nigoh tashlagancha, shunday deya gap boshladi: “Federigo! Sening o‘tmish hayoting hanuz yodingda bo‘lsa kerak, albatta, shuningdek, mening beg‘arazligimni ham(ehtimolki, sen buni toshbag‘irlik, berahmlik deb o‘ylagandirsan) unutmagandirsan, shunga ko‘ra, aslo shubha qilmaymanki, hozir uyingga qanday sabab bilan kelganimni eshitib, sen albatta mening bu jur’atimdan taajjublanasan. Ammo aminmanki, agarda sening ham bolalaring bo‘lganida, farzandga bo‘lgan mehr nimaligini bilganingda, mening bu jur’atimni qoralamagan bo‘larding. Lekin senda farzand yo‘q, mening esa, o‘g‘lim bor, binobarin, men ham barcha onalarga xos bo‘lgan xislatlarga moyildirman: shunday qilib, men baski, barcha onalar qismatiga sherik ekanman, o‘z ixtiyorimga zid o‘laroq va odob doirasidan chiqishga majbur bo‘lib, sendan, bilishimcha, sen uchun eng aziz bo‘lgan narsani so‘rashga majbur bo‘lyapman, uning sen uchun ne boisdan bunchalik qadrli ekanini yaxshi tushunaman: sening achchiq qismating bu yorug‘ jahonda shundan bo‘lak hech qanday ovunchoq, hech qanday ko‘ngilxushi, hech qanday halovat qoldirmagan senga. Xullas, menga lochingningni tortiq qilishingni o‘tinib so‘rayman: bolam lochingningni shu qadar yaxshi ko‘rib qolibdiki, agar uni olib bormasam, bunga chidolmay o‘lib qolishi mumkin. Shu boisdan, menga bo‘lgan muhabbatingni o‘rtaga qo‘yib emas, zero, u muhabbat seni hech nimaga majbur eta olmaydi, – balki, sening hozirgi

sahovatingda namoyon bo‘lgan olijanob qalbing himmatiga iltijo qilib, aytaman: xudo xayringni bersin – lochininingni menga hadya et, shu ezgu ishing bilan o‘g‘limning dardini aritasan, o‘zim bo‘lsa to o‘la-o‘lgunimcha haqqingga duo qilib o‘taman”.

Federigo mehmonning iltimosini tinglab, unga nafi tegolmasligini angladi(zero, lochin hazm bo‘lib ketgan edi) va javob berish o‘rniga yig‘lab yubordi. Mehmon xonim esa, Federigo lochinini ko‘zi qiymayapganidan yig‘layotgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi va lochinining o‘zingga buyursin, deb aytishga og‘iz juftlagan edi, ammo keyin yana Federigoning yig‘idan to‘xtab, beradigan javobini kutishni ma’qul ko‘rdi, Federigo ham yig‘idan to‘xtab, shunday dedi: “Xonim! Xudoning irodasi bilan butun ishqiy armonlarimni sizga qaratgan paytimdan buyon, iqbolim hech kulmadi-kulmadi va mudom o‘z badbaxtligimdan nola qilib keldim, ammo shum toleimning shu choqqacha menga bergen jamiki zarbalari – bugungi zarbasi oldida pashsha chaqqanchalik ham alamlı emasdir – bugundan e’tiboran to o‘la-o‘lgunimcha, sizning g‘aribona kulbamga qilgan bugungi tashrifyingiz(holbuki, badavlat hayot kechirgan paytlarimda menga qayrilib ham qaramagan edingiz), mendan arzimagan narsa so‘raganingiz va men, falakning taqozosi bilan iltimosingizni ado etishdan bosh tortishga majbur bo‘lganim yodimga tushishi hamonoq o‘z badbaxt qismatimdan to abad zorlanaveraman; nega bosh tortishga majbur bo‘lyapman – men buning sababini hozir sizga qisqa qilib tushuntirib beraman. Sizni muruvvat aylab mening kulbamda mehmon bo‘lishga ixtiyor qilganingizni bilganim zahoti men sizning jamoa orasidagi mavqeingizni va xuddi shuningdek, beedad fazilatlaringizni e’tirof etgan holda, sizni hammaga ham muyassar bo‘lavermaydigan g‘oyatda noyob taom birla mehmon qilishni o‘zim uchun ham farz, ham qarz deb bildim. Shunda, siz iltimos qilayotgan lochin esimga tushdi, uning go‘shti ta’mini o‘zimcha tasavvur qilib ko‘rdim-da, bunday taom bilan sizdek zorni mehmon qilsa uyat bo‘lmaydi, deb o‘yladim va ul qushni bundan ulug‘vorroq ishga ishlata olmasligimni tushunib, uni qo‘rda pishirib dasturxonga qo‘yishni buyurdim. Endi bilsam, lochin sizga tirik holda kerak ekan, oqibat, sizga yaxshilik qila

olmaganimdan o‘zimni shu qadar gunohkor his qilyapman, shu darajada behud bo‘lyapmanki, endi to o‘la-o‘lgunimcha o‘zimni kechirmayman”.

Shundan keyin u o‘z aytganlarini isboti o‘laroq xonimning oyoqlari tagiga lochinning patlari, panjalari va tumshug‘ini to‘kishni buyurdi. Mehmon xonim bularni ko‘rib va bo‘lgan voqeani eshitib, bittagina ayolni mehmon qilaman, deb shunday ajoyib lochinni so‘ygani uchun Federigoni koyidi, va lekin hattoki, qashshoqlik ham g‘ov bo‘la olmagan uning vallomatligini botinan yuksak qadrladi. U izzat-ikrom bilan kutib olib, mehmon qilgani uchun Federigoga minnatdorchilik bildirib, uyiga endi lochinsiz qaytishidan va ehtimolki, bundan o‘g‘lining dardi og‘irlashishidan g‘am chekib, uy sohibi bilan xo‘splashdi-da, uyiga, o‘g‘li qoshiga qaytib bordi, – o‘g‘li esa, yo endi lochini bo‘lmasligidan iztirob chekkani tufayli, yoxud bedavo dardga chalinganligi sababli oradan bir necha kun o‘tgach, onasining yuragini vayron qilib, olamdan o‘tdi.

Monna Jovanna o‘g‘lining kuyida uzoq vaqt ko‘z yosh qilib, aza tutib yurdi, lekin uning og‘a-inilari, shunday davlatmand va hali yosh juvonning umrini bevalikda o‘tkazishi yaxshi emas, degan mulohazaga borishib, uni ikkinchi marta turmush qurishga qo‘yarda-qo‘ymay unday boshladilar. Ayolning bunga xohishi yo‘q edi, ammo og‘alari uni hech tinch qo‘yishavermagach, xayoliga Federigo keldi, u chindanam juda ajoyib va qalbi pok inson edi, – axir o‘shanda u meni mehmon qilish uchungina shunday bebaho lochinining ham bahridan kechgan edi-ya, – deb ko‘nglidan o‘tkazib, og‘alariga bunday dedi: “Agarda meni bunchalik qistroqqa olmaganingizda, umrimni bevalikda o‘tkazishni afzal ko‘rgan bo‘lardim, baski, sizlar meni erga tegishimni judayam xohlar ekansizlar, unda, men Federigo deli Alberigidan bo‘lak hech kimga turmushga chiqmayman”.

Og‘alari uni mazax qilib kulishdi: “Tentak! – deyishdi ular. – Nimalar deyapsan o‘zi? Axir uning sariq chaqasi ham yo‘q-ku!”.

Ayol esa ularga bunday javob qildi: “Buni, men og‘ajonlar, sizlardan yaxshi bilaman, ammo mening tushunishimcha, erkakka muhtoj aqchadan, aqchaga muhtoj erkak afzal”.

Ayolning og‘alari Federigoni garchi miskin bo‘lsa ham diyonatli kishi ekanligini bilishardi, shunga ko‘ra singillarining istagiga to‘sinqinlik qilmay, ularning boshini qo‘shib qo‘ydilar. Federigo xotini uchun behisob sep oldi. Shunday qilib u o‘zi sevgan ayolga uylanib, shu ayol tufayli yana boy-badavlat kishiga aylanibdi, serg‘ayrat sohib bo‘lib, o‘z mahbubasi bilan saodatli umr kechiribdi.

Dekameronning  
beshinchи kuni tugab,  
oltinchи kuni boshlanmoqda.

*Elissa hokimalik qilgan ushbu kunda kitobxon e’tiboriga, birovlar mutoyibasidan qattiq ranjigan odamlarning dilozorlardan xuddi shu yo‘sinda o‘ch olgani yoinki hozirjavoblik va topqirlik bilan javob qaytarib, judolikka, xavf-xatarga va badnomlikka barham bergani haqidagi hikoyatlar havola etiladi.*

To‘qqizinchи hikoyat

*Gvido Kavalkanti, uni mot qilishga uringan florensiyalik aslzodalarni pardalangan beozor hazil so‘z bilan haqoratlaydi.*

– Qirolicha, Emiliyaning o‘z burchini o‘tab bo‘lganini va oxirgi bo‘lib hikoya qilish huquqini olgan odamni istisno qilganda, o‘zidan boshqa hamma gapirib bo‘lganini ko‘rib, shunday hikoya qilishga kirishdi:

Maftunkor xonimlar! Bugun siz hikoya qilgan qissalardan, yo‘q deganda, ikkitasini men sizlarga so‘zlab bermoqchi edim, lekin bisotimda yana bitta asrab qo‘ygan qissam bor, uning nihoyasida aytilgan so‘zlar g‘oyatda teran ma’noliki, men hali hech qachon bunday bama’ni gapni eshitmaganman.

Alqissa, sizlar bilishingiz kerak, bir zamonlar bizning shahrimiz o‘zining juda ajoyib va tahsinga loyiq rasm-tamoyillari bilan dovrug‘ qozongan edi, lekin o‘sha ibratlι taomillardan birontasi ham hozir saqlanib qolmagan, bunga sabab pulga ruju

qo‘yishdan bo‘lak narsa emasdirkim, odamlar boyigan sari, bu illat ham tobora rivoj topa boshladи va oqibat eski urf-odatlarga butkul zavol etkazdi. O‘sha rasm-tamoyillar orasida shahrimizda “gap yeyish”ga o‘xhash bir odat bor edi: bir-birlariga qo‘shni bo‘lib yashovchi aslzoda florensiyaliklar hamjihat bo‘lishib, jamoa tuzishar, bu jamoaga ma’lum miqdorda odam a’zo qilinib olinardi, a’zo bo‘lganlar jamoa uchun aqchasini ayamaydigan kishilar bo‘lishi va joriy qilingan nizomga binoan, bugun bittasi, ertaga ikkinchisi, xullas, hamma a’zolar navbatma-navbat o‘zлари uchun tayinlangan kunda – butun jamoa a’zolari o‘z uylariga ziyofatga taklif qilishi shart edi, shu bilan birga, ular aksari paytlarda xorijiy aslzodalarni, shuningdek, boshqa shaharlik kishilarni ham ziyofatga taklif etardilar. Bundan tashqari, jamoa a’zolarining barchasi yilda bir marta bir xilda yasanib kiyinishar, ulug‘ ayyom kunlarida, shahar ko‘chalarida birgalikda otta sayr qilishar, vaqtı-vaqtı bilan, asosan katta hayit paytlarida yoki g‘alabadan yoinki shunga o‘xhash biron voqeadan darak beruvchi xushxabarlar olingan paytlarda poyga musobaqasi uyushtirardilar. Shunday jamoalardan biri messer Betto Brunellesking jamoasi bo‘lib, uning o‘zi ham jamoa a’zolari ham, Kavalkante de Kavalkantening o‘g‘li Gvidoni o‘z davralariga jalb qilishga urinib yotardilar, illo, ularning bu urinislari bejiz emas edi: Gvido juda o‘tkir mantiqdon va mashhur tabiat faylasufi edi, lekin uning aynan shu xislatlarini jamoa a’zolari unchalik qadrlamasdilar, – bil’aks, Gvidoning dilbar yigit ekanligi, so‘zamol, dayonatli ekanligi ularni o‘ziga rom qilgan edi, u qay ishga qo‘l urmasin, – vale u faqat diyonatli odamga xos ishlargagina qo‘l urardi, – hamma ishni ham a’lo darajada bajarardi; bunga ilova o‘laroq, u benihoya davlatmand edi, o‘zi uchun hurmatli bo‘lgan odamlarni u shunday e’zozlardiki, buni ta’riflashga til ojizlik qiladi. Shunga qaramay, messer Betto baribir o‘z niyatiga yeta olmadi; yetolmaganining boisi, uning o‘z shaxsiy fikri va shuningdek, sheriklarining fikricha, Gvidoning o‘z hayollariga g‘arq bo‘lib yolg‘iz yurishni yaxshi ko‘rgani, ya’ni odamovi bo‘lib yurishi edi. Gvido ma’lum darajada epikurchilar muxlisi bo‘lgani tufayli, avom xalq uning odamoviligi haqidi, paqqos xudoning yo‘qligini isbot qilish ustida fikr yuritsa kerak bu odam, deb o‘ylardi.

Kunlardan bir kun u Karso deli Adimaridagi Orto San Mikeledan chiqib, San Jovanni tomonga qarab yo‘l oldi, – u mudom shu yo‘ldan yurardi, – o‘sha mahallarda San Jovanni atrofida marmardan tiklangan mahobatli va boshqa har xil dahmalar juda ko‘p bo‘lardi, – endi bo‘lsa, ular Santa Reparataga joylashgan, – xullas, bu erda porfir ustunlar ham, o‘sha dahmalar ham, San Jovannining berk eshiklari ham muhayyo edi, shu payt Santa Reparata maydonidan messer Betto o‘z oshnalari bilan ot ustida o‘tib keta boshladilar; ular dahmalar orasida aylanib yurgan Gvidoni ko‘rib qolishib, bir-birlariga shunday dedilar: “Kelinglar, bir jig‘iga tegamiz!”. Gvido atrofidagi voqealardan g‘ofil bo‘lib, ketib borardi, otliqlar esa, otlarini jadallatib, uni naq bosib olmoqchi bo‘lganday tepasiga ot qo‘yib borib, unga yetganda otlarini to‘xtatdilar va gap qotdilar: “Gvido! Sen biz bilan ulfatchilik qilishdan yolg‘izlikni afzal etgan taqdiringdi ham undan senga nima naf tegadi?”.

Gvido o‘zining chor atrofdan qurshab olinganini ko‘rib, shartta: “Sin’orlar! Siz o‘z uyingizda menga har qanday gapni aytishga haqingiz bor”, – dedi-yu, qo‘lini shu yerdagi dahma boshiga qo‘yib, garchi u xiyla baland bo‘lsa ham, ustidan misoli qushday yengil sakrab, narigi tomonga tushdi va hamsuhbatlari yetolmaydigan yerga o‘tib olgach, o‘z yo‘lida ketaverdi.

Otliqlar avvaliga hayron bo‘lishib bir-birlariga qarashdi, keyin, Gvido esidan og‘ib qolgan bo‘lsa kerak, – uning bu gapida hech qanday ma’ni yo‘q, deb gapira boshlashdi; zero, hozir ular turgan yer na ularga va na biron-bir shaharlikka qarashli edi, – qaytaga bu erga Gvido ko‘proq da’vo qilishi mumkin, deb aytishdi. Va lekin messer Betto ularga bunday dedi: “Baski, Gvido aytgan gaplarning ma’nisiga tushunmabsiz, o‘zingiz esingizdan oqqansizlar: axir u ikki og‘iz so‘z bilan nazokatli iboralarda bizni nihoyatda qattiq tahqirladi-ku. U aytgan so‘zlarning mag‘izini chaqing, o‘shanda hamma gapga tushunasiz: mana bu dahmalar o‘liklarning uylari, zero bu yerga o‘liklar jasadi qo‘yiladi va ular shu dahmalarda yotadi; Gvido esa, bizni, boshqa barcha nodon va notavonlar singari, unga va ahli ma’rifatga nisbatan– o‘likdan ham beshbattar deb hisoblab, ushbu

dahmalarni bizning uyimiz ekanligiga shama qildi, demoqchiki, biz bu yerda o‘z uyimizdamiz”.

Gvidoning nima demoqchi bo‘lganini nihoyat tushungan hamrohlar bu gapdan qiattiq xijolat tortishibdi va o‘shandan keyin Gvidoga hech tegajaklik qilmaydigan bo‘lishibdi, messer Bettoni esa, ular farosatli va idrokli odam deb e’tirof etgan ekanlar.

*(Qodir Mirmuhamedov tarjimasi)*

## FRANSUA RABLE

(1494-1553)

“Gargantuya va Pantagryuel”ning muallifi Fransua Rable uyg‘onish davridagi eng yirik fransuz yozuvchilaridan biridir.



Fransuz gumanizmining yirik namoyondasi bo‘lgan yozuvchi Shinonda tavallud topgan. Yoshlik yillarida monastirda diniy bilimlar bilan bir qatorda qadimi yozuvlar va xuquqqa oid risolalarni o‘rgandi. Ma’lum bo‘lмаган sababga ko‘ra, monastirdan ketib, meditsinani o‘ргана boshlagan va 1532-yili Lion gospitalining vrachi lavozimida ishlay boshlagan.

Parij episkopi, kardinal Jan dyu Belle, qirol Fransisk I qo‘lida xizmat qilgan va 1553-yili Parijda vafot etgan.

Fransua Rable tibbiyat, huquqshunoslik, arxeologiyaga oid bir qator ilmiy asarlar muallifi. Yozuvchi sifatida “Gargantuya va Pantagryuel” romani bilan shuhrat qozondi. Romanni yozishga 1532-yili Lionda chop etilgan “Gargantuening buyuk va beba ho xronikasi” nomli xalq kitobi turtki bo‘ldi.

Shu yili Rablening “Buyuk dev Gargantuening o‘g‘li, dipsodlar qiroli shavkatli Pantagryuelning dahshatli ishlari va qahramonliklari” kitobi yozildi.

Yozuvchi xalq kitobidagi sxemani saqlab qolib, undan ko‘plab obrazlar va syujet motivlarini oldi. Shu bilan birgalikda epopeyaga Pantagryuelning do‘sti va hamrohi Panurg obrazini olib kirdi.

1534-yili yozuvchi o‘zining “Pantagryuelning otasi buyuk Gargantuening dahshatli hayoti” nomli asarini e’lon qildi. Roman epopeyaning birinchi kitobi sifatida yozilgan bo‘lib, yozuvchi manbadan ba’zi motivlarini (Gargantuya va uning ota-onasining bahaybatligini, uning ulkan otta yurishini, Notr-Dam ibodatxonasidan qo‘ng‘iroqlarni o‘g‘irlashini) ishlatgan xolda, asosan o‘z ijodiy fantaziyasiga tayandi.

Asarda eski tarbiya usullari tanqid qilinadi va unga gumanistik pedagogika qarama-qarshi qo‘yiladi. O‘g‘irlangan qo‘ng‘iroqlarni qaytarib berishni so‘rab nutq so‘zlagan magistr Ianotus de Bragmardonning nutqi – “sarbonnachilar”ning

balandparvoz ritorikasiga parodiyadir. Shundan so‘ng Pikrokolning bosqinchilik rejalar – feodallar, qirollar va feodallar urushlari tanqid qilinadi, satira ostiga olinadi. Urush fonida jismoniy va ma’naviy sog‘lomlik, hayotga ishonch ramzi sifatida ruhoniy monax Jan og‘a paydo bo‘ladi. Roman Janning rejasi asosida barpo etilgan Telem abbatligining ochilishi bilan yakunlanadi. Bu erga odil va oqil, madaniyatli, ozod shaxslar to‘planadilar.

“Pantagryuelning qahramonona hayoti haqidagi 3-kitob” 1546-yili paydo bo‘ldi. U oldingi kitoblardan anchayin farq qiladi, chunki bu paytga kelib qiro Fransisk I ning siyosati o‘zgargan edi. Reaksiya g‘alaba qozondi. Erkin fikrlovchilar va kalvinistlar ta’qib ostiga olingan edilar. Kitobda Pantagryuel tomonidan zabit etilgan dipsodlar mamlakatidagi tinch, osoyishta hayot ko‘rsatilgan, ya’ni unda zamonaning bosqinchilik siyosatiga antitezani ko‘rish mumkin. Shundan keyin o‘z mulklerida uch yillik daromadni ikki hafta ichida sarf qilib yuborgan Panurgning sarguzashtlari hikoya qilinadi. So‘ngra har qanday voqealarga yakun yasaladi va asosiy o‘ringa botanika, tibbiyot, huquq haqidagi suhbat va mulohazalar chiqadi. Bu suhbat va mulohazalarga Panurgning uylanish yoki uylanmaslik haqidagi ikkilanishlari sabab bo‘ladi. Bu suhbatlar jarayonida Panurg aqli gap ayta olmaydigan turli “faylasuf”lar, barcha masalalarni suyak tashlab xal qiluvchi sudya Bridua bilan uchrashadi.

1548 yili 4-kitob yozilib, to‘rt yildan keyin esa uning kengaytirilgan varianti paydo bo‘ldi.

Romanda Panurgning Xitoyga safari haqida hikoya qilinadi. Yo‘lda sayyoohlar Prokuratsiya (sudboz- sudlashishni yaxshi ko‘rvuchi), Karemperan(katolik ro‘zadorlar), Kolbasa, Papefiglar(papaga fig ko‘rsatuvchilar), Papimanlar(“papa tarafдорлари”), messer Gaster(“oshqozon”) kabi orollarda bo‘ladilar. Kitobda diniy fanatizmni qo‘llab-quvvatlovchi, ya’ni qiro siyosati tanqid ostiga olinadi.

1564-yili, ya’ni Rablening o‘limidan 10 keyin 5- kitob nashr etildi. Roman yozuvchi qo‘lyozmalarini asosida do‘stlari tomonidan nashrga tayyorlangan bo‘lib, unda Panurg sayohatining nihoyaga etishi haqida hikoya qilinadi.

Rable o‘z romani bilan badiiy realizmni yanada kengaytirdi va chuqurlashtirdi, fransuz tilini rivojlantirishga katta xizmat ko‘rsatdi. “Gargantuya va Pantagryuel” fransuz Renessansining eng demokratik asari xisoblanadi. Adibning keyingi davr yozuvchilariga ko‘rsatgan ta’siri beqiyosdir – Moler, Lafonten, Lesaj, Volter, Balzak, A.Frans, R.Rollan uning asarlaridan ilhomlanganlar, ijodiga murojaat qilganlar.

## **“GARGANTYUA VA PANTAGRYUEL”**

### **romanidan parchalar**

Do'stlarim, Suqrotni bilasizmi? Suqrot mashhur Yunon donishmandi bo'lgan. Uni silenga o'xshatganlar. Silen deb esa qadim zamonlarda boy kishilar qimmatbaho buyumlarni solib qo'yadigan qutini ataganlar. Qutining usti har xil narsalarning: shoxli quyon, egarlab qo'yilgan o'rdak, uchmoqchi bo'lib qanotini yozayotgan echkilarning rasmi bilan bezatilgan... Ular shunday qiziqarli qilib ishlanganki, qaragan kishi beixtiyor jilmayadi. Lekin uning ichida qimmatbaho narsalar turgani kishining xayoliga kelmasdi. Holbuki, boylar oltin uzuk, marjon, har xil qimmatbaho toshlarni, yalpix, kardamon(hil – zanjabilgullilar oilasiga mansub o'tsimon o'simlik va uning dorivorsifatida ishlatiladigan urug'i), mushk singari xushbo'y dorivorlarini uning ichida asraganlar.

Suqrotni ana shu silenga o'xshatganlari bejiz emas. U ko'rinishda kulgili beso'naqay bir chol bo'lgan. Burni kartoshkadek, ko'zları xo'kiznikiga o'xshab chaqchaygan, bir ahvolda kiyingan, doim piching qilib yurgan, nuqlul jilmayib o'tirgan. Xullas, bundoq qarasang, tentakning o'zginasi bo'lgan. Tentakdan nima ham kutib bo'lardi. Lekin birinchi qaraganda shunday ko'rindi, haqiqatda esa u olamdagi eng donolar donosi bo'lgan. Hazillashib kulib turib, o'sha vaqtida kishilarning yetti uqlab tushiga kirmaydigan qimmatli gaplarni aytgan. Suqrot, bundan tashqari, hamma vaqt quvnoq, hamma vaqt xotirjam, og'ir tabiatli bo'lgan. Odamlar mashaqqat tortib, dengizlarda suzib, jang qilib qo'lga kiritadigan boylikka u befarq qaragan...

Bunday uzundan-uzoq gaplarning nima keragi bor, dersiz. Shuning uchun gapiramanki, do'stlarim, bu kitobda yozilganlar hazil yoki ertakdan boshqa narsa emas ekan, deb o'ylamang. Kiyimiga qarab odamga baho berib bo'lmasligini o'zingiz yaxshi bilasiz. Hazilnamo yozilgani uchun kitobimni kamsitmang. Ertakka o'xshasa o'xshar, lekin anchagina jiddiy gaplari ham bor, uqib oling.

Axlat orasidan ilikli suyak topgan itni ko'rganmisiz? It suyakni qanchalik saqlab, ehtiyot qilayotganiga, qanday tishlab g'ajib, avaylab shimayotganiga qarang. Nega u shuncha mehnat qiladi? Iflos suyakni topib olib, behudaga

urinadimi it? Yo‘q, behudaga emas, iligini shimiysi u. Ilik juda ham mazali bo‘lishini hamma biladi.

Qadrdon do‘stilarim, sabr-qanoatda, fahm-farosatda sizlarning shu itga qoyil qolishlariningizni istardim: oldin yaxshilab o‘qib ko‘ring, keyin, bo‘sh vaqtingizda kitobimning mag‘zini chaqing.

Xullas, o‘qing, do‘stilarim! Kitobimni o‘qib, maza qilib dam oling. Lekin, jinnivoylar, kitobimni o‘qib chiqqandan keyin meni ham unutmang, hurmat bilan eslab qo‘ying.

## **Birinchi qism**

### **PANTAGRYUELNING OTASI BUYUK GARGANTYUANING AJOYIB BOTIRLIKHLARI**

#### **I bob**

##### **Gargantyuanning tug‘ilishi**

Devqomat Granguze(fransuzcha “katta bir yutum” ma’nosini beradi) juda ham xushchaqchaq va o‘ta xo‘randa odam edi. Omborida tuzlangan va dudlangan go‘shtlar, kolbasalar, ikra va sosiskalar tog‘-tog‘ bo‘lib uyulib yotardi. Yoshi anchalarga borib qolganda u Gargamel( “yutum, qultum” ma’nosini anglatadi) degan xushro‘ygina barvasta qizga uylandi. Bir yildan keyin ular o‘g‘il ko‘rib, otini Gargantuua qo‘ydilar. Shu Gargantuua keyinchalik Parij Bibimaryam ibodatxonasining qo‘ng‘irog‘ini uzib oldi, dahshatlari jangda qiroq Pikrokolni qoyil qilib engdi.

O‘g‘il ko‘rishi sharafiga Granguze katta ziyoft berdi. O‘sha o‘lkalarda hech qachon bunchalik katta ziyoft bo‘lmagan edi. Shunda 367014 ta so‘qimni so‘yib, bahorga tuzlab ham qo‘yishdi. Bunaqa paytda ichak-chavoq mo‘l bo‘lmaydimi – mazasi og‘izda qoladigan qilib rosa qovurishdi. Bularni darhol yeb tugatish kerak bo‘lgani uchun okrugdag‘i hamma yosh-yalanglar taklif qilindi. Ular yeb-ichishni yaxshi ko‘radigan, serzavq, kegli o‘ynashga ishqiboz yoshlar edilar.

Ziyofat juda katta bo'ldi. Shishalar bo'shayverdi, go'shtlar laqqa-laqqa yutilaverdi, stakanlar, qadahlar betinim urishtirib turildi. Yeb-ichishda bir-biridan qolishishmadi, Granguzening o'zi quvonchidan rosa o'n olti bochka, ikki paqir, olti xumchadagi ovqatni yeb qo'yanini sezmadni. Qorni rosa qappaydi!

Ziyofatdan keyin hamma chakalakzorga jo'nadi, u yerda qo'shnay bilan surnayga jo'r bo'lib ashula aytishdi, raqs tushishdi.

O'ymn-kulgi ayni avjiga chaqqanda Granguze o'g'lining chinqirganini eshitib qoldi.

- Chanqadim! Chanqadim! Chanqadim! – deb qichqirdi Granguze.
- Ke gran tyu a? Ovozing o'tkir-ku, o'g'lim! – deb qichqirdi Granguze.
- Kelinglar, chaqaloqqa otasi aytgan birinchi so'z ism bo'la qolsin, unga "Gargantuya" deb ot qo'yamiz, - deyishdi mehmonlar.

Bu ism Granguzega ham juda ma'qul tushdi. Bolani tinchitish uchun unga uzumdan qilingan vino berdi. Keyin cherkovga olib borib, xristian odaticha cho'qintirib ism qo'ydi.

Gargantuya yo'rgakdan chiqqach, unga chiroyli aravacha yasab berishdi. Bu aravachani ho'kizlar tortib yurishar, o'tgan-ketganlar bu bahaybat chaqaloqqa qarab hayron bo'lishardi. Hayron bo'lishganida ham gap bor edi! Gargantuening qat-qat baqbaqasi hammaning diqqatini tortardi. Gargantuya juda kam yig'lar, lekin og'zidan ovqat arimasdi.

Ko'p o'tmay Gargantuaga chiroyli kiyim-bosh tikishdi. Balki qancha mato ketganini bilgingiz kelayotgandir? Anig'ini aytishim mumkin, buni qadimiylar kitoblarda yozib qoldirishgan.

Ko'ylagiga 900 gaz eng yaxshi fransuz gazlamasi, qo'ltiqlarining ostiga 200 gaz xilma-xil laxtak sarflandi. Kurtkasiga 813 gaz oq selon, ishtoniga 1105 gaz oq movut ketdi. Ishtonining pochalarini yo'l-yo'l qilib tikishdi, bu esa bolaning bo'ybastiga, chiroyli oyoqlariga juda yarashib tushdi.

Gargantuening boshmog'iga 406 gaz zangori baxmal sarflandi. Tag charmiga mingta ho'kizning terisi zo'rg'a yetdi. O'sha paytdagi modaga ko'ra boshmoqning uchlarini ingichka qilib tikishdi. Kamzuliga 1800 gaz zangori

baxmal ketdi, bu baxmalning gardiga zarrin yaproqlar tikilgandi. Belbog‘ini 300 yarim gaz shoyidan qilishdi.

Fil terisidan hamyon, baxmaldan shlyapa tiktirishdi. Shlyapaga suv qushlarining patidan qilingan jig‘a qadaldi.

Gargantuaga qo‘lqop tiktirish uchun o‘n olti jinning terisini shilishga to‘g‘ri keldi. Bu teridan qo‘lqopni ham ajoyib qilib tikishdi.

Ko‘rib turibsizki, Gargantuening kiyimlari ikki xil rangda: oq va zangori edi. Bu bilan Granguze o‘g‘lining tug‘ilishi samoviy quvonch ekanini ifodalamoqchi bo‘lgandi. Oq rang quvonchni, baxtni, xursandchilikni ifodalaydi, zangori rang esa samoviylikni. Bu satrlarni o‘qib turib: “Bu chol nimalar deb valdirayapti o‘zi”, deb mendan kularsiz ham. Nega endi oq va zangori ranglar samoviy zavq-shavqni ifodalarkan dersiz. Kulsangiz kulavering. Men sizlarga to‘g‘ri gapni aytyapman.

Qadimgi xalqlarda oq rang xursandchilikni, qora rang esa g‘am-g‘ussa ifodasi bo‘lganini bilasizmi? Qadimgi Yunonlar o‘zlarining baxtiyor kunlarini oq tosh bilan, g‘ussali kunlarini esa qora tosh bilan belgilaganlar. Rim sarkardalari g‘alaba qozonganlarida uyga oq ot qo‘shilgan aravalarda qaytganlar. Oq rang quvonchni ifodalashi shundan ham aniq-ku! Zangori rang qanaqaligini osmonga qarab bilasiz. Ko‘rdingizmi, demak, zangori rang samoviy rang: oq bilan zangori ranglar qo‘silib, samoviy xursandchilikni ifodalaydi.

Gargantuua uch yoshidan besh yoshiga qadar hamma bolalar singari tarbiyalanib o‘sdi. Boshqalarga o‘xshab edi, ichdi, uxladi; uxladi, edi, ichdi; uxladi, ichdi edi.

Yana nimalar qilganini bilgingiz keladimi? Sizning ijozatingiz bilan hozir aytib beraman.

Har kun qumga ag‘anadi.

Burnini loy qildi.

Esnadi, yotdi.

Hamma yerga burnini suqib ko‘rdi.

Yog‘och boshmog‘ini g‘ajib, tishini qayradi.

Sho‘rvaga qo‘lini yuvdi.

Stakan bilan boshini qashidi.

Ikki stul orasida o‘tirdi.

Sovun ko‘pigidan pufak qilib uchirdi.

Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otdi.

Xullas, huzur-halovatda yashadi.

Yana nimalar qildi, deysizmi?

Yalqovlanib yotdi.

O‘z qo‘ltig‘ini qitiqladi.

G‘alvir bilan suv shopirdi.

Uchib o‘tayotgan turnalarni tutdi.

To‘qlikka sho‘xlik qildi.

Go‘sht o‘rniga bolta solib sho‘rva qaynatdi.

Hamma narsaga parvoysi palak edi! Shunaqa!

Chavandozlikni o‘rgansin deb unga katta yog‘och ot sovg‘a qilishdi.

Gargantuya uni minib yogurtirdi, lo‘killatdi. Uni tuyaga, eshakka o‘xshab yurishga majbur qildi. Vaqtı-vaqtı bilan otining tusini ham o‘zgartirib turdi. Otni goh to‘riq, goh jiyyon, goh qashqa, goh chavkar, goh saman rangiga bo‘yab ming xil kuyga soldi.

Hatto to‘nka unga ov oti bo‘ldi, bo‘sh bochkani esa u yoq-bu yoqqa minadigan ot qilib oldi. Bulardan tashqari, uning o‘n ikkita har xil oti, yettita pochta oti ham bor edi, kechasi bularning hammasini karavoti yoniga keltirib qo‘yardi.

Bir kuni Penansak( “to‘rvadagi non”, ya’ni juda xasis va nihoyatda kambag‘al odam) janoblari a’yonlari bilan Gargantualarnikiga mehmon bo‘lib keldi. Xuddi shu kuni gersog de Frantrepa( “tekin taom”, ya’ni tekin tomoq) bilan graf de Muyevan ham kelib qoldi. Rostini aytsam, o‘sha kuni hamma yoqqa odam

tiqilib ketdi. Hatto otxonaga otlar sig‘madi. Penansak janoblarining a’yonlari otlarini joylashtirolmay rosa xunob bo‘ldilar.

- Hovlilaringizda boshqa otxona yo‘qmidi? – deb ular Gargantuadan so‘raganlarida, Gargantuya:

- Bor. Yuringlar, ko‘rsataman, - deb qoldi.

Gargantuya mehmonlarni zinapoyadan chiqarib, zal orqali bosh galereyaga, minoraga olib bordi.

- Bu bola bizlarni laqillatmoqchi shekilli, bolaxonada otxona bo‘larmidi, - dedi otboqar zinadan chiqqa turib.

- Bolkinariga yoqdan pastga tusharmiz, hali, - dedi bosh xizmatkor. – Yaxshisi o‘zidan so‘raylik-chi.

- Yaxshi bola, bizni qayoqqa olib boryapsiz? – deb Gargantuadan so‘radi u.

- Otxonaga, - deb javob qaytardi Gargantuya. – Otlarimning oldiga. Biz yetib qoldik, faqat mana bu zinapoyadan chiqish qoldi.

Shunday deb, u mehmonlarni yog‘och “otlari” turgan xonaga boshlab kirdi.

- Mana otxona, - dedi Gargantuya. – Bu mening ispan zotli ayg‘irim, bunisi venger zotidan, bunisi yo‘rg‘am.

Gargantuya katta bir to‘nkani mehmonlarga tomon surib:

- Mana bu ovga minadigan otim, buni sizlarga sovg‘a qilaman. Frankfurtdan olgandim. Judayam yaxshi ot, maza qilasizlar, - dedi.

- Avliyo Ioan bilan qasam ichaman, boplab ahmoq qildi bu bizlarni, - dedi bosh xizmatkor qotib-qotib kulib.

- Ahmoq bir chaqirim naridan ham bilinadi-da, - dedi Gargantuya.

- Tavba, - dedi bosh xizmatkor, - tili ham zahar ekan. Xudo xayringizni bersin, mahmadona janoblari, gapga ham juda chechan ekansiz.

Shundan keyin ular mehmonlar ovqatlanayotgan zalga tushdilar. U yerda hozir bo‘lib o‘tgan voqeani aytib, hammani rosa kuldirishdi. Mehmonlar shunday kulishdiki, yorilib ketishlariga sal qoldi.

## **Ikkinchı qism**

### **GARGANTYUANING O‘G‘LI PANTAGRYUELNING AJOYIB-G‘AROYIB HAYOTI**

#### **I bob**

##### **Buyuk Pantagryuelning bolaligi**

Endi men sizlarga Gargantuening o‘g‘li – ajoyib Pantagryuel to‘g‘risida hikoya qilib bermoqchiman. Gargantuening xotini devqomat Badebek o‘g‘il tug‘di-yu, o‘zi vafot etdi. Sho‘rlik xafa bo‘lishini ham, xursand bo‘lishini ham bilmasdi.

- Nima qilay? – derdi Gargantuya kuyinnib. – Yig‘laymi? Ha, har qancha yig‘lasam ham g‘ussam ado bo‘lmaydi; mehribon xotinimdan judo bo‘lib qoldim. Evoh, Badebek, jonginam, azizim, jajjiginam(jajjiginaning bo‘yi ikki sarjindan ham ortiqroq edi), g‘amxo‘rginam, mehribonim, sensiz endi nima qilaman? Oh, bechora o‘g‘ilginam Pantagryuel, onajoningdan ayrilib qolding, o‘g‘ilginam!

Gargantuya ho‘kizdek bo‘kirib yig‘layverdi. To‘satdan, Pantagryuel esiga tushdi shekilli, zavqlanib ketib, kulib yubordi:

- Oh, o‘g‘ilginam, - dedi u buzoq ma’ragandek ovozda. – Yoqimtoyginam, qo‘zichog‘im! Chiroyligina, do‘mboqqana, quvnoqqina o‘g‘il bergani uchun xudoga ming qatla shukur! Ha-ha-ha! G‘am-g‘ussalar daf bo‘la qolsin! Ichamiz! Eng yaxshi vinodan olib kelinglar! Stakanlarni yuvib, dasturxon yozinglar, itlarni haydab yuboringlar, kaminlarni yoqinglar! Gadoylarga xayr-ehson qilinglar! Plashimni yechib, kurtkada yayrab bir ovqatlanay! Qani, tezroq vino olib kelinglar!

Pantagryuel esa beshigida menga qachon sut berarkinlar, deb mo‘ltillab yotardi. U har kuni ertalab 4600 sigirdan sut emardi. Pantagryuel onasi yo‘qligi uchun sigirlarni to‘ppa-to‘g‘ri emaverardi. Bir kuni sigirlarni uning oldiga olib keladigan xizmatkor ayollar kechikib qolganda Pantagryuel yo‘rgakdan chiqib, bir sigirga yopishib, yelinini jahl bilan ema boshladi. Sigir qo‘rqib ketib, ma’rab yubordi. Shovqinga odamlar yugurib kelib, uning qo‘lidan sigirni zo‘rg‘a qutqarib olishdi.

Shu voqeadan keyin Gargantuya o‘g‘lini beshikka arqon bilan bog‘lab qo‘yishni buyurdi. Kunlardan bir kun Gargantuuaning ayig‘i zanjirini uzib, bolaning beshigi oldiga kelib, uning yuz-qo‘llarini yalay boshladi. Ayiq behudaga yalamayotgandi, ertalab enagalar Pantagryuelga bo‘tqa berib, uning og‘zini artishni unutgan edilar.

Pantagryuel rosa qo‘rqqandar deb o‘ylarsiz? Hech-da! U jahli chiqib, bir kuchangan edi, bog‘langan arqon shart-shart uzilib ketdi. Pantagryuel ayiqni ushlab, xuddi jo‘janing bo‘ynini uzgandek, burdalab, eti sovumasdanoq yeb qo‘ydi.

Buni ko‘rib, o‘g‘lim bunday zo‘ravonlik qilaversa, o‘zini bir balo qilib qo‘ymasmikin, deb Gargantuani vahm bosdi. Shundan keyin Pantagryuelni beshigiga to‘rtta zanjir bilan yo‘rgaklab qo‘yishdi. Shu zanjirlardan bittasi La-Roshelidagi gavanda, ikki minora orasida hali ham turibdi. Ikkinchchi zanjir Lionda, uchinchisi Anjeroda. To‘rtinchisini esa shaytonlar o‘g‘irlab ketgan ekan. Mishmishlarga qaraganda, shaytonlar iblisning qorni og‘riganda, bizlarni tinchitmaydi deb, uni bog‘lab qo‘yish uchun shu zanjirni olib ketgan ekan. Xullas, Pantagryuelni zanjir bilan bog‘lab qo‘yanlaridan keyin u noiloj tinch yotdi.

Gargantuya bir bayramda katta ziyofat bergandi, enagalar ziyofat bilan ovora bo‘lib, Pantagryuelni eslaridan chiqarib qo‘ydilar. Pantagryuel nima qildi deysizmi? Hozir aytaman, birodarlar, hozir aytaman. U dastavval zanjarlarni uzmoqchi bo‘ldi. Lekin kuchi yetmadi: zanjirlar juda baquvvat edi. Tipirchilab beshigining oyoq tomonini sindirdi, holbuki beshik bir yarim arshin qalinlikdagi taxtadan qilingan edi. Keyin oyog‘ini chiqarib u qildi, bu qildi, nihoyat urinib, beshik bilan birga turdi. Siz ko‘rganingizda, katta kema to‘ntarilib, oyoq chiqarib yurib ketyapti deb o‘ylardingiz. Pantagryuel shu tarzda mehmonlarning oldiga kirib bordi. Hammalari rosa qotib-qotib kulishdi. Pantagryuel esa parvo qilmay, dasturxonga engashib, qo‘li bog‘liq bo‘lgani uchun ovqatni og‘zi bilan olib yeayerdi.

Gargantuya o‘g‘lini ko‘rgach, chidab turolmay, zanjirni ochib qo‘yishni buyurdi. Zanjirlarni yechgan zahotiyoy Pantagryuel joniga tekkan beshagini 1500

bo‘lakka bo‘lib tashladi. Keyin stolga bemałol o‘tirib olib, ovqatni paqqos tushira ketdi.

## II bob

### **Pantagryuelning Panurgni uchtargani va u bilan umrbod do‘st bo‘lib qolgani**

Pantagryuel kun sayin emas, soat siyin o‘saverdi. Ko‘p o‘tmay uni maktabga berdilar. U maktabda o‘quvchilarni o‘q-yoy otishga o‘rgatdi hamda shunga o‘xshash ko‘p o‘yinlar o‘ylab chiqardi. Bir kuni Pantagryuel qoyadan katta bir tosh parchasini olib kelib, dalaning o‘rtasiga o‘rnatib qo‘ydi. Bayram kunlarida o‘quvchilar shahardan tashqariga chiqqanlarida shu toshning ustiga chiqib o‘ynardilar. Qaytayotganlarida toshga o‘z nomlarini yozib qoldiradigan bo‘ldilar. O‘sha tosh hali ham Puate yaqinida yotibdi, u Tosh Tepa deb ataladi. Pantagryuel maktabni tugatgandan keyin bilimini oshirish uchun boshqa shaharlarga sayohat qildi. Tuluza shahrida u raqsni va qilichbozlikni o‘rgandi. Bu yerdagi studentlar qilichbozlikka juda usta ekan. Lekin Pantagryuel Tuluzada ko‘p turmadi. Bir kun u monaxlar bilan o‘chakishgan bir professorni gulkanda pishirayotganlarini ko‘rib qoldi.

Pantagryuel:

- Xudoyo bunday o‘limdan o‘zing asra, baliq emasman, kabobday pishishni xohlamayman, - dedi-da, ertasigayoq Tuluzadan jo‘nab ketdi.

Pantagryuel Monpeleda meditsina fakultetiga kirib o‘qimoqchi bo‘ldi, lekin qarasa, ko‘p klizma qilganlari uchun doktorlardan qo‘lansa hid kelarkan. Pantagryuel bu ish menga to‘g‘ri kelmas ekan, deb doktorlikdan voz kechib, sudya bo‘lmoqchi bo‘ldi. Lekin shaharda bir emas, to‘rtta sudya bor ekan. Shularning ham uchtasi bitliqi, to‘rtinchisi esa kal ekan.

Anjeroda ham ishi o‘ngidan kelmadidi. Vabl kasali tarqala boshlagan edi, Pantagryuel juftakni rostlab qoldi.

Keyin Pantagryuel Burk o‘ahrida uzoq vaqt o‘qidi, so‘ngra nihoyat Parijga bordi. Parijda u qunt bilan o‘qib, mashhur olim bo‘lib etishdi.

Shunday qilib, Pantagryuel kunlarning birida Parij ko‘chalarida o‘z o‘rtoqlari bilan bilan birga sayr qilib yurganida hamma yog‘i tilingan, juldur kiyimli chiroyligina bir kishini uchratib qoldi.

Bu odamni uzoqdan ko‘riboq Pantagryuel do‘stlariga:

- Anovi odamni ko‘ryapsizlarmi? Bahs boylashaman, u ko‘rinishidan gadoya o‘xshagini bilan daydi ham emas, gadoy ham, - dedi.

Notanish odam yaqinlashgani zahoti Pantagryuel unga murojaat qildi:

-Azizim, to‘xtang, men sizdan ba’zi narsalarni so‘ramoqchiman, iltifot qilib javob bersangiz. Boshingizga kulfat tushganga o‘xshaydi. Men sizga yordam bermoqchiman. Oldin o‘zingizni taniting. Kim bo‘lasiz? Qayerdansiz? Qayoqqa ketyapsiz? Kimni qidirib yuribsiz? Ismingiz nima?

- Yunker, gott geb eyx glyuk und xeyl( *Yigit, sizga xudo omad va baxt bersin*), - dedi notanish kishi nemischalab.

- Aziz do‘stim, men bunaqa chulchitcha gapga tushunmayman. Iltimos, boshqa tilda gapira qoling, - dedi Pantagryuel.

- Albarildim gotfano deshmin brin alabo dordio felbbrot ringvam albars(*Ma’nosiz uydirma gaplar*), - dedi begona kishi.

- Hech narsani tushunyapsizlarmi? – deb so‘radi Pantagryuel hamrohlaridan.

- Vahshiylar tili bo‘lsa kerak, - Pantagryuelning tarbiyachisi Epitemon. – Shayton ham tushunolmasa kepak bu tilga.

- Azizim, gapingizga mana bu devorlar tushunayotgan bo‘lmasa, biz hech tushunmayapmiz – ku? - dedi Pantagryuel, notanish kishiga.

Notanish kishi:

- Lord, geft tolb be sua virtus be intellidjens(*Taqsir, bahaybat gavdangizga aqlingiz ham mosga o‘xshaydi*(Ingliz tilining SHotlandiya lahjasida), - deb javob qaytardi.

- Do'stim, siz inson tilida gapiryapsizmi yo maymunlar tilidami? – deb so'radi yigitdan Epitemon.

- Iona andie, guasa, gousi etan, bexorda erremedio( *Taqṣir, hamma dardning davosi topiladi*.(Ispaniyada yashovchi bask xalqi tilida),- dedi notanish yigit.

- Xullas, siz bilan gaplasha olmas ekanmiz, nahotki fransuzchani bilmasangiz? – deb so'radi Pantagryuel.

- Nega bilmas ekanman? - dedi notanish yigit. – Fransuz tili mening ona tilim-ku! Xudoga shukur, men Fransiyada tug'ilib o'sganman.

- Unday bo'lsa, ismingizni, qayoqqa ketayotganingizni ayting-da. Rostini aytsam, menga juda yoqib qoldingiz, agar rozi bo'lsangiz, siz bilan bir umr ajralmas do'st bo'lmoqchimae, - dedi Pantagryuel.

- Taqsir, mening ismim Panurg, - dedi notanish yigit.

- Turkiyadan kelyapman. Uzoq vaqt turklar qo'lida tutqunda bo'ldim. Menga do'st bo'lsangiz, jon-jon deb rozi bo'lardim. Bo'sh paytlaringizda sizga boshimdan kechirganlarimni hikoya qilib beraman. Ko'p jafolar ko'rganman. Hozir o'lgudek ochman, qornimda hech balo yo'q. Meni sinab ko'rish istagingiz bo'lsa, ovqat berib, yeishimni oldin tomosha qiling.

Pantagryuel hamrohlariga yigitni uyga olib borib, ovqatlantirishni buyurdi.

Uni uyga olib borib, yaxshilab mehmon qilishdi. Panurg qorni yorilguncha ovqat yeb bo'lgach, tovuqxonada uxladi. Keyingi kuni tush mahalda uyqudan ko'zini ochar-ochmas oshxonaga yugurdi.

( *Nurbek tarjimasi* )

## SERVANTES

(1547-1616y)



Barcha zamonlar va barcha xalqlar adabiyotining eng ulug‘ asari deya e’tirof etilgan “Don Kixot” romanining muallifi Migel de Servantes Saavedra(1547-1616 y) Ispaniyaning Alkala de Enares shahrida tabib oilasida tug‘ilgan. Universitetni tamomlagach, papaning Ispaniyadagi elchisi kardinal Akvaviva xizmatiga kiradi. Kardinalning o‘limidan keyin Italiyadagi ispan armiyasi safiga qo‘shiladi va 1571-yili Lepanto jangida ishtirok etib, qahramonlik namunalarini ko‘rsatadi, chap qo‘lidan yaralanadi. 1574-yili Ispaniyaga qaytayotib Jazoir korsar(qaroqchi)lari qo‘liga tushib qolib, 5 yil asirlikda bo‘ladi. Vataniga qaytgach, teatr uchun pesalar, badavlat odamlarga bag‘ishlab she’rlar yoza boshladi. 1597-, 1603- yillarda qamoqda, hayotining oxirgi 15 yili moddiy qiyinchiliklarda o‘tdi.

1605-yili “Ayyor idalgo Lamanchlik Don Kixot” dohiyona romanining birinchi qismi chop etilgan bo‘lsa, 1616-yili romanning ikkinchi qismi yozib tugatildi. Adibning “Ibratli novellalar”(1613) nomli hajviy hikoyalari, podachilar hayotidan yozilgan “Galateya” romani va “Persiles ham Sigizmunda” kabi asarlari ham dunyo o‘quvchilarining diqqat markazida turadi.

Mana to‘rt yuz yillardiki, har bir zamon va har qaysi makonda “Lamanchlik Don Kixot” xilma-xil tushuntiriladi, har bir xalq, har bir kitobxon uni o‘z dunyoqarashi va saviyasiga qarab baholaydi, talqin etadi. Roman haqida minglab ilmiy kitoblar yozilgan, yuzlab taqlidiy asarlar yaratilgan, uning asosida ko‘pdan-ko‘p baletlar, operalar, drama va kinofilmlar, musiqiy asarlar, haykal va rangtasvir asarlari yaratilgan.

## **“DON KIXOT” ROMANIDAN BOBLAR**

Bu bobda shamol tegirmoni bilan qilingan, alholgacha ko‘z ko‘rmagan, qulqoshitmagan dahshatla jangda dovyurak Don Kixot qozongan sharafli g‘alaba hamda esga olsan joning rohat topadigan bo‘lak voqealar bayon qilinur.

Shu yerga kelib, dala o‘rtasida turgan o‘ttiz yo qirq chog‘liq shamol tugirmonini ko‘rib qoldilar. Don Kixot ko‘rgan hamono o‘z yaroqbardoriga dediki:

- Marhamatli taqdir ishimizni biz xohlagandan ham ziyodroq o‘ngidan keltirmoqda. Hu anovi tomonga qara, do‘stim Sancho Pansa, o‘ttiz yo undan ziyod qora devlar turibdi, ko‘ryapsanmi? Shu daqiqa ular bilan chunon jang boshlayki, bittasini ham qo‘ymay gard-gard qilay. Bu o‘ljayu-g‘animatlar davlatimizning boshi bo‘lgay, sababki, bundoq jang haq-adolatga mos, parvardigorga ham yoqmay qolmas, illo u qora ko‘ngullar er yuzidan supurilgaylar.

Sancho Pansa:

- Qanaqa devlar? – deb so‘radi.
- Hu anavi, ro‘parangda turganlar. Qo‘llarini kattaligini qara-ya, bay-bay-bay, ko‘ryapsanmi? Ba’zilarining uzunligi ikki chaqirim keladi, - deb Don Kixot javob qaytardi.
- Imonlari komil bo‘lgaykim, marhamatli afandim, u ko‘ringanlar aslo dev bo‘lmay, shamol tegirmonlari erurlarkim, janoblariga qo‘l bo‘lib ko‘ringanlari ham tegirmonning qanotlari bo‘lib, shamol bilan tegirmon toshini aylantirurlar.

Don Kixot buning javobiga dediki:

- E-e, sarguzasht ishlariga chandon g‘o‘r ekansan-ku. Buni bir bilib qo‘ygilki: u ko‘ringanlar – devlar, mabodo yuraging tob keltirmayotgan bo‘lsa, chiq bir chetga, boshla duoyi ibodatga, men ular bilan andoq urushayki, bag‘irlarini qon, o‘zlarini er bilan yakson qilay.

Don Kixot bu so‘zlarni aytib, arg‘umog‘i Rosinantning jilovini siltadi, illo, hech shubha yo‘qkim, siz hujum boshlagan devlar emas, shamol tegirmonlari erurlar, deb bezillagan Sanchoga ham aslo e’tibor etmadidi. Qarshisidagilarning devlar ekaniga qattiq ishongani sababidan, yaroqbardorining ohi-zori ham

qulog‘iga kirmadi, peshonasi oldidagilarning ham tegirmon ekanini ko‘rmadi. Yelday yelib, sherdai bo‘kirib bordi.

- Hoy qo‘rroq va olchoq muxluqlar, qochmangizlar. Zero barchangizga hujum aylagan botir yolg‘iz erurman.

Shu asnoda shamol turdi, tegirmon qanotlari ham aylanib turdi. Don Kixot buni ko‘rdi, so‘zini davom qildi:

- Mabodo qo‘llaringiz ulkan Briateynikidan ham ko‘proq bo‘lib, hammasini birdan ko‘targaniningizda ham, qasamyod qilamanki, sizga omonlik bo‘lmaydi!

Don Kixot bu so‘zlarni aytib, boshimga mushkil tushgan damda qulingni qo‘llagaysan deb, jonini Dulsineya oyimga omonat etib, yuziga qalqon tutib, nayzasini to‘g‘ri qilib, arg‘umog‘ini choptirib, bir tegirmonga hujum ochdi, nayzasini uning qanotiga sanchdi. Shu asnoda qattiq shamol eldi, tegirmon qanotini burdi, nayzani ming pora qildi, otnt ham otlig‘ni ham ildi, bechorai nochorlarni sharmandai sharmisor aylab, uzoqqa otib urdi. Sancho eshagini jonining boricha choptirib, xo‘jayini madadiga yugurib kelib ko‘rsaki, xo‘jayini bilan yerga andoq yiqlibdiki, qimirlashga ham majoli qolmabdir.

Bu holni ko‘rib Sancho aytdiki:

- E, parvardigori olam! Men siz marhamatli afandimga aytmabmidimki, o‘zingizga hazir bo‘lgaysiz, illo bular – shamol tegirmonlari erurlar deb?

Don Kixotning o‘z yaroqbardoriga so‘z aytgani:

- E, do‘stim Sancho, jim bo‘lgil! Shuni bir bilgilki, jang degan narsa taqdir g‘azabiga serduchor erur. Ayniqla kaminaning kutubxonasini o‘g‘irlagan o‘sha donishmand Freston, azbaroyi meni shon-sharafdan mahrum aylamoq uchun, devlarni tegirmonga aylantirib qo‘ydi. Faromush aylamagilki, mening bu o‘yim haqiqat erur, illo uning menga keki ko‘p ulug‘dir. Va lekin ertami-kech, ammo uning yovuz sehrus-jodusi nayzam zo‘riga tob keltirolmay kunpayakun bo‘lgay.

- Hamma narsa xudoyi taoloning qo‘lida, - deb Sancho javob qaytardi.

So‘ngra u Don Kixotning o‘rnidan turishiga va arg‘umog‘iga minishiga yordam berdi: arg‘umoqning oldingi ikki oyog‘i chiqib ketishiga sal qolibdi. Ular

bu hangoma haqida suhbat aylab, Pietro Lapizo yo‘liga ravona bo‘ldilar, sasbabki, Don Kixotning taxminicha, u erda turli-tuman hangomalar yuz berur, illo u yer ko‘p serqatnov joy erur. Don Kixot nayzasidan judo bo‘lgani uchun qon bo‘ldi va dardini Sancho Pansaga aytib shunday dedi:

- Esimda bor, men Diego Peres de Vargas degan bir ispan botirni kitobda o‘qib erdim, jang asnosida nayzasi sinib qolgan ekan, dub duraxtidan kattakon bir shoxnimi yoinki bahuzur o‘zagidan bir bo‘lakni sindirib olib, mazkur tayoq bilan o‘sha kuni chunonam g‘alaba qozonibdir va mag‘riblaridan chunon ham qiribdirki, u botirning nomi Tayoq(bo‘lib) ketibdir, shu kundan tortib,o‘zi ham, butkul avlod-ajdodlari ham Vargas Tayoq deb nom olibdir. Men bu narsani senga shuning uchun naql etadirmanki, men ham yo‘lda birinchi uchragan dub daraxtidan o‘zimga bir shox sindirib olgaymanki, u shox Vargasnikidan aslo farq qilmagay. Andin so‘ng mazkur shoxni qo‘limga olib, shunday g‘alaba qilgaymanki, oxiri mislsiz bo‘lib chiqqusi bu hangomalarning ishtirokchisi va guvohi bo‘lish sharafiga noil bo‘lganining uchun sen ham taqdirdan qayta-qayta minnatdor bo‘lgaysan.

Sancho uning so‘ziga shunday javob qaytardi:

- Har ish xudoyi-taoloning qo‘lida, siz marhamatli afandimning aytganlariga batamom ishonaman. Faqat egarga to‘g‘riroq o‘tirib olsalar, sababki: bir yoqqa qiyshayib ketgandek ko‘rinmoqdalar, kaminai kamtarinning zehnicha, boyta yiqilganlarida andek lat yegan ko‘rinadilar.

Don Kixot aytdiki:

- To‘g‘ri bu gaping rost erur, illo bir yerim og‘riyotgani haqida shikoyat aytmagan bo‘lsam, bu shu sababdanki, jahongashta bo‘lib yurgan botir, magar ichak-chavog‘i ontarilib tushsa ham, zorlanmagay.

- Ha, magar ahvol shunday ekan, vo‘z qaytarish hojat emas, – deb Sancho javob berdi. – Ammo-lekin tanho xudoyi-taologa ayondirki, siz marhamatli afandim, falon joyim og‘riyapti, deb zorlansangiz, men ko‘pdan ko‘p xursand bo‘lurdim. Menga kelganda esa, mayli, zorlanish qoidasi jahongashta bo‘lib

yurgan botirning yaroqbardoriga ham taalluqli bo‘lsin, lekin men, biron yerim sal og‘ridi deguncha, faryod ko‘tarib yuborgayman.

Don Kixot o‘z yaroqbardorining bu soddaligiga kulolmay qolmadi va sababli bo‘lsayam, sababsiz bo‘lsayam, xullas, xohlagan chog‘da faryod ura olishi mumkinligini aytib, alholgacha jangnomalarda bunga zid keladigan hech qandaybo‘lsayam, qayerda bo‘lsayam, bir yo‘l-yo‘riqqa ko‘zi tushmaganini bildirdi. Sancho, ovqat-movqat yeb olsakmikin, deb erdi, Don Kixot hali-veri qorni ochmaganini bayon qilib, Sancho xohlagan paytda ovqatlana olishi mumkinligini bildirdi. U xo‘jayinidan ijozat olib, eshagiga durustroq minib, xurjunidan olgan ovqatni yeb, Don Kixot orqasidan sekin-sekin ergashib bordi. Qorniga lazzatli ovqatlarni sira tinmasdan tiqar ediki, Malaganing har qanday mechkay moyxonachisi ham unga hasad qilolmay qolmas edi. Yurib ketayotgan eshak ustida larzanglayverib, kichkina qultumlab vino ichaverib, Don Kixot va’da qilgan narsalarni ham o‘ylash xotiridan chiqdi va hangoma izidan jahongashtalik qilib yurish, mabodo bu hangomalar g‘oyat xatarli bo‘lsalar ham, zahmat bo‘lmay lazzat bo‘lib ko‘rindi.

Nihoyat, kech kirganda yo‘lchilarimiz bir daraxtning ostiga kelib qo‘ndilar. Shu yerda Don Kixot zo‘rg‘a nayzaga yaraydigan bir quruq shoxni sindirib olib, sinib ketgan nayzasidan qolgan temir uchni unga o‘rnatib qo‘ydi. Shu kecha mijja qoqmadi, romanlarda o‘qigani botirlardan farq qilmaslik uchun o‘z Dulsineya oyimi haqida o‘yladi, romanlardagi botirlar qanchadan-qancha kechalarni o‘rmonlarda, dashti biyobonlarda o‘z oyimlarining fikri zikri bilan o‘tkazganlar! Sancho esa kechani tamom bo‘lakcha o‘tkazdi: qorni o‘lguday to‘q bo‘lgani sababli, to subhi sahargacha o‘likday uxladi, agar Don Kixot uyg‘otib qo‘ymagan bo‘lsa, u na yuziga nayza yanglig‘ sanchilayotgan oftob nuridan va na yangi kunni shod-xurramlik bilan tabriklab sayrayotgan haddi-hisobsiz qushlar nag‘masidan uyg‘onmagan bo‘lur edi. Sancho o‘rnidan turar-turmas darhol qornini ushlab ko‘rdi va kecha kechqurungidan ancha puchayib qolganini sezib, ko‘p qayg‘urdi, sababki uni yana to‘ldirish hali-veri nasib bo‘lmaydigandek edi. Don Kixot nonushta qilishni istamadi, illo, yuqorida zikr qilib o‘tganimizdek, uning ovqati

faqat lazzatli xayollargina bo‘libqolgan edi. Keyin tag‘in yo‘lga tushib, Puerto Lapizega ravona bo‘ldilar va kunduz soat uchlarda mazkur g‘orga yaqinlashib qoldilar. Don Kixot uni ko‘rgani hamono dediki:

- O, birodar Sancho Pansa, bu erda ro‘y beroladigan hangomalardan sira tap tortmay, bahuzur aralasholgaymiz, ammo lekin shunga faromush qilmag‘aysanki, dunyodagi eng katta xatarga duchor bo‘lsam ham, meni qutqazaman deb nayzaga yugurmaysan, ko‘rsangki, menga hamla qilgan dushman – qora xalq, yalangoyoq erur, ana shundagina yordam beraolursan. Bordiyu ular botirlar bo‘lsa, botirlar qonuniga ko‘ra menga yordam berishing ravo emas va zanhor shunday qilmagaysan, illo botirlik martabasiga ko‘tarilganing yo‘qturur.

Uning bu so‘ziga Sancho shunday javob qaytardi:

- Xotirlari jam bo‘lgayki, sinor, bu borada janoblari bilan baxslashmagayman, ayniqsa tabiatimdagи mo‘minlik bunga mos kelmagay, o‘zim ham birov bilan yoqalashib, musht otib yurishni xush ko‘rmayman. Lekin vijdonan aytishim kerakki: magar kunim o‘z jonimni qutqarishga qolaturgan bo‘lsa, u taqdirda hech qanday botirlik qonuni yuz-xotir qilmagayman, sababki Olloh qonuni ham, inson qonuni ham sitamkorlardan saqlanishga ijozat berur.

- Men ham shuni aytayapman-da, sening shu narsa xotiringda bo‘lsanki, magar meni botirlardan qutqazmoqni orzu aylagudek bo‘lsang, zinhor jo‘shqinligingni jilovlagaysan, - deb Don Kixot javob berdi.

- Shunday qilishga va’da beraman. Yakshanba kuni qanchalik aziz bo‘lsa, bu vaziyatlarni ham shunchalik aziz va muqaddas bilgayman, - dedi.

Ular shu tariqa gaplashib ketayotganlarida Benedikt avliyo mazhabiga mansub ikki nafar monaxga duya keldilar, ular minib kelayotgan xachirlar chunonam zo‘r edilarki, ko‘rgan kishi bahuzur tuya der edi. Monaxlarning ko‘zlarida ko‘zoynak, qo‘llarida – shamsiya bor erdi; ular orqasidan to‘rt yo besh chog‘li otliq hamda piyoda kelayotgan ikki nafar xaydovchi o‘rab olgan bir soyavon arava ham kelmoqda. Keyin ma’lum bo‘ldiki, bu soyavon aravada Seviliyaga, erining oldiga ketayotgan biskalik oyim bor ekan. Uning eri g‘oyat mo‘“tabar bir ish bilan Amerikaga suzib ketishi kerak ekan. Monaxlar garchand

oyim bir yo‘lda ketayotgan bo‘lsalar ham, lekin ularning sayri-sayohati tamom bo‘lar ekan. Don Kixot ularni ko‘rar-ko‘rmas, darhol o‘z yaroqbardoriga aytdiki:

- Yo men adashayapman, yo bizga shunday g‘aroyib hangoma(ro‘y) berayaptiki,

bundog‘ini hali odamzod ko‘rmagan. Sababi, huv anovi ko‘ringan qora kiyimlilar hech shak-shubha yo‘qki – bir shoh qizini o‘g‘irlab, aravada opqochib kelayotgan jodugarlar. Belimni mahkam bog‘lab, bu yovuz ishga barham bergayman.

Uning so‘ziga Sancho shunday deb javob qaytardi:

- Obbo, bu shamol tegirmonidan ham beshbattar bo‘lur. Ajabo, ko‘rmayaptiarki, e sinor, u kelayotganlar Benedikt mazhabining monaxlari erurlar, soyavon aravada esa, ehtimol, sayohatchilar kelayotgandirlar? Mening so‘zimga kirsinlar va qilayotgan ishlarini yaxshigina o‘ylab ko‘rsinlar, yo‘qsa, tag‘in janoblarini jin chalib ketgay.

- E, Sancho Pansa, men senga bir qur aytmabmidimki, sen hangoma ishlarida ko‘p g‘o‘r erursan, deb. Men bir yo‘jni ravshan ko‘rib turibman, sen bunga shu dam ko‘zing bilan ishongaysan, - deb Don Kixot javob berdi.

U bu so‘zlarni aytib tezlab ketdi va monaxlar o‘tadigan yo‘lning qoq o‘rtasiga kelib, armug‘og‘ini to‘xtatdi, keyin monaxlar uning cho‘tlovicha ovozini eshitadigan bir masofaga kelganida baqirib shunday dedi:

- Hoy, do‘zaxning palid avlodlari, zudlik bilan olib ketayotganingiz muhtaram shoh qizini darhol bo‘shatingiz, yo‘qsa o‘z qilmishingizga yarasha ajal qo‘shini yuborgayman, tayyor turingiz.

Monaxlar xachirlarini jilovlab to‘xtadilar. Don Kixotni ko‘rib, ko‘p hayron bo‘lib, uning g‘alati so‘ziga shunday javob qaytardilar:

- O, sinor botir, biz aslo do‘zaxning palid avlodlari emasdirmiz, Benedikt avliyo mazhabining monaxlari erurmiz, biz o‘z korixayrimiz bilan ketayotirmiz, illo bu soyavon aravada o‘g‘irlangan shoh qizi bormi-yo‘qligidan zinhor vroqif ermasmiz.

- Shirin so‘zlar bilan meni jodu qilolmassiz: bilaman, men siz qabih yolg‘onchilarni, - deb Don Kixot javob aytdi.

Andin so'ng, ularning javoblarini ham kutmasdan, arg‘umog‘i Rosinantni tepkiladi ham nayzasini to‘g‘rilab, birinchi monaxga chandon g‘azab bilan hamla ayladiki, u o‘zini yerga otib urmasa, Don Kixot uni egardan uloqtirgan, qattiq yarador qilgan bo‘lur, yo esa o‘ldirib qo‘yur edi. Ikkinchi monax hamrohining boshiga tushgan kulfatni ko‘rib, bechora xachirini tepkiladi va shamoldan ham o‘zib chopqilladi.

Sancho, monaxning yerda sulayib yotganini ko‘rib, eshagidan osongina irg‘ib tushdi ham yugurib borib monaxning kiyimlarini echishga kirishdi. Monaxlarni uzatib kelayotgan ikki nafar xizmatkor shu asnoda etib keldi va nima sababdan ularning kiyimlarini echursizlar deb, Sanchodan so‘radi. Sancho ularga aytdiki, qonun bilan, o‘lja meniki bo‘lur, sababki ularni og‘am Don Kixot jangda yengib oldi, deb. Hazilni ham bilmaydigan xizmatkorlar ko‘rdilarki, Don Kixot ulardan uzoqlashdi va borib soyavon aravadagi sayohatchi oyim bilan suhbatga kirishdi, ular paytni g‘animat bilib, Sanchoga tashlandilar, yerga yiqib, soqollarini tutam-tutam yula boshladilar va chunon ham do‘pposladirarki, uning dami ichiga tushib, nest bo‘ldi. Esxonasi chiqib, kapalagi uchib ketgan monax bu orada apil-tapil xachirga mindi-yu, murdadek oqarib, hayt deb, dalaga qarab qochdi, uning hamrohi, bu hangomaning oqibati ne bo‘lgay deb, hayron va sargardon bo‘lib, uzoqda kutib turgan edi. Andin so‘ng, hodisaning oqibatini ham kutmasdan, yo‘llariga ravona bo‘ldilar va misoli orqalaridan shayton quvib kelayotgandek, shosha-pisha cho‘qinib bordilar.

Yuqorida zikr qilib o‘tgan edikki, Don Kixot aravadagi oyim bilan suhbatga kirishibdilar deb:

- O, mening sinoram! Nozaninim enda o‘zlarini o‘z istaklaricha erkin tuta bilurlar, sababki, nozaninimni o‘g‘irlagan qabihlar kaminaning bilak kuchlari bilan to‘s-to‘ponga aylandilar! O‘z homiyalarini kimligini bilmay, yuraklari qon bo‘lmasligi uchun, maxfiy qilmag‘ayki, mening ismi sharifim lamanchlik Don Kixot erur. Kamina jahongashtalik qilib yuruvchi botirdirman va toboslik go‘zal Donya Dul sineyaning asiridirman. Shu on janoblariga ko‘rsatgan xizmatim mukofoti uchun esa, ojizona iltimosim shulki: Tobosoga borgaylar va mening

ismimdan oyimning huzuriga tiz cho‘kib, sizga ozodlik baxsh etganimni ma’lum aylagaylar.

Aravani engib borayotgan biskaylik otboqlardan biri Don Kixotning so‘zini eshitib qoldi va aravani o‘tkazmay darhol hammalarini orqaga qaytarib, Tobosoga jo‘namoqchi bo‘lganini ko‘rib, uning yoniga kelib, nayzasini ushlab olib, ispan tilini rasvo qilib, biskay tilini tag‘in ham beshbattar buzib, shunday dedi:

- Hoy, yo‘lingdan qolma, botir, yo‘lingdan qolma! O‘n sakkiz ming olamni yaratgan olloh-taoloning nomi bilan qasamyod qilamanki, aravamizni qo‘yvor, yo‘qsa kallangni taningdan judo qilmasam, biskaylik bo‘lmagayman.

Don Kixot uning so‘ziga obdon tushundi va o‘zini baland tutib javob berdi:

- Botir emasmisan? Ont bo‘lsin xudogaki, sen xuddi xristian singari yolg‘on aytyapsan! Nayzani tashla-yu, qilichni ol, ko‘rasan suving mushukda qanday suzib qolgay! Men Biskay bolasi, botiri, dengizning ham botiri, jang chalg‘ur! Magar yo‘q desang, imoningni yutgan bo‘lasan!

- Agraxes aytgandek, hozir ko‘rsataman sizlarga, - dedi Don Kixot.

Andin so‘ng, nayzasini erga urib, qilichini chiqarib, qalqonini to‘sib, o‘ldirmoqqa qattiq qaror aylab, biskaylikka hujum boshladи. Bu niyatni payqab qolgan biskaylik bir qur qochmoqchi ham bo‘ldi, sababki, xachir yollangan bo‘lgani uchun, unga daraja ishonolmasdi, ammo-lekin qocholmadi-yu, faqat qilichinigina yalang‘oyalab olshdi. Uning baxtini qarangki, soyavon arava qoq tumshuqda ekan: hash-pash deguncha aravadan bir yostiqni sug‘urib, qalqon qilib olishi ham hech gap emas. Ana shunday qilib, bu hariflarimiz bir-biriga tezlanib turdilar. Hozirunlar ularni yarashtiramiz deb nechog‘lik jon kuydirlasalar ham, sariq chaqalik naf chiqmadi: biskaylik o‘zining buzuq tili bilan baqirib, agar endi mening yakkama-yakka olishishimizga xalaqit berur ersangiz, voqif bo‘lgaysizki, u taqdirda o‘z bekamni ham, xalaqit bergenlarni ham ado qilg‘ayman, dedi. Arava ichida o‘tirgan oyim bu mojaroga taajjublanib, yuragi chiqib ketdi va aravani bir chetga jildirtirib, dahshatli jangni uzoq tomosha qildi. Shu asnoda biskaylik kishi Don Kixotning yelkasiga, qalqoni ustidan andoq urdiki, magar qalqon to‘sib

qolmagan bo‘lsa, u bizning botirimizni ikki palla aylagan bo‘lur erdi. Qattiq zarba tovushi bilan gangib qolgan Don Kixot ovozini boricha baqirib dediki:

- Dulsineya, qalbim malikasi va go‘zallarning guli-g‘unchasi, dahshatli jangga kirishayotgan o‘z botiringizga madad aylagaysizki, u sizning muhiblaringizga yarasha zarba berish baxtiga muyassar bo‘lsin!

Bu so‘zlarni aytmoq, qilichni qo‘lga olmoq, yuzga qalqon tutmoq va biskaylikka hamla qilmoq Don Kixot uchun ko‘z ochib-yumgunchalik ish edi: u hamma narsaning bahridan o‘tdi va harifini bir urish bilan sarishta qilmoqqa jazm etdi. Biskaylik o‘z dushmanining jiddiy avzoyini ko‘rib, uning botirlik niyatlarini fahmladi va hujumni o‘ziyam undan qolishmay qarshi olishi haqida qasamyod ayladi, yostiqni bag‘riga mahkam bosib, o‘zini uning orqasiga olib, dushmanni kutib, joyidan qimir etmay turdi, sababki, xachirini na o‘ngga bura olur edi va na so‘lga, axir u jonivor shu qadar behol bo‘lib qolgan va buningdek yoqalashmalarga odatlanmagan ediki, bir odim tashlashi ham malol erdi. Shunday qilib, tag‘in bir bora aytsak, Don Kixot qilich ko‘tarib, ayyor biskaylikka hujum boshladi, uni ikkiga bo‘lmoq uchun bel bog‘ladi, biskaylikka kelsak, yostiqni qalqon etib, uning hujum boshlashini kutib, qilichni dast ko‘tarib turdi. Bu orada tomoshabinlarning qo‘rqanidan damlari ichiga tushib ketdi va g‘azab bilan ko‘tarilgan bu ikki qilich oxiri qachon tushar ekan, deb qarab turdi. Aravadagi oyim va uning xizmatkorlari tinmay duoi-ibodat qilib, Ispaniya tuprog‘idagi barcha aziz-avliyolarga murojaat etdilar, ular, e xudoyi-xudovando, bizni va otboqarni bu xavfli hodisadan qutqargaysan, deb tilar edilar. Ammo baxtsizlikning borishi shu bo‘ldiki, hodisamizning avtori shu joyga kelganda jang tasvirini yig‘ishtirdi-yu, Don Kixotning yuqorida zikr qilinmish holati – jangdan bo‘lak hech nima topolmadim, deb o‘zini oqlaydir. Va lekin kitobning ikkinchi avtori bunga ishonishdan bosh ko‘tardi, sababki bunday alomat voqeа tamom unutilib ketmagan va lamanchliklarning oqillari bu mashhur botirga oid qo‘lyozmalarni arxiv va kutubxonalarda saqlamaydigan ham qiziqmaydigan bo‘lib qolgandirlar. Bu narsaga ishongan ikkinchi avtor bizning bu qiziq hikoyamiz oxirini topishdan umid uzgani

yo‘q erur. Darvoqe, marhamatli osmoni falakning yordami bilan bu oxirini topdi.  
Qanday topgani esa kitobning ikkinchi qismida bayon qilinur”.


*(Sotvoldi Yo‘ldoshev tarjimasi)*

## UILYAM SHEKSPIR

(1564 – 1616)

Uilyam Shekspir (William Shakespeare) 1564 yilda Angliyaning Stretford shaharchasida qo‘lqopsoz kosib Jon Shekspir oilasida dunyoga kelgan.

1) U dastlabki ma’lumotni “Grammatika maktabi”da olib, lotin tilini o‘rganadi va qadimgi Rim shoirlarining asarlari katta qiziqish bilan o‘qiydi.



1587 yili London teatriga ishga kirib, sahna xizmatchisidan rejissyor gacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan. Aynan shu davrdan Shekspirning ijodiy faoliyati boshlangan. Dastlab pesalarni qayta ishlab saxnalashtirish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, keyinroq o‘zi dramatik asarlar yoza boshladi va tez orada dramaturg sifatida nom qozondi. 1599 yilda Shekspir “Globus” teatriga qabul qilindi va o‘zining eng sara asarlarini ushbu teatrda sahnalashtirgan. Shekspir merosini olimlar uch davrga bo‘lib o‘rganadilar. Birinchi davrga adibning 1591-1601 yillarda yozgan “Venera va Adonis” (1593), “Lukretsiya” poemalari (1594), 154 sonet (1609) va tarixiy xronikalari kiradi.

Dramaturgning XVI asr tarixchisi Xolenshadning “Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari”dan olingan ma’lumotlar asosida yozilgan 10 ta dramasi tarixiy xronikalar deb atalgan turkumni etadi.

Shekspirning “Richard III” (1592), “Genrix IV” (1600), “Genrix V” (1599) tarixiy dramalari xronika janrining yuksak namunalari sanaladi. Shuningdek, Shekspir bu davrda o‘zining “Tit Andronik” (1594), “Romeo va Juletta” (1595), “YULiy Sezar” (1599) fojealarini, “Qiyiq qizning quyilishi” (1594), “Yoz oqshomidagi tush” (15994-1595), “Venetsiyalik savdogar” (1595), “Vindzorlik nozaninlar” (1597), “Yo‘q narsadan bir talay g‘avg‘o” (1598-1599), “Bu sizga yoqadimi” (1599-1600), “O‘n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar” (1690) nomli komediylarini ham yaratgan.

Adib ijodining ikkinchi davriga uning 1601-1608 yillarda yaratgan mashhur sahna asrlari kiradi. Ular “Hamlet” (1600-1601), “Otello” (1604), “Qirol Lir”

(1605-1606), “Makbet” (1606), “Antoniy va Kleopatra” (1607), “Koriolan” (1608), “Afinalik Timon” (1608) fojialaridir.

Shekspir ijodining uchinchi davriga mansub asar “Perikl” (Pericles) 1608-1612 yillarda yozilgan, “Sembelin” (1609-1610), “Qish ertagi” (1610-1611), “Bo‘ron” (1611) tragikomediyalari hisoblanadi.

Shekspir asarlari XX asrning 30-40 yillaridan boshlab, taniqli o‘zbek adiblari tomonidan ona tilimizga tarjima qilina boshlangan. Ayniqsa uning asarlari G‘.G‘ulom, M.Shayxzoda, Uyg‘un, B.Boyqobilov, J. Kamol tomonidan mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

## “HAMLET” TRAGEDIYASIDAN SAHNALAR

Ishtirok etuvchilar:

*Klavdiy.* Daniya qiroli.

*Hamlet.* Avvalgi qirolning o‘g‘li, hozirgi qirolning jiyani.

*Fortinbras.* Norvegiya shahzodasi.

*Goratsio.* Hamletning do‘sti.

*Poloniy.* Saroy noziri.

*Laert.* Poloniyning o‘g‘li.

*Voltimand, Korneliy, Rozenkpans, Gildenstern.* Saroy a’yonlari.

*Ozrik.*

*Aslzoda.*

*Ruhoniy, Marsell, Bernardo.* Ofitserlar.

*Fransisko.* Askar.

*Reynaldo.* Poloniyning xizmatkori.

*Kapitan.*

*Angliya elchilari.*

*Akterlar, ikki masxaraboz – go ‘rkov.*

*Gertruda.* Daniya qirolichasi, *Hamlet*ning onasi.

*Ofeliya.* Poloniyning qizi.

*Hamlet* otasining arvohi.

Voqea Elsinorda bo‘lib o‘tadi.

I parda

Birinchi sahna

*Elsinor. Qasr oldida maydoncha. Yarim kecha. Frantsisko poyloqda turibdi. Soat o‘n ikkini urmoqda. Bernardo uning yoniga kelib qoladi. Frantsisko, Bernardo, Martsell va Goratsio so‘zlashib turganlarida marhum qirolning boshdan-oyoq qurollangan arvohi paydo bo‘ladi.*

Ikkinchchi sahna

*Yana u yerda. Qasrda qabulxona zali. Qirol, malika, Hamlet, Poloniy, Laert, Voltimand, Korneliy, saroy ahli va mahramlar kirib keladilar.*

### *Qirol*

Garchi Hamlet og‘amiz azasida biz  
Qora kiyib qayg‘urib yurmog‘imiz shart,  
Davlatimiz bu og‘ir motamdan yig‘lab  
Falokatdan vovaylo qichqirmog‘i farz,  
Ammo aql yengadi kishi xilqatin.  
Bundan keyin unutmay biz o‘zimizni,  
U marhumni yengilroq esga olaylik.  
Binobarin, men – bizning hamshiramizga,  
Bugungi kun bonumiz, malikamizga –  
Rafiqam deb uylanib olmoqchi bo‘ldim.  
Alam bilan quvonchlar qatishib ketdi.  
Ko‘z yoshlari qorishdi tabassumlarga.  
Bamaslahat qilindi bu xayrli ish,  
Hamma bizga ra’y berib ma’qul deyishdi.  
Hammangizga tashakkur... Ikkinci so‘zim:  
Norvegning shahzodasi yosh Fortinbras  
Pisand qilmay bizlarni, o‘ylamishdirki,  
Vafot bo‘lgach og‘amiz, el bo‘lur barbod.  
Mamlakatda ittifoq buzilur tamom.  
U o‘zining yulduzin o‘ylabdi baland,  
Hozir talab qilmoqda ota yurtlarin,  
U yurtlarki, og‘amiz insof yuzidan  
Qo‘sghan edi o‘zining mamlakatiga.  
U haqdagi xabarlar shundan iborat.  
Endi, bizning kengashning vajini aytay:  
Mana, biz bu maktubni yubormoqchimiz –

Norveg shohi, Fortinbras amakisiga.  
U juda ham qartaygan va shu tufayli,  
Ehtimolki, bilmaydi jiyan fe'lini.  
Biz bu xatda qiroldan iltimos qildik –  
Jiyanin tiyib qo'ysin, chunki aslida  
Hamma qo'shin u shohning fuqarosidan,  
Hammasi ham non yeysi xazinasidan.  
Marhamatli Voltimand va siz Korneliy  
Bu maktubni eltingiz keksa podshoga.  
U shoh bilan suhbatda odob saqlangiz.  
Elchilikning haddidan chiqmangiz sira,  
U shoh bilan suhbatda odob saqlangiz.  
Qoidayu qonunga qiling rioya.  
Yaxshi boring... Chaqqonlik ixlosga isbot.

*Korneliy ham Voltimand.*

Har galgiday bu gal ham qilurmiz isbot.

*Qiro*

Bunga yo'qdir shubhamiz. Sizlarga oq yo'l!  
*Voltimand va Korneliy ketadilar.*  
Qani, Laert, so'zlang-chi, yangi nima gap?  
Deb edingiz: – Arzim bor. Aytingiz nima?  
Qaysi ma'qul bir ishki, so'ralsa bizdan  
Qondirurmiz albatta. Hech bir arzingiz –  
Biz tomondan sira rad etilmas, biling,  
Dil va kalla qanchalik oshno bo'lsa,  
Og'izning xizmatida qancha yursa qo'l –  
Otangizga taxtimiz shuncha madadkor.

Qani, xizmat?

Laert

Podshohim, ruxsat beringiz,  
Frantsiyaga men yana qaytib borayin.  
Men hazratning toj qo‘yish marosimida  
Qatnashgani u yerdan jo‘nab kelgandim.  
Kechiringiz, burchimni ado ayladim,  
Endi fikru xayolim undar u yerga.  
Ta’zim bilan so‘rayman sizdan ijozat.

Qirol

Otang ruxsat berdimi? Ne der Poloniy?

Poloniy

Jonga tegdi podshohim, hadeb yalinib.  
Aynitmoqchi bo‘lsam-da, hech kor qilmadi.  
Roziligm bildirdim, axir, noiloj,  
Siz ham uni yarlaqang, mayli jo‘nasin!

Qirol

Soat qulay, baxting yor bo‘lsin, ey Laert.  
Ta’bing nechuk xohlasa, shunday yuraver.  
A, Hamlet-chi? Nima der jigarporamiz?

Hamlet

(*O‘zi-o‘ziga*)

Yo‘q, aksincha: nojo‘ya ravshanlik bordir.

Malika

Hamlet, yetar, tun kabi badqovoq bo‘lma.

Sen qironga mehribon ko‘z bilan qara.  
Qachongacha, otamning tuproqda izin  
Topayin, deb sen yerga qarab yurasan?  
Bu taqdiri azaldir, tirik jon o‘lar,  
Umr bitgach, manguga u ko‘chib qolar.

Hamlet

Bu taqdiri azaldir.

Malika

Bo‘lmasa nega –  
Azang, go‘yo, mislsiz ko‘rinar senga?

Hamlet

“Go‘yo” emas, malikam, zotan o‘zi shu.  
“Go‘yo”larga men yotman. Bu sipohi to‘n,  
Qora kiyim, entikkan keskin nafaslar,  
Ko‘z yoshlardan quyilgan xunob oqinlar,  
Hatto g‘amning har turli ko‘rinishlari  
Dilimdagi hasratni izhor qilolmas.  
Chunki bular hammasi sun’iy, yasama.  
Bular biror qiliqki, o‘ylamoq oson.  
Dardlarim-chi, a – ular bo‘yoqlarga yot,  
Mening dardim yasanib o‘rtaga chiqmas.

Qirol

Barakalla, qoyilman so‘zingga Hamlet,  
Sen otangning azasini mahkam tutasan,  
Ammo bilki, otangning otasi bo‘lgan,  
U ham o‘lgan. Hokazo, uning otasi.  
Otalarining vafotin ko‘rgan o‘g‘illar

Biror muddat alamli yurmog‘i lozim.  
Ammo nuqlu azalik bo‘lmoq behuda.  
Bunday motam erkakka munosib emas,  
Bu – ko‘p razil xohishlar alomatidir.  
Bu ko‘r yurak, ishonchsiz aqlu farosat  
Va ko‘p dag‘al tushuncha belgisi, xolos.  
Bu bandalik, hammaga taalluqli ish,  
Bunga qarshi javramoq ayni kufr-ku.  
Parvardigor nazdida bu ulug‘ gunoh,  
Rahmatlikka nisbatan bu zo‘r gunohdir.  
Bu gunohdir tabiat – xilqat oldida,  
Aqlu zehn oldida bu katta gunoh.  
Chunki aqlu zehnimiz bunga ko‘nikkan.  
Otalarning o‘lmog‘i eski bir odat.  
Eng birinchi jasadni aqlimiz eslab,  
Eng so‘nggi tobutni ham jo‘nata turib  
Shunday deydi: “Ha, shunday, bo‘lmog‘i lozim”.  
Alamingni qoq, tashla, iltimosim shu:  
Yuragingda qabul et bizni otadek.  
Butun olam bilsinki, sen taxtimizga  
Eng yaqin bir odamsan, aziz, suyukli:  
Mehribon ota dili silaydi seni,  
Vittenbergga qaytaman o‘qishga deysan,  
Bu niyating bizlarga ma’qul ko‘rinmas.  
O‘tinaman, o‘ylagin, qolgin bu yerda,  
Qolgin, xuddi qimmatli nuri diydamiz.  
Qolgin, xuddi vorisday, aziz o‘g‘ilday<sup>44</sup>.

---

<sup>44</sup> Qirol agarda Hamlet Daniyadan chiqib ketsa, chet mamlakatlarda unga qarshi kurash uyushtirishi mumkin, degan andisha bilan uning qolishini o‘tinadi.

### Malika

Yolbormasin onang ham o‘g‘lim behuda.  
Bunda qolgin, bormagin Vittenbergga sen.

### Hamlet

Amringizga muteman, shavkatli bonu.

### Qirol

Mana qisqa, odoblik, loyiq bir javob.  
Bu qasrimiz – seniki! Bonu, ketaylik.  
Yuraklarni shod qildi ixlosmand Hamlet,  
Bu ixlosning sha’niga maylar ichilur,  
Qadahlarning sonini bildirmoq uchun  
Zambaraklar bulutga qilur jarchilik.  
Osmonning sadosi, kosa nidosi  
To‘plarning na’rasiga qo‘silsin hamon.  
Qani, yuring...

*Hamletdan boshqa hamma ketadi.*

### Hamlet

Koshki, shu go‘sht to‘rvasi mahv bo‘lsa tamom.  
Yo erisa, chirisa yoki bug‘ bo‘lsa!  
Koshki edi, demasa xalloqi-olam  
O‘z-o‘zini o‘ldirmoq fe’lini gunoh.  
Butun dunyo o‘zining harakatida –  
Naqadar to‘ng, bema’ni va to‘mtoq ekan!  
Shuncha iflos hamma yoq! Qoplab olganday  
Gulistoning tuprog‘in burgan o‘tlari.  
Nega shunday? Bu holning boisi nima?  
O‘lganiga ikki oy ham to‘lgani yo‘q.

Ana podshoh! Quyoshning yorqin shu'lasi.  
Unga qiyos etilsa – bu past bir hayvon.  
U onamni shunchalar sevar ediki,  
Qizg'anardi chehrasin shamollardan ham.  
Faryod sendan ey falak! Eslab ne qilay!  
Onam shuncha maftundi marhum otamga,  
Chanqoqligi oshardi qoniqqan sayin.  
Ammo bir oy o'tmasdan!.. Bas endi bu gap!  
Oh xotinlar... nomingiz – bevafolikdir!  
Ha, ha, bir oy o'tmasdan!... Tobut ketidan –  
Niobeya<sup>45</sup> singari oh-fig'on tortib  
Borganida oyoqqa kiygan boshmog'i  
Hali ham butun...  
Onam, onam, u xotin... yorab, ilohim,  
Ongsiz hayvon er uchun shuncha shoshilmas,  
Holbuki er qilgani badbaxt amakim  
O'xshar marhum otamga, Geraklga men  
Qay daraja o'xshasam... Voydod, vovaylo.  
Bir oy o'tar-o'tmas-a... Uning qovog'i  
Munofiq ko'z yoshidan hanuz qizil-ku!..  
Ammo shoshib yangi er qo'ynida yotar,  
Yo'q! Bu shunday kufrki, oqibati bad!  
Tishni tishga bosayin! Parchalan, ey dil!

[ Goratsio, Martsell va Bernardo kirib keladilar.

*Goratsio Hamletga uning marhum otasini arvohini ko'rganliklari haqida hikoya qiladi. Uchinchi sahna. Poloniy uyida bir xona. Laert o'zining jo'nab ketishi oldidan Ofeliya bilan suhabatlashadi va unga Hamletga ishonmaslikni maslahat etadi. Laertning fikriga Poloniy ham qo'shiladi. To'rtinchi sahna. Qasr*

---

<sup>45</sup> Niobeya – qadim mifologiyada, birdan halok bo'lgan o'n ikkita bolalariga yig'lagan ona

*oldida maydoncha. Tun. Hamlet, Goratsio va Martsell arvohni kutadilar. Arvoх  
ko 'rinadi va Hamletni o 'sha tomon imlaydi.]*

Beshinchi sahna

*Maydonchaning olisroq tomoni. Arvoх va Hamlet kirib keladilar.*

Hamlet

Meni qayga sudraysan. Nari bormayman.

Arvoх

Yur orqamdan.

Hamlet

Yuraman.

Arvoх

Vaqt kelib qoldi.

Do'zaxning olovida kuyadigan vaqt.

Meni unda qiynarlar.

Hamlet

Bechora arvoх!

Arvoх

Achinmagin, astoydil menga ishongin,

Va qulоq os!

Hamlet

Vazifam – seni tinglamoq.

Arvoh

Hammasini eshitgach, qasos olgaysan.

Hamlet

Nima deding?

Arvoh

Otangning arvohiman men.

Bir muddatga kechalar daydib yurishga,

Kunduzlari do‘zaxda kuymoqqa bandman.

Dunyodagi umrimda qilgan gunohlar

Kuyib daf bo‘limguncha bu davom etar.

Haqqim yo‘qdir so‘ylashga zindonim sirin,

Yo‘qsa ochsam bu haqda senga qissamni,

Har bir so‘zdan qotardi vijdoning sening,

Qoning muzlar, ko‘zlarining yulduzday o‘ynar

Jingalak sochlaring-chi tekislanardi –

Va tikkayib turardi ignalar kabi.

Va lekin abadiyat shunday sadokim –

Dunyoviy qulqlarga etmog‘i mahol.

Sen otangni biron vaqt chin sevgan bo‘lsang,

Meni tingla, xo‘p tingla, tingla!..

Hamlet

Yo rabbiy!

Arvoh

Meni ablah o‘ldirgan. Qasosimni ol.

O‘ldirganmi?

Arvoh

Ha, shunday o‘ldirishki, bu –

Har turli o‘ldirishdan ming marta battar.

Hamlet

Tezroq gapir, toki men xayol kabi tez,  
Qanotlanib fikrimning otashi bilan,  
O‘chga uchay.

Arvoh

Azmingni ko‘rib turibman.  
So‘zlarimdan qonlaring jo‘shga kelmasa –  
So‘zla-chi, kim bo‘larding? – “Leta”da, ya’ni –  
Unutilish daryosi loyida o‘sgan –  
Baqa to‘ni bo‘larding beburd va sassiq.  
Endi, Hamlet, qulq sol, gap tarqaldiki –  
Go‘yo meni, bog‘chada uxlaganimda  
Ilon chaqib o‘ldirgan. Daniya ahli  
Bu soxta afsonaga aldanib ketdi.  
Endi bilgin, ey mening oliyzot o‘g‘lim,  
Ilon – otang qotili – bugun bemalol –  
Uning tojin kiyibdir.

Hamlet

A – karomatim!  
Qotil mening amakim?

Arvoh

Ha.  
Qondoshiga nomarddir va past zinokor.  
Xulqidagi makkorlik, shirinsuxanlik  
Hunarlarli shunchalik zo‘rki, shu bilan

Malikani ko‘ndirib nafsoniyatga  
O‘zi bilan o‘ynashmoq yo‘liga soldi.  
(Shunday yo‘ldan urguvchi hunarga la’nat!)  
Bilasanmi, bu qanday tushkunlak, Hamlet!  
Nikoh kuni qilingan ahdu paymonda –  
Sodiq qolgan u yuksak sevgim o‘rniga  
Bir yaramas maxluqqa quchoq ochmoqlik.  
Bu qanday bir tushkunlik!  
Ammo buzuq qancha ham jodu qilmasin –  
Sof axloqni buzishga ojiz bo‘lganday –  
Shahvoniy nafs farishta quchog‘ida ham  
Bezib gashtu rohatdan, havaslanadi –  
Murdor go‘shtiga...  
Jim bo‘l! Mayin shabada esa boshladi,  
Sahar yaqin. Kaltaroq qilay qissamni.  
Peshindan so‘ng bog‘chada uxlagan edim,  
Birdan sening amaking qo‘lida shisha,  
La’nati “zahri qotil” shishasin ushlab  
Asta keldi boshimga va u zaharni  
Quydi quloqlarimga. Bu madhish og‘u  
Qonga shunday dushmanki, simobdan ham tez  
Tomirlarda chopadi va oqlik tushgan  
Sut singari qonlarni uyutib qo‘yar.  
Shunday bo‘ldi mening ham holatim u chog‘,  
Birdan moxov Lazarning<sup>46</sup> badani kabi  
Qoplab oldi terimni yomon yaralar.  
Olib qo‘ydi, xullas gap uyqumda, ukam –  
Tojimni ham, jonimni ham, malikamni.  
Gunohlarim yetganda avji a’loga,

---

<sup>46</sup> Lazarъ – Injil afsonalaridan olingen bir ism. SHekspir davrida moxovlarni “Lazarъ” deb atashar edi.

Hali tavba-tazarru qilmasdan burun  
Men avf so‘rolmayin bobi-rahmatdan.  
Bo‘ynim barcha qora amallar bilan  
Jo‘natildim maydoni siyosatga tez.  
Oh bu dahshat, ko‘p dahshat, dahshatdir, inon.  
Sen o‘zingni otangga o‘g‘il deb bilsang  
Daniya shohlarining yotoqxonasi –  
O‘ynashlarga bo‘lmasin bir ishratxona!  
Ammo sening qasosing qancha qizmasin –  
Nomusingni bulg‘ama va o‘z onangga  
Yomon bir qasd aylama. Uning jazosi –  
Uning xudovandi ham vijdon azobi.  
Xayr endi, qarab ko‘r, yaltiroq qurtlar  
Tong chog‘in kutgan sayin nursizlanmoqda.  
Xayr endi alvido, meni unutma.

(*Ketadi*)

Hamlet

Ey zamin, ey osmon! Yana kim tinglar?  
Balki do‘zax qulog‘i? Chidab tur yurak?  
Oyoqlarim rost turing, aslo bukilmang!  
U dediki – “Unutma!” – seni unutmoq!?  
Modomiki, kallada yashar xotira –  
Modomiki, esim bor, seni unutmam.  
Men yodim daftaridan o‘chirib tashlab –  
Hissiyotning barcha ham nishonalarin,  
Go‘daklikdan miyaga yozilgan tamom –  
Kitoblarining so‘zlarin, barcha naqshlarin,  
Qissalarning hissasin o‘chiray, ammo –  
Ammo sening farmoning yagona kitob,  
Pokiza kitobdurkim u bo‘lar mazmun

Xayolimda yozilgan sahifalarga.  
Ey yaramas, past xotin, ey badzot maxluq:  
Ey kulgusi shirinu, yuragi qora.  
Buni yozib qo‘yayin, qani daftarim,  
Buni yozib qo‘yayki, kulgan odam ham  
Kulimsirab ko‘p ablah bo‘lmog‘i mumkin.  
Boshqa yurtda maholu Daniyada mumkin.

(*Yozadi.*)

Buni yozdim amakim, endi shiorim:  
“Xayr endi, alvido, meni umutma!”  
Bunga qasam ichaman.

II parda

Ikkinci sahna

Hamlet

Qoldim bir o‘zim.  
Oh, men qanday yaramas, olchoq bandaman!  
Bu qanday gap: o‘tkinchi bir aktyor munda –  
O‘z xayoli to‘qigan sezgilariga  
Shuurini shunchalik qaram qildikim –  
Mengzidan qon uchdi, ko‘zi yoshlandi,  
Tovushlari bo‘g‘ildi, butun turishi –  
Yuragini qaqqhatgan dardlarga oyna,  
So‘rsangiz: ne uchun shuncha dard, alam?  
Gekuba uchun emish!  
Gekubaga bu kimdur?  
Yo Gekuba bunga kim?  
Ammo bu-chi, noliydi shuncha yurakdan.  
Agar mening dardlarim bo‘lsaydi unda

Ne-ne mudhish to‘fonlar yog‘dirardi ul?  
Xunob bo‘lib zorlangan bo‘lardi sahna.  
Uning rolin ko‘rganda mot bo‘lib darhol  
Begunohlar, kamtarlar ibrat olardi.  
Qulog‘lar ham, ko‘zlar ham poymol bo‘lardi. A – men-chi:  
Ayanch, anqov, maxluqman, daydi, sarsari,  
Uyquaro yuraman. Bekorchi tanbal.  
Na o‘z haqim to‘g‘roli bir og‘iz gap bor,  
Na qirolning qasosi uchun harakat,  
Axir uni tojidan, uni jonidan  
Ko‘p jirkanch nayrang ila ajratdilar-ku!  
Yoki men qo‘rroqmanmi? Kimda jur’at bor?  
Qani menga shapaloq urmoqchimilar?  
Yo berurlar boladay o‘git-nasihat?  
Burnimdan ushlaydilar yoki bemalol –  
Meni beburd, yolg‘onchi ataydilarmi?  
Kim bu ishga ishqivoz? Dadil so‘ylasin?  
Hammasinga xo‘p deya tilxat beraman.  
Chunki mening jigarim – kaptar jigari,  
Chunki yo‘q jigarimda safroyu zarda.  
Bo‘lmasa men bu battol yirtqichni so‘yib  
Jasadim quzg‘unlarga tashlamasmidim!  
Oh, muttaxam, badaxloq! Qonxo‘r, yolg‘onchi,  
Zino qilib yuruvchi nomard badkirdor!  
Ox, intiqom!  
Qanday eshak ekanman o‘zim darvoqe!  
O‘ldirilgan otaning farzandi bo‘lsam,  
Men-chi, buzuq xotinday hasrat qilaman,  
Yoki doshnom beraman oqsochlar kabi!  
Tfu, la’nat! Uyg‘ongin, ey mening zehnim!

Qaydadur eshitgandim: go‘yo o‘tmishi  
Qorong‘u bo‘lgan kishi o‘z qilmishiga  
O‘xshashlik bir o‘yinni tomosha qilsa –  
Serpayib o‘z aybiga iqror bo‘larkan.  
Qotil qancha jim tursa, indamasa ham  
Bildirib qo‘yar ekan o‘z jinoyatin.  
Aktyorlarga topshiray tamoshoh chog‘i  
Otaming o‘limiga o‘xshashli biron  
Voqia o‘ynasinlar amakim uchun.  
Amakimdan ko‘z olmay qarayman o‘zim,  
Agar bo‘lsa bezovta – u yog‘i ma’lum.  
Biroq, ko‘rgan arvohim balki iblisdur.  
Istagan qiyofatga kirolur iblis.  
Balki shayton majolsiz holimni bilib,  
Meni halok qilgani dasisa qurgan!  
Ko‘rganimdan ham yaqqol dalillar lozim.  
Ular bu yozuvlarda. Endi sahnada  
Qirolning vijdoniga quraman tuzoq.

(Ketadi.)

III parda

Birinchi sahna

*Elsinor. Saroyda bir xona. Rozenkrants va Gildenstern qirolga Hamlet bilan qilgan suhbatlari haqida so‘zlaydilar. Qirol va Poloniy Hamletni Ofeliya bilan uchrashadirishga qaror qiladilar. Ofeliya kirib keladi.*

Poloniy

Bu yoqqa kel Ofeliya.  
Kezib turgin. – Hazratim, iltifot qilib,  
Bunga bekinmoqlikka tashrif buyuring!  
Qizim, bahona uchun shu kitobni ol.

Kitob bilan xilvatda yurish uzrlik. –  
Bizlardagi yaxshilik: tashqi taqvolik,  
Va mo‘min qiyofadan iboratdir, bil!  
Shunday qilib aldaymiz hatto shaytonni.

### Qirol

(o ‘z-o ‘ziga)

Oh, afsuski, bu gapi uning ko‘p to‘g‘ri!  
Bu so‘z meni qamchiday savalab oldi,  
Axir mening niqobli qilgan ishlarim –  
Bo‘yoqlari artilgan buzuq xotinning  
Yuzlaridan ming karra battar jirkanch-ku.  
Qanday azob!

### Poloniy

U kelmoqda bekinib olaylik, shohim.

*Qirol ham Poloniy ketadilar. Hamlet kirib keladi.*

### Hamlet

Tirik qolmoq yo o‘lmoq? Shudir masala!  
Qaysi biri bulardan bizga munosib?  
Shu dilozor falakning tahqirlariga  
Shikoyatsiz-shikvasiz chidab turmoqmi?  
Yo‘qsa, unga rad-badal berib qo‘zg‘almoq,  
Qurol olib yo yengmoq, yo mahv bo‘lmoqmi?  
O‘lish... unutilish. Masala tomom.  
Tanimizga o‘ralgan ming-ming tashvishning  
Zanjirin ilol-abad uzadi o‘lim.  
Zotan dilning azamat armoni shu-ku!  
O‘lmoq – g‘aflat tushida uxlamoq demak.  
Tushlar! Qanday tushlar u? Tushlar emish-a?

Dunyo tuyg‘ularidan tikilgan libos  
Go‘rda yechib olingan bo‘lsa, u holda  
O‘liklar uyqusiga kirarmi tushlar?  
Mana, hamma sirlarning hikmati shunda!  
Mana bizning hayotda g‘amlarimizning  
Muhlatin yildan-yilga cho‘zayotgan sir.  
Yo‘qsa, shu kiborlarning jaholatiga,  
Hokimlarning jabriga, soxta kibriga,  
Shu munofiq muhitning ayyorligiga,  
Biroviga hasrat ham qilolmaslikka,  
Muhabbatning xoru zor ezilishiga  
Mardaklarning ko‘zida har qanday himmat  
Anoyilik sanalib toptalishiga,  
Butun bu razolatga kim chidardi, kim?  
Vaholanki, xanjarning bitta zarbasi  
Bu mujmal tugunlarni yechar ko‘p oson.  
O‘limdan so‘ng, u yoqda nelar bo‘lg‘usi?  
U qanday bir diyorki, unga borgan ko‘p,  
Ammo hanuz qaytolgan biron yo‘lchi yo‘q?  
Bu vahima rom etar irodamizni,  
Noma’lum bir diyorga qochishdan ko‘ra –  
Bizga tanish baloga bo‘lamiz rozi?..  
Yo‘qsa tirikchilikning ziri-borida  
Holsirab yurmoqlikka kim ko‘nardi, kim?  
Bas, fikrimiz shu taxlit qo‘rqoqlashadi,  
Va aqlning boshi berk ko‘chalarida –  
So‘lib ketar bizdagi jasorat guli.  
Ko‘p umidli, qanotli niyatlarimiz  
Hadeb, nuqul orqaga siltanib qolib  
Barbod bo‘layotirlar. Endi bas, etar! –

Ofeliya! Quvonchim! Gunohlarimga –  
O‘z duoingda kechirim tila, ey pari!

Ofeliya

Bu o‘rtada, shahzodam, sihatlar qalay?

Hamlet

Ko‘p tashakkur, juda soz, juda soz, juda.

Afeliya

Menga siz bir hadya bergen edingiz,  
Allaqachondan beri o‘shani sizga  
Qaytib bermoqchi edim. Mana olsangiz!

Hamlet

Qo‘ying, endi, albatta siz yanglishasiz.  
Sizga umrimda sovg‘a bergen emasman.

Ofeliya

Yo‘q, bergansiz, shahzoda, yaxshi bilasiz.  
Har sovg‘aga ohangli so‘zlardan qo‘shib  
Sovg‘alarning qimmatin oshirgaysiz ham,  
Endi o‘sha so‘zalarning atri qolmabdi,  
Qaytib oling bularni. Iffatli qizlar  
Bevafolar sovg‘asin pisand qilmaslar,  
Oling bularni!

Hamlet

A-a-a! Siz iffatli qizmisiz?

Ofeliya

Milord?

Hamlet

Chiroyli ham siz?

Ofeliya

Janobi oliylari nima demoqchilar?

Hamlet

Demoqchimizki, agar siz iffatli va chiroyli bo‘lsangiz, sizdagi iffatning sizdagi chiroy bilan hech qanday ishi yo‘q.

Ofeliya

Husnga eng yaxshi yo‘ldosh iffat emasmi?

Hamlet

Bo‘lmasa-chi? Va albatta iffat husnni tuzatishga ulgura olmasdan, husn iffatni gumga tiqib qo‘yadi. Ilgari buni g‘alati gap deb qarashar edilar, hozir bo‘lsa bu isbotlangan. Men qachonlardir sizni sevar edim.

Ofeliya

Rostakam, shahzoda men shunga ishonar edim.

Hamlet

Bekorga ishonibsiz! Nadomat chekmagan kishi – batavfiqlik hamma ishi. Men sizni sevgan emasman.

Ofeliya

Demak, yana battar aldanibman.

Hamlet

Sen tanki dunyo qilib monastirga jo‘nagin! Bo‘lmasa bolalar tug“ib gunohkorlarni ko‘paytirish ne kerak? Men har holda bir nav axloqli kishidurman. Ammo menda ham koyiydigan nuqsonlar shu qadar ko‘pki, onam meni bekorga tug‘ibdi deb qo‘yaman ba’zan! Men juda takabbur, kekchi, xudbin bir kishiman. Mening qabohatlarim fikrlarimdan ko‘ra ko‘proqdir, ya’ni qabohatdarimni o‘ylashga yetarli fikrim, jonlantirishga yetarli xayolim va bajarishga yetarli vaqtim yo‘qdir. Menga o‘xshagan odamlarning yer bilan ko‘k o‘rtasida sudralib yurishlari nimaga ham kerak? Biz barchamiz turgan-bitganaldoqchilar. Bizning hech qaysimizga ishonma. Yaxshilik bilan monastirga bor. Otang qayerda?

Ofeliya

Uyda, milord.

Hamlet

Bo‘lmasa, u o‘sha uyining eshiklarini mahkamroq qulflash kerak, toki u faqat o‘z uy ichlarinigina ahmoq qilib tursin. Xayr endi.

Ofeliya

Xudovando, o‘zing bunga nusrat ber!

Hamlet

Sen agar erga chiqsang, seping la’natlar bo‘lur. Agar sen muzday toza va qorday pokiza bo‘lsang ham tuhmatlardan qutulolmaysan. Tarki dunyo qilib monastirga bor deyman senga, monastirga! Omon bo‘l! Juda er qilging kelsa, bir ahmoqni topib teg. Chunki eslik odamlar sizlarning maynabozchiliklaringizni juda yaxshi bilishadi. Tezroq tarki dunyo qil! Kechikma. Xayr endi.

Ofeliya

Ey yaratganim, bunga shifo ber!

Hamlet

Sizlarning hunarlaringizdan ham xabardorman. Parvardigor sizlarga bir bet bergen bo‘lsa, o‘z-o‘zlaringizga ikkinchi bir betni ham yasab olgansiz. Ichlaringda shunaqalari ham borki, qilmagan balosi, etmagan nayranggi yo‘q, ammo so‘rasang iffat, ma’sumlik, pokizalikdan lof uradi. Yo‘q, buning ketmaydi. Bas endi. Men bu masalada sarson bo‘ldim. To‘y degan gapga barham. Hozirgacha nikoh o‘qitib qolganlar, bittasidan qat’i nazar, salomat bo‘lsinlar. Uylanmaganlar esa shu taxlit qolaversinlar. Monastirga bor!

(*Ketadi*)

Ofeliya

Qanday nozik bir zehn barbod bo‘ldi, oh!

Unda bilim, fasohat, mardlik jam edi,

U bizning bayramimiz, umidlar guli,

Odoblarga, zavqlarga ul edi hakam,

U bir ko‘zgu edikim, nogahon, afsus –

Sinib bo‘ldi chilpora. Tamoman, tamom...  
Ammo men-chi? Dunyoda eng nochor xotin.  
Qalbimda bor u ichgan ontlardan asal.  
Lekin endi qudratli bu aqlu zako  
Yorilgan bir jom kabi shikast dirillar,  
Uning yigit chehrasin, sevimli yuzin –  
Majnunlik ajinlari qoplamish. Yorab!  
Qayga ketdi saodat? Oh sho‘r nasibam!

*Qirol ham Poloniy qaytib keladilar.*

### Qirol

Sevgimi? Yo‘q, bu emas uni aynitgan.  
Garchi uning so‘zida yo‘qdir silsila,  
Lekin, unda jinnilik belgisi ham yo‘q.  
Undagi hasratlarning qora qo‘ynida  
O‘sib turgan – sevgining gullari emas.  
Balki xavfli bir qasddir, bunisi yomon.  
Bu baloni men barvaqt qaytarmoq uchun  
Mana shunday tadbirni qarorga oldim.  
Unmay qolgan bojlamni yig‘ib olsin deb –  
Tezdan Angliyaga jo‘natsam uni.  
Balki dengiz havosi, yangi o‘lkalar,  
Har xil odamlar bilan muloqot, suhbat –  
Uni bekor band qilgan og‘ir illatni –  
Bir karra miyasidan daf qilar tamom.  
Qani, ayting, bu bobda fikringiz nima?

### Poloniy

Fikrimcha, bu fikringiz ancha o‘rinlik.

Lekin, shaxsan fikrimcha – uning illati  
Har holda bu shum sevgi balosidandur.  
– Shundaymasmi, qizginam? Mayli kerakmas  
Takrorlab o‘tirmagin Hamlet so‘zlarin,  
Biz o‘zimiz eshitdik. – Endi hazratim,  
Ixtiyor o‘zingizda. Maslahat shuki,  
Tomosha ado bo‘lgach Malika o‘zi  
Hamlet bilan xilvatda birpas ko‘rishsa,  
Xo‘b desangiz – gaplarin poylab eshitay.  
Malika ham Hamletdan sir ololmasa, –  
Amr sizdan. Jo‘nating Angliyaga,  
Yo qamab qo‘ying biron tegishli joyga.

### Qirol

Baayni shunday bo‘lgay! Mabodo jinni –  
Oliymaqom zot bo‘lsa, unga joy – zindon.

(*Ketadi*)

### V parda

#### Ikkinchı sahna

[Qasrda bir katta xona. Hamlet Goratsioga qirolning yovuz niyatli maktubini qo‘lga tushirgani va uning mazmunini o‘zgartirib, o‘limga Rozenkrants va Gildensternlarni yo‘llaganini aytib beradi. Ozrik qilichbozlik musobaqasi haqidagi qirol istagini xabar qiladi.]

*Qirol, Malika, Laert, Ozrik, mahramlar, qilich ushlagan navkarlar va boshqalar kirib keladi.*

### Qirol

To‘xta, Hamlet. Beri kel, bergen qo‘lingni.

(*Hamlet bilan Laertning qo 'lini qo 'shib qo 'yadi*)

Hamlet

Afv qiling afandim, men haqsiz edim.

Ammo siz – bekzodasiz, kechiring meni.

Bu yerga jam bo‘lganlar, hammasi bilar

Va sizga ham aytganlar balki haqimda!

Goho aqlu hushlarim xira bo‘ladi.

Sha’ningizga haqorat qilgan bo‘lsam men,

Ishoningiz, illati kasalligimda.

Hamletmikan javobgar? Yo‘q, Hamlet emas.

Hamlet – telba, Laertni haqorat etgan.

Demak bu ishni Hamlet o‘zi qilmabdi.

Kim aybdor? Hamletning devonaligi.

Demak Hamlet o‘zi ham da’vogar ekan.

Hamletning kasalligi – uning dushmani.

Hammadan ham baralla o‘tinamanki,

Meni g‘arazgo‘ylikda ayblamangiz!

Hamma bilsin: yo‘q edi sizga hech qasdim.

Tom ustidan o‘q uzsam, ul o‘q yanglishib

Birodarni yarador qilibdi, afsus!

Laert

Nafratlarga joy bo‘lgan qalbim qa’ridan

Men sizni afv ayladim. Ammo or-nomus –

Bo‘lak narsa, men buni kechirolmayman.

Bu xil nizl-janjalga, dono arboblar,

Xo‘p desalar yarashmoq bo‘ladi mumkin.

Ammo o‘sha choqqacha siz taklif etgan

Do‘stlikka do‘stlik bilan javob berurman.

Hamlet

Bunga shodman. Taklifni xotirjam bo‘lib

Qabul qildim. Boshlaylik! – Qani qilichlar?

Laert

Menga qilich!

Hamlet

Men sizga ojiz raqibman.

Chunki, sizning qilichda shovvozligingiz

Men bilan taqqoslasa, yulduzday porlar.

Laert

Mendan kulayotirsiz...

Hamlet

Yo‘q, unday emas –

O‘lay agar men sizni masxara qilsam.

Qirol

Qilichlarni siz bering ularga Ozrik.

Bilasizmi olishuv shartlarin, Hamlet?

Hamlet

Balli shohim, lekin siz garovingizni

Mendan kuchsiz tomonga tikkansiz, ajab?

Qirol

Bu noto‘g‘ri. Ikkizingiz ham menga ma’lum.

U garchi mohir, ammo imtiyoz sizda.

Laert

Boshqa qilich beringiz. Bu menga og‘ir.

Hamlet

Bu menga bop. – Ikkala qilich tengmikan?

Ozrik

Balli, aziz shahzodam.

(*Olishuvga hozirlanadilar*)

Qirol

Sharob keltiring. –

Hamlet ikki zARBANI yetkizgach, yANA –  
Uchinchi zARBANI ham qaytarsa, darhol  
HamleTning sharafiga to‘plar gurlasin.  
Qirol ham may ko‘tarar uning sha’niga.  
Hozir qiroL qadahga bir inju tashlar.  
Bir injuki, Daniyaning to‘rtta qiroli  
O‘z tojini bezatgan durdonalardan  
Yana qimmatbahodir. Qadahlar tuting.  
Surnaylar karnaylarga, ular to‘plarga  
Zambaraklar ko‘klarga, ko‘klar yerlarga  
Na’ra solib bildirsin: Daniya shohi  
HamleTning sog‘lig‘iga may ko‘tarmoqda!  
Boshlagaymiz! Hakamlar, yaxshilab qarang!

Hamlet

Tayyorlaning!

Laert

Boshladim.

*(Urisha boshlaydilar)*

Hamlet

Bu – bir!

Laert

Qaytardim

Hamlet

Hakamlar, qarab ko‘ring!

Ozrik

Bir zarba, hisob.

Laert

Ikkinchisin boshlaylik!

Qirol

Birpas to‘xtang, ichaylik! Sog‘ bo‘lgin, Hamlet.

Mana inju seniki. – Senga bu qadah.

*Sahna orqasidan karnay va to ‘p sadolari.*

Hamlet

May – bemahal. – Boshlaylik! Jadalroq bo‘ling!

*(Urishadilar)*

Yana bir zarb! To‘g‘rimi?

Laert

Iqrorman, zarba!

Qirol

O‘g‘limiz yengayotir.

Malika

Toza terlabdi.

Mana Hamlet, ro‘molcham. Qizib ketibsan.

Men malika, ichaman g‘alabang uchun!

Hamlet

Qulluq, onam...

Qirol

Gertruda, ichma sharobni.

Malika

Ichgim keldi. So‘rayman, ijozat bering.

Qirol

*(O ‘ziga o ‘zi)*

Bu qadah zaharlidir! Endi yo‘q najot.

Hamlet

Yo‘q onajon, siz bilan ichishim barvaqt.

Malika

Kel, yuzingni bir marta artib qo‘yayin.

Laert

Endi, zarba men beray!

Qirol

Bunisi gumon.

Laert

(*O‘zi-o‘ziga*)

Qanday og‘ir vijdonga bu qabohatlar.

Hamlet

Bu gal, Laert, hazilni yig‘ishtirgaysiz.

Hujum qiling, so‘rayman, qonuniy, jiddiy.

Yo‘qsa, hazil qilasiz, deb gumondaman.

Laert

Xo‘sh, fikringiz shundaymi? Keling bo‘lmasa,

(*Urishadilar.*)

Ozrik

Durang bo‘ldi.

Laert

Zarb berish shunday bo‘ladi!

(*Laert Hamletni yaralaydi. So‘ngra olishuv qiziganda ular qilichlarini almashtiradilar. Hamlet ham Laertni yaralaydi.*)

Qirol

Tez ajratib qo‘yinglar! Bunday bo‘lmaydi.

Hamlet

Yo‘q, qaytadan!

(*Malika yiqiladi.*)

Ozrik

Yordamga, malika behol!

Goratsio

Ular qonga belandi. – Qon qaydan, milord?

Ozrik

Laert, bu qon qayerdan?

Laert

Xo‘p qo‘lga tushdim.

Men bir tuzoq qurgandim epchillik qilib,

Endi o‘zim tushibman o‘sha tuzoqqa.

Hamlet

Malikaga ne bo‘ldi?

Qirol

U qonni ko‘rib

Bir oz esdan ketibdi.

Malika

Yo‘q, yolg‘on, Hamlet,

– Sharob, sharob! Zaharli sharob!

( *O‘ladi.*)

Hamlet

Xiyonat bor o‘rtada! Aybdor kimdir?

Xoinni topmoq kerak!

Laert

Dalil qo‘lingda!

Hamlet, sen o‘ldirilding. Senga davo yo‘q.

Hayotingning muhlati yarim soatcha,

Dalillari qo‘lingda. U tig‘ zaharli.

Bu fe’limdan bo‘lurman o‘zim ham halok.

Malika yo‘q. Yo‘q mador ko‘p so‘zlashimga.

Hammasiga aybdor qiroldir, qirol!

Hamlet

Ha... qilichga ham zahar surkalganmi, ha?!

Qani zaharli shamshir, joyingni topgin!

(*Qilich bilan qirolni yaralaydi.*)

Hamma

Xiyonat!

Qirol

Hay, do'stlarim, qutqazing meni!

Faqat jarohat yedim. Hali najot bor!

Hamlet

Bo'lmasa ol, soxtakor, odamxo'r, jallod!

O'z injungni may bilan bir yutib ko'r-chi!

Bor onamning yoniga!

(*Qirol o'ladi.*)

Laert

Ajab bo'libdi:

Bu sharobni u o'zi tayyor qilgandi.

Qani, kel olajanob Hamlet, men kechdim:

Otamning ham o'zimning xunimdan. Sen ham –

O'z xuningdan kecha qol! Yo

(*O'ladi.*)

Hamlet

Xudovando kechirgin! Men ham ketingdan...

Goratsio, ish tamom. Xayr malika!

Sizlarga-chi? Bu qonli dahshatni ko'rgan

Va indamay tomosha aylaganlarga –

Oh, agar muhlat bo'lsa, aytib berardim.

– Ammo o'lim, ko'p anqov bir soqchidirki,

Qo'ymay-netmay sudraydi bizni yo'liga. –

Oh, sizlarga ko'p narsa aytgim bor edi...

Bu ham mayli. Goratsio, hamma ish tamom.

Sen-ku tirik. Bu ishdan bexabarlarg

So‘ylagin men to‘g‘rida bor haqiqatni.

Goratsio

Qanday mumkin! Menda bor rimliklar xulqi.

O‘xshamasman Daniya avlodiga men.

Menga yetarli zahar bu qadahda bor.

Hamlet

Agar mard bo‘lsang,

U qadahni menga ber. Ber, deyman senga!

Bu voqea tamoman qorong‘i qolsa –

Meni besharaf o‘ylar kelgusi avlod.

Yo‘q, sen meni do‘sst desang, vaqtinchal to‘xta,

Bir muddat kutib turgin jannat lazzatin.

Bu sertashvish dunyoda bir oz yur hali,

Insonlarga tushuntir sho‘r yozmishimni.

(*Sahna orqasidan marsh ham miltiq tovushlari*)

Bu o‘q uzishlar nega?

Ozrik

Polshadan g‘olibona qaytib o‘tarkan

Ingliz elchilarin qutlar Fortinbras.

Hamlet

Goratsio, men o‘laman. Zaharning kuchi

Meni behol ayladi. Angliya yoqdan

Xabarlar to kelguncha, yumilar ko‘zim.

O‘ylashimcha, Fortinbras qirol bo‘lg‘usi.

Men ham o‘z ovozimni unga beraman.

Unga bat afsil aytgin bu mojaroni.

Keyin esa jim, sukut!

(*O‘ladi.*)

Goratsio

Tinib qoldi ko‘p nodir bir yurak. Uxla,  
Farishtalar qo‘shig‘i seni tinchitsin!  
Kim ekan, bu nog‘ora urib kelganlar?

(Sahna orqasidan marsh chalinadi. Baraban-nog‘ara tovushlari, bayroqlar va mahramlari bilan birlikda Fortinbras ham ingliz elchilari kirib keladilar.)

Fortinbras

Qayerda o‘tdi o‘sha qonli mojaro?

Goratsio

U qanaqa mojaro? Ha, bu mojaro,  
Bu mislsiz motamning makoni shu yer.

Fortinbras

Ehtiroslar javloni tinmabdi hali.  
O‘limning dargohida katta ziyofat.  
Chunki shuncha jasadni surishtirmasdan  
Qonli dasturhoniga uyib tashlagan.

Birinchi elchi

Dahshatdir dahshat.  
Angliya xabarlari kechikib qoldi.  
Farmoni bajarildi, desak – ko‘p mammun  
Bo‘ladigan bu qirol, hozir eshitmas!  
Rozingrants ham Gildenstern qatl etilganlar.  
Kim bizga rahmat aytar?

Goratsio

U ayta olmas!  
U tirik bo‘lganda ham buni aytmasdi,  
Ularni o‘lsin degan emasdi, qirol.  
Modomiki, Polshadan va Angliyadan  
Kelayotgan yo‘lingiz bunda tutashar,  
Buyuringiz, jasadlar tizilsin qator,

Men ham baland bir joydan aytay baralla –  
O‘tgan-bitgan jamuljam sarguzashtlarni.

Men hammaga hikoya qilib beraman:  
U dahshatli, insofsiz, qonli ishlardan.  
Yanglishib o‘ldirishlar, zolim falakdan,  
Axir jazosin tortgan riyokorlikdan,  
Gunohlar to‘kilgan makru hiyladan,  
Nihoyat, xoinlarning mahv bo‘lishidan.  
Men batamom aytaman ularning barin.

Fortinbras

Qani, darhol eshitsak bu mojaroni,  
Shu uchun chaqirilsin oliv bir kengash,  
Noqulay bir soatda menga qo‘ndi baxt.  
Bu o‘lkaga mening bor qonuniy haqim.  
Bor mo‘tabar vasiqam.

Goratsio

Bu to‘g‘rida ham  
U kishidan berilgan menga vakolat.  
Chunki uning ovozi taqdir bilan teng.  
Hozir hamma aqllar qizg‘in oshifta,  
Tag‘in yangi bir balo chiqib qolmasin.  
Shoshilaylik!

Fortinbras

Hamletni to‘rtta mulozim –  
Sipohlarga yarasha so‘riga qo‘ysin.  
Tirik qolsa u albat bo‘lardi qirol.  
Uni harbiy nizomning usuli bilan,  
Harbiy musiqa chalib ko‘tarinqlar tez.  
Qolgan jasadlarni ham ko‘tarib chiqing!  
Jasadlar yig‘indisi bu yerga emas

Balki, jang maydoniga mos tushar, xolos,

O‘q uzishga berilsan hozir qo‘monda.

*Motam marshi. Jasadlarni olib chiqadilar. Bundan keyin zambaraklardan  
yalpi o‘q uzish.*

(M.Shayxzoda tarjimasi)

## Sonetlar

\* \* \*

Kim qulay soatda tug‘ilgan ekan,  
Shuhratu davlatdan baland dimog‘i.  
Menga iltifotni tole kim qilgan,  
Menga muhabbatdir baxtlar bulog‘i.

Shahzoda mahrami, bekning ulfati,  
Vallomat lutfidan sharob ichadi,  
Qachonkim, oftob botib ketadi,  
Kungaboqarning ham zari uchadi.

Zafarlar erkasi mashhur sarkarda,  
Oxiri urushda engilsa bir kun,  
Butun xizmatlari puch bo‘lar birdan,  
Uning shum qismati sokitlik, surgun,  
Mening unvonimga yo‘q zavol kuni:  
Sevdimu, sevaman, sevarlar meni.

\* \* \*

Dunyodan, falakdan bo‘lsam darg‘azab,  
Boshimga kelganda falokat qator,  
Men garang va loqayd samoga qarab,  
Yalinaman, ammo bu hech qilmas kor.

Sho‘rlik qismatimdan nuqul noliyman,  
San’atda, ijodda sovrinlar olgan,  
Elning arzandasи umidga to‘lgan  
Baxtlilar o‘rnida bo‘lsaydim, deyman.

Shu damda bexosdan kelasan yodga,  
O‘zim sustligimni qarg‘ayman paqqos,  
Bo‘ysunmay falakka va samovatga,  
Ruhim to‘rg‘ay kabi qiladi parvoz.

Sening sevging bilan xotirang bilan  
Dunyo shohlarining biridan zo‘rman.

\* \* \*

Birov rosa maqtanadi nasabi bilan,  
Birov boylik, birov mulki, bisoti bilan,  
Birov kuchi, birov temir asabi bilan,  
Birov lochin, iskovich it va oti bilan.

Odamlarda har xil havas, ishqibozlik bor,  
Ammo har kim uchun faqat bittasi afzal.  
Men bir narsa bilan bo‘ldim g‘oyat baxtiyor,  
Faqat o‘sha taqdirimni qila oldi hal.

Sening sevging qimmatroqdir javohirlardan,  
Qadrliroq erur shohlar toju taxtidan.  
Go‘zalroqdir zarbof libos, oltinu zardan,  
Yoqimliroq ovchilarning omad bixtidan.

Ha, istasang hammasini olishing mumkin,  
Meni mangu gadolikka solishing mumkin.

(Uyg‘un tarjimasi)

\* \* \*

Fe'lingda pinhonki nohaqlid, yolg'on, –  
Oqlamoqqa majbur qilmog'ing bekor.  
Undan ko'ra sindir kuchni kuch bilan,  
Makr ila sen meni etma yarador.

O'zgani sev, ammo uchrashgan zamon  
Ko'zlariningni mendan olib qochma hech.  
Ishqing saqlaguvchi ko'ksim beqalqon  
Kipriklaring garchi yalang'och qilich.

Ko'zlarining qudrati o'zingga ayon,  
Mendan nigohingni uzib, oqibat –  
O'zgalarning ko'ksin olarsan nishon,  
Ki menga ko'rsatmoq bo'larsan shafqat.

O, shafqatingni qo'y! Nigohing mayli  
O'ldirsa o'ldirsin ishqim tufayli.

(*Yusuf Shomansur tarjimasi*)

## **Jaxon adabiyoti tarixi (G‘arbiy Yevropa) bo‘yicha test savollari**

**1. “Antik adabiyot” deganda kaysi adabiyot tushuniladi?**

- A. Qadimgi hind adabiyoti;
- V. Qadimgi Misr adabiyoti;
- S. Xitoy adabiyoti;
- D. Qadimgi Yunon va rim adabiyoti;

**2. Qaysi qatorda faqat qadimgi Yunon mifologiyasidagi ma’budlar keltirilgan?**

- A. Esxil, Agamemnon, Poseydon;
- V. Edip, Zevs, Artemida;
- S. Zevs, Aid, Gelios;
- D. Germes, Afina, Sepfo

**3. “To‘maris”, “Shiroq” singari qadimgi qahramonlarimiz haqidagi ma’lumotlar qaysi antik davr mutafakkirlarining asarlarida keltirilgan?**

- A. Hesiod, Sofokl
- V. Gerodot, Polien
- S. Esxil, Plutark
- D. Fukdid, Arastu

**4. Qadimgi Yunon lirkasining atoqli vakili va ixtiro qilgan turli-tuman vaznlari monodik lirkani yuksak san’atkorlik cho‘qqisiga ko‘targan shoir.**

- A. Sapfo
- V. Anakreont
- S. Alkey
- D. Arxilox

**5. “Adabiy faoliyatini juda erta boshlagan va 20 yoshga yetar-yetmas komediyanavislар musobaqasida ikkinchi o‘rinni egallagan. Faoliyati davomida yaratgan qirqdan ortiq komediyalaridan 11 tasi u yoki bu darajada saqlanib qolgan”. Ushbu ma’lumotlar qaysi ijodkorga taalluqli?**

- A. Plavt
- V. Aristofan
- S. Kratin
- D. Evpolid

**6. «Tragediya» so‘zining asl ma’nosi nima?**

- A. Masxarabozlar qo‘shig‘i
- V. Motam kuyi
- S.Taka qo‘shig‘i
- D. Baxshi qo‘shig‘i

**7. Homerning qaysi qahramoni tovonidan yaralanib xalok bo‘ladi?**

- A. Agamemnon.
- V.Menelay.
- S.Axilles
- D.Hektor

**8. Kim o‘ninchи yili Ilionning ishg‘ol qilinishini bashorat qilgan?**

- A. Odissey.
- V. Laert.
- S.Eney.
- D. Kalxas.

**9. “Metamorfozalar” dostonida tasvirlangan, birinchi bo‘lib parvoz qilgan ota-bolalar kimlar?**

- A. Lay va Edip
- V. Dedal va Ikar
- S. Prometey va Devkalion
- D. Priam va Paris

**10. Goratsiy “Epodlar” to‘plamining 14-qasidasida Rimni nimaga o‘xshatadi?**

- A. Katta kemaga
- V. Katta qushga
- S. Uchqur tulporga
- D. Mehribon ota-onaga

**11. Goratsiyning “Nomalar” asariga antik dunyoda qanday nom berilgan?**

- A. “Sevgi ilmi”
- V. “Siyosat ilmi”
- S. “She’riyat ilmi”
- D. “Tarbiya ilmi”

**12. Mis haykallar quyilar bukungidan nozikroq,**

Bukungidan nozikroq naqsh o‘yilar marmarga.  
Adolat minbarida zo‘rroq so‘zlar aytilar,  
Osmon harakatini solajaklar targarga.  
Ko‘rsaturlar falakda yulduzlarning joyini,  
Sen ey, ellarga hokim bo‘lmoqqa qodir rumiy.

**13. Vergiliyning Rimning istiqboliga bag‘ishlangan yuqoridagi misralar qaysi asaridan olingan?**

- A. “Bukolikalar”
- V. “Georgikalar”
- S. “Epodlar”
- D.“Eneida”

**14. Qaysi qatorda faqat ritsarlik she'riyati janrlari ko'rsatilgan?**

- A) roman, drama, kanson
- V) alba, kanson, sirventa
- S) alba, kanson, avliyonom
- D) avliyonom, fablio, sirventa

**15. Ritsarlik romanlarining Britan turkumiga kiruvchi asarni belgilang**

- A) «Okassen va Nikolet»
- V) «Tulki haqida roman»
- S) «Eney haqida roman»
- D) «Tristan va Izolda»

**16. Ritsarlik romanlari nechta turkumga bo'linadi?**

- A) 2 ta
- V) 4 ta
- S) 3 ta
- D) 5 ta

**17. XII asrdagi Vizantiya va Sharq bilan savdo-sotiqning rivoji va shaxarlar mavkeining oshuvi kaysi adabiyotni rivojiga turtki bo'ldi?**

- A) Ritsarlik adabiyoti;
- V) Shahar adabiyoti;
- S) Klerikal adabiyot;
- D) Uygonish adabiyoti;

**18. O'rta asrlar adabiyotida axlokiy xarakterdagi dramatik asar qanday nomlangan?**

- A) moralite;

V) mirakl;

S) fars;

D) misteriya;

**19. Yevropa o‘rta asrlar qahramonlik eposining ilk namunasi?**

A. “Beovulf” dostoni.

V. “Roland haqida qo‘shiq”.

S. “Sid haqida qo‘shiq”.

D. “Nibelunglar haqida qo‘shiq”.

**20. “Beovulf” dostoni qahramoni jangda kimni engadi?**

A.Qirol Xrotgarni .

V. Dahshatli dengiz maxluqi Grendelni.

S.Kainni..

D. Jangchi Xigelakni.

**21. “Roland haqida qo‘shiq” dostoniga qaysi real voqeas asos bo‘lgan?**

A. 778- yili Pireney tog‘larida Karl arergardining tor-mor etilishi.

V. 1100- yilgi Ispaniya va Fransiya qo‘shinlarining jangi.

S. 956-yili Alp tog‘larida Bretan armiyasining mag‘lubiyati.

D. Ronseval darasidagi Ganelonning xoinligi.

**22. Qirol Artur haqidagi o‘rta asr ritsarlik romanlari kim tomonidan to‘plangan?**

A. Tomas Melori.

V. Kekston.

S. Peyre Vidal.

D. Valter fon der Fogelveyde.

**23. Qirol Artur birinchi jangida kimga qarshi kurashdi?**

- A. Qirol Lotga qarshi.
- V. Merlinga qarshi.
- S. Qirol Karadosga qarshi.
- D. Qirollarga qarshi.

**24. Qirol Artur haqidagi romanda po‘lat sandon ostidagi qilichga oltin harflar bilan nima yozilgan edi?**

- A. “Kimda kim ushbu qilichni sandon ostidan chiqara olsa, g‘olib bo‘ladi”.
- V. “Kimda kim ushbu qilichni sandon ostidan chiqara olsa, malikaga uylanadi”.
- S. “Kimda kim ushbu qilichni sandon ostidan chiqara olsa, barcha ingliz erlariga qiroq bo‘ladi”.
- D. “Kimda kim ushbu qilichni sandon ostidan chiqara olsa, Angliyani sehrus-jodudan xalos qiladi”.

**25. Dantening «Yangi hayot» to‘plami kimga bag‘ishlangan?**

- A. Lauraga;
- V. Krimxildaga;
- S. Beatrichega;
- D. Panelopaga;

**26. Petrarkaning qaysi asari Vergiliyning «Eneida» dostoniga taqlidan yozilgan?**

- A. «Afrika»;
- V. «Osiyo»;
- S. «Rim»;
- D. «Gannibal»;

**27. Yaratilishiga 1532 yilda nashr etilgan ulkan odamlar haqidagi kitob sabab bo‘lgan asar nomi?**

- A) «Gulliverning sayohatlari»;
- V) «Haptameron»;
- S) «Vasiyat»;
- D) «Gargantuya va Pantagryuel»;

**28. Keyingi davrlar fransuz adabiyotiga, xususan Moler va Lafonten ijodiga katta ta'sir o'tkazgan asar kaysi?**

- A) «Roland jangnomasi»;
- V) Rable. «Gargantuya va Pantagryuel»;
- S) Rasin. «Fedra»;
- D) M. Navvarskaya. «Xaptameron»;

**29. Shekspirning tarixiy xronikalar turkumidagi dramalarining yaratilishiga asos bo'lgan manba?**

- A. Yu. Sezarining “Gall urushi xronikalari” asari;
- V. Xolinshedning “Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari” asari;
- S. Gerodotning “Tarix” asari;
- D. Shekspir yashagan davrdagi tarixiy voqealar

**30. Qaysi qatorda Shekspir tragediyalarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girgan tarjimonlar ko'rsatilgan?**

- A. G'.G'ulom, M.Shayxzoda, J.Kamol;
- V. Uyg'un, E.Vohidov, A.Oripov;
- S. B.Boyqobilov, A.Muxtor, H.Sharipov;
- D. Oybek, H.Olimjon, Q.Mirmuhamedov

**31. «Zamona shunday: so‘qirlarni tentak yetaklar» ushbu so‘zlar Shekspirning qaysi asaridan olingan?**

- A. «Yuliy Sezar» - Sezar;
- V. «Otello» - Yago;
- S.«Kirol Lir» - Gloster;
- D. «Romeo va Juletta» - Romeo;

**32. “Qirol Lir” tragediyasida nechta syujet liniyasi birlashtirilgan?**

- A.1.
- V. 3.
- S. 4.
- D. 2.

**33. “Dekameron”ning asosiy hikoyachilari kim?**

- A. Muallifning o‘zi;
- V. 3 qiz va 7 yigit;
- S.3 yigit va 7 qiz;
- D. Xalq;

**34. “Dekameron”da asar voqealari nimadan boshlanadi?**

- A. shaharda vaboning tarqalishidan;
- V. Yigit va qizlarning sayohatidan;
- S. Yigit va qizlarning hikoyaxonligidan;
- D. Urush voqealari bilan;

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Алимухамедов Н. Антик адабиёт тарихи Т., 1980.
2. Тронский Н. История античной литературы, М., 1980.
3. Қаюмов О. “Чет эл адабиёти” Т.: Ўқитувчи, 1987
4. Борисова И.Ф., Эрматов Б.С. “Ўрта асрлар Гарбий Европа адабиётлари равнақининг замонавий концепсиялари” Т.: ”Университет” 1994.
5. Сулаймонова Ф. “Шарқ ва Гарб” Т.: “Ўзбекистон” 1997.
6. Сулаймонова Ф. “Шекспир Ўзбекистонда”. Т.: “Фан”, 1978.
7. Қуронов Д, Раҳмонов Б. Гарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари Т.: “Фан”. 2008.
8. Каримов Ш. Немис адабиёти тарихи. Т.: “Мумтоз сўз”, 2010.
9. Сайдов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. Т.: “Академия”, 2004.
10. Антик адабиётдан хрестоматия. Рим адабиёти/ Ойбек. МАТ, XV том.Т.: “Фан”, 1980.
11. Жаҳон адабиёти тарихи. ЎУМ, ЎзМУ 2011. Ўзбек филологияси факултети кутубхонаси.
- 12 . Ш.Норматова. Жаҳон адабиёти. Т.: “Маънавият”, 2008.
13. Йўлдошев С. ва б. Қадимги ва Ўрта асрлар Гарбий Европа фалсафаси. Т., 2003.
16. Хўжаев С. Немис адабиёти тарихи.: “Фаргона”, 2004.
17. Болтабоев X., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жадд: Қадимги давр. Т.: “Мумтоз сўз”, 2012.
18. Толстой Л.Шекспир ва драма тўғрисида/ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Т.: “Маънавият”, 2010.

## BADIY ADABIYOTLAR

1. Кун Н. Қадимги юонон афсонаси ва ривоятлари . Самарқанд: “Зарафшон”, 2005.
2. Ҳомер. Илиада, Т., F.Ғулом ном. адаб. ва санъат, 1998.
3. Ҳомер. Одиссея // Жаҳон адабиёти, 2001, № 8.
4. Эзоп. Масаллар. Т.: “Akademlashr”, 2011.
5. Эсхил. Занжирбанд Прометей, Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1976.
6. Софокл. Шоҳ Эдип, Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1979.
7. Плутарх. Сайланма, Т.: “Янги аср авлоди”, 2006.
8. Данте. Илоҳий комедия, Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1975.
8. Боккаччо Ж., Декамерон, Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1978.
9. В.Шекспир. Танланган асарлар. Беш жилдлик. Биринчи жилд. Т.: 2008.
10. Гюнтер де Бройн. «Тристан ва Изолда». Т.: «Ўзбекистон», 1994 йил.
11. Шекспир. Сайланма. 3-жилд. Т.: 2008.
12. Д. Дефо. Робинзон Крузонинг ҳаёти ва ажойиб саргузаштлари. Т.: “Янги аср авлоди”, 2013.
13. Ж.Боккаччо. Декамерон. Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1978.
14. Ф.Рабле. Гарантюа ва Пантагрюел. Т.: “Ёш гвардия”, 1970.
15. Faфур Ғулом. Муқаммал асарлар тўплами. IX том Т.: “Фан”, 1988.
16. Ж.Свифт. Ғаройиб саргузаштлар. Т.: “Юлдузча”, 1988.
18. Сапфо. Алкей. Анаkreонт. Шеърлар. // “Жаҳон адабиёти” . 2005 № 6.
- 19 Сенека. “Нома I”, “Нома II”, “Нома VII”.//“Жаҳон адабиёти” 2005 № 11.
20. Сенека. “Нома XXXXI” //“Жаҳон адабиёти” . 2006 № 7.
21. Кай Валерий Катулл. “Лесбияга”, “Чумчуқнинг ўлимига”// “Жаҳон адабиёти” . 2013 № 1.
22. Шекспир сонетлари. //“Жаҳон адабиёти”. 2013 № 8.
- 23 Шекспир “Ҳамлет”. “Жаҳон адабиёти” . 2013 № 10.
24. Англия шеърияти. Халқ балладалари. “Қузғун учар қузғун томон...”, “Робин Гуд шерифни қандай меҳмон қилгани ҳақида”, “Эшикни ёп, кампир!”// “Жаҳон адабиёти” . 2014 № 5.
25. WWW. literatura. uz

# **YOZUVCHILAR VA BADIY ASARLARNING ALFAVITLI RO‘YXATI**

## **- A -**

- Alkey (*miloddan avvalgi 630-620 yy. tug‘ilgan qadimgi Yunon shoiri*)
- Anakreont (*miloddan avvalgi 559-478 yy. Yashagan Yunon monodik lirkasining yirik vakili*)
- Aristofan (*miloddan avvalgi 446/445-385 yy yashagan qadimgi Yunon komediyanavis shoiri*)
- “Artemidaga” – *Anakreontning she’ri*
- “Arturning o‘limi” – *roman angliyalik Tomas Melori tomonidan kitob xolatiga keltirilgan*

## **-B-**

- Bokkachcho (*1313-1375 yy. yashagan italiyalik mashhur yozuvchi*)
- “Beovulf” – *X asrda anglosakson tilida yozilgan doston*

## **-D-**

- Dante Aligeri(*1265-1321 yy*) – *Italiya Uyg‘onish adabiyotining ulug‘ shoiri*
- “Dekameron” – *J.Bokkachchoning novellalar to‘plami*
- “Don Kixot” – *Servantesning romani*

## **-E-**

- Ezop(Akadroz) (*tax . m.a. VI asrda yashagan yarim afsonaviy Yunon masalchisi*)
- Esxil (*miloddan avvalgi 525-456 yy. yashagan qadimgi Yunon fojeanaxisi, “tragediyaning otasi”*)
- Evripid (*miloddan avvalgi 484-406 yy. yashagan buyuk Yunon tragik shoiri*)
- “Eneida”, “Bukolikalar” , “Georgikalar” – *Vergiliyning dostonlari*

- “Epodlar”, “Satiralar”, “Nomalar”, “Haykal” *Goratsiyning asarlari*

-G-

- Goratsiy (*miloddan avvalgi 65 yilda tug‘ilgan. Qadimgi Rimning buyuk shoiri*)

- “Gargantuya va Pantagryuel” – *F.Rablening romani*

-H-

- Hesiod (*miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda yashagan ilk Yunon shoirlaridan biri*)

- Homer (*tax. miloddan avvalgi VIII asr*)

- “Hamlet” – *Shekspir tragediyasi*

- “Haykal” – *A.S.Pushkin she’ri*

- “Humcha” – *Plavtning komediyasi*

-I-

- “Iliada” – *Homerning dostoni*

- “Ilohiy komediya” – *Dante Aligerining asari*

-K-

- Katull (*miloddan avvalgi 87-55 yy. yashagan Rim lirik she’riyatining mashhur vakili*)

-M-

- “Masallar” – *Ezopning asari*

- “Maktublar” – *Senekaning ahloqiy-falsafiy asari*

- “Medeya” – *Evripid tomonidan yaratilgan tragediya*

- “Men senga sig‘inaman” – *Sapfoning she’rlari*

- “Metamorfozalar” – *Ovidiyning epik dostoni*
- “Mehnat va kunlar” – *Hesiodning didaktik dostoni*

-O-

- Ovidiy (*miloddan avvalgi 43-milodiy 17 yy. yashagan Rim elegiyasini yuqori cho ‘qqilarga olib chiqqan mashhur shoir*)
- “Odisseya” – *Homerning dostoni*

-P-

- “Psevdol”— *Plavtning komediyasi*
- Petrarka (*1304-1374 yy. yashagan buyuk italyan shoiri*)
- Plavt (*tax. miloddan avvalgi 250-184 yy. yashagan qadimgi Rimning ulug‘ komediyani aish shoiri*)
- Plutarx (*45-120 yildan keyin yashagan ulug‘ Yunon yozuvchisi va faylasufi*)

-Q-

- “Qirol Genrix IV” – *Shekspir qalamiga mansub drama*
- “Qurbaqlar” – *Aristofanning komediyasi*

-R-

- Rable (*1494-1553 yy.) Fransuz Uyg‘onish davrining eng yirik yozuvchisi*
- “Roland haqida qo‘shiq” – *XI-XIV asrlarda Fransiyada paydo bo‘lgan doston*
- “Rohibning qo‘ng‘ir sigiri haqida”, “Renar va chittak” – *shahar she’riyati namunalari*

-S-

- Sapfo (*miloddan avvalgi 612-yilda tug‘ilgan qadimgi Yunon shoirasi*)
- Seneka (*taxminan miloddan avvalgi 4- milodiy 65 yillarda yashagan Rim yozuvchisi, faylasufi, davlat arbobi*)
- Servantes (*1547-1616 yillarda yashagan Ispaniya Uyg‘onish adabiyotining ulug‘ yozuvchisi*)
- Sofokl (*miloddan avvalgi 496-406 yy. yashagan buyuk Yunon tragik shoiri*)
- “Sonetlar” – *Petrarka tomonidan yaratilgan she’rlar*

-T-

- “Tong qo‘shig‘i” – *O‘rta asr nemis shoiri V. fon Eshenbax she’ri*
- “Tristan va Izolda” – *Gyunter de Broyn tomonidan qayta ishlangan doston*

-V-

- Vergiliy (*miloddan avvalgi 70 yilda tug‘ilgan Rimning ulug‘ shoiri*)
- Volfram fon Eshenbax

-SH-

- Shekspir (*1564-1616 yillarda yashagan ulug‘ ingliz dramaturgi*)
- “Shoh Edip” - *Sofokl qalamiga mansub buyuk tragediya*

-Z-

- “Zanjirband Prometey” – *Esxilning tragediyasi*

-O‘-

- “O‘n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar” – *Shekspir tomonidan yaratilgan komediya*